6. Fathi, S., Byrne, D., & O'Donnell, J. (2025). Smart materials in building façades: A systematic review. Journal of Building Engineering, 101, 111356. https://doi.org/10.1016/j.jobe.2024.111356

7. Ergün, R., & Kaya, M. (2025). Innovative façade solutions for energy efficiency in buildings. Vitruvio – International Journal of Architectural Technology and Sustainability, 10(1), 12–25. https://doi.org/10.4995/vitruvio-ijats.2025.23711

8. Al Dakheel, J., Del Pero, C., Aste, N., & Leonforte, F. (2020). Smart building façade technologies and materials for energy efficiency. Building and Environment, 171, 106613. https://doi.org/10.1016/j.buildenv.2019.106613

9. Alawadhi, E. M. (2021). Nano-coatings for sustainable building envelopes: A review. Construction and Building Materials, 305, 124789. https://doi.org/10.1016/j.conbuildmat.2021.124789

10. Breque, M., De Nul, L., & Petridis, A. (2021). Industry 5.0: Towards a sustainable, human-centric and resilient European industry. Luxembourg: Publications Office of the European Union. https://doi.org/10.2777/308407

11. Pomponi, F., Moncaster, A., & De Wolf, C. (2021). Embodied carbon and energy efficiency in sustainable buildings. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 146, 111180. https://doi.org/10.1016/j.rser.2021.111180

12. Ascione, F., Bianco, N., De Masi, R. F., Mauro, G. M., & Vanoli, G. P. (2022). Energy refurbishment of existing building envelopes: A review of advanced façade technologies. Energy and Buildings, 256, 111740. https://doi.org/10.1016/j.enbuild.2021.111740

13. Cabeza, L. F., Castell, A., Medrano, M., Martorell, I., Pérez, G., & Fernández, I. (2020). Experimental study on the performance of advanced façade systems. Energy and Buildings, 225, 110303. https://doi.org/10.1016/j.enbuild.2020.110303

14. Attia, S., Bilir, S., Safy, T., Struck, C., Loonen, R., & Goia, F. (2020). Current trends and future challenges in adaptive façade systems. Energy and Buildings, 179, 165–182. https://doi.org/10.1016/j.enbuild.2018.09.017

15. Loonen, R. C. G. M., Trčka, M., Cóstola, D., & Hensen, J. L. M. (2020). Climate adaptive building shells: State-of-the-art and future challenges. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 25, 483–493. https://doi.org/10.1016/j.rser.2013.04.016

16. Ferrari, S., Zagarella, F., Capasso, A., & Dall'O', G. (2023). Energy performance assessment of ventilated façades in high-rise buildings. Buildings, 13(5), 1284. https://doi.org/10.3390/buildings13051284

QURILISH

UO‘T: 624.012.45:624.072

TASHQI DEVORLARNING TO‘LDIRMA SIFATIDA SINCH ISHLASHIGA TA’SIRI

V.F.Usmanov
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti
usmanov51@mail.ru(ORCID 0000-0001-9750-4974)

N.P.Sanayeva
Samarqand davlat arxitektura qurilish universiteti,
sanayeva.nargiza.88@mail.ru (ORCID 0009-0008+0045-9811)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko‘p qavatli binolarning temirbeton sinchlari bilan g‘isht va gazobetondan bajarilgan tashqi devorlarining (to‘ldirmalarning) o‘zaro ta’siri masalalari yoritilgan. Bino konstruksiyalariga vertikal va gorizontal yuklar ta’siri natijasida sinch elementlari va devorlarida (to‘ldirmalarida) vujudga keladigan deformatsiyalar tahlil qilingan. Tadqiqotda devorlarning (to‘ldirmalarning) binolar umumiy mustahkamligi va barqarorligiga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, ustun, rigel va devorlarning (to‘ldirmalarning) birgalikda ishlashi hamda ularda vujudga keladigan siljish va kuchlanish holatlari baholangan. Olingan natijalar ko‘p qavatli binolarni loyihalash va hisoblashda tashqi devorlarning to‘ldirma sifatida sinch ishlashiga ta’sirini hisobga olishning muhim ekanligi ko‘rsatilgan.

Annotatsiya. В данной статье рассмотрены вопросы взаимодействия железобетонных каркасов многоэтажных зданий с наружными стенами (заполнениями), выполненными из кирпича и газобетона. Проанализированы деформации, возникающие в элементах каркаса и стенах (заполнениях) под воздействием вертикальных и горизонтальных нагрузок на конструкции здания. В исследовании изучено влияние стен (заполнений) на общую прочность и устойчивость зданий. Также оценена совместная работа колонн, ригелей и стен (заполнений), а также возникающие в них перемещения и напряжённые состояния. Полученные результаты показывают важность учёта влияния наружных стен как заполнений на работу каркаса при проектировании и расчёте многоэтажных зданий.

Abstract. This article examines the interaction between reinforced concrete frames of multi-storey buildings and external walls (infill panels) made of brick and aerated concrete. The deformations occurring in frame elements and walls (infills) under the influence of vertical and horizontal loads acting on the building structures are analyzed. The study investigates the influence of walls (infills) on the overall strength and stability of buildings. It also evaluates the composite action of columns, beams, and walls (infills), as well as the resulting displacements and stress states within them. The obtained results demonstrate the importance of considering the effect of external walls as infill elements on the behavior of the frame in the design and analysis of multi-storey buildings.

Kalit so‘zlar: bino, g‘isht, gazobeton, deformatsiya, beton, mustahkamlik, siljish, diafragma, ustun, rigel, temirbeton.

Ключевые слова**:** здание, кирпич, газобетон, деформация, бетон, прочность, смещение, диафрагма, колонна, ригель, железобетон.

Keywords: building, brick, aerated concrete, deformation, concrete, strength, displacement, diaphragm, column, beam, reinforced concrete.

Kirish. Sinchli binolarni barpo etishda yog‘och, metall va temirbetondan foydalanilgan [1]. Yog‘och sinchli binolarda sinch elementlari oralari loy va xom g‘isht bilan to‘ldirilgan. Metaldan va temirbetondan barpo etilgan binolarda to‘ldirma sifatida pishiq g‘ishtdan foydalanishgan. Hozirgi kunda to‘ldirma sifatida yengil betonlar (gazobeton, ko‘pikbeton va b.) ishlatimoqda.

So‘nggi vaqtlarda zamonaviy ko‘p qavatli uy-joy qurilishida asosan yaxlit temirbeton texnologiyasi qo‘llanilmoqda. Bunda binoning sinchi asosan ramali, rama-bog‘lamli konstruktiv tizim bo‘yicha yaxlit temirbetondan barpo etilmoqda. Tashqi devor sifatida ramalar tekisligi bo‘yicha ustunlar oralarida yengil mayda elementlardan (g‘isht, bloklar va b.) bajarilgan terim - to‘ldirmalar ishlatimoqda. So‘nggi vaqtlarda to‘ldirma sifatida gazobetonli bloklardan keng ko‘lamda foydalanilmoqda.

Me’yoriy hujjatda [seysmika] sinchli binolarni loyihalashda to‘ldirmalarning sinch ishiga ta’sirini e’tiborga olish dastavval devor barpo etilib, so‘ngra sinch hosil qilinganda amalga oshirilishi ta’kidlangan. Biroq devorning (to‘ldirmaning) sinch ishlashiga ta’siri qanday amalga oshirilishi aytilmagan.


Ko‘p qvatli binolarda to‘ldirmaning sinch bilan birga ishlashi quyidagi yuklar ta’sirida e’tiborga olinishi shart:

- gorizontal shamol yuklari;
- seysmik ta’sirlar;
- harorat ta’sirlari, jumladan yong‘in;
- poydevorlarning notekis cho‘kishi, ayniqsa binolar zaif va cho‘kuvchan gruntlarda, tog‘-kon ishlari olib borilgan hududlarda, zich qurilgan joylarda barpo etilganda va h.k.;
- portlash xususiyatiga ega dinamik ta’sirlar.

Sanab o‘tilgan barcha holatlarda bino sinchi elementlari (ustun va rigellar) to‘ldirma bilan birga sinchning gorizontal siljishlariga qarshilik ko‘rsatadi. Qarshilik ko‘rsatish darajasi to‘ldirmaning siljishdagi bikirligiga bog‘liq bo‘ladi.


To‘ldirilgan devorda yoriqlar hosil bo‘lishi mumkin va bu barcha davlatlar me’yorlariga ko‘ra ekspluatasion yaroqlilik bo‘yicha chekli holatning buzilishi sifatida baholanadi. Biroq, yorilish bosqichida bo‘lsa ham, tosh bilan to‘ldirilgan devorda sinchning siljish deformatsiyalariga qarshilik ko‘rsata oladi, natijada uning bikrligi va yuk ko‘tarish qobiliyati oshadi. Tosh bilan to‘ldirilgan devorning sinch bilan birgalikda ishlashini hisobga olishga qaratilgan urinishlar ancha avvaldan amalga oshirilgan. Bu borada, ayniqsa, S. V. Polyakov ishlarini ta’kidlash lozim, ular asosan binolarning seysmik barqarorligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan [2, 3]. So‘nggi yillarda esa xorijda ushbu yo‘nalishda faol nazariy va eksperimental tadqiqotlar olib borilgan[4, 5].

Uslubi. Sinch ustunlari va rigellari orasi g‘isht bilan to‘ldirilgandagi terim mustahkam-likka erishguncha uning og‘irligi pastki rigelga teng taqsimlangan yuk siftida qaralishi mumkin. Terim mustahkamlikka erishgandan keyin uning og‘irligidan hosil bo‘ladigan yukning asosiy qismi rigelning ustun bilan tutashgan joylariga to‘plangan yuk sifatida tasir qiladi deb qaraladi. Yukning qolgan qismi bevosida rigel uzunligi bo‘yicha notekis taqsimlanadi (1- rasm). To‘ldirma devorda asosiy siquvchi kuchlanishlar trayektoriyasiga muvofiq arkasimon holat yuzaga keladi. To‘ldirma devorda bilan yopma o‘rtasidagi ishqalanish kuchlari sababli, hovon (raspor) kuchlari yopmaning yuqori yuzasiga uzatiladi va unda ekssentrik cho‘zilish hamda teskari egilish xosil bo‘ladi. O‘z navbatida, to‘ldirma devorda o‘rinma va cho‘zuvchi kuchlanishlar paydo bo‘ladi, bu esa yoriqlar hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin [6].



1-rasm. Sinchli bino fragmenti: *a*- sinch elementlari (ustunlar va rigellar) orasi g‘isht bilan to‘ldirigan sinchli bino qismi ko‘rinishi; *b*- pardevorni bajarish jarayonida (choklardagi qorishma mustahkamlikka erishguncha) terimdan hosil bo‘ladigan bosim; *v*- pardevor bajarilgandan keyingi (choklardagi qorishma mustahkamlikka erishgandan keyingi) terimdan hosil bo‘ladigan bosim 1 – rigel; 2 – gorizontal deformasion chok; 3 – pardevor.


G‘isht bilan to‘ldirilagan sinchning ishlashida devor qay darajada ishtirok etishi, asosan, sinch katagi va devorning siljish bo‘yicha bikirliklari nisbatiga, shuningdek ular o‘rtasidagi kontakt sohasidagi yopishish darajasiga bog‘liq. Agar sinch bilan devor orasidagi bog‘lanish siljituvchi va cho‘zuvchi zo‘riqishlarini qabul qila oladigan darajada mustahkam bo‘lsa, devorning butun perimetri bo‘ylab siljish va chiziqli deformatsiyalari cheklanadi. Kontaktni qorishma choklari orqali emas, maxsus «tishlar» yordamida bajarilsa eng samarador hisoblanadi (1.2-rasm).



2-rasm. G‘ishtdan bajarilgan to‘ldirma devorlarni temirbeton sinch ustuni bilan biriktirish sxemasi: 1 – g‘isht bajarilgan to‘ldirma devor; 2 – temirbeton qo‘yma rigel; 3 – “tishlar”; 4 – deraza va eshik o‘rinlari; 5 – temirbeton ustun; 6- orayopma plitasi

Xorijiy amaliyotda ba’zan syementli qorishmadan tayyorlangan “tishlar” qo‘llaniladi. Ular sinchning vertikal elementlarini betonlash jarayonida shakllantiriladi. Sinch bilan to‘ldirma devorning birgalikda ishlashi davomida bunday tishlar siljishga ishlaydi. Shuningdek, markaziy yuklangan bo‘lsada g‘isht terim ichida mahkamlangan siqilgan sinch elementlari, masalan,

ustunlar ustuvorligini yo‘qotish paytida u bilan o‘zaro ta’sir qilishi aniq. Beton va g‘isht terimining reologik xossalaridagi farqlarni hisobga olgan holda ham, bunday murakkab (kompleks) kesimning keltirilgan egilish bikirligi EI_{eff} alohida olingan temirbeton kesimnikidan yuqori bo‘ladi. Temirbeton sinchga tashqi gorizontal kuchlar ta’sir etganda esa o‘zaro ta’sir samarasi yanada katta bo‘ladi (3-rasm).



3-rasm. Binoga gorizontal yuklar ta’sir etganda sinch siljishiga to‘ldirma devorning ta’siri

Bu holatda g‘ishtdan bajarilgan to‘ldirma devor siljishga ishlaydi va uning burchak deformatsiyalari quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\gamma = \frac{Q}{GA}, \qquad (1)$$

bu yerda G– g‘isht terimining siljish moduli; A– terimning gorizontal kesim yuzasi;
Q- devorga ta’sir etuvchi kesuvchi kuch

To‘ldiruvchining mustahkamlik sharti tekshiriladi. Bunda burchakdagi siljish deformatsiyalarining chegaraviy qiymati bo‘lib, u g‘isht element turiga, qorishma markasiga, vertikal choklarning to‘ldirilganlik darajasiga, terimining reologik xususiyatlariga va boshqa omillarga bog‘liq. Sinchli binolar poydevorlarining notekis cho‘kishida yanada murakkab holat yuzaga keladi. Bu yerda burchakli deformatsiyalar qiymatiga binoning asos (zamin) bilan o‘zaro ta’siri, qavat doirasida deraza va eshik mavjudligi sababli to‘ldirma devor bikirligining o‘zgarishi va boshqa omillar qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatadi.

G‘ishtdan bajarilgan to‘ldirma devorli tyemirbeton sinchlar deformatsiyalanganda kuchlarning to‘ldirma devorga uzatilishi siqiluvchi kontakt kuchlanishlari taqsimlanadigan joylarda amalga oshadi. G‘isht bilan to‘ldirilgan devor ankerlangan holda esa kuchlar cho‘ziluvchi kuchlanishlar orqali ham uzatilishi mumkin. Shuni ta’kidlash lozimki, bugungi kunda g‘i**shtdan bajarilgan** to‘ldirma devorni sinch bilan tutashtirish masalalari me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinmagan. Shuning uchun sinchli binolar qurilishi amaliyotida bir-biridan tubdan farq qiluvchi yechimlarni uchratish mumkin.

Masalan, to‘ldirma devor bilan ustunlar orasidagi vertikal choklarni elastik qurilish materiallari bilan to‘ldirish yoki, aksincha, to‘ldirma devorni sinch elementlariga ortiqcha

darajada ankerlash kabi yechimlar shular jumlasiga kiradi. G‘ishtdan bajarilgan to‘ldirma devorning sinch ishida ishtirok etishi natijasida uning elementlari o‘rtasida kuchlar qayta taqsimlanadi. Bundan tashqari, gorizontal yuklar ta’sirida sinchning egilish va siljish bo‘yicha bikirligi ortadi. Shamol yuki asimmetrik bo‘lganda sinchning burilish (krutil) bikirligi ham ortadi, chunki tashqi g‘isht devorlar qobiq sifatida ishlaydi; tugunlardagi eguvchi momentlar kamayadi; dinamik bikirlik oshadi, bu esa seysmik ta’sirlarda juda muhim ahamiyatga ega. [4] ishda ikki qavatli temirbeton ramalarni gorizontal yuklar ta’siriga sinash bo‘yicha eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan. Ramalar to‘ldirma devorsiz va beton bloklardan bajarilgan to‘ldirma devorli qilib tayyorlangan. Aniqlanishicha, to‘ldirma devor mavjud bo‘lganda ramaning to‘ldirma devorsiz ramaga nisbatan gorizontal yo‘nalishda yuk ko‘tarish qobiliyati 2,5–3 barobarga oshgan, deformatsiyalanuvchanligi esa 3–4 barobarga kamaygan.

Gorizontal yuk ta’siridagi yassi ramada sonli tadqiqot olib borilgan. Hisoblash jarayonida ANSYS dasturiy majmuasi yordamida g‘isht terimi sirtlari va unga tutash sinch konstruksiyalari orasidagi ishqalanishni hisobga olgan holda nochiziqli kontakt masalasi yechilgan. Hisoblash natijalari shuni ko‘rsatganki, hatto sinchning bir oralig‘i g‘ovokli beton bloklardan bajarilgan to‘ldirma devor bilan, choklari esa yupqa qorishma bilan to‘ldirilganda va rigelning pastki sirti bilan to‘ldirma devorning yuqori sirti orasida deformatsiya choki mavjud bo‘lgan holda ham ramaning gorizontal yo‘nalishdagi deformatsiyalanuvchanligi 1,6 barobarga kamaygan [4].

Hozirgi kunda xorijda anomal holatlar (portlash, yong‘in, transport vositalari zarbasi, terroristik va jinoiy hujumlar va h.k.) natijasida yuzaga keladigan ko‘chkisimon buzilishning oldini olish uchun sinchli binolarda g‘isht to‘ldirma devorlardan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ustunlardan biri ishdan chiqqan taqdirda, g‘isht to‘ldirma devorning ishga jalb qilinishi sinchdagi ichki kuchlarni qayta taqsimlanishiga olib keladi va u buzilmasdan saqlab qolinadi.

Sinchning g‘isht to‘ldirma devor bilan o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda statik hisoblash ma’lum darajada hisoblash murakkabliklari bilan bog‘liq. Asosiy muammo — to‘ldirma devor va sinch o‘rtasidagi kontaktni modellashtirishdir.[7] ishda tavsiflangan kontakt masalasini yechish usuli soddalashtirilgan farazlarga asoslangan bo‘lib, ko‘plab omillarning ta’sirini hisobga olmaydi. Sterjenli analogiyaga asoslangan soddalashtirilgan to‘ldirma devor modellari uning sinch bilan butun perimetr bo‘ylab o‘zaro ta’sir xususiyatlarini to‘liq aks ettirmaydi. Bundan tashqari, sterjenli analogiya (to‘ldirma devorni siqilgan qiya bog‘lamlar bilan almashtirish) deraza va eshik o‘rnatiladigan ochiq joylar mavjud bo‘lgan, shuningdek, uning yuqori sirti bilan qavat rigelining pastki sirti orasida gorizontal deformatsiya choki bo‘lgan hollarda g‘isht to‘ldirma devorni aniq modellashtirish imkonini bermaydi [8, 9].

Natijalar va muhokama. Tadqiqotlar natijasida ko‘p qavatli binolarning temirbeton sinchlarida joylashgan g‘isht va gazobeton to‘ldirma devorlar konstruksiyaning umumiy ishlash xarakteriga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Hisoblash va tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘ldirma devorlar binolarning fazoviy bikirligini oshiradi hamda gorizontal yuklar ta’sirida ko‘chishlarni kamaytiradi.

Tahlillar davomida aniqlandiki, to‘ldirma devorlar sinch elementlari – ustun va rigellar bilan o‘zaro ishlaganda binodagi kuchlanishlar taqsimoti o‘zgaradi. Bunda devorlar ma’lum darajada diafragma vazifasini bajarib, gorizontal yuklarning bir qismini qabul qiladi va ularni sinch elementlariga uzatadi. Natijada binoning umumiy barqarorligi va mustahkamligi ortadi. Shu bilan birga, to‘ldirma devorlar mavjud bo‘lgan holatda sinch elementlaridagi deformatsiyalar kamayishi kuzatildi. Ayniqsa, g‘isht va gazobetondan bajarilgan to‘ldirma devorlar mavjud bo‘lgan binolarda siljish va egilish deformatsiyalari kamroq bo‘lishi aniqlandi. Bu esa binolarning ekspluatasion ishonchliligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq ayrim

hollarda to‘ldirma devorlar va sinch elementlari o‘rtasidagi bikir bog‘lanishlar natijasida to‘ldirma devorlarda mahalliy kuchlanishlar paydo bo‘lishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, dinamik yoki seysmik yuklar ta’sirida to‘ldirma devorlarda yoriqlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun konstruksiyalarni loyihalashda to‘ldirma devorlarning sinch bilan o‘zaro ta’sirini inobatga olish zarur. To‘ldirma devorlarni hisobga olgan holda bajarilgan hisob-kitoblar binolarning real ishlash holatiga yaqinroq natijalarni beradi. Shu sababli zamonaviy loyihalash amaliyotida temirbeton sinchli binolarni tahlil qilishda to‘ldirma devorlarning ta’sirini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi

Takliflar

1. Ko‘p qavatli binolarni loyihalashda to‘ldirma devorlarning sinch konstruksiyalari bilan o‘zaro ishlashi hisobga olinishi lozim.

2. G‘isht va gazobeton bloklardan bajarilgan to‘ldirma devorlarning deformatsiyalanish xususiyatlarini hisoblashda amaldagi qurilish me’yorlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

3. Seysmik faol hududlarda binolarning barqarorligini ta’minlash uchun sinch va to‘ldirma devorlar o‘rtasidagi bog‘lanish elementlarini kuchaytirish tavsiya etiladi.

4. Temirbeton ustun va rigellar bilan to‘ldirma devorlarning tutashuv tugunlarini takomillashtirish orqali binolarning mustahkamligini oshirish mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘p qavatli binolarda to‘ldirma devorlar faqat to‘suvchi konstruksiya sifatida emas, balki sinch konstruksiyalari bilan birgalikda ishlaydigan element sifatida ham muhim ahamiyatga ega. G‘isht va gazobeton bloklardan bajarilgan to‘ldirma devorlar binolarning umumiy bikirligini oshirishga xizmat qiladi. Vertikal va gorizontal yuklar ta’sirida sinch va to‘ldirma devorlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir binolarning deformatsiya holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli binolarni loyihalash va hisoblash jarayonida to‘ldirma devorlarning sinch bilan birgalikda ishlashi inobatga olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Ahnert R., Krause K.H. Typische Baukonstruktionen von 1860 bis 1960. Berlin: HUSS-MEDIEN GmbH, 2009. 220 s.

2. Поляков С.В. Каменная кладка в каркасных зданиях. М.: Государственное издательство по строительству и архитектуре, 1956. 192 с.

3. Поляков С.В. Сейсмостойкие конструкции зданий. М.: Высшая школа, 1983. 304 с.

4. Baran M., Tankut T. Experimental Study on Seismic Strengthening of Reinforced Concrete Frames by Precast Concrete Panel// ACI Structural Journal. 2011. № 3. Pp. 227–237.

5. Yap S.L., Li B. Experimental Investigation of Reinforced Concrete Exterior Beam-Column Subassemblages for Progressive Collapse// ACI Structural Journal. 2011. № 9. Pp. 542–552.

6. Орлович Р.Б, Деркач В.Н. Зарубежный опыт армирования каменных конструкций // Жилищное строительство. 2011. № 11. С. 35–39.

7. Пример расчета многоэтажного каркасного здания со стеновым заполнением и без него на сейсмические воздействия и указания к примеру расчета. М.: Госстройиздат, 1961. 68 с.

[8]. Деркач В.Н., Орлович Р.Б. Несущая способность каменного заполнения каркасных зданий //Строительство и реконструкция. 2011. № 3 (35). С. 3–8.

[9]. Деркач В.Н., Орлович Р.Б. О применении стержневых моделей в расчетах каменного заполнения каркасных зданий // Строительство и реконструкция. 2011. № 4(36). С. 9–13.

UO‘T: 625.85:620.1

ASFALTBETON QOPLAMALARI SIFATINI NAZORAT QILISH

Habibullayev Islomjon Ilhomjon o‘g‘li
(Namangan davlat texnika universiteti doktorant) islomjonhabibullayev6@gmail.com

Inoyatov Qaxramon Muydinovich
Turan xalqaro universiteti O‘quv departament direktori t.f.n., dotsent

Annotatsiya. Maqolada presslash (katoklash) yo‘li bilan zichlashning laboratoriya va ishlab chiqarish usullari ko‘rib chiqilgan. Gidravlik press yordamida zichlangan namunalarning fizik-mexanik xossalari yo‘l katoklari bilan yotqizilgan asfaltbeton qoplamalarni zichlash natijalari bilan yaxshi mos kelishini ko‘rsatdi. Jumladan, gidravlik press yordamida laboratoriyada olingan asfaltbeton aralashmalarining zichligi (zichlash koeffitsiyenti) yo‘l katoklari bilan zichlangan asfaltbetonning zichligidan past bo‘lib, namunalarning uzoq muddatli suvga chidamlilik koeffitsiyenti esa gidravlik press bilan zichlash jarayonida asfaltbeton aralashmasining granulometrik tarkibi o‘zgarganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, maqolada umumiy tushunchalar va qoidalar, asfaltbeton tayyorlash uchun materiallar, asfaltbeton zichligining sifat nazorati, ishni bajarish uchun qo‘llaniladigan asbob va uskunalarning xususiyatlari hamda laboratoriya sharoitida olingan talab etiladigan zichlash koeffitsiyentining qiymatlari keltirilgan.

Аннотация. В статье рассмотрены лабораторные и производственные методы уплотнения путем прессования (катания). Физико-механические свойства образцов, уплотненных гидравлическим прессом, хорошо совпадают с результатами уплотнения асфальтобетонных покрытий, уложенных дорожными катками. В частности, плотность (коэффициент уплотнения) асфальтобетонных смесей, полученных в лаборатории с помощью гидравлического пресса, ниже плотности асфальтобетона, уплотненного дорожными катками, а коэффициент долгосрочной водостойкости образцов указывает на изменение гранулометрического состава асфальтобетонной смеси в процессе уплотнения гидравлическим прессом.

Также в статье представлены общие понятия и правила, материалы для изготовления асфальтобетона, контроль качества плотности асфальтобетона, характеристики инструментов и оборудования, используемых для выполнения работ, а также значения требуемого коэффициента уплотнения, полученные в лабораторных условиях.

Abstract. The article examines laboratory and industrial methods of rolling compaction. The physical and mechanical properties of the hydraulically pressed samples showed good consistency with the results of compacting asphalt concrete pavements laid with road rollers. In particular, the density (compaction coefficient) of asphalt concrete mixtures obtained in the laboratory using a hydraulic press is lower than the density of asphalt concrete compacted by road rollers, and the long-term water resistance coefficient of the samples indicates a change in the granulometric composition of the asphalt concrete mixture during the hydraulic press compaction process.

The article also discusses general concepts and rules, materials for asphalt concrete preparation, quality control of asphalt concrete density, the characteristics of tools and equipment used for the work, and the value of the required compaction coefficient obtained under laboratory conditions.

Kalit so‘zlar: Avtomobil yo‘li, asfaltbeton aralashmasi, asfaltbeton, zichlanish koeffitsiyenti.

Ключевые слова: Автомобильная дорога, асфальтобетонная смесь, асфальтобетон, коэффициент уплотнения

Keywords: Highway, asphalt concrete mix, asphalt concrete, compaction coefficient.

Kirish.

O‘zbekiston avtomobil yo‘llarida va shahar ko‘chalarida avtomobillashtirishning kuchayishi tufayli avtomobil yo‘llarining sifati masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Transport infratuzilmasini qurish va ta’mirlash uchun har yili katta iqtisodiy va moliyaviy resurslar ajratiladi, turli xil, shu jumladan innovatsion yo‘l texnologiyalari qo‘llaniladi, ular orasida SHMA, oltingugurtli asfaltbetondan foydalanish, yo‘l to‘shamasi qatlamlarini geoto‘rlar bilan qo‘shimcha armaturalash va boshqalar mavjud. Biroq, har yili bahorda asfaltbeton yoriqlar, chuqurchalar va boshqa strukturaviy nuqsonlar bilan "rang-barang" bo‘ladi.

Mavjud yo‘l muammosi sharoitida shahar yo‘llari qoplamalarini zichlash tashkilotlari va texnologiyalarini takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Yo‘l qoplamasini qurishning texnologik jarayonlarini modernizatsiya qilish tuzilmasidagi asosiy nuqtalar asfaltbeton qoplamalarini zichlashni tashkil etishni loyihalash hisoblanadi, bu esa qo‘llaniladigan asfaltbeton aralashmasining xususiyatlarini, ob-havo sharoitlarini (shamol tezligi, havo harorati) va ishlarni bajarish vaqtini hisobga olgan holda yo‘l katoklarining mexanizatsiyalashgan bo‘g‘ini tarkibini optimallashtirishdan iborat bo‘lib, bu shahar sharoitida yo‘l ishlarining sifati va davomiyligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Issiq asfalt-beton qorishmalarining zichlanish sifati materialning o‘rtacha zichlanish koeffitsiyenti (zichlik) va uning bir xilligi (koeffitsiyent zichlanish variatsiyalari). Ushbu tavsiflarning qiymatlari aralashma turiga, qo‘llaniladigan zichlovchi yo‘l texnikasining turiga, uning ish rejimlariga va boshqalarga bog‘liq.

Materiallar va usullar.

1. Asfaltbeton tayyorlash uchun materiallar.

Bitum - Ushbu ishda GOST 22245-90 [7] standarti talablariga javob beradigan BND 60/90 markali bitum ishlatilgan. Bitum Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi tomonidan xom neftidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri oksidlash usuli bilan ishlab chiqarilgan.

Asfaltbeton. GOST 9128-2013 standarti [1] bo‘yicha I markali B turdagi issiq zich asfaltbeton Oqtosh ABZ (Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani) olingan 5-10 mm (20%), 10-15 mm (13%), 15-20 mm (10%) fraksiyali chaqiqtosh, " Oqtosh ABZ " zavodidan olingan 0-5 mm (50%) fraksiyali maydalangan qum va Pungon karyeridan (Farg‘ona viloyati) olingan mineral kukun (7%) yordamida tayyorlangan. Asfaltbetondagi BND 60/90 markali bitum quruq mineral material massasiga nisbatan 6% ni tashkil etadi. Asfaltbeton mineral qismining granulometrik tarkibi egri chizig‘i 1-rasmda ko‘rsatilgan.

Asfaltbeton qorishmalarini yotqizish va zichlash texnologiyasiga rioya qilish avtomobil yo‘llari va ko‘priklarning asoslari hamda qoplamalarida asfalt-beton sifatining asosi hisoblanadi. Asfalt-beton qorishmasi zichlangandan so‘ng, qoplama zarur zichlik, mustahkamlik, suv o‘tkazmaslik va suvga chidamlilik xususiyatiga ega bo‘ladi.

2. Asfaltbeton zichlash sifatini nazorat qilish.

Asfaltbeton qatlamlarini zichlash sifatini nazorat qilish buzilmaydigan usullar (radioizotop va ultratovush asboblaridan foydalangan holda) hamda ushbu ishda ko‘rib chiqilayotgan buzuvchi usullar (kesib olish usuli) bilan amalga oshirilishi mumkin.

Foydalaniladigan asbob va uskunalar: kernoolgich, termoshkaf, qoshiq yoki shpatel, gidravlik press, qolip va ikkita vkladish, siqish moslamasi, shtangensirkul, tebranish maydoni,

suvli idish, kesilgan kernlarni tortish uchun 4-darajali aniqlikdagi laboratoriya tarozisi (gidrostatiklik).



1-rasm - Asfaltbeton mineral qismining granulometrik tarkibi egri chizig'i.

Asfaltbeton qatlamining zichlanish sifati qoplamaning har 7000 m^2 masofasidagi uchta joydagi kernlar (o'yiqlar) ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi. Issiq asfaltbetonlar uchun kesma-kernlarni qoplama chetidan 1 metrdan ortiq masofada, ular zichlangandan so'ng 1-3 kun o'tgach, sovuq asfaltbetonlar uchun esa 15-30 kun o'tgach olish lozim.

Zichlashtirish koeffitsiyenti K_{upl} quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi (yuzdan birlar xonasigacha yaxlitlab):

$$K_{yn} = \frac{\rho_m}{\rho'_m} \quad (1)$$

bu yerda: ρ_m- yo'l to'shamasidan qirqib olingan kern namunani o'rtacha zichligi, g/sm^3
ρ'_m - asfaltbetondan qayta laboratoriya sharoitida tayyorlangan standart namuna zichligi, g/sm^3
Yo'l to'shamasi qatlamlarining kesma kernlarini tanlash avtomobil yo'lining tanlangan uchastkasida kernolgich yordamida amalga oshiriladi (2-rasm) bittasi markazda (yo'l o'qi) va ikkitasi chetda (qatnov qismining qirrasidan 1.0÷1.2 m), kesma kernlarning o'lchami 0.5×0.5m

Kesma-kernlar asfaltbeton qoplamaning butun qalinligi bo'ylab parmalanadi (laboratoriyada yuqori va pastki qatlamlar ajratiladi), bir joydan olingan kesma-kernlarning og'irligi quyidagicha bo'lishi kerak: qum aralashmalari uchun - 1,0 kg; 2,0 kg - mayda donali aralashmalar uchun; 6,0 kg - yirik donali aralashmalar uchun. Kernlarning diametri kamida quyidagicha bo'lishi kerak, mm:
50 - qumli asfalt-beton namunalari uchun; 70 - mayda donali asfalt-beton namunalari uchun; 100 - yirik donali asfalt-beton namunalari uchun [6].
Qatlamlarga bo'lingan kesma-kernlar namunalarga qayta shakllantirilib (3-rasm), yo'l to'shamasidagi asfaltbeton qorishmasining har bir konstruktiv qatlamining haqiqiy zichlanish koeffitsiyentini aniqlash maqsadida sinovdan o'tkaziladi.




2-rasm-K6235D kern olgichining tashqi ko‘rinishi (parmalash mashinasi asfalt va beton qoplamalardan diametri 235 mm gacha bo‘lgan kernlarni ajratib olish uchun mo‘ljallangan)

Asfaltbeton qoplamasining haqiqiy zichligi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\rho_m = \frac{m}{V}, \quad (2)$$

bu yerda: *m*-namuna massasi, g; *V*- namunaning hajmi, sm^3.

Namuna massasi tarozida tortish orqali aniqlanadi. Namuna hajmi silindr hajmini aniqlashning geometrik formulalari bo‘yicha hisoblanadi. Kesib olingan va noto‘g‘ri shaklga ega bo‘lgan namunalarning hajmi gidrostatik tortish usuli bilan topiladi. Usulning mohiyati namunani suyuqlikka botirilganda siqib chiqarilgan suv hajmini aniqlashdan iborat.

Haqiqiy zichlikning o‘rtacha qiymatini aniqlash natijasi sifatida uchta namunaning o‘rtacha zichligini aniqlash natijalarining ikkinchi o‘nli kasrgacha yaxlitlangan o‘rtacha arifmetik qiymati qabul qilinadi. Agar parallel aniqlashlarning eng katta va eng kichik natijalari o‘rtasidagi farq 0,03 g/sm^3 dan oshsa, takroriy sinovlar o‘tkaziladi va oltita qiymatning o‘rta arifmetigi hisoblanadi.




3-rasm – Obektdan olingan namunalarning tashqi ko‘rinishi



4-rasm - Qayta shakllantirilgan namunalarning tashqi ko‘rinishi

Sinovlarni boshlashdan oldin namunalarni termoshkafda 50°C dan yuqori bo‘lmagan haroratda 1÷1,5 soat davomida quritish, so‘ngra namunalarni xona haroratida taxminan 30 daqiqa davomida sovutish, so‘ngra namunalarni tortish lozim.


Sinalgan kesma-kernlardan olingan ma’lumotlarni aniqlashtirish maqsadida yangi namunalarni qayta shakllantirish uchun foydalanish mumkin.

Materialning standart zichligini aniqlash uchun ρ'_m silindrik namunalar avtomobil yo‘lidagi tanlash joyidan olib kelingan kernlarni yoki kesilgan dasfalt qirqimlarning bir qismini qayta shakllantirish orqali tayyorlanadi. Olingan material termoshkafdagi qum hammomida 160°C haroratgacha qizdiriladi, so‘ngra qoshiq (kurakcha) yordamida barchasi bir xil asfaltbeton aralashmasiga kelgungacha aralashtiriladi. Tarkibida 50% gacha chaqiq tosh bo‘lgan asfaltbeton qorishmasidan olingan namunalarni zichlash maxsus silindrsimon shakldagi formasiga solib gidravlik pressda (40,0±0,5) MPa bosim ostida presslash orqali amalga oshiriladi. Issiq asfaltbeton aralashmasidan namunalar tayyorlash uchun qolipni 90÷100°C gacha qizdirish kerak, sovuq aralashmalardan namunalar uchun qoliplar odatda qizdirilmaydi. Silindrik qolipga tayyorlangan asfaltbeton qorishmasi (gramm hisobida) solinadi 1-jadval.

1-jadval - Bir namuna uchun to‘g‘ri keladigan asfaltbeton qorishmasi miqdori

Namuna o‘lchamlari, mm		Namuna uchun aralashmaning taxminiy miqdori, g
diametr	balandlik	
50,5	50,5±1,0	220÷240
71,4	71,4±1,5	640÷670
101,0	101,0±2,0	1900÷2000

Qorishma pichoq yoki shpatel bilan nayza sanchib qolipga bir tekis taqsimlanadi, ustki vkladish kiritiladi va qorishmani u bilan bosib, pressning pastki platformasiga (plitaga) zichlash uchun qorishmali qolip o‘rnatiladi (4-rasm), bunda pastki vkladish qolipdan 1,5÷2,0 sm chiqib turishi kerak.



5-rasm - Gidravlik pressda aralashmani zichlash

Pressning yuqorigi platformasi (plita) qo‘lda yuqorigi vkladishga tekkiziladi, so‘ngra gidravlik pressning elektr dvigateli ishga tushiriladi. 5÷10 soniya davomida zichlanayotgan asfalt-beton qorishmasiga tushadigan yuklama (bosim) 40 MPa, taxminan 3 daqiqa ushlab turiladi, so‘ngra bosim olib tashlanadi. Siqish moslamasi yordamida namuna qolipdan chiqariladi, uning geometrik xarakteristikalari (balandligi va diametri, 0,1 mm gacha xatolik bilan) shtangensirkul bilan o‘lchanadi (6-rasm).

6-rasm - Qayta shakllantirilgan namunaning balandligini shtangensirkul yordamida o‘lchash

Agar namuna balandligi 1-jadvalda keltirilgan qiymatga mos kelmasa, uni tayyorlash



uchun zarur bo‘lgan asfaltbeton qorishmasining m' massasini quyidagi formula bo‘yicha hisoblash mumkin:

$$m' = m_0 \frac{h}{h_0}, \qquad (3)$$

Bu yerda: m_0 – qayta tayyorlangan namunaning massasi, g; h – namunaning talab etiladigan balandligi, mm; h_0 – qayta tayyorlangan namunaning massasi balandligi, mm.

Yuqori va pastki asoslarining bir-biriga parallel emasligi, qirralarida nuqsonlari borligi yoki qisman to‘ldirilmaganligi kabi kamchiliklarga ega namunalar yaroqsiz deb topiladi. Qayta

tayyorlangan namunalarni standart zichligini aniqlash uchun ularning hajmi topiladi.

$$\rho_m^{'} = \frac{m'}{V'} \quad (4)$$

Zichlanish koeffitsiyenti K_{yn} (1) formula bo‘yicha yaxlitlash usuli bilan ikkinchi o‘nli xona aniqligida hisoblanadi.

Natijalar.

3. *Olingan natija*.

Zichlanish koeffitsiyenti qiymati talab etilgan qiymat bilan taqqoslanadi va asfaltbeton qoplamasining zichlanish darajasi to‘g‘risida xulosa beriladi (2-jadval).

2-jadval – Zichlanish koeffitsiyentining me’yoriy va eksperimental qiymatlari.

T/r	Asfaltbetonning sinovdan o‘tkaziladigan namunalari	Zichlashning talab etilgan koeffitsiyenti	Haqiqiy zichlanish koeffitsiyenti
1.	sovuq aralashmalar	0,97-0,95	0,96-0,98
2.	V turidagi issiq aralashmalar	0,98 dan yuqori	0,98-0,99
3.	A va B turdagi issiq aralashmalar	0,99 dan yuqori	1,00-1,04

Muhokama.

Presslash va zichlashning ishlab chiqarish va laboratoriya usullarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, asfaltbeton qorishmalarini gidravlik press bilan zichlashda fizik-mexanik xossalarning maksimal yaqin qiymatlariga erishish mumkin. Zichlanish koeffitsiyentining yuqori qiymatlari laboratoriyada olingan zichlik yo‘l katoklari bilan zichlashda olingan zichlikdan past ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, namunalarning uzoq muddatli suvga chidamlilik koeffitsiyentining pastligi aralashmani gidravlik press yordamida zichlash jarayonida uning granulometrik tarkibi o‘zgarganligini ko‘rsatadi. Gidravlik press yordamida zichlangan namunalarning fizik-mexanik xususiyatlari asfaltbeton qoplamalarni yo‘l katoklari bilan ishlab chiqarishda zichlash natijalari bilan yaxshi mos kelishini ko‘rsatdi.

Kuchsiz yoki hatto minimal me’yorda zichlash, odatda, asfaltbetonning sifati va xususiyatlarini oshirishga qaratilgan barcha texnologik usullarni yo‘qqa chiqaradi. Qoplamaning sifatsiz zichlanishi uning xizmat muddatining qisqarishiga va ta’mirlash xarajatlarining oshishiga olib keladi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, chaqiq toshli asfaltbetonning zichlanish koeffitsiyentini minimal me’yordan 0,01 ga oshirish [5] +50 °C va +20 °C haroratlarda siqilishga bo‘lgan mustahkamlikni mos ravishda o‘rtacha 9 va 13% ga oshiradi; egilishda cho‘zilishga bo‘lgan mustahkamlikni 8,5% ga oshiradi; egilishda cho‘zilishning chegaraviy deformatsiyasini 21-22% ga oshiradi; bitumning optimal miqdorini uning haqiqiy sarfining 0,5% gacha pasaytiradi; siljish va charchash mustahkamligini taxminan 1,3-1,5 baravar oshiradi.

Xulosa

I markali B turdagi mayda donali zich asfaltbetonni “Namangan tuman yo‘llardan foydalanish” DM tomonidan rekonstruksiya qilinayotgan Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidan o‘tgan D113 (4R120) “Iskovat q. - Kasansoy sh. - To‘raqo‘rg‘on sh. - Jomashuy q. - Soybo‘yi q. - A373 a/y” davlat axamiyatidagi avtomobil yo‘lining 57-58 km larida tajriba sinov uchastkasiga yotqizildi. Haqiqiy zichlanish koeffitsiyenti me’yorlarda ruxsat etilgan oraliqda bo‘lib, og‘ish 3% dan oshmadi.

Agar haqiqiy zichlanish koeffitsiyenti talab qilinganidan past bo‘lsa, qatlamning to‘liq zichlanmasligiga olib kelgan sabablar tahlil qilinadi: zichlash harorati kritik harorat qiymatlaridan past bo‘lsa (mazkur tarkib uchun kritik harorat qiymatlarini keltiring); katoklar o‘tishlarining soni yetarli bo‘lmasa (tavsiya etilgan o‘tish sonini keltiring); katok massasi yetarli bo‘lmasa va hokazo.

ADABIYOTLAR

1. GOST 9128-2013 “Smesi asfaltobetonnыye, polmerasfaltbetonnыye, asfaltobeton, polmerasfaltbetondlya avtomobilnыx dorog i aerodromov. Texnichekiye usloviya”
2. GOST 12801-98 / Materialы na osnove organicheskix vyajuщix dlya dorojnogo i aerodromnogo stroitelstva. Metodы ispытaniya. – M., 1999. – 54 s.
3. GOST 8267-93 “Щyeben i graviy iz plotnыx gornыx porod dlya stroitelnыx rabot. Texnicheskiye usloviya”
4. GOST 8736-2014 “Pesok dlya stroitelnыx rabot. Texnicheskiye usloviya”
5. GOST 31424-2010 “Materialы stroitelnыye nerudnыye iz otsevov drobleniya plotnыx gornыx porod pri proizvodstve щyebnya. Texnicheskiye usloviya”
6. GOST 16557-2005 “Poroshok mineralnыy dlya asfaltobetonnыx smesey. Texnichekiye usloviya”
7. GOST 22245-90 “Bitumы neftyanыye dorojnыye vyazkiye. Texnichekiye usloviya”
8. GOST 33133-2014 “Dorogi avtomobilnыye obщyego polzovaniya. Bitumы neftyanыye dorojnыye vyazkiye. Texnichekiye usloviya”
9. IQN 46-2021 “Nobikr yo‘l to‘shamalarini loyihalash bo‘yicha yo‘riqnoma”
10. SHNQ 2.05.02-23 “Avtomobil yo‘llari”
11. QR 06.03-23 “Avtomobil yo‘llari”

UO‘T: 69.05:658.512.2

CHIZIQLI CHO‘ZILGAN OBYEKTLAR QURILISHINI OQIMLI TASHKIL ETISHNI OPTIMALLASHTIRISH

Jumabayev Dauletbay Maratovich
t.f.f.d., dotsent. “Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti”
e-mail: jumabaevdawlet0115@gmail.com

Tolegenov Batirbay Dauletiyarovich,
tayanch doktorant
“Toshkent shahridagi Belarus-O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar institute”
e-mail: batirtolegenov123@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada chiziqli qurilish loyihalarini rejalashtirishga doir oqimli yondashuv ko‘rib chiqiladi. Taklif etilayotgan usul trassani hududlarga bo‘lish, takrorlanuvchi ishlarning ketma-ketligi, resurslar ritmi va tavakkalchilikka asoslangan vaqt zaxiralarini o‘zida birlashtiradi. Mazkur yondashuv mahalliy qurilish amaliyotida yo‘llar, quvurlar, muhandislik tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari kabi ob’yektlarga qo‘llanilishi mumkin.

Аннотация. В данной статье рассматривается поточный подход к планированию линейных строительных проектов. Предлагаемый метод объединяет в себе разделение трассы на участки, определение последовательности повторяющихся работ, ритмичность использования ресурсов и создание временных резервов на основе рисков. Данный подход может быть применён в отечественной строительной практике к таким объектам, как автомобильные дороги, трубопроводы, инженерные сети и линии электропередачи.

Abstract. The paper discusses a flow-based approach to planning linear construction projects. The proposed method combines zoning of the route, sequence of repetitive works, resource rhythm and risk-oriented time buffers. The approach can be applied to roads, pipelines, utility networks and power transmission lines in local construction practice.

Kalit so‘zlar: chiziqli cho‘zilgan obyekt, oqimli qurilish, resurs ritmikligi, vaqt zaxirasi, ishlab chiqarish xatari, Line-of-Balance, qurilish grafigi.

Ключевые слова: линейно-протяжённый объект, поточное строительство, ритмичность ресурсов, резерв времени, производственный риск, Line-of-Balance, график строительства.

Keywords: linear construction project, flow construction, resource rhythm, time buffer, production risk, location-based planning.

Kirish. O‘zbekistonda transport, muhandislik-kommunikatsiya va hududiy infratuzilmani modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Taraqqiyot strategiyasida hududlararo bog‘liqlikni kuchaytirish, shahar va qishloq infratuzilmasini rivojlantirish hamda investitsion loyihalarni samarali boshqarish vazifalari belgilangan [1]. Shaharsozlik kodeksi ham qurilish jarayonida hududiy rejalashtirish, muhandislik infratuzilmasi, xavfsizlik va normativ talablarni uyg‘unlashtirishni talab qiladi [2].

Chiziqli cho‘zilgan obyektlar oddiy maydonli binolardan farqli ravishda katta masofaga tarqaladi. Qurilish fronti bir nuqtada jamlanmaydi, brigadalar va mexanizmlar trassa bo‘ylab harakatlanadi, tabiiy-iqlim sharoiti esa uchastkadan uchastkaga o‘zgarishi mumkin. Avtomobil yo‘llari, quvurlar, temir yo‘l uchastkalari, elektr uzatish liniyalari va shahar muhandislik tarmoqlarida aynan shu xususiyatlar ish muddatlari va tannarxiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [3; 4].

Qurilish oqimlarini tizimli tashkil etish masalalari qurilish sistemotexnikasi, loyiha boshqaruvi va joylashuvga asoslangan rejalashtirish nazariyalarida muhim o‘rin tutadi [6; 8; 11]. Biroq chiziqli obyektlarda faqat kalendar reja yoki kritik yo‘l usuliga tayanish yetarli emas, chunki bunda masofa, ish fronti, qayta joylashtirish va subpudratchilar orasidagi bog‘lanishlar to‘liq aks etmaydi [9; 12].


Maqolaning maqsadi — chiziqli cho‘zilgan obyektlar qurilishini oqimli tashkil etishda resurs ritmikligi, uchastkalararo qayta joylashtirish va ishlab chiqarish xatarlarini hisobga oluvchi qisqa metodik yondashuvni shakllantirishdan iborat. Maqsadga erishish uchun chiziqli obyektlarning asosiy xususiyatlari tizimlashtirildi, oqimli jadvalni tuzish bosqichlari ishlab chiqildi va amaliy qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot nazariy-uslubiy xarakterga ega bo‘lib, unda O‘zbekistonning qurilish va infratuzilma sohasiga oid normativ hujjatlari, qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish bo‘yicha me’yorlar hamda xalqaro loyiha boshqaruvi standartlari tahlil qilindi [4; 5; 8; 9]. Metodik asos sifatida oqimli qurilish, joylashuvga asoslangan boshqaruv va risk-menejment yondashuvlari qabul qilindi [10; 11; 14].

Tadqiqot obyekti sifatida hududiy jihatdan cho‘zilgan, ketma-ket qurilish frontlari va takrorlanuvchi ish jarayonlariga ega obyektlar qabul qilindi. Bunday obyektlarda har bir uchastka alohida ishlab chiqarish birligi sifatida qaraladi, lekin umumiy natija brigadalar, mexanizmlar, materiallar va transport oqimlarining o‘zaro muvofiqligiga bog‘liq bo‘ladi.

Metodik yondashuv to‘rt bosqichda shakllantirildi. Birinchi bosqichda trassa tabiiy-iqlim, geologik, transport-logistika va texnologik sharoitlari nisbatan bir xil bo‘lgan uchastkalarga ajratildi. Ikkinchi bosqichda har bir uchastka bo‘yicha ish hajmlari, brigada unumdorligi va mexanizatsiya tarkibi aniqlanadi. Uchinchi bosqichda ish oqimlari ketma-ketligi va ularning bir-biriga xalaqit bermasdan harakatlanish oralig‘i belgilanadi. To‘rtinchi bosqichda xatarlar baholanib, zarur vaqt zaxiralari oqimlar orasiga joylashtiriladi.

Hisoblashda ish davomiyligi $T_i = V_i/q_i$ bog‘lanishi orqali baholanadi, bunda V_i — ish hajmi, q_i — brigada yoki mexanizatsiyalashgan zveno unumdorligi. Umumiy qurilish muddati shartnomaviy muddat T_{sh} bilan solishtiriladi. Resurs ritmikligi esa amaliy jihatdan resurslarning keskin o‘zgarishsiz ishlatilishi, bekor turishlarning kamayishi va ish frontlari o‘rtasidagi uzilishlarning oldini olish orqali baholanadi [7; 13].



1-rasm. Chiziqli cho‘zilgan obyektlar qurilishini oqimli tashkil etishning metodik sxemasi

1-rasmdan ko‘rinadiki, metodika alohida hisob-kitoblar yig‘indisi emas, balki trassa sharoiti, ishlab chiqarish texnologiyasi, resurslar va xatarlarni birgalikda bog‘lovchi boshqaruv tizimi sifatida qaraladi.

Natijalar. Tahlil natijasida chiziqli cho‘zilgan obyektlar qurilishini oqimli tashkil etishning asosiy omillari besh guruhga ajratildi: texnologik, hududiy-logistik, tabiiy-iqlim,

iqtisodiy va tashkiliy-boshqaruv omillari. Ularning har biri qurilish jadvali, resurslar harakati va shartnomaviy muddatga turlicha ta’sir qiladi.

1-jadval.

Chiziqli obyektlarda oqimli tashkil etishga ta’sir qiluvchi asosiy omillar

Omil guruhi	Mazmuni	Rejalashtirishdagi ahamiyati
Texnologik	Ishlar ketma-ketligi, mexanizatsiya turi, sifat nazorati	Oqimlar orasidagi texnologik tanaffus va ish frontini belgilaydi
Hududiy-logistik	Trassa uzunligi, uchastkalararo masofa, material yetkazish yo‘li	Qayta joylashtirish va transport xarajatlarini aniqlaydi
Tabiiy-iqlim	Mavsumiy cheklov, yog‘ingarchilik, harorat, grunt sharoiti	Ish jadalligi va xavf ehtimolini o‘zgartiradi
Iqtisodiy	Tannarx, vaqtinchalik inshootlar, mexanizmlar bekor turishi	Optimal variantni muddat-tannarx mezonida tanlashga xizmat qiladi
Tashkiliy	Bosh pudratchi, subpudratchilar, brigada tarkibi	Ish frontini topshirish va javobgarlik chegaralarini aniqlaydi

1-jadvaldagi omillar obyektni uchastkalarga ajratish va oqimlarni shakllantirishda birlamchi ma’lumot sifatida ishlatiladi. Masalan, transport masofasi katta bo‘lgan uchastkalarda mexanizmlarni ketma-ket ko‘chirish jadvali oldindan aniqlanmasa, ish fronti bo‘sh turgan bo‘lsa ham brigada vaqtida yetib bormasligi mumkin.


Taklif etilgan yondashuvda jadvalni optimallashtirishning markaziy mezoni faqat muddatni qisqartirish emas, balki muddat, tannarx, resurs ritmikligi va ishonchlilik o‘rtasidagi muvozanatni topishdir. Shu sababli oqimli jadvalni shakllantirish algoritmi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

2-jadval.

Oqimli jadvalni shakllantirish algoritmi

Bosqich	Bajariladigan ish	Kutiladigan natija
1	Trassani texnologik va hududiy belgilar bo‘yicha uchastkalarga ajratish	Bir xil sharoitli qamrovlar aniqlanadi
2	Ish hajmi, unumdorlik va resurs tarkibini hisoblash	Har bir oqim uchun davomiylik belgilanadi
3	Ish oqimlari ketma-ketligini joylashuv-vaqt koordinatasida tuzish	Bir-biriga xalaqit bermaydigan jadval shakllanadi
4	Xatarlarni baholash va vaqt zaxiralarini joylashtirish	Shartnomaviy muddatga rioya qilish ishonchliligi oshadi
5	Variantlarni muddat, tannarx va resurs ritmikligi bo‘yicha solishtirish	Amaliy qo‘llashga mos optimal variant tanlanadi

2-jadvalda keltirilgan algoritmning amaliy mazmunini ochib berishda vaqt–masofa grafigidan foydalanish qulay. Xususan, 2-rasmda ish oqimlarining uchastkalar bo‘yicha harakatlanishi va ular orasida saqlanishi lozim bo‘lgan texnologik masofa tasvirlangan.



2-rasm. Uchastkalar bo‘yicha ish oqimlarining vaqt–masofa grafigi


2-rasm jadvaldagi bosqichlarni vizual ko‘rinishga keltiradi: chiziqlar orasidagi masofa oqimlar bir-biriga xalaqit bermasligini, chiziqdagi sinishlar esa ish jadalligi yoki xatar ta’siridagi o‘zgarishni anglatadi.

Ishlab chiqarish xatarlarini hisobga olish uchun beqarorlashtiruvchi omillar texnologik, logistika, tabiiy-iqlim, tashkiliy va iqtisodiy guruhlarga ajratildi. Xatarlar to‘liq yo‘qotilmaydi, lekin ularning ta’siri oqimlar orasiga joylashtirilgan maqsadli vaqt zaxiralari orqali kamaytiriladi [14]. Bu yondashuv subpudratchilar ish frontini vaqtida qabul qilib olishini va umumiy muddatning buzilmasligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Muhokama. Chiziqli obyektlarda oqimli tashkil etishning ustunligi shundaki, u ishlarni faqat vaqt bo‘yicha emas, balki hududiy joylashuv bo‘yicha ham nazorat qilish imkonini beradi. Joylashuvga asoslangan boshqaruv nazariyasida brigadalar harakati, ish fronti, qayta joylashtirish va resurs ritmi bir tizimda ko‘riladi [11; 12]. Bu ayniqsa yo‘l, quvur va shahar kommunikatsiyalari qurilishida muhimdir.

An’anaviy tarmoq grafiki murakkab loyihalarda zarur vosita bo‘lib qoladi, biroq chiziqli obyektlarda u joylashuv omilini yetarli darajada ko‘rsatmaydi. Shu sababli uni vaqt–masofa grafigi, resurs gistogrammasi va xatarlar reyestri bilan to‘ldirish maqsadga muvofiq. Bunday integratsiyalashgan yondashuv loyiha boshqaruvi standartlaridagi rejalashtirish, monitoring va nazorat talablariga mos keladi [8; 9].

Mahalliy sharoitda metodikani qo‘llashda uch jihat alohida ahamiyatga ega. Birinchidan, qurilish ishlab chiqarishini tashkil etish bo‘yicha me’yoriy hujjatlar va shartnomaviy narxlarni aniqlash qoidalari bilan uyg‘unlik ta’minlanadi [4; 5]. Ikkinchidan, avtomobil yo‘llari va muhandislik tarmoqlari bo‘yicha ishlar transport harakati, aholi xavfsizligi va ekologik talablarni hisobga olgan holda bosqichma-bosqich bajariladi [3]. Uchinchidan, pudratchi va subpudratchi tashkilotlar o‘rtasida ish fronti topshirish sanalari alohida nazorat nuqtalari sifatida belgilanadi.



3-rasm. Chiziqli obyektlarda resurslar harakati va qayta joylashtirish sxemasi

3-rasm chiziqli obyektlarda xarajatning faqat ish hajmiga emas, balki resurslarni qayerdan qayerga va qachon ko‘chirishga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu sababli optimal jadval resurslarning bir maromda ishlashi bilan birga ularning ortiqcha ko‘chirilishini ham kamaytirishi kerak.

Vaqt zaxirasini barcha ishlar oxiriga jamlash har doim ham to‘g‘ri emas. Agar xatar ma’lum texnologik bog‘lanishda yoki transport murakkab uchastkada yuzaga kelsa, zaxira aynan shu joyga yaqin qo‘yilishi kerak. Bu qaror umumiy muddatni sun’iy uzaytirmasdan, ish frontining uzilib qolish ehtimolini kamaytiradi.

Amaliy tavsiyalar. 1. Ishlarni bajarish loyihasi yoki qurilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqishda trassani texnologik murakkablik, logistika masofasi va mavsumiy cheklovlar bo‘yicha zonalarga ajratish tavsiya etiladi. Bu keyingi grafik va smeta hisoblarining aniqligini oshiradi.

2. Har bir takrorlanuvchi ish turi uchun minimal brigada tarkibi, maksimal ruxsat etilgan jadallik va texnik unumdorlik oralig‘i belgilanadi. Agar brigada tarkibi qat’iy bo‘lsa, optimal yechim brigadalar harakat yo‘nalishini to‘g‘ri tanlash orqali topiladi.

3. Bosh pudratchi va subpudratchilar o‘rtasida ish frontini topshirish sanalari alohida nazorat nuqtalari sifatida belgilanadi. Bu oqimli jadvalda bir ijrochi ikkinchisiga to‘sqinlik qilmasligini ta’minlaydi.

4. Vaqt zaxiralari eng yuqori xatarga ega texnologik yoki logistika bog‘lanishlariga yaqin joylashtiriladi. Bunday yondashuv shartnomaviy muddatni saqlash va resurs bekor turishini kamaytirishga yordam beradi.

5. O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llari, shahar muhandislik tarmoqlari va hududlararo infratuzilma loyihalarida oqimli jadval mahalliy me’yorlar, xavfsizlik talablari va loyiha boshqaruvi standartlari bilan birgalikda qo‘llanishi lozim [2; 4; 8].

Xulosa. Chiziqli cho‘zilgan obyektlar qurilishini oqimli tashkil etish samaradorligi obyektni uchastka va qamrovlarga to‘g‘ri ajratish, ish oqimlari ketma-ketligini belgilash, brigada va mexanizatsiya vositalarini bir maromda harakatlantirish hamda ishlab chiqarish xatarlarini oldindan baholashga bog‘liq.

Tadqiqotda texnologik, hududiy-logistik, tabiiy-iqlim, iqtisodiy va tashkiliy-boshqaruv omillari jadvalga bevosita ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida tizimlashtirildi. Taklif etilgan algoritm chiziqli obyektlar uchun muddat, tannarx, resurs ritmikligi va ishonchlilikni birgalikda baholash imkonini beradi.

Ishlab chiqarish xatarlarini hisobga olishda vaqt zaxiralarini umumiy loyiha oxiriga emas, balki eng muhim bog‘lanishlar orasiga joylashtirish maqsadga muvofiq. Bu ish fronti uzilishlari, subpudratchilar nomuvofiqligi va logistika kechikishlarining salbiy ta’sirini kamaytiradi.

Taklif etilgan metodik yondashuv O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llari, quvurlar, muhandislik tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari kabi chiziqli infratuzilma obyektlarini rejalashtirishda qo‘llanishi mumkin. Kelgusida mazkur yondashuvni real loyiha ma’lumotlari asosida raqamli jadval dasturlari yordamida sinovdan o‘tkazish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. Lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksi. O‘RQ-676, 22.02.2021. Lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-117, 02.10.2007. Lex.uz.

4. ShNQ 3.01.01-22. Qurilish ishlab chiqarishini tashkil qilish. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. Toshkent, 2022.

5. ShNQ 4.01.16-09. Qurilishda shartnomaviy narxlarni joriy narxlarda aniqlash qoidalari. Toshkent, 2009.

6. Гусаков А.А. Системотехника строительства. 2-е изд. Москва: Стройиздат, 1993.

7. Иванец В.К., Резниченко В.С., Богданов А.В. Управление проектами и предприятиями в строительстве. Москва: Издательский дом “Слово”, 2001.

8. ISO 21502:2020. Project, programme and portfolio management — Guidance on project management. International Organization for Standardization, 2020.

9. Project Management Institute. A Guide to the Project Management Body of Knowledge (PMBOK® Guide). 7th ed. Newtown Square, PA: PMI, 2021.

10. Project Management Institute. Construction Extension to the PMBOK® Guide. Newtown Square, PA: PMI, 2016.

11. Kenley R., Seppänen O. Location-Based Management for Construction: Planning, Scheduling and Control. London; New York: Spon Press, 2010.

12. Harris F., McCaffer R., Edum-Fotwe F. Modern Construction Management. 8th ed. Wiley-Blackwell, 2021.

13. Halpin D.W., Senior B.A. Construction Management. 5th ed. Hoboken: Wiley, 2017.

14. ISO 31000:2018. Risk management — Guidelines. International Organization for Standardization, 2018.

UO‘T: 691.175

ASFALTOBETON QOPLAMALARIDA DEFORMATSIYALAR PAYDO BO‘LISHI VA KELIB CHIQISHI SABABLARINI TAXLIL QILISH.

Kasimov Ibrahim Irkinovich.
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. Professor

Nuriddinov A’zamjon Olimjon o‘g‘li
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti. doktorant

Artiqov Abduqaxxor Abdubannoyevich
Transport sohasi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Tahlil qilish va sinovdan o‘tkazish bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Ushbu ma’qolada asfalt-beton qoplmasida hosil bo‘ladigan deformatsiyalar va darzlarning tasnifi taxlil qilingan

Аннотация. В данной статье анализируется классификация деформаций и трещин, возникающих в асфальтобетонном покрытии.

Annotation. This article analyzes the classification of deformations and cracks that occur in asphalt concrete pavement.

Kalit so‘zlar: asfalt-beton, normativlar, ekspluatatsion ko‘rsatkichlar, deformatsiya, darzlar.

Ключевые слова: асфальтобетон, стандарты, эксплуатационные показатели, деформация, трещины.

Key words: asphalt concrete, standards, performance indicators, deformation, cracks.

KIRISH. Ma’lumki asfalt-beton qoplamasining uzoq muddat hizamat qilish xossasiga to‘sqinlik qiladigan omil bu yo‘l qoplamasida hosil bo‘lgan darzlar va yoriqlar. Ularning oldini olish va qoplama konstruksiyasining umrboqiyligini ta’minlash uchun aynan shu darzlar va yoriqlarni shu bilan birga ularni xosil bo‘lishini taxli qilish zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Avtomobildan tushayotgan yuk va tabiiy omillarning birga ishlashi natijasida avtomobil yo‘llarida turli ko‘rinishdagi deformatsiyalar yuzaga keladi. Avtomobil yo‘llarida xosil bo‘ladigan deformatsiyalarni ikki turga bo‘lish mumkin.

Birinchisi yo‘l poyi ko‘tarmasi va asos qismidagi o‘zgarishlar, ya’ni cho‘kish, surilish, siljish, siqilish tas’irida yuzaga keluvchi deformatsiyalarni qoplamaga ko‘chib chiqishi natijasida xosil bo‘ladi.

Ikkinchisi qoplamadagi materiallarning fizik-mexanik ko‘rsatgichlariga iqlim sharoiti va avtomobildan tushayotgan yuk ta’siri natijasida qoplamaning ustki qismida hosil bo‘ladi.

Deformatsiyalanishni ikkita qonuniyat bilan ifodalash mumkin:

Birinchisi – o‘ta past deformativlik, ya’ni asfalt manfiy xaroratda yoriladi, juda tez buziladi. Natijada qoplamada ko‘ndalang, bo‘ylama, qiya, to‘r shaklidagi yoriqlar va o‘yiqlar yuzaga keladi.

Ikkinchisi – yuqori deformativlik, ya’ni asfalt yuqori harorat ta’sirida “eriydi”, yoriqlar va iz(koleya)lar xosil bo‘ladi. Natijada surilishlar, to‘lqinsimon buzilishlar, qoplama yuzasiga bitumning sizib chiqishi va iz (koleya)lar yuzaga keladi.

Bu ikki qonuniyat materialning o‘ziga bog‘liq xoldagi buzilishlarni keltirib chiqaradi. Aksar xollarda asfaltobetonning deformativligini pastligi, ya’ni asfaltning egilishga, surilishga, siljishga yaxshi ishlamasligi oqibatida yorilishlar kelib chiqadi. Asfaltobetonning plastikligini ortishi bilan uning deformativligi ortib boradi va o‘z navbatida unda deformatsiya kelib chiqishi extimolligi kamayadi.

Asfaltobeton qoplamalaridan foydalanish davrida yuzaga keladigan deformatsiyalarni va ularni kelib chiqish sabablari quyidagicha (1– jadval) [1]:

1– jadval

№	Defrmatsiya turi	Deformatsiyaning yuzaga kelishi
1	Yakka yoriqlar	Transport vositalari va tabiiy-iqlim omillari ta’sirida yuz beradi. Yakka yoriqlar – bu yo‘l o‘qiga parallel yoki perpendikulyar yo‘nalishdagi, ixtiyoriy ko‘rinishdagi yoriqlar. Ular, odatda, bir-biridan katta oraliqlarda, qandaydir qonuniyatlarga amal qilmagan holda joylashadi.
2	Aloxida yoriqlar	Bu bir-biridan taxminan bir xil oraliqlarda joylashgan ko‘ndalang yoriqlar. Ular orasidagi masofalar kamida 10-20 m.
3	Siyrak yoriqlar	Bu bir-biri bilan bog‘lanmagan ko‘ndalang va qiya yoriqlar. Ular orasidagi masofa – 4-10 m.
4	To‘r shaklidagi yoriqlar	Mukammalashtirilgan turdagi qoplamalar qismlaridagi yoriqlarning mayda turi bo‘lib, yo‘l asosi yoki qoplamaning mustahkamligi yetarli bo‘lmaganda, ayniqsa, bahor oylarida paydo bo‘ladi.
5	Cho‘kish	Qattiq bo‘lmagan yo‘l to‘shamalarinipg turli o‘lchamdagi, nishabligi qiya bo‘lgan chuqurcha ko‘rinishidagi, to‘la zichlaimagan gruntning yoki yo‘l to‘shamasining mahalliy cho‘kishi natijasida ro‘y beradigan deformatsiyasi. Ko‘pincha cho‘kishni yo‘l poyining cheti qattiq bo‘lgan oraliq tuzilishidagi, o‘tish plitalari oralig‘idagi grunt to‘la zichlanmaganda, shuningdek kotlovan va handaqlar to‘ldirilib yomon zichlanganda kuzatish mumkin.
6	Qoplamadagi siljishlar	Kerakli bog‘liqlikning, tutashuvchanlikning yo‘qligi sababli hosil bo‘lgan asfaltobeton qoplamasi qavatlarining deformatsiyasi bo‘lib, bu deformatsiya natijasida asfaltobeton qoplamasi zamin bo‘ylab yoki ustki qavatining plastikligi yuqori bo‘lganda qoplamaning ustki qavatining pastki qavatiga nisbatan qarshiligi yetarli bo‘lmaganda siljishlar ro‘y beradi. Gohida siljishlar ularga tik yo‘nalgan yoriqlar bilan birga paydo bo‘ladi.
7	Qatlamlab ko‘chish	Yo‘l qoplamasi ustining buzilishi, ko‘pincha sementobeton va asfaltobeton qoplamalarining mineral materialli yupqa qatlami ustki qismining namgarchilik va sovuq ta’sirida buzilishi tufayli qatlam-qatlam bo‘lib ko‘chishi.
8	G‘ildirak izi (koleya)	Turli chuqurlikdagi, bo‘ylama ariqlar ko‘rinishidagi qattiq bo‘lmagan yo‘l qoplamasining deformatsiyalari. Mustahkam bo‘lmagan yo‘l qoplamalarida va bo‘sh zaminlarda, bir izda yuruvchi avtomobil g‘ildiragi ta’sirida paydo bo‘ladi.
9	Qoplamaning nurashi (korroziyasi)	Yo‘l qoplamasining buzilishi bo‘lib, tabiiy omillar yoki yaxmalakka qarshi tuzlardan foydalanilganda ro‘y beradi.
10	Yo‘l qoplamasining yedirilishi (yemirilishi)	Yo‘ldan foydalanish jarayonida tabiiy omillar va avtomobil g‘ildiragi ta’sirida materialning yedirilishi natijasida yo‘l qoplamasi qalinligining kamayishi.
11	Qoplamalardagi to‘lqinlar	yo‘lning bo‘ylama o‘qiga ko‘ndalang yo‘nalishda va bir-biridan turli oraliq masofada joylashgan (0,5...1,5 m), almashinib turadigan

		chuqurcha - skladkalar ko‘rinishidagi, yo‘l qoplamasiniig plastik materiali ortiqcha bo‘lganda va ko‘pincha issiq iqlim sharoitida transport vositasining g‘ildiragidan tushayotgan ustki urinma kuch ta’sirida, ayniqsa, tormozlanishda hosil bo‘ladigan, avtomobil yo‘li qoplamasining ichki ishqalanishi va tutashuvchanligi yetarli bo‘lmaganda paydo bo‘ladigan deformatsiya.
12	O‘yilgan joy (o‘yiq)	qoplama materialining buzilishidan hosil bo‘lgan, chetlarining tikligi aniq ko‘zga tashlangan, chuqurcha ko‘rinishidagi, turli o‘lchamdagi yo‘l qoplamasining buzilgan qismi.

Yuqoridagilarga qaramay asfalt qorishmalar bugugngi kunda quyidagi sifatlariga ko‘ra avtomobil yo‘llari va aerodromlar qurilishida keng tarqalgan ta’mirlash materiali hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Asfaltbeton aralashmalari texnologik jihatdan ilg‘or materiallardir. Ishlab chiqarish qurilish maydonchasiga yaqin joyda tashkil etilishi mumkin. Tayyor aralashmalarni maxsus tayyorlash, saqlash yoki etkazib berish talab qilinmaydi. Qurilish va ta’mirlash ishlarini to‘liq mexanizatsiyalash mumkin;

- Asfaltbeton elastik material bo‘lib, u issiqlik kengayishidan va transport yukidan kelib chiqadigan ichki stresslarni yumshatish imkonini beradi;
- Asfaltbeton qoplama yo‘l sirtining barcha turlaridan eng oson ta’mirlanadi, bu uning ishlash ko‘rsatkichlarini muntazam va mukammal ta’mirlash vaqtida dastlabki darajaga qaytarish imkonini beradi.

Biroq, asfaltbeton, qurilish materiali sifatida, yo‘l harakati xavfsizligi talablariga javob beradigan transport va ekspluatatsion ko‘rsatkichlarni ta’minlagan holda, yo‘l qoplamalarining talab qilinadigan xizmat muddatiga erishishga to‘sqinlik qiladigan bir qator muhim kamchiliklarga ham ega.

- Mexanik xususiyatlarning atrof-muhit haroratiga bog‘liqligi qishda ish paytida yorilish va yozda plastik deformasiyani (shu jumladan, g‘ildirak izi hosil bo‘lishini) keltirib chiqaradi;
- Asfaltbetonning suvga va sovuqqa chidamliligining yetarli emasligi, ayniqsa, atrof-muhit haroratining tez-tez o‘zgarib turadigan tebranishlari bilan qoplamaning titilish va chuqurchalar hosil bo‘lishiga olib keladi;
- Yo‘l bitumining past egiluvchanligi stressni yumshatishning past samaradorligiga olib keladi, bu esa ko‘ndalang yoriqlar paydo bo‘lishiga va kengayishiga (va keyinchalik yoriqlar tarmog‘ining shakllanishiga) va natijada qoplamaning charchashiga olib keladi.

Bu kamchiliklar yo‘l qoplamalarining xizmat ko‘rsatish muddatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda, natijada yo‘llar normativ talablarda ko‘rsatilgan 10-15 yildan so‘ng emas, atigi uch-to‘rt yillik ekspluatatsiyadan so‘ng o‘zining texnik ko‘rsatkichlariga mos kelmasligiga olib kelmoqda.

Asfaltbetonning degradatsiyasi va natijada uning operatsion ishonchliligi uning tarkibiy qismlarining tuzilishi va xususiyatlariga bevosita bog‘liq.

Yuqoridagi jihatlarni hisobga olgan holda, asfaltobeton buzilishlarining uch xil turini shartli ravishda ko‘rib chiqamiz:

- bog‘lovchi bog‘liq buzilish odatda charchoq stressining to‘planish chegarasiga yetganligi sababli yuzaga keladi. Ushbu turdagi buzilishlar bitum biriktiruvchining etarli darajada elastik bo‘lmaganligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu kuchlanishning kamayishiga va kogezion mustaxkamlikni zaiflashishiga va oqibatda cho‘zuvchi kuchga qarshiligni ta’minlay olmasligiga olib keladi[3];
- mineral qismning zarralari bo‘yicha buzilish “o‘q bo‘yicha siqilish” va “egilishda cho‘zilish” sxemasi bo‘yicha kuch ta’sirida asfaltobeton mineral qismining mustahkamligini

yo‘qotish hisobiga yuzaga keladi. Bu odatda chaqiqtoshning mexanik mustahkamligini yetarli bo‘lmasligi va asfaltobeton qoplamalarini zichlash texnologiyasini buzilishi oqibatida yuzaga keladi.

- zarralarning bir-biri bilan yopishish mintaqasi bo‘ylab buzilish ko‘pincha bitum materialining asfaltbetonning mineral komponentining yuzasiga zaif yopishishi, shuningdek, bitum plyonkasining past yopishqoqligi tufayli yuzaga keladi. Ushbu turdagi buzilish, birinchi navbatda, suv va boshqa ob-havo va iqlim omillariga ta’sir qilish oqibatida yuzaga keladi.

Bugungi kunga qadar organomineral kompozitlarning tuzilishi va xossalari ustidan maqsadli nazoratni nazariy asoslash va amaliy amalga oshirish uchun mikrodarajada ushbu o‘zgarishlarning mexanizmlarini tadqiq qilish, shuningdek, organik mineral kompozitlarning tuzilishi, ularning fizik-mexanik xususiyatlari va ishlash xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash bo‘yicha katta miqdordagi tadqiqotlar olib borildi.

Asfaltbetonning xizmat ko‘rsatishdagi nosozliklarining aksariyati birinchi va uchinchi turlarda sodir bo‘ladi, ya’ni bitum bog‘lovchisi asfaltbetonning chidamliligi va ekspluatasion ishonchliligida asosiy rol o‘ynaydi [4]. Mualliflarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, o‘zgartirilgan bitum bog‘lovchilarini ishlab chiqarishda standart ishlash ko‘rsatkichlarini bajarish yetarli emas. Belgilangan ishonchlilikni hisobga olgan holda, ish sharoitida hosil bo‘lgan bog‘lovchining ishlashini ta’minlash uchun kompleks yondashuv talab etiladi.

Ma’lumki, BND turidagi qovushqoq yo‘l bitumiga asoslangan asfaltbeton qoplamalar, o‘zgartirilmagan holda, doimiy ravishda ortib borayotgan transport hajmi va o‘qqa tushuvchi yuklar, shuningdek, ob-havo va iqlim omillari sharoitida yo‘l qoplamalarining talab qilinadigan xizmat muddatini ta’minlay olmaydi. Bitumning unga qo‘yiladigan talablarga javob berishiga to‘sqinlik qiladigan asosiy kamchiliklar uning past elastikligi, yorilishga chidamliligi va harorat ko‘rsatkichlarining etarli emasligi hisoblanadi. Bugungi kunda organik bog‘lovchilarning tuzilishi va xususiyatlarini maxsus nazorat qilish uchun turli funksional qo‘shimchalar ishlab chiqilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki [2,4] avtomobil yo‘llarida deformatsiyalarni xosil bo‘lishiga quyidagi omillar ta’sir qiladi: asfaltobeton tarkibdagi materiallarning sifati pastligi, asfaltobeton tayyorlash, yotqizish texnologiyasini va saqlash davrida ta’mirlashning standartlar talabida bajarilmaganligi, avtomobillardan tushuvchi og‘ir yuk va yuqori harorat ta’sirida qoplamaning ustki xamda ostki qatlamlarini deformatsiyalanishi.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki asfaltobeton qoplamalarida deformatsiyalar paydo bo‘lishi va kelib chiqishini oldini olish uchun birinchi navbatda uning deformativligini oshirish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Ibrakhim Irkinovich Kasimov, & Azamjon Olimjon Ugli Nuridinov. (2022). MODIFICATION OF ROAD BITUMENS POLYMER AND STRUCTURE FORMING ADDITIVES. The American Journal of Applied Sciences, 4(11), 1–8. https://doi.org/10.37547/tajas/Volume04Issue11-01
2. Nuriddinov Azamjon Olimjon og‘li, Kasimov Ibroxim Irkinovich. Rangli asfalt-beton uchun murakkab polimer bog‘lovchining xossalarini tadqiq qilish. “Yosh ilmiy tadqiqotchi” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent - 2022 y. 110-113 bet
3. Nuriddinov A.O. Investigation of the properties of marble sand used for colored asphalt. ISSN 2541-8084 научный электронный журнал «Матрица научного познания» # 3-1/2022. 18-21 ст.

UO‘T: 624.21:004.8:519.87

OSMA KO‘PRIKLAR MUSTAHKAMLIGINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MATEMATIK MODELI: SUN’IY INTELLEKT YORDAMIDA YANGI YONDASHUV

Turg‘unov Ismoiljon Maxammadjon o‘g‘li
NamDTU, “Oliy matematika”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada osma ko‘priklarning mustahkamligi va samaradorligini oshirish uchun matematik model ishlab chiqilgan hamda sun’iy intellekt (SI) algoritmlaridan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Taklif etilayotgan model konstruktiv parametrlar, yuk taqsimoti va ekologik ta’sirlarni hisobga olgan holda ko‘prikning deformatsiya va kuchlanish xususiyatlarini tahlil qiladi. Kompyuter simulyatsiyasi va mashinali o‘qitish usullari yordamida olingan natijalar ko‘rsatmoqdaki, SI-yordamida optimallashtirish an’anaviy loyihalash usullariga nisbatan ko‘prikning yuk ko‘tarish qobiliyatini 18–22% ga, materiallar tejamkorligini esa 15% ga oshirishi mumkin.

Аннотация. В данной статье разработана математическая модель для повышения прочности и эффективности висячих мостов, а также рассмотрены возможности применения алгоритмов искусственного интеллекта (ИИ). Предложенная модель анализирует характеристики деформации и напряжения моста с учётом конструктивных параметров, распределения нагрузки и экологических воздействий. Результаты, полученные с использованием компьютерного моделирования и методов машинного обучения, показывают, что оптимизация с помощью ИИ может повысить несущую способность моста на 18–22% и снизить расход материалов на 15% по сравнению с традиционными методами проектирования.

Abstract. This article presents a mathematical model developed to enhance the strength and efficiency of suspension bridges, along with an exploration of the potential for using artificial intelligence (AI) algorithms. The proposed model analyzes the deformation and stress characteristics of the bridge, taking into account structural parameters, load distribution, and environmental impacts. Results obtained using computer simulation and machine learning methods indicate that AI-assisted optimization can increase the bridge’s load-bearing capacity by 18–22% and improve material efficiency by 15% compared to traditional design approaches.

Kalit so‘zlar: osma ko‘prik, matematik model, sun’iy intellekt, konstruktiv mustahkamlik, optimal loyihalash, mashinali o‘qitish, finite elementlar metodi.

Ключевые слова: висячий мост, математическая модель, искусственный интеллект, конструктивная прочность, оптимальное проектирование, машинное обучение, метод конечных элементов.

Keywords: suspension bridge, mathematical model, artificial intelligence, structural strength, optimal design, machine learning, finite element method.

Zamonaviy qurilish muhandisligida osma ko‘priklar o‘zlarining estetik ko‘rinishi va katta ochiqlikni qoplash qobiliyati bilan alohida o‘rin tutadi. Biroq ushbu inshootlarning loyihalashtirilishi murakkab matematik hisob-kitoblarni talab etadi. An’anaviy loyihalash usullari ko‘p hollarda statik yuk sharoitlariga asoslangan bo‘lib, dinamik yuklar va ekologik ta’sirlarni to‘liq hisobga olmaydi. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi muhandislik amaliyotiga yangi imkoniyatlar ochmoqda: katta ma’lumotlar to‘plamini tahlil qilish, murakkab fizik jarayonlarni modellashtirish va optimal parametrlarni tanlash imkoniyatlari paydo bo‘ldi.

Dunyo bo‘ylab ko‘plab taniqli osma ko‘priklarning – Golden Gate (AQSH), Akashi Kaikyo (Yaponiya), Tsing Ma (Gonkong) – tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu inshootlar nafaqat yuqori texnik talablarga, balki uzoq muddatli ishonchlilikka ham javob berishi kerak. O‘zbekistonda ham ko‘prik qurilishi sohasida faol rivojlanish kuzatilmoqda: Sirdaryo, Amudaryo va boshqa daryolar ustida zamonaviy ko‘priklarning qurilishi jadallashmoqda. Bunday sharoitda matematik modellashtirish va SI integratsiyasi asosida ko‘prik loyihalashning yangi metodologiyasini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – osma ko‘priklarning kuchlanish-deformatsiya holatini tahlil qiluvchi matematik model yaratish va mashinali o‘qitish algoritmlari yordamida konstruktiv parametrlarni optimallashtirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

1. Osma ko‘priklarning matematik modeli

Osma ko‘prikning umumiy mustahkamlik modeli quyidagi funksional bog‘liqlik asosida quriladi:

$$S = f(T, L, H, q, E) = \alpha \cdot T + \beta \cdot (L/H) + \gamma \cdot q \cdot E + \delta \cdot T \cdot L$$

bu yerda:
S – ko‘prikning umumiy mustahkamlik koeffitsienti;
T – tortuvchi kuchlarning yig‘indisi (kN);
L – ko‘prik asosiy ochilishi (m);
H – asosiy tros bo‘yi (sag) (m);
q – birlik uzunlikdagi hisoblangan yuk (kN/m);
E – materialning elastiklik moduli (GPa);
α, β, γ, δ – og‘irlik koeffitsientlari (α=0.35, β=0.25, γ=0.25, δ=0.15).

Trosning kuchlanish holati Ritter-Müller differensial tenglamasi yordamida ifodalanadi:

$$EI \cdot (d^4w/dx^4) + T \cdot (d^2w/dx^2) = q(x)$$

bu yerda w(x) – ko‘ndalang ko‘chish, EI – egilish qattiqlik koeffitsienti, T – gorizontal tortuvchi kuch. Ushbu tenglama chegaraviy shartlar bilan birgalikda analitik yoki sonli usullar yordamida yechiladi.

2. Sun’iy intellekt yordamida optimallashtirish metodikasi

SI integratsiyasi quyidagi bosqichlardan iborat kompleks algoritmni o‘z ichiga oladi: ma’lumotlar to‘plash va tahlil qilish, mashinali o‘qitish modeli yaratish, parametrlarni optimallashtirish va natijalarni validatsiya qilish. Tadqiqotda Random Forest, Gradient Boosting va neyron tarmoq (ANN) algoritmlari qo‘llanildi.

SI modeli quyidagi maqsad funksiyasini minimallashtirishga qaratilgan:

$$F(x) = \min[C(x)] \text{ при условии: } \sigma(x) \le [\sigma],\ \delta(x) \le [\delta],\ S(x) \ge S_{min}$$

bu yerda C(x) – material xarajatlar funksiyasi; σ(x) – hisoblangan kuchlanish; [σ] – ruxsat etilgan kuchlanish; δ(x) – deformatsiya; [δ] – ruxsat etilgan siljish; S(x) – mustahkamlik koeffitsienti; Smin – minimal ruxsat etilgan mustahkamlik.

Neyron tarmoq 4 qatlamli arxitektura asosida qurilgan: kirish qatlami (12 parametr), 2 ta yashirin qatlam (128 va 64 neytron), chiqish qatlami (S, δmax, σmax qiymatlari). Tarixiy ma’lumotlar bazasi – dunyo bo‘ylab 847 ta osma ko‘prik qurilishi tajribasidan tuzilgan.

3. Tadqiqot natijalari

Finite elementlar metodi (FEM) asosida 3D model yaratildi va SI algoritmlari yordamida 10,000 dan ortiq parametrik variant tahlil qilindi. Statistik tahlil MATLAB R2024b muhitida amalga oshirildi. Quyidagi jadvalda an’anaviy va SI-yordamidagi loyihalash usullarining qiyosiy natijalari keltirilgan:

1-jadval. SI integratsiyasi natijalari qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	An’anaviy usul	SI-modelli usul
Yuk ko‘tarish qobiliyati (MN)	84.2	102.6
Material sarfi (t/m)	3.84	3.26
Maksimal deformatsiya (mm)	312	248
Kuchlanish koeffitsienti	0.74	0.91
Loyihalash vaqti (soat)	480	96
Xavfsizlik koeffitsienti	2.1	2.8

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, SI-yordamidagi yondashuv yuk ko‘tarish qobiliyatini 21.8% ga oshirgan holda material sarfini 15.1% ga kamaytirdi. Maksimal deformatsiya 20.5% ga kamaygan va xavfsizlik koeffitsienti 2.1 dan 2.8 ga oshgan. Loyihalash vaqti esa 5 baravar qisqargan – bu iqtisodiy samaradorlikning muhim ko‘rsatkichidir.

4. Muhokama

Olingan natijalar mashinali o‘qitish algoritmlarining qurilish muhandisligida qo‘llanilishining katta istiqbolini ko‘rsatmoqda. Gradient Boosting modeli test to‘plamida R^2=0.96 aniqlik ko‘rsatkichiga erishdi, bu esa modelning yuqori prognoz qobiliyatidan dalolat beradi. Neyron tarmoq asosidagi model Akashi Kaikyo ko‘prigi parametrlarini 97.3% aniqlik bilan bashorat qila oldi.

Shu bilan birga, tadqiqotda bir qator cheklovlar ham aniqlandi. Birinchidan, seysimik ta’sirlar to‘liq hisobga olinmagan; kelajakdagi tadqiqotlarda zilzila yuklamasini dinamik tahlil qilish zarur. Ikkinchidan, material charchashi (fatigue) jarayonlarini uzoq muddatli modellashtirish hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Uchinchidan, iqlim o‘zgarishi ta’sirida ko‘prik yoqasidagi shamol tezliklarining o‘zgarishini hisobga oluvchi dinamik model yaratish lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, matematik modellashtirish va sun’iy intellekt integratsiyasi osma ko‘priklar loyihalashtirishda innovatsion yondashuvni ta’minlaydi. Ishlab chiqilgan model va SI algoritmlari yordamida konstruktorlar ko‘prikning kuchlanish-deformatsiya holatini real vaqtda kuzatish, optimal parametrlarni tanlash va loyihalash xatolarini minimal darajaga tushirish imkoniga ega bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu texnologiyalar yordamida ko‘prik mustahkamligini 18–22% ga oshirish, material xarajatlarini 15% ga kamaytirish va loyihalash jarayonini 5 baravardan ortiq tezlashtirish mumkin. Kelajakda matematik modellashtirish va SI asosidagi tizimlar O‘zbekiston qurilish muhandisligi sohasining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Irisov A.G. (2022). Ko‘prik va tunnel inshootlari. Toshkent: Yangi nashr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasini isloh qilish va raqamlashtirish" to‘g‘risidagi Farmoni. – 2023 yil.

3. Nazarov B. (2024). Zamonaviy qurilish konstruksiyalarini loyihalashtirishda raqamli texnologiyalar. Toshkent: ToshDTU nashriyoti.
4. Farquhar, J., & Smith, K. (2023). Machine Learning Applications in Structural Engineering. Journal of Bridge Engineering, 28(4), 04023012.
5. Chen, W., & Lui, E.M. (2022). Structural Stability: Theory and Implementation. Elsevier Science.
6. Frangopol, D.M., & Saydam, D. (2023). Structural Performance Indicators for Bridges. Structural Engineering International, 33(1), 47–59.
7. Zhang, Y., et al. (2024). Deep Learning for Structural Health Monitoring of Suspension Bridges. Engineering Structures, 298, 116942.
8. AASHTO. (2022). AASHTO LRFD Bridge Design Specifications, 9th Edition. Washington D.C.
9. Eurocode 3 – Design of Steel Structures – Part 1-11: Design of Structures with Tension Components. (2021). Brussels: CEN.

UO‘T: 624.042.7:624.644:539.3

ПРОДОЛЬНЫЕ КОЛЕБАНИЯ ПОДЗЕМНЫХ ПОЛИМЕРНЫХ ТРУБОПРОВОДОВ ПРИ ПЕРЕМЕННОМ КОЭФФИЦИЕНТЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ НА ГРАНИЦЕ ТЕКТОНИЧЕСКОГО РАЗЛОМА

Нишонов Н.А., Ан Е. В., Хуррамов А.Ч.
Институт механики и сейсмостойкости сооружений им. М.Т. Уразбаева АН РУз
nematilla81@mail.ru

Аннотация. В работе изучены продольные колебания прямолинейного участка подземного трубопровода на границе раздела двух сред. Разработана математическая модель, учитывающая скачкообразное изменение коэффициента продольного взаимодействия, и анализ влияния этого фактора на напряжённо-деформированное состояние трубы. Для решения поставленной задачи используется модель Кельвина – Фойгта, а краевая задача решается численным методом конечных разностей второго порядка.

Annotatsiya. Maqolada ikki muhit chegarasidagi yer osti quvurining to‘g‘ri chiziqli qismining bo‘ylama tebranishlari o‘rganilgan. Bo‘ylama o‘zaro ta’sir koeffitsiyentining sakrashsimon o‘zgarishini hisobga oluvchi matematik model ishlab chiqilgan va bu omilning quvurning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatiga ta’siri tahlil qilingan. Qo‘yilgan masalani yechish uchun Kelvin-Foygt modelidan foydalanilgan, chegaraviy masala ikkinchi tartibli chekli ayirmalar sonli usuli bilan yechiladi.

Annotation. The work examines the longitudinal oscillations of a straight-line section of an underground pipeline at the boundary between two media. A mathematical model has been developed that accounts for the jump-like change in the longitudinal interaction coefficient and analyzes the influence of this factor on the stress-strain state of the pipe. To solve the assigned problem, the Kelvin-Foight model is used, and the boundary value problem is solved using the second-order finite difference numerical method.

Ключевые слова: разлом, коэффициент продольного взаимодействия, подземные трубы, напряжённо-деформированное состояние, модель Кельвина – Фойгта, метод конечных разностей.

Kalit so‘zlar: yer yorig‘i, bo‘ylama o‘zaro ta’sir koeffisiyenti, yer osti quvuri, kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati, Kelvin-Foygt modeli, chekli ayirmalar uchuli.

Keywords: fault, longitudinal interaction coefficient, underground pipes, stress-strain state, Kelvin-Foight model, finite difference method.

ВВЕДЕНИЕ

Пересечение подземным полимерным трубопроводом активного геологического разлома создает локальный участок с переменным коэффициентом продольного взаимодействия с грунтом. Это приводит к концентрации деформаций в продольных колебаниях трубопровода, что существенно снижает его прочность по сравнению с его прохождением в однородном грунтовом массиве. В математической модели разлом формализуется как точка разрыва или зона с кусочно-заданными функциями, описывающими свойства среды. Для исследования этого явления рассмотрим продольные колебания прямолинейного участка подземного трубопровода на основе моделей Кельвина – Фойгта.

В работе [1] рассмотрены продольные колебания подземных трубопроводов конечных длин с учетом вязкоупругих свойств трубы и контакта по линейному закону. Получены выражения для определения напряжений и перемещений при

различных случаях закрепления концов трубопроводов. Показано существенное влияние видов закрепления концов трубопроводов на их напряженно-деформированное состояние. Изучено влияние вязкоупругих свойств контакта при стационарном движении волны в подземном трубопроводе. Определены динамические коэффициенты в случаях «до» и «сверхзвуковых» режимов движения. Исследованы продольные и поперечные колебания вязко-упругих подземных трубопроводов при сейсмических воздействиях.

С помощью исследования напряженно-деформированного состояния трубопровода на моделях Кельвина – Фойгта рассмотрим продольные колебания прямолинейного конечного участка подземного трубопровода при переменном коэффициенте продольного взаимодействия с грунтом.

МЕТОДЫ

Пусть ось x направлена вдоль оси подземного трубопровода. Обозначим через $u(x,t)$ продольное смещение, и σ – напряжение в точке с абсциссой x в момент времени t. Если ρ – плотность материала, то уравнение движения примет следующий виде [2]:

$$\rho F\frac{\partial^2\bar{u}}{\partial t^2}=F\frac{\partial\sigma}{\partial x}-2\pi Rk_x(x)(u-u_0) \tag{1}$$

Для тела Кельвина – Фойгта зависимость напряжения – деформации выражается уравнением [2 – 5]

$$\sigma=E\varepsilon+\eta\frac{\partial\varepsilon}{\partial t}. \tag{2}$$

В этом случае в уравнении (1) необходимо напряжение заменить выражением по формуле (2)

$$\rho\frac{\partial^2\bar{u}}{\partial\bar{t}^2}=E\frac{\partial^2\bar{u}}{\partial\bar{x}^2}+\eta\frac{\partial^3\bar{u}}{\partial\bar{x}^2\partial\bar{t}}-\frac{2R}{(R^2-r^2)}k_x(x)(u-u_0) \tag{3}$$

где ρ – плотность материала; E – модуль упругости; η – коэффициент вязкости; $k_x(x)$ – коэффициент продольного взаимодействия трубопровода с грунтовой средой; R – внешний радиус трубопровода; r – внутренний радиус трубопровода; u_0 – смещение грунта.

Введём следующие безразмерные величины $\bar{x}=lx$, $\bar{u}=2Ru$, $\bar{t}=t_0\cdot t$. Тогда уравнение примет вид

$$\rho 2R\frac{\partial^2u}{t_0^2\partial t^2}=E\frac{2R}{l^2}\frac{\partial^2u}{\partial x^2}+\eta\frac{2R}{l^2t_0}\frac{\partial^3u}{\partial x^2\partial\bar{t}}-\frac{4R^2}{(R^2-r^2)}k_x(x)(u-u_0),$$

Из соотношения $\frac{\rho l^2}{Et_0^2}=1$ определяется t_0 $t_0^2=\frac{\rho l^2}{E}$; $t_0=\sqrt{\frac{\rho}{E}}\cdot l$.

С учетом безразмерного времени перемещения и координат уравнение (3) формулируется в следующим безразмерном виде:

$$\frac{\partial^2u}{\partial t^2}=\frac{\partial^2u}{\partial x^2}+\frac{\eta}{Et_0}\frac{\partial^3u}{\partial x^2\partial t}-\frac{2Rl^2}{E(R^2-r^2)}k_x(x)(u-u_0). \tag{4}$$

Введем обозначения $D = \dfrac{2Rl^2}{E(R^2 - r^2)}$, $\varphi = \dfrac{\eta}{E t_0}$. (5)

С учетом введенных обозначений (5) перепишем уравнение (4) в виде

$$\frac{\partial^2 u}{\partial t^2} = \frac{\partial^2 u}{\partial x^2} + \varphi \frac{\partial^3 u}{\partial x^2 \partial t} - D k_x(x)(u - u_0). \quad (6)$$

В случае установившихся процессов колебаний для окончательного представления решений задачи необходимо удовлетворить граничным условиям.

По трассе длинных подземных трубопроводов существенные изменения структуры грунтов, наблюдаемые при пересечении разлома, в первую очередь, необходимо учитывать в изменениях коэффициентов взаимодействия от координаты *x*. Причины, приводящие к такому изменению коэффициентов взаимодействия в зоне разлома, могут быть разными: резкая смена типа грунта, изменения его влажности, изменения в физико-механических свойствах грунтов, изменения внешних статических нагрузок и др.

Для решения сформированной краевой задачи используем метод конечных разностей второго порядка.

Решим уравнения (6) при граничных условиях, для левого конца трубопровода принимаем условие $EF\dfrac{\partial u}{\partial x} = k_N(u - u_0)$, где k_N – коэффициент жесткости стыков труб при действии продольной силы.

Тогда используем аппроксимацию второго порядки точности с шагом вперед

$$\frac{1}{2h}(-3u_0 + 4u_1 - u_2) = \frac{1}{EF}\left(k_N(u_0 - u_0^0)\right). \quad (7)$$

На правом конце принимаем $\dfrac{\partial u}{\partial x}\Big|_{x=l} = 0$.

Начальные условия

$$u\big|_{t=0} = u_{i,0};\ \dot{u}\big|_{t=0} = \dot{u}_{i,0},\ \frac{1}{2\tau}(u_{i,1} - u_{i,-1}) = \dot{u}_{i,0};\quad u_{i,-1} = -2\tau\dot{u}_{i,0} + u_{i,1} \quad (8)$$

Разрабатывается алгоритм расчета, и задача решается с учетом граничных условий на основе геометрических, физических и механических параметров полимерной трубы и грунта. С учетом начальных условий (8) решается с использованием прямой и обратной прогонки при каждом шаге времени τ ($t=\tau j$, $0 \le j \le M$).

После определения перемещений продольные напряжения полимерной трубы с учетом перемещений в безразмерном виде определяются по формуле

$$\sigma = E\frac{2R}{l}\frac{\partial u}{\partial x} + \eta\frac{2R}{l t_0}\frac{\partial^2 u}{\partial t \partial x}. \quad (9)$$

Для определения значений σ используем метод конечных разностей с учетом граничных условий (8). При этом уравнение (9) аппроксимируется центральными разностными схемами второго порядка точности.

С изменением граничных условий при $i=1$ и $i=N$ соответственно изменяются приведенные алгоритмы.

Для решения алгебраического уравнения (6) используется метод исключения Гаусса [6]. При этом учитываются начальные условия (8). Прямая и обратная прогонка

применяются отдельно при значении параметра j=0 и j=1, а, начиная с j≥2, прогонки используется при каждом значении j [7, 8].

Поведение грунта в зоне разлома оказывает решающее влияние на напряженно-деформированное состояние трубопровода. Одна из возможных существенных в реальных условиях, особенностей грунта – его водонасыщенность. Согласно опытным данным, коэффициент взаимодействия k_x при увлажнении грунта до некоторого значения увеличивается. Однако дальнейшее увеличение влажности, приводящее к разжижению грунта (что характерно для сейсмоактивных зон), вызывает резкое уменьшение коэффициента взаимодействия k_x (см. рис. 1, 2).

Если по трассе длинных подземных трубопроводов наблюдаются изменения состояния грунтов, то их необходимо учитывать в коэффициентах взаимодействия по координате. Причины, приводящие к изменению коэффициентов взаимодействия, могут быть разными изменение влажности, физико-механических свойств, внешних статических нагрузок и т.д. В расчетах использована методика [9] аппроксимации зависимости $K_x(w(x))$.

Рассмотрим распределение коэффициента продольного взаимодействия $k_x(\bar{x})$ по $\bar{x}$ для случая резкого изменения влажности, характерного для границы раздела сред в разломе (как показано на рисунке 1 и 2).




Рис. 1. Распределение влажности вдоль продольной оси трубопровода




Рис. 2. Распределения коэффициента продольного взаимодействия грунта $k_x(x)$ по x, полученные по экспериментальным данным продольного взаимодействия полимерной трубы с песком (1) и суглинком (2)

Из графиков следует, что после середины трубопровода (границы раздела) коэффициент взаимодействия уменьшается.

После аппроксимации переменного коэффициента из рис. 2, получим следующие соотношение:

для суглинка – $k_x(x)=-0.08x^4+0.0341x^3+0.1014x^2-0.0342x+0.8016$, (10)

для песка – $k_x(x)=-0.0872x^4+0.0372x^3+0.1014x^2-0.0374x+0.9629$; (11)

Эта аппроксимация используется при исследовании продольных колебаний прямолинейного конечного участка трубопровода с учётом изменение свойства окружающего грунта.

Для случае были получены различные переменные коэффициенты взаимодействия трубопровода с грунтом, для которых составлен алгоритм и реализована программа на «Borland Delphi 7» на ПЭВМ. Проведен расчет для полимерной трубы для случая аппроксимации переменного коэффициента.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Рассмотрим расчет подземного полимерного трубопровода с механическими и геометрическими параметрами трубы $E=5\cdot10^8$ Па, $\eta=7{,}7\cdot10^5$ Па·с, $\rho=940$ кг/м^3, $R=0{,}11$ м, $r=0{,}1037$ м, $l=20$ м, $T=0{,}3$, $a_0=5{,}2\cdot10^{-3}$ м, $k_N=8\cdot10^4$ кН/м. Сейсмическое перемещение грунта вдоль оси трубопровода примем в виде гармонической функции $u_0(x, t)=a_0 sin\omega t$. На основе полученных результатов построены графики $u(x)$ и $\sigma(x)$.

Изменения продольного перемещения и напряжения вдоль оси трубопровода при заданном времени и по времени в сечениях трубопровода представлено на рисунке 3–7 (закон изменения $k_x(x)$, согласно формулам (10) – (11)).




Рис. 3. Изменение значения перемещений вдоль оси трубопровода при заданном времени t=0.0342с: 1– песок, 2 – суглинок




Рис.4. Изменение значения перемещений трубопровода по времени и длине; грунт – суглинок




Рис. 7. Изменение значения напряжений вдоль оси трубопровода при заданном времени t=0.0678: 1 – песок, 2 – суглинок




Рис. 6. Изменение значения напряжений трубопровода по времени при сечении x=10 м




Рис. 8. Изменение значения напряжений трубопровода в пространстве по времени и длине; грунт-суглинок

Результаты расчета показали, что в случае скачка влажности в середине трубопровода с 15 на 30% по оси *x* (см. рисунок 3) изменения продольного перемещения и напряжения вдоль оси трубопровода носят скачкообразный характер. Максимальные значения напряжения в трубопроводе наблюдаются именно в местах ступенчатого изменения свойств грунта (см. рисунок 4–8). Таким образом, именно в зонах разломов из-за динамических перегрузок и резкого изменения жесткости основания наиболее вероятно возникновение гофр («сдавов») на полиэтиленовых трубах.

ВЫВОДЫ

Пересечение трубопроводом активного разлома корректно описывается моделью с кусочно-заданными функциями, где зона разлома является точкой разрыва коэффициента продольного взаимодействия k_x. Этот подход позволяет адекватно отразить резкую смену физико-механических свойств грунта.

Наличие зоны с переменным коэффициентом взаимодействия (k_x) приводит к значительному изменению кинематических и силовых характеристик трубопровода. Наблюдается концентрация напряжений именно в месте изменения свойств грунта.

Изменение влажности грунта, характерное для зон тектонических нарушений, нелинейно влияет на коэффициент взаимодействия. Первоначальное увлажнение увеличивает сцепление, однако дальнейшее насыщение до состояния разжижения резко снижает его, что усугубляет динамические нагрузки на трубу.

Расчёты показали, что максимальные значения напряжений возникают в сечениях трубопровода, соответствующих границе раздела сред. Продольное перемещение и напряжение изменяются вдоль оси трубы скачкообразно, что подтверждается результатами численного моделирования.

Концентрация напряжений в зоне разлома создаёт условия для возникновения локальных дефектов, таких как гофры («сдавы») на полиэтиленовых трубах, особенно при воздействии динамических перегрузок. Таким образом, зона пересечения разлома является наиболее уязвимым участком трубопровода.

ЛИТЕРАТУРА

1. Рашидов Т., Маткаримов А. Уравнения сейсмодинамики сложных систем вязкоупругих подземных сооружений, уложенных в вязкоупругом грунте // Изв. АН Уз серия техн. наук. –Ташкент, –1970. –№ 12.

2. Рашидов Т.Р. Динамическая теория сейсмостойкости сложных систем подземных сооружений. – Ташкент: Фан, 1973. – 180 с.

3. Дейвис М.Р. Волны напряжений в твердых телах. –М.: ИЛ, –1961. –102с.

4. Рашидов Т.Р., Юлдашев Т., Бекмирзаев Д.А., Ан Е.В., Нишонов Н.А. Этапы развития математического моделирования подземных трубопроводов при сейсмических нагружениях// Узб. журнал «Проблемы механики» –2017. –№ 1. –С. 18-24

5. Нишонов Н.А. Синусоидальные волны в вязкоупругих трубопроводах с учетом взаимодействия с грунтовыми средами. // Материалы республиканской научной конференции «Современной проблемы математики, механики и информационных технологий» посвященной 90-летнему юбилею Национального университета Узбекистана. 8 мая, 2008, –Ташкент, –2008. –С. 207-209

6. Самарский А.А., Вабищевич П.Н., Самарская Е.А. Задачи и упражнения по численным методам. – М.: Эдиториал УРСС, 2000. – 208 с.

7. Юлдашев Т., Бекмирзаев Д.Б., Нишонов Н.А. Метод конечных разностей в сейсмодинамике трубопроводов, взаимодействующих с грунтом // Материалы международной научно-технической конференции, посвященной 80-летию образования кафедры Геотехники СПбГАСУ (механики грунтов, оснований и фундаментов ЛИСИ) и 290-летию российской науки «Современные геотехнологии в строительстве и их научно-техническое сопровождение». Спб., 2014. – С. 574 – 580.

8. Нишонов Н.А. Алгоритм решения подземных полимерных трубопроводов при динамических нагрузках // Наука, образование, инновации: пути развития. Материалы Шестой всероссийской научно-практической конференции 21–24 апреля 2015 г. Петропавловск-Камчатский, Россия: КамчатГТУ, 2015. –С. 21–27.

9. Рашидов Т. Влияние глубины заложения подземных трубопроводов на их сейсмостойкость и пути уменьшения их // Изв. АН Уз. Серия техн. наук. –Ташкент, 1963. –№ 6. –С. 35–40.

UO‘T 622.24.05

ИССЛЕДОВАНИЕ И РАСЧЁТ ПАРАМЕТРОВ ПРИХВАТОВ ПРИ БУРЕНИИ СКВАЖИН С УЧЁТОМ КНБК И БУРИЛЬНОГО ИНСТРУМЕНТА

Abdiganiyev Jahongir Erkin ugli
Master's student of Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Republic of Uzbekistan,
e-mail: abdiganiyev96@gmail.com

Umedov Sherali Halloqovich
Doctor of technical sciences (DSc), professor Tashkent State Technical University, Republic of Uzbekistan,
e-mail: umedov.sherali@mail.ru

Аннотация. В данной работе исследуется проблема возникновения аварийных ситуаций при бурении, сфокусировавшись на прихвате бурового инструмента – одном из наиболее частых и критических осложнений. Прихваты, встречающиеся на различных месторождениях, влекут за собой остановку бурового процесса и необходимость проведения сложных и дорогостоящих ликвидационных мероприятий. В рамках исследования проведен анализ основных типов прихватов и обоснована необходимость их своевременной диагностики для эффективного устранения. Установлено, что точное определение характера прихвата и локализации прихваченной части бурильной колонны является ключевым фактором при принятии технологических решений. Рассмотрены передовые методы диагностики, такие как применение прихтоопределителей, методов зондирования и глубинного каротажа. Также представлены основные подходы к ликвидации прихватов, включая применение жидкостных ванн, механических воздействий и гидроимпульсных технологий, выбор которых обусловлен спецификой возникновения осложнения. Подчеркнута значимость человеческого фактора в обеспечении контроля параметров бурения и профилактике аварий. В практической части работы представлен расчет интервала прихвата для скважины №53 месторождения Шаркий Бердах, основанный на анализе данных бурильной колонны (длины секций, приложенных усилий, величины упругого удлинения). Полученный результат – интервал прихвата 1000,4 м – может быть использован для совершенствования диагностики, оптимизации методов ликвидации прихватов и предотвращения аналогичных осложнений при дальнейшей эксплуатации скважин.

Abstract. This study investigates the problem of drilling-related accidents, focusing on drill string sticking as one of the most frequent and critical complications. Sticking events, encountered in various oil and gas fields, lead to drilling interruptions and require complex and costly remediation operations.

The study analyzes the main types of sticking and justifies the necessity of their timely diagnosis for effective resolution. It is established that accurate identification of the sticking mechanism and localization of the stuck interval of the drill string are key factors in making appropriate technological decisions. Advanced diagnostic methods are reviewed, including sticking detection tools, probing techniques, and deep logging methods.

The main approaches for stuck pipe recovery are also presented, including the use of spotting fluids, mechanical methods, and hydraulic impulse technologies, the selection of which depends on the specific conditions of the incident. The importance of the human factor in monitoring drilling parameters and preventing accidents is emphasized.

In the practical part of the study, the sticking interval for Well No. 53 at the Sharkiy Berdakh field is calculated based on drill string data, including section lengths, applied loads, and elastic elongation. The obtained result— a sticking interval of **1000.4 m**—can be used to improve diagnostic accuracy, optimize stuck pipe remediation methods, and prevent similar complications during further well operations.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot burg‘ilash jarayonida yuzaga keladigan avariyaviy holatlar muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda eng ko‘p uchraydigan va kritik murakkabliklardan biri sifatida burg‘ilash asbobining yopishib qolishi (prihvat) tahlil qilingan. Turli neft va gaz konlarida uchraydigan bunday holatlar burg‘ilash jarayonining to‘xtashiga olib keladi hamda murakkab va katta xarajat talab qiluvchi bartaraf etish ishlarini amalga oshirishni talab etadi.

Tadqiqotda yopishib qolishning asosiy turlari tahlil qilingan va ularni samarali bartaraf etish uchun o‘z vaqtida tashxis qo‘yish zarurligi asoslab berilgan. Yopishib qolish mexanizmini aniq aniqlash hamda burg‘ilash kolonnasining yopishib qolgan qismini lokalizatsiya qilish texnologik qarorlarni qabul qilishda muhim omil ekani ko‘rsatilgan. Zamonaviy diagnostika usullari, jumladan, prihvatni aniqlovchi qurilmalar, zondlash usullari va chuqur geofizik karotaj metodlari ko‘rib chiqilgan.

Shuningdek, yopishib qolgan burg‘ilash quvurini chiqarishning asosiy usullari — yuvuvchi suyuqliklar (spotting fluids), mexanik ta’sir usullari va gidroimpuls texnologiyalari — bayon etilgan bo‘lib, ularning qo‘llanilishi holatning aniq sharoitlariga bog‘liqligi ta’kidlangan. Burg‘ilash parametrlarini nazorat qilish va avariyalarni oldini olishda inson omilining muhim roli alohida qayd etilgan.

Amaliy qismda Sharqiy Berdax konidagi 53-sonli quduq misolida burg‘ilash kolonnasi ma’lumotlari (seksiyalar uzunligi, qo‘llanilgan yuklamalar va elastik cho‘zilish qiymatlari) asosida yopishib qolish intervali hisoblab chiqilgan. Olingan natijaga ko‘ra, yopishib qolish intervali **1000,4 m** ni tashkil etadi. Ushbu natija diagnostika aniqligini oshirish, yopishib qolgan quvurni bartaraf etish usullarini optimallashtirish hamda kelgusida shunga o‘xshash murakkabliklarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Ключевые слова: прихват бурильной колонны; КНБК; непроизводительное время (НПВ); спуско-подъёмные операции (СПО); наклонно-направленное и горизонтальное бурение; дифференциальный, геологический и радиальный прихваты; оптимизация процессов бурения; прихватомер.

Keywords: drill string sticking, bottom hole assembly (BHA), non-productive time (NPT), tripping operations (TPO), directional and horizontal drilling, differential sticking, geological sticking, radial sticking, drilling optimization, sticking detector.

Kalit so‘zlar: burg‘ilash kolonnasining yopishib qolishi, kompozitsiya quyi burg‘ilash kolonnasi (KNBK), noishlab chiqarish vaqti (NIV), tushirish-ko‘tarish operatsiyalari (TKO), yo‘naltirilgan va gorizontal burg‘ilash, differensial yopishib qolish, geologik yopishib qolish, radial yopishib qolish, burg‘ilash jarayonini optimallashtirish, yopishib qolishni aniqlovchi asbob (prihvatomer).

Введение

Анализ результатов бурения наклонно-направленных и вертикальных скважин в Республике Узбекистан, в частности в Байсунском районе и на плато Устюрт, показал, что доля непроизводительного времени (НПВ) в общем времени бурения в среднем составляет около 24% от общей продолжительности строительства скважин. [1,2,3]

Прихват бурильной колонны представляет собой состояние, при котором становится невозможным свободное вращение, спуск или подъём инструмента; при этом может также наблюдаться нарушение или полная потеря циркуляции бурового раствора. В случае несвоевременной ликвидации прихвата данное осложнение способно привести к серьёзным аварийным последствиям, вплоть до потери скважины.

Возникновение прихватов обусловлено совокупностью различных факторов, включая геологические условия, литологический состав и физико-механические свойства горных пород, глубину и интервал возникновения осложнения, а также тип самого прихвата. Существенную роль играет правильный выбор бурового раствора, его состав и эксплуатационные характеристики.

В зоне контакта долота с горной породой в процессе её разрушения возникают повышенные температуры. В этих условиях буровой раствор подвергается значительным термическим нагрузкам, что может приводить к ухудшению его свойств и снижению эффективности выполнения технологических функций.

Kirish: Axborotlashgan jamiyat sharoitida ma’lumotlarning hajmi va xilma-xilligi misli ko‘rilmagan sur’atlarda ortib bormoqda. Ayniqsa, geografik makon bilan bog‘liq ma’lumotlar davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ekologiya, transport, qishloq xo‘jaligi va kadastr tizimlarida muhim axborot resursiga aylangan. Bunday ma’lumotlarning samarali tahlil qilinishi va foydalanuvchilarga tushunarli shaklda yetkazilishi kartografik vizuallashtirish texnologiyalarining rivojlanishini taqozo etmoqda. Natijada kartografiya fani oddiy xarita tuzish vositasidan murakkab geoma’lumotlarni tahlil qilish va vizual interpretatsiya qilishga qaratilgan zamonaviy ilmiy yo‘nalishga aylanib bormoqda. So‘nggi yillarda geoma’lumotlar hajmining keskin ortishi kartografik axborotni tasvirlashning yangi usullarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Xalqaro tahlillarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha yaratilayotgan fazoviy ma’lumotlar hajmi har yili o‘rtacha 20–30 foizga oshib bormoqda. Sun’iy yo‘ldoshlar, uchuvchisiz uchish apparatlari, mobil qurilmalar va sensor tarmoqlari orqali yig‘ilayotgan ma’lumotlar sonining ortishi ularni qayta ishlash va vizuallashtirish jarayonlarini murakkablashtirmoqda. Shu sababli geoinformatsion tizimlar, veb-kartografiya platformalari va geovizual analitika vositalari kartografik ma’lumotlarni boshqarishning asosiy texnologik yechimlariga aylanmoqda. Kartografik vizuallashtirishning asosiy vazifasi ma’lumotlarni estetik ko‘rinishda namoyish etish emas, balki murakkab fazoviy bog‘liqliklarni inson tomonidan tez va aniq idrok etiladigan shaklga keltirishdan iborat. Ilmiy tadqiqotlar inson miyasi tashqi axborotning katta qismini vizual obrazlar orqali qabul qilishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan xaritalar murakkab statistik ma’lumotlarni, hududiy tafovutlarni va makon bilan bog‘liq jarayonlarni ifodalashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, interaktiv xaritalar va dinamik vizualizatsiya usullarining paydo bo‘lishi foydalanuvchilarga ma’lumotlarni turli masshtablarda ko‘rish, tahlil qilish va taqqoslash imkoniyatini yaratdi. Raqamli kartografiya rivojlanishining yangi bosqichi uch o‘lchamli modellashtirish, virtual geografik muhitlar va real vaqt rejimida yangilanadigan geovizual tizimlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy GIS platformalari millionlab fazoviy obyektlarni qayta ishlash va ularni vizual ko‘rinishda taqdim etish imkoniyatiga ega. Natijada kartografik ma’lumotlardan foydalanish doirasi kengayib, ular nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki hududiy rejalashtirish, ekologik monitoring, tabiiy resurslarni boshqarish, transport logistikasini optimallashtirish va favqulodda vaziyatlarni prognozlash kabi yo‘nalishlarda ham keng qo‘llanilmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishning zamonaviy usullarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning

texnologik imkoniyatlari va amaliy afzalliklarini baholash hamda geovizualizatsiya vositalarining kartografik axborotni taqdim etish samaradorligiga ta’sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirish texnologiyalarining hozirgi holatini baholash va ularni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishning zamonaviy usullarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, geoinformatsion tizimlar va raqamli kartografiya texnologiyalarining fazoviy ma’lumotlarni taqdim etishdagi imkoniyatlarini baholash hamda interaktiv xaritalar, veb-kartografiya va 3D vizuallashtirish vositalarining kartografik axborotning aniqligi, tushunarliligi va amaliy samaradorligiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

1.Kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishning nazariy asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish.

2.Raqamli kartografiya va geoinformatsion tizimlarning kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishdagi o‘rnini tahlil qilish.

3.Kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalar, jumladan GIS, WebGIS, 3D modellashtirish va geovizualizatsiya usullarini tadqiq etish.

4.Fazoviy ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va vizual ko‘rinishda taqdim etish jarayonlarining ilmiy-uslubiy jihatlarini baholash.

5.ArcGIS, QGIS va boshqa kartografik dasturlarning vizuallashtirish imkoniyatlarini tahlil qilish.

6.Interaktiv xaritalar va veb-kartografiya texnologiyalarining foydalanuvchilar uchun qulayliklari hamda amaliy samaradorligini aniqlash.

7.Uch o‘lchamli (3D) vizuallashtirish texnologiyalarining kartografik ma’lumotlarni ifodalashdagi afzalliklarini baholash.

8.Kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishning hududiy rejalashtirish, ekologik monitoring, kadastr va boshqaruv tizimlaridagi ahamiyatini asoslash.

9.Kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

10.Zamonaviy vizuallashtirish texnologiyalarining kartografik mahsulotlar sifati, aniqligi va informativligiga ta’sirini baholash.

Natijalar: Tadqiqot jarayonida kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishning zamonaviy usullari tahlil qilinib, ularning fazoviy ma’lumotlarni taqdim etish samaradorligiga ta’siri baholandi. Olingan natijalar geovizualizatsiya texnologiyalarining kartografik axborotni qabul qilish, tahlil qilish va undan foydalanish jarayonlarini sezilarli darajada takomillashtirishini ko‘rsatdi.


Tahlillar natijasida aniqlandiki, an’anaviy statik xaritalar foydalanuvchiga ma’lum bir vaqt kesimidagi holatni aks ettirsa, zamonaviy interaktiv xaritalar ma’lumotlarni dinamik ravishda boshqarish, qatlamlar bo‘yicha tahlil qilish va turli masshtablarda ko‘rish imkonini beradi. GIS texnologiyalari asosida yaratilgan interaktiv xaritalarda foydalanuvchilarning ma’lumotlarni qabul qilish tezligi an’anaviy xaritalarga nisbatan o‘rtacha 30–40 foizga yuqori ekanligi kuzatildi [1].

Raqamli kartografiya vositalaridan foydalanish natijasida fazoviy ma’lumotlarni qayta ishlash va vizuallashtirish jarayonlarining samaradorligi ham sezilarli darajada oshdi. Xususan, ArcGIS va QGIS platformalari yordamida katta hajmdagi geoma’lumotlarni qayta ishlash va xaritalashtirish uchun sarflanadigan vaqt an’anaviy usullarga nisbatan o‘rtacha 35 foizga qisqardi [2]. Bu esa kartografik mahsulotlarni tayyorlash jarayonining tezlashishiga va inson omili bilan bog‘liq xatoliklarning kamayishiga xizmat qiladi.

Masofadan zondlash ma’lumotlari asosida yaratilgan vizual mahsulotlar hududiy jarayonlarni aniqlash va monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Tadqiqot davomida sun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida shakllantirilgan tematik xaritalar yer qoplami o‘zgarishlari, urbanizatsiya sur’atlari va ekologik holatni baholashda yuqori aniqlik darajasini namoyon etdi [3]. Bu esa kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, uch o‘lchamli (3D) vizuallashtirish usullarining qo‘llanilishi murakkab fazoviy obyektlarni real muhitga yaqin ko‘rinishda tasvirlash imkonini berdi. Ayniqsa, shaharsozlik, transport

infratuzilmasi va muhandislik loyihalarida 3D modellar yordamida hududiy tahlillarni amalga oshirish an’anaviy ikki o‘lchamli xaritalarga nisbatan ko‘proq ma’lumot berishi aniqlandi [4].



1-rasm. Kartografik ma’lumotlarni 3D vizuallashtirish namunasi (QGIS dasturida tuzildi)

1-rasmda "tadqiqot hududining morfologik va relyef xususiyatlarini inobatga olgan holda, Namangan viloyati tuproq qoplamining fazoviy tarqalishi Raqamli balandlik modeli (DEM) asosida 3D formatda vizuallashtirildi. Bu esa tuproq tiplarining relef balandligi va qiyalik burchaklariga bog‘liqligini aniqroq tahlil qilish imkonini berdi."

Tadqiqot davomida veb-kartografiya texnologiyalarining imkoniyatlari ham baholandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, onlayn kartografik platformalar foydalanuvchilarga geoma’lumotlarni istalgan vaqt va joyda ko‘rish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, ma’lumotlarni masofadan turib yangilash va tarqatish imkoniyati kartografik servislarning operativligini oshiradi [5].

Olingan natijalar umumlashtirilganda, kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishning zamonaviy usullari nafaqat axborotni taqdim etish vositasi, balki fazoviy jarayonlarni chuqur tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim instrumenti sifatida shakllanayotganini ko‘rsatdi. Interaktiv xaritalar, geovizual analitika, 3D modellashtirish va veb-kartografiya texnologiyalarining rivojlanishi kartografiyaning amaliy imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda.

1-jadval. Kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishning zamonaviy usullarini taqqoslash

Vizuallashtirish usuli	Ma’lumotlarni yangilash imkoniyati	Foydalanuvchi bilan interaktivlik	Qo‘llanilish sohasi
An’anaviy qog‘oz xaritalar	Past	Mavjud emas	Atlaslar, bosma xaritalar
Raqamli 2D xaritalar	O‘rta	Cheklangan	GIS loyihalari
Interaktiv veb-xaritalar	Yuqori	Yuqori	Geoportallar, monitoring tizimlari
3D kartografik modellar	Yuqori	Yuqori	Shaharsozlik, muhandislik
WebGIS platformalari	Juda yuqori	Juda yuqori	Hududiy boshqaruv va tahlil

Jadval tahlili:

1-jadval ma’lumotlari kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirish texnologiyalarining rivojlanish bosqichlari va ularning funksional imkoniyatlari o‘rtasidagi farqlarni yaqqol namoyon etadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, an’anaviy qog‘oz xaritalar fazoviy ma’lumotlarni tasvirlashning klassik vositasi bo‘lib qolayotganiga qaramasdan, ularning ma’lumotlarni yangilash va foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqani ta’minlash imkoniyatlari cheklangan. Shu sababli bunday xaritalar asosan ma’lumotnomaviy va ta’limiy maqsadlarda qo‘llaniladi. Raqamli ikki o‘lchamli xaritalar kartografik axborotni elektron shaklda saqlash va qayta ishlash imkonini bergani sababli an’anaviy xaritalarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega.

Biroq ular ham foydalanuvchining ma’lumotlar bilan interaktiv ishlash imkoniyatlarini to‘liq ta’minlay olmaydi. Zamonaviy geoinformatsion tizimlarning rivojlanishi natijasida yaratilayotgan interaktiv veb-xaritalar esa foydalanuvchiga xarita masshtabini o‘zgartirish, qatlamlarni boshqarish, obyektlar haqida qo‘shimcha ma’lumot olish va real vaqt rejimida yangilanayotgan axborotlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda. Jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 3D kartografik modellar va WebGIS platformalari eng yuqori funksional imkoniyatlarga ega vizuallashtirish vositalari hisoblanadi. Ayniqsa, uch o‘lchamli modellashtirish usullari murakkab hududiy obyektlarni real fazoga yaqin ko‘rinishda aks ettirish orqali foydalanuvchining ma’lumotlarni idrok etish darajasini oshiradi. Bu holat shaharsozlik, transport infratuzilmasini rejalashtirish va muhandislik loyihalarini ishlab chiqishda alohida ahamiyat kasb etadi. WebGIS texnologiyalari esa kartografik ma’lumotlarni masofadan turib boshqarish, yangilash va keng foydalanuvchilar auditoriyasiga yetkazish imkonini berishi bilan ajralib turadi. Ushbu tizimlar geoma’lumotlarni tezkor almashish va tahlil qilishni ta’minlab, hududiy boshqaruv, ekologik monitoring hamda favqulodda vaziyatlarni boshqarish sohalarida samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Umuman olganda, jadval tahlili kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirish texnologiyalarining rivojlanishi natijasida xaritalarning nafaqat ko‘rgazmalilik darajasi, balki tahliliy va boshqaruv imkoniyatlari ham sezilarli darajada kengayganligini ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy kartografiyada interaktiv va dinamik vizuallashtirish usullarining ustuvor ahamiyat kasb etayotganini tasdiqlaydi.

Xulosa: O‘tkazilgan tadqiqotlar kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishning zamonaviy usullari fazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish va taqdim etish samaradorligini yangi bosqichga olib chiqayotganini ko‘rsatdi. Raqamli kartografiya, geoinformatsion tizimlar, masofadan zondlash texnologiyalari va interaktiv geovizualizatsiya vositalarining rivojlanishi natijasida xaritalar oddiy tasviriy mahsulotdan murakkab analitik axborot tizimiga aylandi. Bu esa hududiy jarayonlarni chuqurroq o‘rganish, obyektlar o‘rtasidagi fazoviy bog‘liqliklarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Tadqiqot natijalari zamonaviy vizuallashtirish usullarining asosiy afzalligi katta hajmdagi geoma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash va foydalanuvchiga qulay hamda tushunarli shaklda taqdim etishdan iborat ekanligini tasdiqladi. Ayniqsa, interaktiv xaritalar va WebGIS platformalari ma’lumotlarni real vaqt rejimida yangilash, turli qatlamlarni tahlil qilish hamda fazoviy axborotni masofadan turib boshqarish imkoniyatlarini yaratmoqda. Uch o‘lchamli modellashtirish texnologiyalari esa murakkab geografik obyektlarning fazoviy xususiyatlarini yanada aniqroq aks ettirish orqali kartografik mahsulotlarning informativligini oshirmoqda.

Shuningdek, kartografik vizuallashtirish texnologiyalarining rivojlanishi ekologik monitoring, yer resurslarini boshqarish, kadastr tizimlari, shaharsozlik va transport infratuzilmasini rejalashtirish kabi sohalarda amaliy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Fazoviy ma’lumotlarni vizual tahlil qilish imkoniyatlarining kengayishi hududiy rivojlanish bilan bog‘liq muammolarni tezkor aniqlash va ularga nisbatan oqilona yechimlar ishlab chiqishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Umuman olganda, kartografik ma’lumotlarni vizuallashtirishning zamonaviy usullari raqamli kartografiyaning strategik rivojlanish yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kelgusida sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar texnologiyalari va bulutli hisoblash tizimlari bilan integratsiyalashgan geovizualizatsiya vositalari kartografik axborotning aniqligi, tezkorligi va tahliliy imkoniyatlarini yanada kengaytirishi kutilmoqda. Bu esa kartografiya fanining ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirish bilan birga, geoma’lumotlardan foydalanishning yangi istiqbollarini shakllantiradi.

ADABIYOTLAR

1.Djumanov J.X., Zaynidinov X.N., Qosimova U.Z. Geoinformatsion tizimlar: – Toshkent: Metodist nashriyoti, 2024. – 312 b.

2.Geoinformatsion kartografiya: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Geodeziya va kartografiya milliy markazi, 2023. – 186 b.

3.Geoinformatsion tizimlar va texnologiyalari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2023. – 248 b.

4.Geoaxborot tizimlari va texnologiyalari: darslik. – Toshkent: Oliy ta’lim muassasalari uchun o‘quv adabiyoti, 2023. – 320 b.

5.Gulyamova L.X. Geoaxborot tizimlari va texnologiyalari: darslik. – Toshkent: TIQXMMI, 2017. – 284 b.

6.Jo‘rayev M.J. Raqamli kartografiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 280 b.

7.Karimov D.R. Fazoviy ma’lumotlar bazasi va ularni boshqarish. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 210 b.

8.Qodirov A.S. Masofadan zondlash asoslari. – Toshkent: Geodeziya va kartografiya milliy markazi, 2019. – 230 b.

9.Sattorov B.T. Geografik axborot tizimlarida modellashtirish. – Toshkent: Fan, 2021. – 260 b.

10.Tursunov E.A. Kartografik modellashtirish va tahlil. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 275 b.

11.Xolmatov Sh.R. Masofadan zondlash va kartografik tahlil. – Toshkent: Geodeziya nashriyoti, 2021. – 274 b.

12.Yuldashev N.M. Zamonaviy kartografiya texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 300 b

13.Sharofiddinova X.X, Jololdinov.A.T. IMPROVING THE INTEGRATIVE TEACHING METHODOLOGY OF BIOLOGY AND GEOGRAPHY BASED ON THE CARTOGRAPHIC ANALYSIS OF CLADOCERA ZOOPLANKTON IN NATURAL AQUATIC ECOSYSTEMS. - German International Journals: 2026. 119-121 b.

14. Sharofiddinova X.X, Qosimov.L.M. A Model for Institutional Engagement of University Students in Land Accounting and State Registration of Real Estate Rights Based on Geo-Information Intelligence – Hamburg, Germany March 13, 2026. 36-46 b

UO'T: 378.147:37.013.42

BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINI KASBIY-METODIK RIVOJLANISH JARAYONINING PEDAGOGIK MOHIYATI VA TARKIBIY TUZILISHI

Yoqubaliyeva Dilafro'z Payzidin qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirish jarayonining pedagogik mohiyati, uning tarkibiy tuzilishi hamda zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, kasbiy kompetensiyani shakllantirishga doir mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari qiyosiy yondashuv asosida yoritiladi. Tadqiqot natijasida kasbiy-metodik rivojlanishning samarali modeli va uning asosiy komponentlari aniqlanadi.

Аннотация. В статье научно-теоретически анализируется педагогическая сущность процесса профессионально-методического развития будущих учителей-воспитателей, его структурная структура и значение в современной системе образования. Также на основе сравнительного подхода рассматриваются взгляды отечественных и зарубежных ученых на формирование профессиональной компетентности. В результате исследования выявлена эффективная модель профессионально-методического развития и ее основные компоненты.

Abstract. This article scientifically and theoretically analyzes the pedagogical essence of the process of professional and methodological development of future teachers of the subject of education, its structural structure, and its importance in the modern education system. Also, the views of domestic and foreign scientists on the formation of professional competence are illuminated on the basis of a comparative approach. As a result of the study, an effective model of professional-methodological development and its main components are determined.

Kalit so'zlar: kasbiy-metodik rivojlanish, metodik tayyorgarlik, pedagogik kompetensiya, refleksiya, tarbiya fani, innovatsion ta'lim, akmeologiya.

Ключевые слова: профессионально-методическое развитие, методическая подготовка, педагогическая компетентность, рефлексия, воспитательная наука, инновационное образование, акмеология.

Keywords: professional and methodological development, methodological training, pedagogical competence, reflection, educational science, innovative education, acmeology.

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining kasbiy va metodik tayyorgarligi ta'lim sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarbiya fanini o'qitishda pedagogning metodik mahorati, tarbiyaviy jarayonni tashkil etish qobiliyati va kasbiy refleksiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining yangi tahriri doirasida o'qituvchi shaxsiga qo'yilayotgan talablar mutlaqo o'zgardi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Biz uchinchi Renessans poydevorini barpo etishni maqsad qilgan ekanmiz, buning uchun eng avvalo zamonaviy bilimlarni egallagan, metodik jihatdan yetuk pedagog kadrlarni tayyorlashimiz lozim"[1].

Zamonaviy pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak "Tarbiya" fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik jihatdan rivojlantirish masalasi o'zining mohiyatiga ko'ra ko'p qirrali va dinamik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonning pedagogik mohiyati shunchaki metodik ko'nikmalarni

o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmay, balki bo‘lajak pedagogning shaxsiy va kasbiy qadriyatlari integratsiyasini, uning intellektual salohiyati hamda ijtimoiy mas’uliyatining o‘sishini ifodalaydi. “Tarbiya” fani o‘z mazmuniga ko‘ra odobnoma, milliy g‘oya, vatanparvarlik va etika kabi tushunchalarni birlashtirganligi sababli, ushbu fan o‘qituvchisining metodik rivojlanish jarayoni o‘ziga xos aksiologik yondashuvni talab etadi. Ya’ni, o‘qituvchi nafaqat axborot yetkazuvchi, balki ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarni o‘quvchi ongiga singdiruvchi asosiy sub’ekt sifatida namoyon bo‘ladi. Binobarin, kasbiy-metodik rivojlanishning pedagogik asosi sifatida o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyoji va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirib borishga yo‘naltirilgan ichki motivatsiyasi tushuniladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan murakkab tizim sifatida qaralmoqda. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-metodik rivojlanishi uzluksiz, tizimli va innovatsion jarayon sifatida tadqiq etilmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-metodik rivojlanishi - bu shunchaki o‘z fani bo‘yicha bilimlarni oshirish emas, balki o‘quv jarayonini loyihalash, boshqarish va baholashning innovatsion usullarini egallash jarayonidir. Bugungi kunda an’anaviy “bilim beruvchi” (informant) o‘qituvchidan “fasilitator” (yo‘naltiruvchi), “tutor” (maslahatchi) va “moderator” sifatidagi pedagog modeliga o‘tish metodik rivojlanishning yangi strukturasini talab etmoqda.

Shu borada, Dewey refleksiv tafakkur nazariyasida o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish jarayoni kasbiy-metodik rivojlanishning asosiy mexanizmi ekanligini ta’kidlaydi[2]. Bugungi kundagi tadqiqotlar esa refleksiv va muammoli ta’lim metodlari o‘qituvchilarning analitik va kreativ tafakkurini sezilarli darajada rivojlantirishini empirik jihatdan isbotlagan. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, pedagogik oliy ta’lim tizimida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy-metodik rivojlanishini tizimli ravishda yuksaltirishga yetarli darajada e’tibor qaratilmayapti. Ko‘pincha ta’lim jarayoni nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib, talabalar real pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muammoli qarorlar qabul qilish va refleksiv faoliyat olib borish ko‘nikmalarini yetarli darajada egallamayapti. Bu esa ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatida qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Ko‘pgina pedagoglar nazariy jihatdan kuchli bo‘lsa-da, amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni (masalan, loyihaviy ta’lim - PBL, teskari sinf - Flipped Classroom) qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu esa kasbiy-metodik rivojlanish jarayonining pedagogik mohiyatini qayta ko‘rib chiqish va uning tarkibiy tuzilishini ilmiy asoslash zaruratini tug‘diradi.

L.S. Vygotskiy shaxs rivojlanishini ijtimoiy muhit va faoliyat bilan bog‘liq jarayon sifatida izohlaydi[9]. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi o‘qituvchining kasbiy o‘sish bosqichlarini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

J. Dewey ta’limni tajribaga asoslangan jarayon sifatida talqin qilib, o‘qituvchining amaliy faoliyati uning kasbiy rivojlanishida markaziy o‘rin egallashini ta’kidlaydi[2].

O‘zbekistonlik olimlari X. Ibragimov, M. Yuldashev, Sh. Sharipovlar pedagogik kompetensiya nazariya va amaliyot integratsiyasi asosida shakllanishini alohida qayd etadi[11].

Yuqoridagi olimlarning nazariyalariga asoslangan holda bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirish orqali tarbiya fanini o‘qitishga tayyorlash metodikasini olib boorish muhim jarayon hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Kasbiy-metodik rivojlanish muammosi pedagogika fanida keng o‘rganilgan. Xususan, xorijiy olimlar qarashlarini o‘rganar ekanmiz L.Shulmanning nazariyalarida pedagogik bilimlarni “Pedagogical Content Knowledge” (PCK) sifatida izohlaydi va o‘qituvchi fan bilimini uni o‘qitish metodikasi bilan uyg‘unlashtirishi kerakligini ta’kidlaydi[3]. Ayan olimning ushbu nazariyasini tahlil qilar ekanmiz o‘qituvchi mutaxassislik

bilimini yuksaltirishga, fanni o‘qitish metodikasi bilan uyg‘un holda olib borishga undaydi. Pedagog har bir mavzuni o‘quvchiga tushuntirishda metodik bilimlaridan foydalangan holda tashkil etishi nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchi rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridan biri bu refleksiv-baholovchi komponentdir. Ushbu bosqichda pedagog o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini xolis baholash hamda o‘z ustida ishlashning shaxsiy traektoriyasini chizish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ta'kidlash joizki, "Tarbiya" fani o‘qituvchisi uchun kasbiy-metodik rivojlanish faqatgina o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish emas, balki "pedagogik mahorat" darajasiga ko‘tarilish jarayonidir. Zero, tarbiya jarayoni o‘qituvchidan yuksak emotsional intellekt, kommunikativ madaniyat va o‘z xulq-atvori bilan o‘quvchilarga namuna bo‘lishni (shaxsiy namuna tamoyili) talab qiladi.

M.Eraut kasbiy rivojlanishni uzluksiz o‘rganish jarayoni sifatida ko‘radi[6]. Uning fikricha, o‘qituvchi amaliy tajriba orqali o‘z metodikasini doimiy takomillashtirib boradi. Olimning fikriga ko‘ra, bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirish aynan amaliyot jarayonida yuksaladi va sayqallanadi. Bugungi kunda maktablarda olib borilayotgan amaliyot kunlarida talaba o‘quvchi bilan muloqot qilish, darsni tashkil etish, zamonaviy pedagogic texnologiyalardan samarali foydalanish kabilarni o‘z o‘rnida qo‘llay olishi muhim hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy-metodik rivojlanish jarayoni - bo‘lajak mutaxassislarda pedagogik mahoratni, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo‘llash ko‘nikmalarini va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan uzluksiz tayyorgarlik tizimidir.

Day esa o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini emotsional va refleksiv jarayon sifatida izohlaydi[7]. Kasbiy-metodik rivojlanish muammosi ko‘p qirrali bo‘lib, u akmeologiya, psixologiya va umumiy pedagogika kesishmasida o‘rganiladi.

Donald Schön o‘zining "The Reflective Practitioner" (Reflektiv amaliyotchi) asarida metodik o‘sishning asosiy mexanizmi sifatida "harakat ustida mulohaza yuritish" (reflection-on-action) nazariyasini ilgari suradi [4].

Linda Darling-Hammond tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, samarali metodik rivojlanish - bu uzoq muddatli, hamkorlikka asoslangan va bevosita o‘quvchi natijalariga yo‘naltirilgan jarayondir.

MDH olimlarining nazariyalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, A.K. Markova professionalizmni tahlil qilar ekan, pedagogning metodik rivojlanishini "shaxsiy imkoniyatlarning kasbiy talablarga moslashishi va undan o‘zib ketishi" sifatida tavsiflaydi [8].

N.V. Kuzmina esa metodik mahoratning shakllanishida "pedagogik refleksiyaning" o‘rni beqiyos ekanligini isbotlagan.

M.I.Dyachenko va L.A.Kandibovich kasbiy faoliyatga tayyorlikni o‘rganishda kasbiy-metodik rivojlantirish va shaxsiy yondashuvni taqdim etib, uning tarkibida quyidagi komponentlarni ajratib ko‘rsatishgan [10]:

1) faoliyatga ijobiy munosabatni, qo‘yilgan vazifani muvaffaqiyatli bajarish zarurligini, muvaffaqiyatga erishish va o‘zini eng yaxshi tomondan namoyon etish istagini nazarda tutadigan motivatsion komponent;

2) yo‘naltiruvchi komponent, kasbiy faoliyatning xususiyatlari,kasbiy-metodik rivojlantirish, uning talablari haqidagi bilim va tasavvurlarni o‘z ichiga oladi;

3) operatsion komponent kasbiy faoliyatning kompetensiyalari, bilimlari, ko‘nikmalari va usullarini egallashni nazarda tutadi;

4) irodaviy komponent o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini safarbar etishni anglatadi;

5) baholash komponenti o‘z kasbiy faoliyatini yanada takomillashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadida baholashni nazarda tutadi.

V.A.Slastenin va L.S.Podimova bo‘lajak kasbiy faoliyat tarkibida quyidagi komponentlarni ajratib ko‘rsatadilar:

1) psixologik (jarayonga e’tibor qaratish, qiziqish va ehtiyoj);

2) ilmiy-nazariy (umumiy madaniy va maxsus bilimlar);

3) amaliy (zarur kasbiy ko‘nikmalar);

4) psixofiziologik (insonning tarjimai holi, kasbiy jihatdan muhim shaxsiy fazilatlari va qobiliyatlari);

5) jismoniy (kasb talablariga mos keladigan salomatlik va rivojlanish holati).

Bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy-kasbiy sifatlari tuzilmasi murakkab tizim bo‘lib, uni ayrim olimlar turlicha talqin etadilar [10].

Mahalliy olimlar ham bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirish masalalarini professor N.A. Muslimov pedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqqan bo‘lib, u kasbiy rivojlanishni shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ichki ehtiyoji bilan bog‘laydi [12].

B.S. Abdullayeva esa pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarida metodik tayyorgarlikning konseptual modellarini taklif etgan.

R.X. Jo‘rayev innovatsion ta’lim muhitida pedagogik faoliyatni tashkil etishning metodik tamoyillarini asoslab bergan.

Pedagog olimlar Ibragimov X, Yuldashev M, Hasanov Rlar kasbiy-metodik tayyorgarlikni pedagogik faoliyatning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Ularning fikricha, o‘qituvchi chuqur ilmiy bilimga ega bo‘lishi, metodik mahoratni egallashi, innovatsion texnologiyalarni qo‘llay olishi lozim.

Yuqoridagi olimlarning nazariyalaridan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-metodik rivojlanishi pedaoglik faoliyatini mukammal egallashiga turtki beradi. Aynan, tarbiya fani o‘qituvchisining bugungi kundagi ustuvor vazifalaridan biri, o‘sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama rivojlantirish, vatanimizga xizmat qiladigan, ertangi kuni uchun qayg‘uradigan va mustaqil, erkin fikrlay oladigan o‘quvchi-yoshlarni tarboyalash muhim hisoblanadi.

METODLAR (METHODS). Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Sistemali-strukturaviy tahlil: Metodik rivojlanish jarayoni yaxlit tizim sifatida ko‘rilib, uning elementlari (maqsad, mazmun, vosita, natija) tahlil qilindi.

Qiyosiy pedagogika: O‘zbekiston ta’lim tizimidagi metodik xizmat ko‘rsatish modellari xalqaro (OECD mamlakatlari) tajribasi bilan qiyoslandi.

Gnoseologik yondashuv: Bilish nazariyasi asosida pedagogning metodik bilimlarni o‘zlashtirish va ularni malakaga aylantirish bosqichlari o‘rganildi.

Sotsiologik so‘rovnoma: 2024-yil may-iyun oylarida Toshkent va Samarqand viloyatlaridagi 200 nafar o‘qituvchi o‘rtasida “Kasbiy rivojlanishdagi to‘siqlar va ehtiyojlar” mavzusida so‘rovnoma o‘tkazildi. Ushbu metodlar orqali kasbiy-metodik rivojlanish jarayonining tarkibiy tuzilishi ilmiy asosda o‘rganildi.

Bo‘lajak mutaxassisning ish samaradorligi shakllangan maxsus bilimlar, amaliy ko‘nikma va malakalar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Kasbiy faoliyatda shakllangan xulq-atvor me’yorlari, ayniqsa, pedagogik faoliyatda dolzarb bo‘lgan me’yorlar, hozirgi vaqtda hatto oliy ta’lim muassasasida o‘qish jarayonida ham olinadigan amaliy tajribaning mavjudligi, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy-metodik rivojlanish jarayonida pedagogik shakllanishi va moslashuviga yordam beradi.

Kompetensiyaviy yondashuvning rivojlanishida ingliz olimi John Raven muhim hissa qo‘shdi. Uning “Competence in Modern Society”(1984) asarida kompetensiya ko‘p komponentli hodisa sifatida tavsiflanadi va 37 turli kompetensiyalar tasnifi taklif etiladi. Raven kompetensiyalarni shaxsning motivatsiyasi, qiymat yo‘nalishlari, ijtimoiy xulq-atvori va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. Tadqiqotchi kompetensiyani odamlarning turli faoliyat sohalarida muvaffaqiyatli harakat qilishlariga imkon beruvchi bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarning o‘ziga xos kombinatsiyasi deb ta’riflaydi. Ravenning kompetensiya tushunchasi static bilimlar to‘plamidan farqli ravishda, dinamik va kontekstga bog‘liq bo‘lgan xususiyatni aksettiradi, ya’ni kompetensiya konkret vaziyatlarda qo‘llanilishi va namoyon bo‘lishi lozim.

NATIJALAR. Tadqiqot natijasida kasbiy-metodik rivojlanish jarayoni quyidagi asosiy komponentlardan iborat ekani aniqlandi:

1. Motivatsion komponent. O‘qituvchining kasbga qiziqishi, ichki ehtiyoji va tarbiyaviy mas’uliyati. Rayan va Deci motivatsiyani ichki va tashqi omillarga ajratib, ichki motivatsiya kasbiy rivojlanishda muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

O‘qituvchining metodik rivojlanishga bo‘lgan ichki munosabati: Kasbiy etika**:** O‘z ishiga mas’uliyat va qadriyat sifatida qarash. Self-efficacy (O‘ziga ishonch): Yangi metodlarni qo‘llashda qo‘rquvni yengish. Bu kabi munosabatlar bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlanishiga va kasbiy faoliyatda kasbiy o‘sishga erishish hamda metodik tayyorgarlikni oshirishga samarali foyda beradi.

2. Kognitiv komponent. Pedagogik bilimlar tizimi, metodika, didaktika va psixologik bilimlar majmuasi sanaladi. J.Bruner esa bilimlarni strukturalashgan tizim sifatida o‘rganishni tavsiya qiladi. Bu komponent pedagogning nazariy asoslanganligini ifodalaydi. Bugungi kunda bu blok quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Neyropedagogika asoslari: O‘quvchi miyasi qanday o‘rganishini tushunish. Soddadan murakkablik asosida o‘quvchining psixofiziologik holatini inobatga olgan holda dars mashg‘ulotlarini tashkil etish muhimdir.

Andragogika: Kattalarning o‘qish xususiyatlarini bilish (metodik mahoratni oshirish uchun). Bu jarayonda bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini metodik mahoratini oshirish juda ahamiyatli bo‘lib, kattalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari tobora ortib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Fan didaktikasi: O‘z fani bo‘yicha eng so‘nggi ilmiy yangiliklardan xabardorlik bugungi kun pedagogi uchun juda keraklidir. O‘quvchiga bugungi kunda dunyoda va yurtimizda bo‘layotgan voqea –hodisalarga o‘z munosabatini bildira oladigan vatanparvar yoshlarni tarbiyalab ulg‘aytirmoq muhimdir.

3. Faoliyatga yo‘naltirilgan komponent. Darslarni loyihalash, metod tanlash va pedagogik vaziyatlarni boshqarish. Leontyev faoliyat nazariyasiga ko‘ra, shaxs aynan faoliyat jarayonida shakllanadi.

4. Refleksiv komponent. O‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati bo‘lib, o‘qituvchi har bir dars mashg‘ulotini tahlil qilishi va o‘zini ustida ishlashi kerak. D.Schön refleksiv amaliyotni professional rivojlanishning asosiy omili sifatida ko‘rsatadi[4].

Pedagogning o‘z-o‘zini baholashi kasbiy-metodik rivojlanish ehtiyojlarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Chunki pedagog o‘zining kuchli va zaif tomonlarini eng yaxshi biladigan shaxsdir. Ammo bu jarayon subyektiv bo‘lishi mumkinligi sababli rahbar tomonidan ob’yektiv baholash mexanizmlari bilan muvozanatlashishi lozim. Rahbar pedagogning o‘zini baholash natijalarini monitoring natijalari**,** ta’lim sifati ko‘rsatkichlari**,** o‘quvchilar rivoji va ota-onalar fikri bilan solishtirishi zarur.

Bu jarayonning eng yuqori bosqichi bo‘lib, o‘qituvchi o‘zining dars o‘tish uslubini tashqaridan kuzatadi va tahlil qiladi.

Ko‘rsatkich	**Reproduktiv (Quyi)**	**Produktiv (O‘rta)**	**Kreativ (Yuqori)**
Metodlardan foydalanish	Bunda o‘qituvchi tayyor andozalar asosida tashkil etadi	Metodlarni moslashtiradi	O‘qituvchi ijod qilib, shaxsiy metodikasini yaratadi
IKT savodxonligi	O‘qituvchi faqat taqdimot qilishi mumkin	Platformalar bilan ishlash	Raqamli kontent yaratuvchisi
Muammolarga yondashuv	O‘qituvchi faqat shikoyat qiladi	Bir necha yechim qidiradi	Muammoni imkoniyatga aylantiradi

MUHOKAMA. Kasbiy-metodik rivojlanish oddiy malaka oshirish jarayoni emas, balki uzluksiz pedagogik evolyutsiya hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi omillar bilan bevosita bog‘liq:

- innovatsion ta’lim texnologiyalari - bu ta’lim maqsadlariga erishish uchun o‘qitish shakllari, metodlari va vositalarining yangilangan majmuasi bo‘lib, u nafaqat bilim berishga, balki talabaning shaxsiy imkoniyatlarini ochishga, unda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.
- mustaqil ta’lim faoliyati - bu ta’lim oluvchining o‘qituvchi bevosita ishtirokisiz, lekin uning rahbarligi va nazorati ostida muayyan o‘quv ishlarini bajarishi, bilim, ko‘nikma va malakalarni mustaqil egallash jarayonidir.
- pedagogik tajriba - bu o‘qituvchining ta’lim-tarbiya jarayonidagi amaliy faoliyati, uning natijalari, shuningdek, yangi usul va vositalarni sinab ko‘rish jarayonining yig‘indisidir.
- refleksiv tahlil – bu pedagogning o‘z faoliyatini,o‘tkazgan darsini, tanlagan metodini va natijasini tashqaridan kuzatuvchi sifatida tanqidiy baholash jarayonidir. Sodda qilib aytganda, refleksiv tahlil bu- “Men nimani qildim?”, “Nega aynan shunday qildim?” va “Bundan qanday saboq oldim” degan savollarga javob tushuniladi.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchisi uchun refleksiv tahlil kasbiy o‘sishning yagona yo‘lidir, chunki tarbiya jarayoni qoliplarga solib bo‘lmaydigan, doimo o‘zgaruvchan jarayondir.

Tarbiya fanini o‘qitishda bu jarayon yanada murakkab bo‘lib, o‘qituvchidan yuqori darajadagi kommunikativ, axloqiy va metodik kompetensiyani talab qiladi. Olimlar fikriga ko‘ra samarali o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchi shaxsini shakllantiruvchi fasilitator sifatida ham faoliyat yuritadi.

Kasbiy-metodik rivojlanishning pedagogik mohiyati shundaki, u shaxsiy trayektoriya asosida qurilishi kerak. Bizning tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning 62 foizi an’anaviy (ommaviy) malaka oshirish kurslaridan ko‘ra, individual metodik maslahatlarni afzal ko‘radilar.

XULOSA. Bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida ushbu jarayonning mazmunan boyishi bevosita innovatsion muhit bilan bog‘liqdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ularning metodik tafakkurini shakllantirish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va dars ishlanmalariga ijodiy yondashish ushbu tizimning yadroviy qismi bo‘lishi lozim. Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirish jarayoni o‘z

mohiyatiga ko‘ra murakkab ijtimoiy-pedagogik fenomendir. Uning tarkibiy tuzilishidagi izchillik va komponentlar orasidagi o‘zaro aloqadorlik bo‘lajak mutaxassisning nafaqat professional bilimdonligini, balki jamiyatning ma’naviy poydevorini mustahkamlovchi yetuk shaxs sifatidagi qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu rivojlanish trayektoriyasi talabalik davridan boshlanib, butun kasbiy faoliyat davomida davom etuvchi uzluksiz pedagogik takomillashish zanjirini tashkil etadi.

Kasbiy-metodik rivojlanish bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini tayyorlashda asosiy ilmiy-pedagogik jarayon hisoblanadi. U motivatsion, kognitiv, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv komponentlardan tashkil topgan murakkab tizimdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu jarayonni samarali tashkil etish quyidagilarni ifodalaydi:

- ✓ o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirishga yordam beradi;
- ✓ ta’lim sifatini yaxshilaydi;
- ✓ tarbiyaviy jarayon samaradorligini kuchaytiradi.

Kasbiy-metodik rivojlanish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelinganligini ma’lum qilamiz: Strukturaviy yondashuv: Metodik rivojlanish faqat bilim berish emas, balki kognitiv, texnologik, motivatsion va reflektiv jarayonlarning sintezi sifatida qaralishi lozim. Raqamli transformatsiya: Pedagogning metodik arsenalida sun’iy intellekt bilan ishlash ko‘nikmasi ikkinchi darajali emas, balki bazaviy ko‘nikmaga aylanishi shart. Andragogik tamoyillar: O‘qituvchilar malakasini oshirishda ularni “o‘quvchi” sifatida emas, balki “tajribali mutaxassis” sifatida tan olib, tajriba almashish muhitini yaratish kerak. Ushbu xulosalarga asoslanib bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirish orqali fanni o‘qitishga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mumkin.

Xulosalash jarayonida mavzuni o‘rganib, quyidagicha tavsiyalarni ham berish mumkin.

Maktablarda “Ustoz-shogird” tizimini raqamli formatda (e-mentoring) yo‘lga qo‘yish juda ahamiyatli bo‘lib, bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlanishiga turtki beradi.

Har bir pedagog uchun raqamli “Kasbiy rivojlanish portfoliosi”ni shakllantirish va natijadorlikni shunga qarab baholash, ta’lim jarayonini olib borishda metodik tayyorgarlik ham ahamiyatlidir.

Metodik birlashmalarni “hisobot beruvchi” organ emas, balki “kreativ laboratoriya”ga aylantirish kasbiy faoliyatni amalga oshirishda samarali bo‘ladi.

Bo‘lajak “Tarbiya” fani o‘qituvchilarini kasbiy-metodik rivojlantirish - bu uzluksiz, dinamik va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi kadrlar tayyorlashning poydevori hisoblanadi. Biz taklif etgan pedagogik model va takomillashtirilgan metodika bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat professional bilimlarini, balki ularning ijtimoiy-pedagogik mas’uliyatini ham yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari kelajakda “Tarbiya” fani bo‘yicha o‘quv-metodik majmualar va pedagogik dasturlarni yaratishda muhim ilmiy-nazariy manba bo‘la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
2. Dewey, J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. Boston: D.C. Heath and Company, 1933.
3. Shulman, L. S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching. Educational Researcher, 1986, 15(2), 4-14.

4. Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. - New York: Basic Books, 1983.
5. Bruner J. *Toward a Theory of Instruction*. 1966.
6. Eraut M. Developing Professional Knowledge. 1994.
7. Day C. Developing Teachers. 1999.
8. Markova A. K. Psixologiya truda uchitelya. -M.: Prosveщenie, 1993. - 192 s.
9. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
10. Зеер Е. Ф. Психология профессий / Е. Ф. Зеер. - М.: Академический проект, 2003. - 336 с.
11. Ibragimov X., Yuldashev M., Hasanov R. Pedagogika nazariyasi.
12. Muslimov N. A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fan. dok. ... diss. - T.: 2007.

Dilafro'z Yoqubaliyeva, Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish, Universal xalqaro ilmiy jurnal: jild 2 № 4.2 (2025): Sun'iy intellektni pedagogik ta'limga integratsiya qilish:muammo va yechimlar mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. andijon. 23-25 aprel 2025-yil

UO'T: 004.946:004.92

VR O'YIN YARATISHDA BLENDER DASTURIDAN FOYDALANISH: OPTIMIZATSIYA VA AMALIY YONDASHUV

E.A.Qosimov
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi Seysmik xavfsizlik va barqaror qurilish milliy tadqiqot instituti

A.M.Ismoilov
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi Seysmik xavfsizlik va barqaror qurilish milliy tadqiqot instituti

R.R.Yo'ldashev
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi Seysmik xavfsizlik va barqaror qurilish milliy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada virtual reallik (VR) o'yinlarini ishlab chiqishda Blender dasturidan foydalanishning ilmiy-amaliy jihatlari, xususan, 3D aktivlarni modellashtirish va optimallashtirish jarayonlari tahlil qilingan. Shuningdek, seysmik xavfsizlik sohasida qo'llash maqsadida ehtimoliy zilzilalarni VR muhitda simulyatsiya qilish hamda interaktiv ishchi muhitlarni yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация. This article analyzes the scientific and practical aspects of using Blender in the development of virtual reality (VR) games, particularly the processes of 3D asset modeling and optimization. It also presents recommendations for applying VR in the field of seismic safety, including the simulation of potential earthquakes in a virtual environment and the creation of interactive workspaces.

Abstract. This article discusses the scientific and practical aspects of using Blender in the development of virtual reality (VR) games, particularly the processes of 3D asset modeling and optimization. It also provides recommendations for creating workspaces to simulate potential earthquakes using VR games.

Kalit so'zlar: virtual reallik, Blender, VR o'yin, optimizatsiya, 3D aktiv, renderlash.

Ключевые слова: виртуальная реальность, Blender, VR-игра, оптимизация, 3D-актив, рендеринг.

Keywords: virtual reality, Blender, VR game, optimization, 3D asset, rendering.

KIRISH

XXI asr – bu raqamli transformatsiya asri. Axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi insoniyat faoliyatining barcha jabhalariga kirib bordi. Ularning orasida eng inqilobiy yo'nalishlardan biri bu virtual reallik (VR) texnologiyasidir. VR insonning ongida sun'iy, ammo realga juda yaqin muhitni yaratish orqali yangi tajribalarni his etish imkonini beradi. Bugungi kunda VR texnologiyasi ta'lim, arxitektura, harbiy soha, sport, meditsina va turizmda keng qo'llanilmoqda. Endilikda bu texnologiya faqat o'yin yoki ko'ngilochar vosita emas, balki amaliy, ilmiy va iqtisodiy foyda keltiruvchi vosita sifatida qaralmoqda [1].

Virtual reallik (VR) texnologiyalari o'yin sanoatida foydalanuvchini sun'iy muhit ichiga chuqur jalb etuvchi immersiv tajriba yaratishga xizmat qiladi. An'anaviy kompyuter yoki mobil o'yinlardan farqli ravishda VR tizimlarida sahna har ikkala ko'z uchun alohida ko'rinishda render qilinadi, bosh harakati uzluksiz kuzatiladi va foydalanuvchi harakatiga juda qisqa vaqt ichida javob qaytarilishi talab etiladi. Shu sababli VR loyihalarda modellar sifati, kadrlar tezligi,

draw call miqdori, GPU/CPU yuklamasi, tekstura hajmi va interaktiv boshqaruv tizimi yagona texnik tizim sifatida qaralishi lozim [5], [6].

Blender dasturi ochiq kodli va bepul 3D modellashtirish muhiti bo‘lib, unda model yaratish, modifierlardan foydalanish, UV xaritalash, material tayyorlash, animatsiya, render va eksport jarayonlarini bitta ishlab chiqish muhitida tashkil etish mumkin. Biroq VR o‘yinlarda Blenderdan foydalanish faqat chiroyli obyekt yaratish bilan cheklanmaydi; modelning poligonlar soni, material tuzilmasi, tekstura o‘lchami, 3D muhitda obyektlar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarni aniqlash (collider)ni soddaligi va eksportdan keyingi mosligi oldindan rejalashtirilishi kerak. Aks holda, Unity yoki Unreal Engine muhitida qo‘llaniladigan optimizatsiya vositalari kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Unity hujjatlarida VR/AR muhitlarda GPU yuklamasini kamaytirishda ko‘rinmaydigan obyektlarni saralab chiqarish (occlusion culling), unumdorlik tahlili (profiling) va renderlash (rendering) ishlarini qisqartirish muhimligi ta‘kidlanadi [2], [3], [4], [5]. Unreal Engine hujjatlarida esa XR (kengaytirilgan reallik) loyihalarda VR na’munasi, platformaga mos sozlamalar, CPU/GPU unumdorlik tahlili (profiling) va kontentni soddalashtirish amaliyoti muhim ekani ko‘rsatiladi. OpenXR standarti turli VR/AR qurilmalar va dasturiy platformalar o‘rtasida yagona API qatlamini ta‘minlaydi. Shu bois Blenderda tayyorlangan aktivlar ushbu texnik talablar bilan uzviy bog‘liq holda yaratilishi zarur.

Maqolaning maqsadi Blender dasturida VR o‘yin uchun 3D aktivlarni yaratish va optimizatsiya qilish jarayonini ilmiy-amaliy tizim sifatida asoslash, har bir bosqichning o‘yin dvigatelidagi samaradorlikka ta‘sirini tushuntirish va ishlab chiquvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirish zarurati yuzaga keladi:

- VR sahnasi uchun aktiv turlarini toifalash; Blenderda geometriya, UV xaritalash, tekstura, material, LOD va collider optimizatsiyasini tahlil qilish;
- Unity va Unreal Engine bilan integratsiya jarayonini yoritish;
- har bir rasm va jadval orqali modellashtirish jarayonini izohlash;
- VR aktiv ishlab chiqishning yaxlit pipeline modelini taklif etish.

Blender rasmiy hujjatlarida soddalashtiruvchi modifikator (Decimate Modifier) mesh shaklini imkon qadar saqlagan holda vertex va face sonini kamaytirish uchun qo‘llanishi ko‘rsatiladi. UV Editor 2D tasvirlarni 3D model yuzalariga to‘g‘ri joylashtirish uchun UV xaritalarni tahrirlash imkonini beradi. Texture baking esa murakkab yoritish, normal, rang yoki soyalanish ma‘lumotlarini tekstura qatlamiga oldindan yozib qo‘yish orqali real vaqtli render bosqichida hisob-kitobni kamaytirishga xizmat qiladi.

Unity va Unreal Engine hujjatlariga ko‘ra, VR o‘yinlarda kadrlar tezligi va foydalanuvchi qulayligi bevosita kontentni optimallashtirish, soddalashtirilgan materiallardan foydalanish, LOD tizimi, culling usullari, profiling hamda platformaga moslashtirilgan sozlamalarni qo‘llash bilan uzviy bog‘liqdir. Shuningdek, OpenXR standarti turli qurilmalar uchun yagona abstraksiya qatlami yaratgani sababli input mapping va qurilma moslashuvchanligini soddalashtiradi [5]. Mavjud adabiyotlarda ushbu texnik yo‘nalishlar ko‘pincha alohida yoritiladi; mazkur maqola ularni Blenderda aktiv yaratish bosqichidan boshlab yagona amaliy zanjirga birlashtiradi.

Ishlab chiqilayotgan model vizual jihatdan yetarlicha tushunarli va estetik bo‘lishi, lekin real vaqtli renderlashda ortiqcha poligon, material, tekstura yoki fizik hisob-kitob yuklamasini keltirib chiqarmasligi lozim. Baholash jarayonida poligonlar soni, materiallar miqdori, draw call, tekstura o‘lchami, collider murakkabligi, FPS, CPU/GPU frame time va eksportdagi scale-rotation-origin mosligi asosiy texnik indikatorlar sifatida belgilandi. VR sahnasidagi obyektlar

bir xil texnik talabga ega emasligini ko‘rsatadi. Masalan, fon vazifasidagi devor yoki javon bilan foydalanuvchi ushlaydigan interaktiv predmetga qo‘yiladigan talab farq qiladi. Shu sababli optimizatsiya har bir obyektga bir xil qo‘llanmaydi, balki uning sahnadagi funksiyasiga qarab belgilanadi (1-jadval).


VR sahnasi aktivlarini toifalash va optimizatsiya mezonlari

1-jadval.

Aktiv turi	Blenderdagi tayyorlash mezoni	VR muhitdagi ahamiyati
Statik obyektlar	Devor, pol, shift va yirik mebelni modulli low-poly shaklda yaratish	Sahnaning umumiy geometriya yuklamasini kamaytiradi va culling samaradorligini oshiradi
Interaktiv obyektlar	Origin nuqtasi, collider va nomlash tizimini oldindan belgilash	Ushlash, ochish, surish kabi amallarni dvigatelda tez sozlash imkonini beradi
Dekorativ elementlar	Uzoqdan ko‘rinadigan predmetlarni soddalashtirish va tekstura orqali detal berish	Vizual muhitni boyitadi, lekin GPU yuklamasini nazorat ostida saqlaydi
Personaj va avatarlar	Retopologiya, skelet va animatsiya qatlamlarini soddalashtirish	Real vaqtli harakat va interaktivlikni barqarorlashtiradi.
UI va boshqaruv elementlari	Input mapping va interaction layer bilan mos nomlash	Qurilma turidan qat’i nazar foydalanuvchi harakatlarini bir xil talqin qilishga yordam beradi

Blenderda model yaratish va dastur tugmalaridan foydalanish


Blenderda VR aktiv tayyorlash jarayoni 3D Viewport, Object Mode va Edit Mode, transform manipulyatorlari, modifierlar paneli, materiallar oynasi, UV Editor hamda Shader Editor kabi asosiy ishchi tugma va panellardan foydalanish orqali tashkil etiladi. Modelning dastlabki shakli Object Mode holatida joylashtiriladi, Edit Mode orqali vertex, edge va face darajasida tahrirlanadi, Move/Rotate/Scale tugmalari bilan fazodagi ko‘lami moslanadi. Modifierlar panelida Decimate, Bevel, Mirror yoki boshqa vositalar tanlanadi; UV Editor oynasida tekstura xaritasi tekshiriladi. Ushbu amaliy jarayonning dastlabki ko‘rinishi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Blender dasturida 3D obyektni tayyorlash va tahrirlash interfeysi (manba: muallif ishlanmasi)

Aktiv ishlab chiqish pipeline modeli

VR o'yin aktivi tayyorlash bir martalik model chizish jarayoni emas, balki izchil pipeline asosida tashkil etiladigan murakkab ishlab chiqish zanjiridir. Pipeline konsepsiya, modellashtirish, UV xaritalash, baking, materiallarni birlashtirish, LOD, collider, eksport va profiling bosqichlarini qamrab oladi. Ushbu bosqichlar 2-rasmda umumlashtirilgan.



2-rasm. VR o'yin aktivi yaratish va optimizatsiya qilishning bosqichma-bosqich pipeline modeli (manba: muallif tomonidan tuzilgan)

Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, Blenderda VR o'yin uchun aktiv yaratish jarayonida optimizatsiya dastlabki bosqichdan boshlab tashkil etilishi kerakligini ko'rsatdi. Obyektning sahnadagi roli, foydalanuvchiga yaqinligi, interaktivligi va texnik yuklamasi birgalikda baholanganda ishlab chiqish sifati ortadi (2-jadval).

Blenderda VR o'yin aktivlarini optimizatsiya qilish yo'nalishlari

2-jadval.


Optimizatsiya yo'nalishi	Qo'llaniladigan usul	Natija
Geometriya	Low-poly modellashtirish, retopologiya, Decimate Modifier, keraksiz face va edge elementlarini olib tashlash	Poligonlar soni nazorat qilinadi; vertex shader yuklamasi kamayadi; yaqin va uzoq obyektlar orasida detal muvozanati saqlanadi
UV va tekstura	UV yoyish, seam belgilash, texture baking, normal map, 1K/2K tekstura tanlash	Video xotira sarfi kamayadi; ko'rinadigan yuzalarda tekstura zichligi yaxshilanadi; yuqori detallar tekstura orqali ifodalanadi
Materiallar	Materiallarni birlashtirish, texture atlas, soddalashtirilgan PBR shaderlardan foydalanish	Draw call soni kamayadi; render jarayoni yengillashadi; material boshqaruvi soddalashadi.
LOD tizimi	Yaqin, o'rta va uzoq masofa uchun modelning turli soddalikdagi versiyalarini yaratish	Kamera masofasiga qarab detal boshqariladi; FPS barqarorligi oshadi.

Optimizatsiya yo‘nalishi	Qo‘llaniladigan usul	Natija
Collider	Box, sphere, capsule yoki convex colliderlardan foydalanish	Fizik hisob-kitoblar soddalashadi; interaktiv obyektlar barqaror ishlaydi.
Eksport	FBX/glTF formatlari, scale=1, rotation apply, origin markazini tekshirish	Unity yoki Unreal Engine'da obyekt joylashuvi, o‘lchami va burilishidagi xatolar kamayadi.
Profiling	Unity Profiler, Unreal profiling vositalari, frame time va draw call monitoringi	Muammo manbasi aniqlanadi va Blenderga qaytib maqsadli optimizatsiya qilinadi.

Geometriya optimizatsiyasi VR sahnasining asosiy yuklama manbalaridan biridir. VR muhitida obyekt ikki ko‘z uchun ko‘rinishda qayta ishlanishi sababli modeldagi ortiqcha poligonlar foydalanuvchi sezadigan kechikish va FPS pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun foydalanuvchi yaqin ko‘radigan markaziy obyektlar nisbatan batafsil, uzoqdagi va dekorativ obyektlar esa low-poly shaklda tayyorlanishi maqsadga muvofiq. Yuqori detallar real geometriya orqali emas, balki normal map va texture baking orqali ifodalansa, vizual sifat saqlangan holda render yuklamasi kamayadi.


Blenderdagi Decimate Modifier mesh shaklini imkon qadar saqlagan holda face va vertex sonini kamaytirishga yordam beradi. Biroq avtomatik soddalashtirish har doim ham yetarli emas; muhim kontur chiziqlar, foydalanuvchi tez-tez ko‘radigan yuzalar va interaktiv tutashuv nuqtalari qo‘lda nazorat qilinishi lozim. Shu sababli retopologiya VR loyihada faqat estetik jarayon emas, balki samaradorlik va interaktivlikka xizmat qiluvchi texnik bosqich hisoblanadi.

Blenderda tayyorlangan aktivlar o‘yin dvigateliga eksport qilingach, ularning haqiqiy samaradorligi Unity yoki Unreal Engine muhitida tekshiriladi. Bunda obyektlarning joylashuvi, kamera ko‘rinishi, collider ishlashi, materiallar ko‘rinishi, input mapping va umumiy sahna yuklamasi baholanadi. 3-rasmda Blenderdan olingan obyektlar asosida Unity muhitida tashkil etilgan VR sahna sinovi ko‘rsatilgan.




3-rasm. Unity muhitida VR sahnani joylashtirish va sinovdan o‘tkazish jarayoni (manba: muallif ishlanmasi)

VR o‘yinlarda foydalanuvchi bilan muhit o‘rtasidagi aloqa input mapping orqali tashkil etiladi. Klaviatura, sichqoncha, gamepad yoki VR controllerdan keluvchi signal o‘yin ichidagi harakat, sakrash, ushlash, tanlash va menyu boshqaruvi kabi amallarga bog‘lanadi. OpenXR yondashuvi bu jarayonda qurilmaga bog‘liqlikni kamaytirib, action space orqali yagona boshqaruv qatlamini shakllantirishga yordam beradi (4-rasm).



4-rasm. VR o‘yinlarda input mapping va OpenXR asosidagi boshqaruv sxemasi (manba: muallif tomonidan tuzilgan)

Blender muhitida VR sahnaga mos interyer modellari tayyorlandi. Interyer sahnalari VR o‘yinlar uchun qulay sinov muhiti hisoblanadi, chunki ularda yirik statik yuzalar, mebel, dekorativ elementlar, yoritish, kamera harakati va foydalanuvchining obyektlarga yaqinlashishi birgalikda baholanadi. Ishchi xona interyerining umumiy render ko‘rinishi 5-rasmda keltirilgan.




5-rasm. Blenderda yaratilgan VR ish xonasi interyerining umumiy ko‘rinishi (manba: muallif ishlanmasi)

VR sahna uchun ikkinchi amaliy model sifatida yotoqxona interyeri tayyorlandi. Bu model yirik mebel, devor va pol qoplamasi, eshiklar, yoritish elementlari hamda foydalanuvchi harakatlanadigan bo‘sh fazoni baholash imkonini berdi. Yotoqxona sahnasining render ko‘rinishi 6-rasmda keltirilgan.



6-rasm. VR sahna uchun yaratilgan yotoqxona interyerining render ko‘rinishi (manba: muallif ishlanmasi)

Yakuniy bosqichda modelning faqat render ko‘rinishi emas, balki uning ichki texnik tuzilmasi ham tekshirildi. Blender ishchi muhitida materiallar, node tizimi, obyektlar hierarxiyasi, sahna qatlamlari va viewportdagi ko‘rinish bir vaqtda tahlil qilindi (7-rasm).



7-rasm. Blender muhitida VR xona modeli, material va sahna tuzilmasining ishchi ko‘rinishi (manba: muallif ishlanmasi)

Blenderdan Unity yoki Unreal Engine muhitiga eksport qilishda format tanlashdan tashqari, modelning ko‘lami, burilishi, origin nuqtasi, material nomlari, tekstura yo‘llari va collider mantiqi ham tekshiriladi.

Olingan natijalar Blender VR o‘yin ishlab chiqish jarayonida faqat model chizish vositasi emas, balki butun aktiv ishlab chiqish pipeline modelining asosiy bosqichi ekanini ko‘rsatadi. Unity va Unreal Engine kabi dvigatellar profiling, culling, batching va VR performance sozlamalarini taqdim etsa-da, ularning samarasi Blenderda to‘g‘ri tayyorlangan aktivlarga

bog‘liq. Agar modelning UV xaritasi tartibsiz, materiallari haddan tashqari ko‘p, collideri murakkab yoki origin nuqtasi noto‘g‘ri bo‘lsa, dvigateldagi optimizatsiya usullari cheklangan natija beradi.

VR o‘yinlarda optimizatsiya va vizual sifat qarama-qarshi tushunchalar emas. Yuqori detallarni real geometriyada emas, balki normal map, ko‘rinmaydigan obyektlarni saralab chiqarish (ambient occlusion) va texture baking orqali past poligonli modelga o‘tkazish vizual idrokni saqlab qolgan holda render yuklamasini kamaytiradi. Bu yondashuv ayniqsa interyer sahnalari, mebel elementlari, dekorativ predmetlar va o‘quv-simulyatsion VR muhitlarida samarali.

XULOSA

1. VR o‘yinlar uchun 3D aktivlarni yaratishda Blender dasturida low-poly modellashtirish, UV xaritalash, LOD va collider optimizatsiyasini dastlabki bosqichda qo‘llash renderlash yuklamasini kamaytirib, tizim unumdorligini oshiradi.

2. Taklif etilgan VR aktivlarini ishlab chiqish pipeline modeli Blender, Unity va OpenXR texnologiyalarini yagona zanjirga birlashtirib, barqaror FPS, samarali interaktivlik hamda yuqori sifatli virtual muhitni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Rizayev Vasliddin Nurmurod o‘g‘li. O‘zbekistonda VR (Virtual Reality) texnologiyalarining dolzarbligi va istiqbollari // New Renaissance international scientific journal, Volume 2, Issue 10, 598-601 b. https://doi.org/10.5281/zenodo.17477652.

2. D.A.Bekmirzayev, E.A.Qosimov, A.M.Ismoilov. Aholini zilzilaga tayyorlashda multimedia vositalarining amaliyotga joriy etilishi bo‘yicha tavsiyalar “Xalqaro tajriba: oliy ta'limni transformatsiya sharoitida zamonaviy muhandislik yo‘nalishida intellektual qobiliyatli kadrlar tayyorlash istiqbollari” mavzusida xalqaro konferensiya NamDTU, 29-aprel, 2025-yil, Namangan.

3. Muminov, A. B. (2024). The Importance of VR/AR Technologies in Medical Education. Journal of Scientific Innovations.

4. Mahmudova, M. A. (2025). Scientific Basis for Developing a 3D Anatomy Simulator in the Context of Uzbekistan. Tashkent.

5. Tursunov, B., & Iskandarov, A. (2023). “VR and AR Adoption in Uzbek Engineering Education.” Central Asian Journal of Engineering, 9(1), 112-128.

6. Xin Chen, Deborah R Barnett, and Casheena Stephens. Fad or future: The advantages and challenges of massive open online courses (moocs). In research-to practice conference in adult and higher education, pages 20–21, 2013.

7. Hogan J., Salo A., Rzig D.E., Hassan F., Maxim B. Analyzing Performance Issues of Virtual Reality Applications. arXiv:2211.02013, 2022. https://arxiv.org/abs/2211.02013

8. Mallik A., Xie J., Han Z. A Performance Analysis Modeling Framework for Extended Reality Applications in Edge-Assisted Wireless Networks. arXiv:2405.07033, 2024. https://arxiv.org/abs/2405.07033

9. Grande R., Albusac J., Vallejo D., Glez-Morcillo C., Castro-Schez J.J. Performance Evaluation and Optimization of 3D Models from Low-Cost 3D Scanning Technologies for Virtual Reality and Metaverse E-Commerce. Applied Sciences, 2024, 14(14), 6037. https://doi.org/10.3390/app14146037

10. Dang P. et al. A real 3D scene rendering optimization method for virtual reality applications. International Journal of Digital Earth, 2022. https://doi.org/10.1080/17538947.2022.2080878

UO'T: 378.241

TALABALAR BILIMLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY ONLINE PLATFORMALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Boqijonov Dadajon Dehqonali o'g'li
UBS Innovatsion texnologiyalarkafedrasi o'qituvchisi
Email:dadajonboqijonov@gmail.com

Madraximova Muyassarxon Boqijonovna
katta o'qituvchi. Namangan davlat texnika universiteti
e-mail: m.b.madrahimova@gmail.com

Annotatsiya. Quyida keltirilgan maqolada Wordwall.uz platformasidan qanday foydalanish keltirib o'tilgan. Wordwall dasturi yordamida o'yinlarni tashkil etish va u oprqali talabalarni qanday qilib baholash ko'rsatilgan.

Аннотация. В следующей статье описывается, как использовать платформу Wordwall.uz. В нем показано, как организовывать игры с помощью программы Wordwall и как с ее помощью оценивать учащихся.

Abstract. The following article describes how to use the Wordwall.uz platform. It demonstrates how to organize games using Wordwall and how to use it to assess students.

Kalit so'zlar: Wordwall, Kahoot, platform, baholash, ma'ruza mashg'uloti, potatoes.

Ключевые слова: Wordwall, Kahoot, платформа, оценка, лекционная подготовка, potatoes.

Keywords: Word wall, Kahoot, platform, assessment, lecture preparation, potatoes.

KIRISH

Hozirgi kunda axborot kommunikatsion texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalarini, ya'ni ijtimoi-iqtisodiy, ta'lim, qishloq xo'jaligi, tibbiyot sohalarini qamrab oldi[1]. Yuqoridagilardan kelib chiqib birgina ta'lim sohasini oladigan bo'lsak maktab o'quvchilari uchun kundalik.com, oliy ta'lim muassasalari uchun hemis platformalari yaratilib juda ham ko'plab qulayliklar yartildi. Misol uchun hemis platformasida endilikda talabalar mazkur ilova orqali o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan:


- reyting daftarchasi;
- transkript;
- o'zlashtirish ko'rsatkichlari;
- nazorat jadvallari;
- fanlarning barcha resurslari kabi ma'lumotlarni electron ko'rinishda olishlari

mumkin.


Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bizga ma'lumki hozirgi kungda talabalar o'quv auditoriyalarida ma'ruza, amaliy hamda tajriba dars mashg'ulotlari ko'rinishida yangi bilimlarni o'zlashtiradi. Ma'ruza dars mashg'ulotlari ikki va undan ortiq akademik guruhlarda, amaliy dars mashg'ulotlari yakka guruhlarda, tajriba dars mashg'ulotlarda esa bir akademik guruh ikki kichik guruhlarga bo'lingan holda olib boriladi. Amaliy va tajriba mashg'ulotlarda talabalarni soni kam bo'lganligi uchun baholashda qiyinchilik bo'lmaydi[2]. Lekin ma'ruza dars mashg'ulotlarda aksincha talabalar soni 50 nafardan ziyod bo'lganligi sababli ularning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini aniqlashda vaqt yetishmovchilik yuzaga kelishi mumkin.

Asosiy qism. Ma'ruza dars mashg'ulotlarida o'tilgan mavzularni talabalar tomonidan o'zlashtirish samaradorligini oshirish hamda bilimlarini baholash, ularning olgan bilimlarini

yanada mustahkamlash uchun oddiy lekin samarali dasturlar online platformalar juda ham ko‘p. Masalan wordwall.net, kahoot.ru, potatoes. Quyida biz wordwall platformasidan foydalanishni ko‘rib chiqamiz.




1-rasm. Wordwall.net platformasining bosh sahifasi




2-rasm. Ro‘yhatdan o‘tish oynasi

Platformaga kirish juda ham qulay buning uchun ixtiyoriy brauzerni ochib https://wordwall.net/ ishoratni yozish kifoya. Keyin ro‘yxatdan o‘tish tugmasi bosiladi(1-rasm).

Kerakli joylar to‘ldirilgandan so‘ng ro‘yxatdan o‘tish (Зарегистрироваться) tugmasi bosiladi(2-rasm). Agarda sizda google hisobingiz bo‘lsa va u brauzerda saqlangan bo‘lsa google hisob orqali ham ro‘yxatdan o‘tish mumkin.




3-rasm. Wordwall platformasining ishchi oynasi.



4-rasm. Yaratiladigan topshiriqlar uchun shablonlar jamlanmasi.


Ro‘yxatdan o‘tib bo‘lgach topshiriq yaratish(Создать занятие) bandi tanlanadi(3-rasm). Yaratmoqchi bo‘lgan topshiriqlarimizga mos bo‘lgan shablonni tanlaymiz(4-rasm). Misol uchun moslikni tekshirish(Сопоставить) bandini tanlaymiz.

Moslikni tekshirish(Сопоставить) bo‘limini tanlaganimizda quyidagi 5-rasmda berilgan holat yuzaga keladi.




5-rasm. Moslikni tekshirish(Сопоставить) bo‘limi.

Bu bo‘lim ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib birinchi qismiga kalit so‘z yoki kerakli rasm ikkinchi qismiga esa kalit so‘zga mos keladigan izoh yoziladi. Ma’lumotlar yakunlangandan so‘ng bajarish(Выполнено) buyrug‘ini tanlaymiz.




6-rasm. Ma'lumotlarni joylashtirish tartibi.

To'ldirish jarayonida rasm joylash yoki izoh yozishda qiyinchilik tug'ilmaydi chunki barcha ma'lumotlani rasmlarni internetdan avtomatik qidirish imkoniyati mavjud.



7-rasm. Tayyor bo'lgan topshiriqlar dizaynini o'zgartirish oynasi


Tayyor bo'lgan topshiriqlar to'plamini ko'rish uchun boshlash(Начать) tugmasi bosiladi. 7-rasmda ko'rsatilgan bo'limda biz berayotgan topshirig'imizni ko'rinishini o'zgartirishimiz mumkin bo'ladi.



8-rasm. Topshiriq silkasini guruhlarga jo'natish


Tayyor bo'lgan mutanosiblik testini talbalarga jo'natish uchun quyidagicha ketma-ketlik amalga oshiriladi:

Больше->Внедрить->9-rasmda belgilangan ishorat nusxasi olinadi va kerakli guruhlarga jo'natiladi.



9-rasm. Yaratilgan topshiriq silkasi





10-rasm. Talabalarning ro'yhatdan o'tish oynasi

Boshqa dasturlarda bo'lgani kabi bu dasturning ham ko'proq imkoniyatlaridan foydalanish uchun pulli kontentlarini sotib olish kerak. Bir so'z bilan aytganda ananaviy ma'ruza dars mashg'ulotlarini o'tish jarayonida wordwall dasturidan foydalanish darsning samarasini yanada oshadi.

***Xulosa**:* Xulosa qilib aytganda Wordwall dasturidan foydalanish talabalar bilimlarini baholash jarayonida quyidagi afzalliklarga ega online platforma:

- talabalarni bilimini baholashda vaqt tejaladi.
- Ma'ruza yoki amaliy darslarda o'qituvchi talabalarga ko'proq ma'lumot berish imkoniyatiga ega bo'ladi.
- Talaba nazariy olgan bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. БОҚИЖАНОВ, Д., & ҲАМДАМОВ, Д. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 367-372.
2. Маллабоев, Н. М., Бокижанов, Д., & Хамдамов, Д. (2022, June). МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В ДИСТАНЦИОННОМ ОБУЧЕНИИ. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 1, pp. 128-138).
3. Abdullaeva N, Mamurova F, Mallaboev N. Efficiency of experimental preparation use multimedia to enlarge some questions //Экономика и социум-Москва, 2018.-№ 5(48) С. 11-13.
4. Nosirjon Mallaboyev.Using the «assessment» method in assessing students' knowledge. //International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 11, volume 79 published November 30, 2019.
5. Mallaboyev Nosirjon Murodullayevich, Dadamirzayev Muzaffar G'ulomqodirovich, Normatov Azizbek Muhammatrizoyevich. Raqamli ta'lim muhitini shakllantirish muammolari.//Fan va jamiyatning o'zaro ta'siri–modernizatsiya va innovatsion rivojlanish sari yo'l xalqaro onlayn ilmiy-nazariy konferensiya. 10 th june 2020-Namangan city, Uzbekistan

UO'T: 378.147:811.111

TEXNIKA OTMLARIDAGI QISHLOQ XO'JALIGI TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY RIVOJLANISHIDA CHET TILLAR FANINING AHAMIYATI

Ermatova Yulduz Alisher qizi
Namangan muhandislik - qurilish instituti
Tayanch doktorant @yulduzermatova

Annotasiya. Maqolada muhandislik yo'nalishi talabalarining ingliz tili fanini o'qitilish xolatlari, mavjud muammolari taxlili keltirilgan. Muhandislik yo'nalishlarida professional chet tilini o'qitish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Аннотация. В статье проанализированы современное состояние преподавания английского языка студентам инженерных направлений подготовки и существующие проблемы в данной области. Также представлены предложения и рекомендации по совершенствованию преподавания профессионального иностранного языка в инженерном образовании.

Abstract. The article analyzes the current state of English language teaching for engineering students and examines existing challenges in this field. It also provides suggestions and recommendations for improving the teaching of professional foreign languages in engineering education

Kalit so'zlar. muhandislik, ingliz tili, kasbiy rivojlanish, professional chet tili

Ключевые слова. инженерия, английский, повышение квалификации, профессиональный иностранный язык

Keywords. engineering, english, professional development, professional foreign language

Kirish.

Jahonda texnika, qishloq xo'jaligi, texnologiya, qurilish, mashinasozlik sohalaridagi ilmiy ishlarning taraqqiyoti jadallashuvi, axborot texnologiyalarining globallashuvi, tezkor axborot olish, yaratish va uzatish yuqori aniqlik bilan amalga oshishiga olib keldi. Buning natijasida olinayotgan ma'lumotlarni o'qish, o'rganish va tushunishda chet tillarga bo'lgan extiyoj oshdi. Shu nuqtai nazardan chet tillar ta'limida talabalarning lingvistik kompetensiyasi(anglash, tushunish, tahlil qilish va faoliyatda to'g'ri foydalan olish) rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Umuman jamiyatni va xususan ta'limni axborotlashtirish, turli kasbiy sohalardagi xalqaro aloqalarning kengayishi qishloq xo'jaligi yo'nalishi bitiruvchilarini tayyorlash darajasiga, shu jumladan ularning chet tilida kasbiy muloqotga tayyorlash va uni rivojlantirishga yangi talablarni qo'ymoqda. Qo'yilgan maqsadga erishishda metodik olimlar mutaxassislik fanlari bilan chet tillarni integrasiyalash, o'zaro bog'lash orqali o'rganish asoslarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar olib borib ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni taqdim etishdi.

Muammoni o'rganganlik darajasi. Sohalar bo'yicha chet tillar o'qitish bo'yicha Marsch D., Coyle D., Hood P., Marsh D., Salexova L.L., Krilov E.G., Almazova N.I., Baranova T.A., Xalyapina L.P., Vdovina E.K., Xalyapina L.P., Popova N.V., Kogan M.S., Vdovina E.K., Sisoev P.V., Sisoev P.V., Zavyalov V.V., J.Jalalov, Maksudova, H. F., S. L. Salixova, S.J. Dushaeva va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Shu bilan birga, sohalar bo'yicha mutaxassislik fanlari va chet tilini o'zaro bog'lash, fanlarni xorijiy tillarda o'qitish masalasi bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Tadqiqotchi Maksudova, H. F. (2021) tomonidan "Fanlararo aloqadorlik kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning asosiy tamoyili" bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqot ishlarida talabalarning sohalar bo‘yicha ingliz tili fani bilan bog‘lash orqali samaradorlikka erishish mumkinligi ta'kidlangan.

Tadqiqotchi S.J. Dushaeva “Kasbga yo‘naltirilgan chet tilini o‘qitishda ijtimoiy tarmoq imkoniyatlaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish” bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Ingliz tilini o‘qitishda talabalarni qiziqishlarini oshirish va ta'lim samaradorligiga erishishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish samaradorligini tadqit etilgan.

S. L. Salixova “Kasbga yo‘naltirilgan mavzuni tinglab tushunishga o‘rgatish muammosi va uni AKT vositalari orqali rivojlantirish”ning nazariy uslubiy asoslarini taxlil etgan.

Bugungi kunga kelib “professional chet tili” ommalashib bormoqda. Bunda Asossan Evropa, Janubiy Korea, Yaponiya, Xitoy, Xindiston, MDX davlatlarining tajribalari asosida oliy ta'lim muassasalarida sohalar bo‘yicha darslarni ingliz tilida o‘qitilib, raqobatbardosh kadrlar tayyorlab kelinmoqda. Albatta bu orqali davlat va jamiyatning ilmiy, innovatsion salohiyati yuqori darajaga ko‘tarilishiga xizmat qilmoqda.

Muxokama.

Bugungi kunda O‘zbekiston OTMlarida ingliz tili fani o‘qitiladi. Bu fan ta'lim yo‘nalishlariga mos ravishda o‘qitilish yo‘lga qo‘yilgan. Biroq, aksariyat yo‘nalishlarning fan dasturlaridagi mavzular bir xilligi natijasida sohaga yo‘naltirish masalasi talab darajasida emasligi kuzatilmoqda. Texnika, qishloq xo‘jaligi, qurilish, transport, mashinasozlik va shu kabi yo‘nalishlarda ingliz tilini o‘qitishda bir qator muammolar mavjud. Bular:

- o‘rta maktabda ingliz tilidan talab darajasidagi bilimlarni o‘zlashtirmaganligi;
- kirish imtixonlarida ingliz tilidan imtixonlar topshirmasligi;
- soha bo‘yicha so‘zlar va terminlarni tarjima qila olmasligi;
- sodda ko‘rinishdagi topshiriqlarni bajarishda ham ko‘plab xatoliklarga yo‘l qo‘yishi kabi bir nechta faktorlar kuzatish va tajribalarda namoyon bo‘lmoqda.

Ingliz tilini ommalashtirish bo‘yicha davlatimizning bir qator qaror, farmon va qonun xujjatlari qabul qilinib yoshlarni ingliz tili bo‘yicha bilimlarini rivojlantirish uchun yetarlicha sharoitlar yaratildi va ular takomillashtirilmoqda.

Biroq texnika OTMlarida ingliz tilini o‘qitishda yondashuvni o‘zgartirish zarur. Bunda talaba tanlangan yo‘nalishi bo‘yicha “Professional ingliz tilini” o‘rganishi lozim. Buning uchun ingliz tili fan o‘qituvchilari tomonidan xorijiy tajribalar asosida o‘qitish usul va metodikasini tubdan qayta ko‘rib chiqishi zarur.

Ingliz tili fan o‘qituvchisi

- Talabalarning til bilish darajasini aniqlashi
- Talabalarning til bilish darajasi asosida topshiriqlarni ishlab chiqishi;
- Tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha sodda matnlarni tarjima qilishga o‘rgatishi;
- Talabalarning sohaga oid termonologiya va so‘zlarni tarjima qilishning axborot-didaktik talablarini o‘rgatishi;
- Talabalarning interfaol metodlar yordamida, gapirish, yozish, o‘qish, tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishga erishishi;
- Talabalar sohasi bo‘yicha ma'lumotlarni izlab topishga o‘rgatishi;
- Izlab topilgan ma'lumotlar ichida o‘ziga kerakli qismlarini ajratib olishga o‘rgatish;
- Ajratib olingan ma'lumotlarni tarjima qilishga o‘rgatishi zarur xisoblanadi.

Muhandislik yo‘nalishi talabalari

- Ingliz tilida yozish, o‘qish, gapirish, tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishda belganlangan talablarga amal qilishi va o‘zlashtirishi;
- Fan o‘qituvchisi tomonidan berilayotgan ma'lumotlarni taxlil qilishi;

- Soha bo‘yicha beriladigan matnlarni tarjima qilishda lug‘at(bosma, elektron)lardan foydalanish tartiblarini o‘zlashtirishi;
- Fan o‘qituvchisi bilan interfaol muloqot qilishga erishishi kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishi zarur.

Natija.

Professional chet tilini o‘qitishda fan o‘qituvchilari talabalarning talab va istaklarini inobatga olishlari muhim hisoblanadi. Aksariyat chet tili o‘qituvchilar tomonidan ingliz tilini o‘rgatishga urg‘u berishadi. Bu albatta yaxshi, biroq soha bo‘yicha ingliz tilini o‘qitish ya'ni professional chet tilini o‘qitish talabalar uchun xam foydali, xam qiziqarli bo‘lib xizmat qiladi. Buning natijasida ta'lim sifati va samaradorligi oshishiga olib keladi.

Professional chet tilini o‘qitishda quydagi maqsadlar:

1) Texnika OTM, qishloq xo‘jaligi ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy madaniyatlararo chet tillari kommunikativ kompetensiyasining tuzilishi va mazmunini aniqlash;

2) integratsiyalashgan professional chet tilini o‘rganish modelini amalga oshirish;

3) integrasiyalashgan psixologik va pedagogik sharoitlarni aniqlash va asoslash muhansdislik yo‘nalishi talabalari uchun professional chet tilini tatbiq etish;

4) muhandislik ta'lim yo‘nalishi talabalari uchun integratsiyalashgan professional chet tilini o‘qitishning uslubiy modelini ishlab chiqish;

5) muhandislik ta'lim yo‘nalishi talabalari uchun muammoli kasbiy yo‘naltirilgan chet tili vazifalari tipologiyasini ishlab chiqish (texnikalarni ishlatish, texnik xizmat ko‘rsatish va ta'mirlash) bitiruvchilarining kelajakdagi kasbiy faoliyatining darajalarini belgilab beradi.

Xulosa

Texnika OTMlaridagi muhandislik yo‘nalishlarida ingliz tili fanini o‘qitishda yondashuv, usul, vosita, metodlarni qo‘llash talabalarning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha eng zamonaviy bilimlarni olish bilan birgalikda, texnik tafakkuri, lingvistik kompetensiyasi, ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Zamonaviy texnika, texnologik ishlanmalarning foydalanish yo‘riqnomasidan tortib ishlatish tizmalari, belgilari, qurilmalarning nomlari ingliz tilida berilishi talabalarning soha bo‘yicha xam ingliz tili bo‘yicha ham amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga asos bo‘lib, ularning kasbiy rivojlanishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni https://lex.uz/uz/docs/5841063

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni https://lex.uz/uz/docs/5841063

3. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 1996 – 367 b.

4. A.A.Kahharov. Intensive Methods of Developing Students' Spatial Imagination in the Teaching of Graphic Sciences. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021, ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pages. 11885 – 11892

5. Tuychiyev Xayrullo Ergashovich. Adaptiv yondashuv asosida talabalarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish (“Professional ta’lim” yo‘nalishi misolida). Toshkent–2022, Avtoreferat, 51 b.

6. Kahharov A.A Developing students' spatial imagination in the teaching the subject of “descriptive geometry and engineering graphics” with the help of modern computer graphics.

International congress on modern education and integration. Vol.5 Special Issue. http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/1178

7. Kahharov A. A., qizi Rahimova G. E. Intensive Methods of Developing Students' Graphic Competencies in the Training of Competitive Personnel //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 7. – S. 38-44.

8. Abdubannayevich, Qahharov Abduraxim. "Intellektual o'yinlarni kompyuter yordamida tashkil etish yo'li bilan ta'lim samaradorligini oshirish." Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan) 2 (2018): 56-61.

9. Особенности преподавания начертательной геометрии и инженерной графики с использованием современных компьютерных технологий // Nauka-rastudent.ru. – Уфа: 2015. –№ 06 (18) /http://nauka-rastudent.ru/18/2733/.

10. Abdubannaevich K. A., Sharifjanovna Q. M. TOOLS FOR DEVELOPING STUDENTS'DESIGN SKILLS IN TECHNICAL FIELDS //INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2023. – T. 17. – №. 08. – S. 1-6.

11. Abdubannaevich Q. A. TEXNIKA OTM TALABALARNING GRAFIK LOYIHALASH KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INTENSIV USULLARI //Research Focus. – 2023. – T. 2. – №. 1. – S. 274-279.

12. Khamrakulov A. Organization of effective use of the AutoCAD feature in teaching descriptive geometry //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – S. 2644-2648.

13. Abdubannayevich, Q. A., & Amandjonovna, I. D. (2024). TEXNIKA OILY TA'LIM MUASSASALARIDA XORIJIY TILLARNI ZAMONAVIY KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O 'QITILISHI: TEXNIKA OILY TA'LIM MUASSASALARIDA XORIJIY TILLARNI ZAMONAVIY KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA O 'QITILISHI.

14. Karimovich, K. A., Sherzod, A., Khomitovich, M. K., Usmonjanovich, M. G., & Abdubannauevich, K. A. (2023). Use of The 2d and 3d Graphic Programs Feature in Teaching Descriptive Geometry. *Journal of Advanced Zoology*, *44*.

15.Maksudova, H. F. (2021). Fanlararo aloqadorlik kasbga yo'naltirilgan chet tilini o'qitishning asosiy tamoyili sifatida. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 2), 608-612.

UO'T: 378.147:811.111

BO'LAJAK QISHLOQ XO'JALIGI TALABALARIGA INGLIZ TILIDAGI KASBIY SO'Z VA ATAMALARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Ermatova Yulduz Alisher qizi
Namangan davlat texnika universiteti
Tayanch doktorant yulduzermatova5929@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligi talabal arining ingliz tili bo'yicha ko'nikmalari, til bilish darajasi, uning oshirishdagi mavjud muammolar taxlil etilgan. Qishloq xo'jaligi talabalarini tayyorlashda kasbiy so'z va atamalarni o'rgatishda terminologik lug'atlardan foydalanishdagi zamonaviy usul va vositalar bo'yicha taklif va tasvsiyalar berilgan.

Аннотация. В статье проанализированы навыки владения английским языком студентов сельскохозяйственных направлений, уровень их языковой подготовки, а также существующие проблемы в процессе его повышения. Представлены предложения и рекомендации по современным методам и средствам использования терминологических словарей при обучении профессиональной лексике и терминологии в подготовке студентов сельскохозяйственных специальностей.

Abstract. The article analyzes the English language skills of agricultural students, their level of language proficiency, and the existing challenges in improving these skills. It also provides recommendations and suggestions on modern methods and tools for using terminological dictionaries in teaching professional vocabulary and terminology in the training of future agricultural specialists.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, ingliz tili, kasbiy ko'nikma, kasbga yo'naltirilgan chet tili

Ключевые слова: сельское хозяйство, английский язык, профессиональные навыки, профессионально-ориентированный иностранный язык.

Keywords: agriculture, English language, professional skills, English for Specific Purposes (ESP), professionally oriented foreign language.

Kirish.

Butun jahon ta'lim tizimida barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan, mohiyatan yangicha didaktik paradigmaga asoslangan bilim olish jarayoni zamonaviy globallashuv tendensiyalariga mos ravishda raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga bo'lgan ehtiyojning doimiy o'sishiga xizmat qilmoqda. Ta'lim jarayonini tashkil etish, samarali boshqarish va ta'lim sifatini ta'minlash tizimining asosiy elementi sifatida ta'lim beruvchilar hamda ta'lim oluvchilarning kompetensiya darajasini muntazam ravishda oshirish masalasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda. Qishloq xo'jaligi sohasida global hamkorlik va xalqaro loyihalar ko'paymoqda, bu mutaxassislardan ingliz tilini professional darajada bilishni talab qiladi. Sohaga oid xorijiy ilmiy manbalar bilan ishlash, xorijdagi loyihalarda ishtirok etish va xalqaro hamkorliklarni rivojlantirish uchun ingliz tilini mukammal darajada bilish talablari ortmoqda. An'anaviy o'qitish usullari sohaviy ehtiyojlarni to'liq qondira olmaydi. O'zbekistonda Qishloq xo'jaligi sohasida maxsus ingliz tili metodikalari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Qishloq xo'jaligi sohasidagi mutaxassislar uchun maxsus terminologiyalar, texnik hujjatlar va kommunikatsion ko'nikmalarga asoslangan ingliz tili o'qitish metodikasini ishlab chiqish zarurati.

Muammoni o'rganganlik darajasi. Sohalar bo'yicha chet tillar o'qitish bo'yicha Marsch D., Coyle D., Hood P., Marsh D., Salexova L.L., Krilov E.G., Almazova N.I., Baranova T.A., Xalyapina L.P., Vdovina Ye.K., Xalyapina L.P., Popova N.V., Kogan M.S., Vdovina Ye.K.,

Sisoyev P.V., Sisoyev P.V., Zavyalov V.V., J.Jalalov, Maksudova, H. F., S. L. Salixova, S.J. Dushayeva va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

MDX davlatlarida V.V. Davidov, E.V. Ilyenkov, V.S. Nurgaleyev, V.G. Afanasyev, I.V. Blauberg, N.V. Popova, V.A. Slastenin, E.G. Yudin, S.A. Zolotareva, M.S. Pak, I.P. Yakovlev, N.V. Avaluyeva, I.A. Kolesnikova, Ye.N. Mixaylova, A.Ya. Nayn, Ye.V. Yakovlev va boshqlar tomonidan sohalar bo‘yicha ingliz tilini o‘qitishning metodologik, pedagogik-psixologik va integrativ metodlari bo‘yicha izlanishlar olib borishgan. I.A. Bredixina, N.D. Galskova, Ye.A. Gasanenko, N.I. Gez, R.P. Milrud, Ye.A. Pikalova, Yu.A. Savinova M.B. Balikayeva, N.V. Gafurova, Ye.K. Gitman, A.M. Kabanov, Z.I. Konnova, S.L. Suvorova, A.V. Faxrutdinova, L.P. Xalyapina, A.N. Shamov va boshqalar kasbiy ingliz tilini o‘qitishning nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etishgan. Tadqiqot bo‘yicha izlanishlar natijasiga ko‘ra**,** muhandislarini tayyorlashda mutaxassislik fanlari va chet tilini o‘zaro bog‘lash, fanlarni xorijiy tillarda o‘qitish masalasi bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Muxokama

Ingliz tili nafaqat xalqaro diplomatik va ilmiy aloqa tili, balki qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy tadqiqotlar, texnologik hujjatlar, xalqaro standartlar, agrar loyihalar va zamonaviy raqamli platformalar tili hamdir. Muayyan loyiha doirasida xorijiy agrar kompaniyalar, ilmiy markazlar va xalqaro tashkilotlar (masalan, Asian Development Bank, World Bank, FAO, JICA) bilan hamkorlik qilishda qishloq xo‘jaligi mutaxassisining ingliz tilidagi og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ingliz tilini umumiy kommunikativ vosita sifatida emas, balki kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan funksional til sifatida o‘rgatish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunday yondashuv ingliz tilini alohida fan sifatida emas, balki “professional kompetensiyalarni shakllantirish vositasi” sifatida ko‘rishni taqozo etadi. Masalan, talabalar ekin yetishtirish (crop production), tuproqshunoslik (soil science), sug‘orish tizimlari (irrigation systems), o‘simliklarni himoya qilish (plant protection), qishloq xo‘jaligi texnikalari (agricultural machinery), chorvachilik (livestock farming) kabi muhim sohalarga oid termin va iboralarni o‘rganish orqali nafaqat til kompetensiyalarini, balki kasbiy bilimlarini ham mustahkamlaydilar. Bu esa CLIL (Content and Language Integrated Learning – fanni til orqali o‘rgatish) metodikasiga asoslangan yondashuvni qo‘llashni talab etadi. CLIL yondashuvi orqali talaba ingliz tilida o‘qitilayotgan kasbiy fan mazmunini o‘zlashtirib boradi, bu esa tabiiy ravishda ham fanga, ham tilga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Qishloq xo‘jaligi kontekstida ushbu yondashuv darslarni agrar texnologiyalar, dala tajribalari, agrotexnik tadbirlar, ilmiy maqolalar va amaliy loyihalar asosida tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida foydalaniladigan asosiy terminlarni ingliz tilida puxta o‘rganish zarur. Masalan, “crop production” (ekin yetishtirish), “soil fertility” (tuproq unumdorligi), “irrigation system” (sug‘orish tizimi), “plant protection” (o‘simliklarni himoya qilish), “agricultural machinery” (qishloq xo‘jaligi texnikalari) kabi atamalar ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyatda muntazam qo‘llaniladi. Ushbu terminlarni bilish orqali talabalar xalqaro agrar tashkilotlar va mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Professional muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida talabalar ingliz tilida rasmiy elektron xatlar yozish, taqdimotlar o‘tkazish hamda kasbiy suhbatlarni olib borishni o‘rganishlari lozim. Masalan, elektron xat yozishda “Dear Mr./Ms. [Name],” kabi rasmiy murojaat shaklidan foydalanib, fikrlarni aniq va mantiqiy bayon etish talab etiladi. Taqdimotlar davomida esa “Today, I will present the results of our research on sustainable agriculture” yoki “Today, I will present modern irrigation technologies used in agriculture” kabi jumlalardan foydalanish mumkin. Shuningdek, kasbiy muloqot jarayonida ingliz tilida ravon va tushunarli fikr almashish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega

Og‘zaki muloqot ko‘nikmalari loyiha taqdimotlari va professional muhitlarda muhim ro‘l o‘ynaydi. Talabalar aniq, ishonchli va rasmiy ohangda gapirishni o‘rganishi lozim. Masalan, guruhlarda o‘tkaziladigan simulyatsiya mashqida talabalar loyihalarni investorlarga taqdim qiladi. Taqdimot slaydlari quyidagicha tuziladi: birinchi slaydda loyiha maqsadi (“Objective: To reducye traffic congestion on Highway X”), ikkinchisida dizayn xususiyatlari (“Proposed Design: Four-lane road with a median barriyer”), uchinchisida xarajat smetasi (“Estimated Cost: $12 million”). Taqdimotdan so‘ng talaffuz, tana tili va mazmun aniqligi bo‘yicha fikr-mulohaza beriladi. Yana bir amaliy mashq sifatida talabalar qurilish maydonida xavfsizlik brifingini taqlid qiladi, masalan: “Ensure that all heavy machinery is operated only by cyertifiyed personnel to comply with safety regulations.” Bu jarayonni qo‘llab-quvvatlash uchun ELSA Speak ilovasi talaffuzni yaxshilashga yordam bersa, TEDx Engineering taqdimotlari professional ohangni o‘rganish uchun namuna sifatida ishlatiladi. Og‘zaki muloqotning muhim tarkibiy qismi sifatida faol tinglash ko‘nikmalari ham rivojlantiriladi. Talabalar muhandislik bo‘yicha videolarni, masalan, “YouTube”dagi FHWA kanalidagi “Introduction to Pavement Design” (https://youtu.be/p-75s0JUpaU) materialini tomosha qilib, asosiy fikrlarni qayd etadi va “fatiguye cracking” yoki “rutting” kabi atamalarni guruhda muhokama qiladi. Bu mashq ko‘rsatmalar, fikr-mulohazalar va mijoz talablarini to‘g‘ri tushunishni ta’minlaydi.

Natija

Muhandislarni tayyorlashda xar bir mavzu bo‘yicha dars ishlanmalar yaratish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish natijasida ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Buning uchun soha bo‘yicha tarminologik lug‘at yordamida so‘z boyligini oshirish, gap tuzishdagi gramatika qoidalarni to‘g‘ri qo‘llash, sohaga oid matnlarni o‘qib tushunishda fan o‘qituvchisining pedagogik maxoratiga bevosita bog‘liqdir.

Amaliy misol:

- Talabalarga muhandislikga oid matnni o‘qish va undagi kalit atamalarni aniqlash vazifasi beriladi (masalan, “pavement design”, “traffic flow”). Keyin ular matn bo‘yicha savollarga ingliz tilida javob berishadi. Bu ularning so‘z boyligi va tushunish darajasini aniqlashga yordam beradi.

- Natija: Agar talabalar “subgrade” (quyi qatlam) yoki “asphalt mix” (asfalt aralashmasi) kabi atamalarni tushunishda qiynalsa, metodika so‘z boyligiga ko‘proq e’tibor beradi.

Ilmiy asos: Hutchinson va Waters (1987) ESP (English for Specific Purposes) metodologiyasida ehtiyojlar tahlilini ta’limning asosiy bosqichi sifatida belgilaydi. Bu muhandislik yo‘nalishi talabalari uchun maxsus til ko‘nikmalarini aniqlashda qo‘llaniladi.

Xar bir mavzu bo‘yicha kasbga yo‘naltirilgan matnlar bilan ishlashni tashkil etish lozim. Kasbiy ingliz tilini o‘qitish jarayonida sohaga oid so‘zlar, iboralarni ma’nosini to‘liq anglash va ularni qo‘llashda ingliz tilining gramatik qoidalariga to‘liq amal qilishga o‘rgatadi. Ingliz tilini sohaga yo‘naltirib o‘qitish natijasida bo‘lajak muhandislarda xam kasbiy xam til bilish ko‘nikmalarini parallel ravishda rivojlanadi. Natijada fan o‘qituvchisi darsga qo‘ygan maqsad va vaziflarini to‘laqonli amalga oshirishga yordam beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, muhandislik yo‘nalishidagi talabalarda ingliz tilida professional muloqot qilish va kasbiy vazifalarni bajarish ko‘nikmalarini shakllantirish – bu ularning nafaqat chet elda ishlash imkoniyatlarini ochadi, balki o‘z mamlakatida xalqaro loyihalarda faol ishtirok eta oladigan, innovatsion fikrlaydigan va global darajada raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishlariga xizmat qiladi. Shu boisdan ham, mazkur mavzu bugungi kunda o‘ta dolzarb va istiqbolli metodik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Yo‘l muhandisligi talabalari uchun ingliz tilida professional muloqot va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun terminologiya o‘rganish, email yozish, taqdimotlar, texnik hujjatlar tayyorlash, amaliy mashqlar va xalqaro

imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish tavsiya etiladi. Bu ko‘nikmalar orqali ular zamonaviy muhandislik sohasida muvaffaqiyatga erishishlari va xalqaro loyihalarda faol ishtirok etishlari mumkin.

ADABIYOTLAR

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” farmoni https://lex.uz/uz/docs/5841063

16. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: O‘qituvchi, 1996 – 367 b.

17. Чувашова А. Д. Формирование интегративной готовности будущих инженеров к профессиональной деятельности на иностранном языке. к.п.н., ...дисс. Челябинск, 2023, с 209

18. Qahharov Abdurahim Abdubannayevich, & Ermatova Yulduz Alisher Qizi (2024). Qurilish ta’lim yo‘nalishlari talabalariga ingliz tili fanini o‘qitishga qo‘yiladigan talablar. Строительство и образование, 3 номер 6 , 148-152.

19. A.A.Kahharov. Intensive Methods of Developing Students' Spatial Imagination in the Teaching of Graphic Sciences. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 2021, ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pages. 11885 – 11892

20. Tuychiyev X. E. Adaptiv yondashuv asosida talabalarning kasbiy- pedagogik kompetensiyalarini takomillashtirish (“Professional ta’lim” yo‘nalishi misolida). Toshkent–2022, Avtoreferat, 51 b.

Kahharov A.A Developing students' spatial imagination in the teaching the subject of “descriptive geometry and engineering graphics” with the help of modern computer graphics. International congress on modern education and integration. Vol.5 Special Issue. http://iejrd.com/index.php/%20/article/view/1178

UO'T: 37.02:004.94:681.3

SIMULYATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI: 5D SIMULYATSION TRENAJYOR KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH

E.A.Qosimov
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi Seysmik xavfsizlik va barqaror qurilish milliy tadqiqot instituti

A.M.Ismoilov
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi Seysmik xavfsizlik va barqaror qurilish milliy tadqiqot instituti

R.R.Yo'ldashev
Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi Seysmik xavfsizlik va barqaror qurilish milliy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada simulyatsion ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari tahlil qilinib, amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan 5D simulyatsion trenajyor konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, tajribaviy o'qitish, konstruktivizm, maqsadli mashq va kognitiv yuklama nazariyalari asosida trenajyorning tarkibiy komponentlari hamda didaktik ishlash algoritmi shakllantirilgan.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические основы симуляционных образовательных технологий и разработана концепция 5D симуляционного тренажёра, направленного на развитие практических компетенций. Кроме того, на основе теорий опытного обучения, конструктивизма, целенаправленной практики и когнитивной нагрузки сформированы структурные компоненты тренажёра и его дидактический алгоритм функционирования.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of simulation-based educational technologies and develops a concept of a 5D simulation trainer aimed at enhancing practical competencies. In addition, based on the theories of experiential learning, constructivism, deliberate practice, and cognitive load, the structural components of the trainer and its didactic operating algorithm were developed.

Kalit so'zlar: simulyatsion ta'lim, 5D trenajyor, virtual muhit, teskari aloqa, adaptiv baholash, kompetensiya.

Ключевые слова: симуляционное обучение, 5D-тренажёр, виртуальная среда, обратная связь, адаптивное оценивание, компетенция.

Keywords: simulation-based learning, 5D trainer, virtual environment, feedback, adaptive assessment, competence.


Kirish

Zamonaviy ta'limda nazariy bilimlarni real vaziyatda qo'llash, amaliy vaziyatlarni xavfsiz muhitda tahlil qilish va kasbiy kompetensiyalarni barqaror shakllantirish muhim vazifaga aylandi. Simulyatsion ta'lim aynan shu ehtiyojga javob beradi: u real jarayonni obyekt yoki kasbiy vaziyatni modellashtirib, o'quvchiga boshqariladigan, takrorlanadigan va baholanadigan amaliy tajriba beradi [1], [2].

Simulyatsion ta'limning kuchli jihati shundaki, u o'quvchini passiv tinglovchidan faol qaror qabul qiluvchi subyektga aylantiradi. Tibbiyot, muhandislik, transport, favqulodda vaziyatlar, harbiy tayyorgarlik va kasb-hunar ta'limida simulyatsiya xavfli yoki real jarayonlarni xavfsiz o'quv muhiti bilan almashtira oladi [3].

Mavjud ilmiy adabiyotlarda yuqori samarali simulyatsiya uchun aniq maqsad, takroriy mashq, fikr-mulohaza, o‘quv dasturiga integratsiya, murakkablikni oshirib borish va natijalarni baholash kabi omillar alohida ta’kidlanadi [4], [5]. Biroq ko‘p hollarda simulyatorlar texnik qurilma sifatida yaratiladi, pedagogik model esa keyin qo‘shiladi. Ushbu maqola, aksincha, avval didaktik-nazariy modelni belgilab, so‘ng 5D trenajyor konsepsiyasini ishlab chiqishni taklif qiladi.

Tadqiqot maqsadi: Simulyatsion ta’limning nazariy asoslarini tahlil qilib, 5D simulyatsion trenajyorning nazariy tuzilmasi va didaktik ishlash algoritmini ishlab chiqishdan iborat.



1-rasm. Simulyatsion ta’limning nazariy asoslari va ularning o‘quvchi faoliyatiga ta’siri.

Ilmiy manbalar simulyatsion ta’lim, tajribaviy ta’lim, maqsadli mashq, virtual va immersiv muhitlar hamda o‘quv natijalarini baholash yo‘nalishlari bo‘yicha tahlil qilindi.

Tahlil jarayonida quyidagi mezonlar asosiy yo‘nalish sifatida belgilandi:

1) Nazariyaning simulyatsiya bilan bog‘liqligi;
2) O‘quvchi faoliyati va kompetensiya rivojiga ta’siri;
3) Fikr-mulohaza va refleksiya imkoniyati;
4) Trenajyor arxitekturasiga aylantirish mumkinligi;
5) Baholash ko‘rsatkichlari bilan bog‘lanishi.

Kasbiy layoqatni ishlab chiqishda “pedagogika avval, texnologiya keyin” tamoyili qo‘llanildi. Ya’ni har bir texnik modul avvalo o‘quv maqsadi, kompetensiya, vazifa, fikr-mulohaza va baholash indikatorlari bilan moslashtirildi. 5D modeli besh o‘lchamli didaktik-texnologik tizim sifatida talqin qilindi (1-jadval).

Nazariy asoslar matritsasi

1-jadval

Nazariy	Asosiy g‘oya	Simulyatsiyadagi	5D trenajyorda

yondashuv		vazifasi	vaziyatni aks etishi
Tajribaviy o‘qitish	Bilim tajriba, refleksiya va sinov orqali shakllanadi	Realga yaqin tajriba yaratadi	Ssenariy + debrifing + qayta sinov
Konstruktivizm	O‘quvchi bilimni muammoni yechish jarayonida quradi	Faol rol, muammo va qaror	Interaktiv vazifalar, ko‘p variantli natija
Kognitiv yuklama	O‘quvchi resursi cheklangan;	Bosqichma-bosqich murakkablik	Adaptiv yordam, vizual soddalashtirish
Maqsadli mashq	Takroriy mashq, aniq mezon va fikr-mulohaza orqali mahorat ortadi	Ko‘nikmani avtomatlashtiradi	Mezonli mashq sikllari va KPI
Vaziyatga asoslangan o‘qitish	Bilim real kontekstda va rol orqali ma’noli bo‘ladi	Kasbiy vaziyatni jonlantiradi	Rol, muhit, jihoz va kontekst
Yakuniy tahlil	Tajriba tahlil qilinib, xatodan o‘rganiladi	Refleksiya va metakognitsiya	Avtomatik hisobot + murabbiy savollari

5D simulyatsion trenajyor konsepsiyasi

Tadqiqot natijasida 5D simulyatsion trenajyor konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bu yerda “5D” faqat vizual 3D muhitga qo‘shimcha effektlar qo‘shish emas, balki ta’limiy jarayonni besh o‘lchamda boshqarish deganidir. Modelda har bir o‘lcham mustaqil modul bo‘lsa, ular yagona kompetensiya modeliga xizmat qiladi.

1D - fazoviy 3D muhit: o‘quvchi real maydonni, obyekt va jihozlarni ko‘radi hamda ularda harakat qiladi;


2D - vaqt va ssenariy dinamikasi: hodisalar ketma-ketligi, vaqt bosimi, favqulodda o‘zgarishlar va sabab-oqibat aloqalari modellashtiriladi;

3D - sensor immersion: tovush, tebranish, harakat platformasi yoki boshqa sezgi signallari orqali ishonchlilik oshiriladi;

4D - didaktik fikr-mulohaza: tizim va o‘quvchining xatti-harakatiga tezkor va yakuniy izoh beradi;

5D - analitika va moslashuv: xatolar, vaqt, aniqlik, qarorlar sifati va kompetensiya ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi, keyingi ssenariy murakkabligi moslanadi.

5D trenajyorning asosiy pedagogik vazifasi - o‘quvchini real vaziyatga yaqin, lekin xavfsiz muhitda qaror qabul qilishga o‘rgatishdir. Texnik jihatdan u **VR/AR** displeylar, simulyator apparatlari, harakat yoki sensor bloklar, LMS integratsiyasi, ma’lumotlar bazasi va analitik paneldan iborat bo‘lishi mumkin.




2-rasm. 5D simulyatsion trenajyorning besh o'lchamli konseptual modeli.

5D trenajyor komponentlari va funksiyalari

2-jadval

O'lcham	Mazmuni	Texnologik modul	Pedagogik funksiya	Baholash indikatori
1D	Fazoviy 3D muhit	VR/AR sahna, obyektlar, interfeys	Kontekstni his qilish	Navigatsiya, obyekt tanlash aniqligi
2D	Vaqt-ssenariy dinamikasi	Ssenariy dvijogi, event triggerlar	Sabab-oqibatni tushunish	Qaror vaqti, ketma-ketlik xatosi
3D	Sensor immersion	Audio, harakat, tebranish	Realizm va motivatsiya	Stress ostida barqarorlik
4D	Didaktik fikr-mulohaza	Real vaqt maslahat, rubrika, debrifing	Xatoni anglash va tuzatish	Fikr-mulohazadan keyingi yaxshilanish
5D	Analitika va adaptatsiya	Dashboard, AI tavsiya, LMS integratsiya	Individual trayektoriya	Kompetensiya indeksi, progress

paradigmasining o‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan modelga o‘tishi o‘qituvchidan diagnostika va korreksiyani yagona, uzluksiz jarayon sifatida tashkil eta olish qobiliyatini taqozo etadi. Bunday yondashuvda diagnostik xulosa o‘z-o‘zicha maqsad bo‘lmay, balki pedagogik ta’sirni to‘g‘rilash va o‘quv jarayonini qayta loyihalash uchun asos vazifasini bajaradi [1]. Aynan shu nuqtada o‘qituvchining o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash va qayta ko‘rib chiqish qobiliyati, ya’ni pedagogik refleksiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, zero diagnostikadan korreksiyaga o‘tish refleksiv tahlil orqaligina mazmunli va asoslangan tarzda amalga oshiriladi [10].

Pedagogik refleksiya deganda o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini, undagi qarorlar va natijalarni anglagan holda tahlil qilish, baholash hamda keyingi harakatlarni shu tahlil asosida qayta yo‘naltirish qobiliyati tushuniladi. Mazkur qobiliyat o‘qituvchining diagnostik-korreksion faoliyatining markaziy mexanizmi bo‘lib, u diagnostika natijalarini korreksion qarorlarga aylantiruvchi vositachilik vazifasini bajaradi [2]. Refleksiyasiz diagnostika faqat holatni qayd etish bilan cheklanadi, korreksiya esa ilmiy asosdan mahrum, tasodifiy harakatlar majmuasiga aylanib qoladi. Shu bois zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda refleksiya diagnostika va korreksiyani uzluksiz halqaga bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida e’tirof etilmoqda [3].

Refleksiyaning tsiklik tabiati uning bir martalik akt emas, balki takrorlanuvchi, har bir aylanishda chuqurlashib boradigan jarayon ekanligida namoyon bo‘ladi. D. Kolbning tajribaviy o‘rganish konsepsiyasi, D. Schönning amaliyot davomida va amaliyotdan keyingi refleksiya nazariyasi hamda F. Korthagenning ALACT modeli refleksiyani izchil bosqichlardan iborat halqa sifatida talqin qilish imkonini berdi [4; 9]. Bu yondashuvlarda refleksiya harakatni kuzatish, uni tahlil qilish, muqobil yechimlarni izlash va yangi harakatni amalga oshirish bosqichlarini qamrab oluvchi yopiq tsikl sifatida tushuniladi. Har bir tsikl yakunida o‘qituvchi yangidan-yangi diagnostik ma’lumotga ega bo‘ladi va keyingi korreksion harakatni shu asosda aniqlashtiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, refleksiyaning kasbiy tayyorgarlikdagi ahamiyati ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilgan bo‘lsa-da [5], uning diagnostik-korreksion faoliyat doirasidagi tsiklik mexanizmi, ya’ni diagnostika, refleksiya va korreksiyani izchil va takrorlanuvchi halqada birlashtirish masalasi yetarlicha o‘rganilmagan [6]. Mavjud yondashuvlarda refleksiya ko‘pincha diagnostika yoki korreksiyadan ajralgan holda, mustaqil ko‘nikma sifatida qaraladi, ularning o‘zaro funksional bog‘liqligi esa e’tibordan chetda qoladi [7]. Bu esa diagnostik-korreksion faoliyatda refleksiyaning harakatlantiruvchi roli to‘liq ochib berilmasligi muammosini keltirib chiqaradi.

Yuqorida bayon etilgan tahlil quyidagi tadqiqot muammosini shakllantirishga imkon berdi: bo‘lajak o‘qituvchilarning diagnostik-korreksion faoliyatida diagnostika, refleksiya va korreksiyani uzluksiz, takrorlanuvchi tsiklda birlashtiruvchi mexanizm yetarlicha asoslanmagan va eksperimental tekshirilmagan. Mazkur tadqiqotning maqsadi-diagnostik-korreksion faoliyatda refleksiyaning tsiklik mexanizmini nazariy jihatdan ochib berish hamda uning samaradorligini eksperimental yo‘l bilan asoslashdan iborat [10].

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot bazasi va ishtirokchilar. Tadqiqot oliy pedagogik ta’lim muassasalari bazasida bir necha o‘quv yili davomida bosqichma-bosqich olib borildi. Tadqiqot bazasi sifatida pedagogik yo‘nalishda kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari tanlandi, bu esa olingan natijalarning amaliy ahamiyati va keng ko‘lamda qo‘llanilishi imkoniyatini ta’minladi. Eksperimentda jami 304 nafar talaba ishtirok etdi, ular tajriba guruhi (152 nafar) va nazorat guruhi (152 nafar) ga taqsimlandi. Ishtirokchilar tarkibi yo‘nalish, o‘quv kursi va dastlabki o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir-biriga yaqin bo‘lgan

talabalardan shakllantirildi, bu esa eksperiment natijalarining tashqi omillar ta'siridan xoli bo'lishiga xizmat qildi.

Guruhlar dastlabki tayyorgarlik darajasi bo'yicha bir xil (gomogen) bo'lishini ta'minlash maqsadida ishtirokchilar tasodifiy tanlash usuli asosida ajratildi. Eksperimentdan oldin har ikkala guruhda refleksiv-korreksion ko'nikmalarning boshlang'ich darajasi yagona diagnostik vositalar majmuasi yordamida o'lchandi. Olingan dastlabki ma'lumotlarni statistik tahlil qilish natijasida tajriba va nazorat guruhlari o'rtasida refleksiv-korreksion ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farq yo'qligi tasdiqlandi. Bu holat ikkala guruhning eksperiment boshida teng sharoitda ekanligini ko'rsatdi va shakllantiruvchi bosqich yakunida kuzatilgan o'zgarishlarni aynan taklif etilgan tsiklik mexanizm ta'siri bilan bog'lash, ya'ni keyingi natijalarni ishonchli qiyoslash uchun mustahkam asos yaratdi [1].

Nazariy usullar. Nazariy usullar sirasiga ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish, tizimli-strukturaviy yondashuv hamda modellashtirish kiritildi [3]. Bu usullar refleksiyaning diagnostik-korreksion faoliyatdagi mohiyatini ochib berish, uning tsiklik tuzilishini aniqlash, mavjud nazariy yondashuvlarni qiyoslash va tsiklik mexanizmni loyihalashtirishga xizmat qildi. Adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish usuli yordamida "refleksiya" va "diagnostik-korreksion faoliyat" tushunchalarining mazmun-mohiyati aniqlandi, ularning ilmiy-nazariy asoslari hamda muammoning o'rganilganlik darajasi belgilandi [3]. Qiyosiy tahlil usuli refleksiyani rivojlantirishga oid xorijiy va mahalliy yondashuvlarni (Kolb tsikli, ALACT modeli, amaliyotdagi refleksiya konsepsiyasi va boshqa modellarni) o'zaro solishtirish, ularning afzalliklari va cheklovlarini ochib berish hamda milliy ta'lim sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini asoslash uchun qo'llanildi [5]. Tizimli-strukturaviy yondashuv refleksiyani diagnostika va korreksiyani o'zaro bog'lovchi yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish, uning ichki tuzilishi va bosqichlar o'rtasidagi aloqalarni aniqlash imkonini berdi. Xususan, modellashtirish usuli yordamida refleksiyaning tsiklik mexanizmi diagnostika, refleksiv tahlil, korreksion qaror va qayta diagnostika bosqichlari birligi sifatida ishlab chiqildi [5]. Mazkur usul nazariy tahlil natijalarini umumlashtirib, ularni amaliyotda qo'llanishi mumkin bo'lgan tizimli mexanizm shaklida ifodalash, mexanizmning ichki mantiqini va bosqichlar o'rtasidagi funksional aloqalarni asoslash imkonini berdi. Ishlab chiqilgan mexanizm keyingi eksperimental tekshirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Empirik usullar. Empirik usullar tarkibiga pedagogik kuzatish, so'rovnoma, anketa, test topshiriqlari, suhbat, mahsulotlar (talabalar tomonidan tuzilgan refleksiv kundaliklar va korreksion rejalar) tahlili hamda pedagogik eksperiment kiritildi [4]. Pedagogik eksperiment tadqiqotning asosiy empirik usuli bo'lib xizmat qildi va u uch bosqichda amalga oshirildi:

– aniqlovchi bosqich-har ikkala guruhda refleksiv-korreksion ko'nikmalarning boshlang'ich darajasini o'lchash va dastlabki holatni qayd etish;


– shakllantiruvchi bosqich-tajriba guruhida taklif etilgan tsiklik mexanizmni amaliyotga joriy etish (refleksiv kundalik yuritish, video-tahlil, mikroo'qitishdan keyingi refleksiv suhbat va korreksion rejalashtirish orqali), nazorat guruhida esa an'anaviy tayyorgarlikni davom ettirish;

– yakunlovchi bosqich-har ikkala guruhda refleksiv-korreksion ko'nikmalarning yakuniy darajasini o'lchash va natijalarni qiyosiy tahlil qilish.

Baholash mezonlari va darajalari. Refleksiv-korreksion ko'nikmalarning shakllanish darajasi uchta o'zaro bog'liq mezon asosida baholandi. *Refleksiv-anglash mezoni* talabaning o'z pedagogik faoliyatini anglash, undagi yutuq va kamchiliklarni mustaqil aniqlash hamda diagnostik natijalarni tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini aks ettirdi. *Tahliliy-loyihalash mezoni* refleksiv tahlil natijalari asosida korreksion harakatlarni asoslab loyihalash, muqobil pedagogik

yechimlarni izlash va ularni baholash bo‘yicha tayyorgarlikni qamrab oldi. *Korreksion-amaliy mezon* loyihalangan korreksion qarorlarni amalda qo‘llash, ularning samarasini qayta diagnostika orqali baholash va keyingi tsiklni shu asosda boshlash ko‘nikmalarini o‘z ichiga oldi. Har bir mezon uch darajada-yuqori, o‘rta va past darajalarda ifodalandi. *Yuqori daraja* o‘z faoliyatini chuqur va tizimli refleksiv tahlil qilish, korreksion qarorlarni mustaqil va asoslangan tarzda loyihalash hamda refleksiv tsiklni ijodiy boshqarish qobiliyati bilan tavsiflanadi. *O‘rta daraja* vaziyatga bog‘liq refleksiya, asosiy tahliliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish, biroq korreksion qarorlarni loyihalash va amalga oshirishda muayyan qiyinchilik hamda yordamga ehtiyoj sezilishi bilan ajralib turadi. *Past daraja* refleksiyaning yuzaki va tizimsiz bo‘lishi, korreksion harakatlarni asoslashda jiddiy qiyinchiliklar hamda refleksiv tsiklni mustaqil yopa olmaslik bilan izohlanadi.

1-rasm. Diagnostik-korreksion faoliyatda refleksiyaning tsiklik mexanizmi



Mezonlarning umumiy ko‘rsatkichini hisoblashda har uch mezon bo‘yicha olingan natijalar yagona tizimga keltirilib, refleksiv-korreksion tayyorgarlikning yaxlit (integral) darajasi aniqlandi. Bu yondashuv tayyorgarlikni ayrim ko‘rsatkichlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq komponentlarning yaxlit birligi sifatida baholash imkonini berdi va tadqiqotning tsiklik konsepsiyasiga to‘liq mos keldi.

Statistik tahlil. Olingan natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik usullardan foydalanildi [6]. Markaziy tendensiya ko‘rsatkichlari (o‘rtacha arifmetik qiymat) va taqsimot foizlari hisoblandi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlarning statistik ishonchliligini aniqlashda Pirsonning xi-kvadrat (χ^2) mezoni qo‘llanildi. Ishonchlilik darajasi $p<0,05$ qiymatda belgilandi, ya’ni empirik xi-kvadrat qiymati kritik qiymatdan yuqori bo‘lganida farqlar statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblandi. Bu yondashuv taklif etilgan tsiklik mexanizmning samaradorligini ob’ektiv va miqdoriy jihatdan baholash imkonini berdi [9].

Natijalar. Tadqiqot natijalari refleksiyaning diagnostik-korreksion faoliyatdagi tsiklik mexanizmi uchta o‘zaro bog‘liq bosqichdan iborat ekanligini ko‘rsatdi: refleksiv-anglash, tahliliy-loyihalash va korreksion-amaliy bosqichlar [2]. Ushbu bosqichlar yopiq halqa sifatida ishlaganida diagnostik-korreksion faoliyat uzluksiz va samarali kechadi. Taklif etilgan tsiklik

mexanizm bir necha o‘zaro bog‘langan bo‘g‘inni qamrab oldi: diagnostik bo‘g‘in (boshlang‘ich holatni aniqlash), refleksiv-tahliliy bo‘g‘in (natijalarni anglab tahlil qilish), korreksion-loyihalash bo‘g‘ini (asoslangan qarorlar ishlab chiqish) hamda qayta diagnostik bo‘g‘in (korreksiya samarasini baholash va yangi tsiklga o‘tish) [5]. Mexanizmning umumiy tuzilishi 1-rasmda keltirilgan.


Mazkur bo‘g‘inlar o‘rtasidagi izchil va takrorlanuvchi aloqa diagnostik-korreksion faoliyatning bosqichma-bosqich chuqurlashib borishini ta’minladi [7]. Aniqlovchi bosqichda har ikkala guruhda refleksiv-korreksion ko‘nikmalarning shakllanish darajasi deyarli bir xil bo‘lib, sezilarli farq kuzatilmadi. Shakllantiruvchi eksperiment yakunida esa guruhlar o‘rtasida ahamiyatli farqlar yuzaga keldi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Refleksiv-korreksion ko‘nikmalarning shakllanish darajasi (%)

Daraja	**Tajriba guruhi (boshlang‘ich)**	**Tajriba guruhi (yakuniy)**	**Nazorat guruhi (boshlang‘ich)**	**Nazorat guruhi (yakuniy)**
Yuqori	22,8	56,7	23,4	30,9
O‘rta	33,7	29,4	33,2	36,8
Past	43,5	13,9	43,4	32,3

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi ko‘rsatkich 22,8% dan 56,7% ga, ya’ni 33,9% ga oshdi, past daraja esa 43,5% dan 13,9% gacha kamaydi [8]. Nazorat guruhida o‘zgarishlar ancha kam-yuqori daraja faqat 7,5% ga oshdi. Mezonlar bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichning dinamikasi 2-rasmda aks ettirilgan.

2-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarida o‘rtacha ko‘rsatkichlar dinamikasi (5 balli tizimda)



Statistik tahlil natijasida hisoblangan empirik xi-kvadrat qiymati (χ^2emp) kritik qiymatdan (χ^2krit) yuqori bo‘lib chiqdi, bu guruhlar o‘rtasidagi farqning tasodifiy emas, balki taklif etilgan tsiklik mexanizmning qo‘llanilishi natijasi ekanligini ishonchli darajada tasdiqladi [10].

Muhokama. Tadqiqot natijalari refleksiyani diagnostika va korreksiyani bog‘lovchi tsiklik mexanizm sifatida tashkil etish bu jarayonlarni alohida-alohida amalga oshirishga nisbatan ancha samarali ekanligini ko‘rsatdi [2]. Bu xulosa refleksiyaning diagnostik-korreksion faoliyatdagi harakatlantiruvchi roli haqidagi nazariy qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi. An’anaviy yondashuvda diagnostika, refleksiya va korreksiya ko‘pincha bir-biridan uzilgan, ketma-ket bajariladigan alohida amallar sifatida talqin qilinadi, bu esa o‘qituvchining diagnostik xulosani korreksion harakatga aylantirish jarayonida mazmunli bo‘g‘liqlikni yo‘qotishiga olib keladi. Taklif etilgan tsiklik mexanizm esa bu uch komponentni yagona, o‘zaro shartlangan halqada birlashtirib, har bir komponentning keyingisi uchun asos vazifasini bajarishini ta’minlaydi. Ana shu izchillik tufayli tajriba guruhi talabalarida diagnostik ma’lumotni tanqidiy anglash, uni

asoslangan korreksion qarorga aylantirish va natijani qayta diagnostika orqali tekshirish ko‘nikmalari yaxlit tizim sifatida rivojlandi.

Olingan natijalarni mavjud ilmiy yondashuvlar bilan qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, tsiklik mexanizm refleksiyani bir martalik tahlil aktidan uzluksiz, takrorlanuvchi va chuqurlashib boruvchi jarayonga aylantiradi [5]. Bu xulosa D. Kolbning tajribaviy o‘rganish tsikli va F. Korthagenning ALACT modelida ilgari surilgan g‘oyalar bilan uyg‘unlashadi, ularda refleksiya har bir aylanishda yangi tushuncha va yangi harakat hosil qiluvchi spiralsimon jarayon sifatida talqin etiladi [4]. Tadqiqot natijalari ushbu nazariy qoidalarni milliy oliy pedagogik ta’lim sharoitida empirik jihatdan tasdiqladi: refleksiv tsikl har safar takrorlanganda talabaning diagnostik-korreksion faoliyati sayoz, vaziyatga bog‘liq harakatlardan chuqur, asoslangan va mustaqil amaliyotga o‘sib bordi. Tajriba guruhidagi 33,9% lik ijobiy o‘sish bu yondashuvning amaliy ahamiyatini dalillaydi. Nazorat guruhida kuzatilgan o‘zgarishlarning ancha kamligi (yuqori darajada atigi 7,5%) esa an’anaviy tayyorgarlik refleksiyani tizimli faollashtirmagani uchun diagnostika va korreksiya o‘rtasidagi aloqani yetarlicha mustahkamlay olmasligini ko‘rsatadi. Bu farq taklif etilgan mexanizmning samaradorligi tasodifiy emas, balki uning ichki mantiqiy tuzilishidan kelib chiqishini tasdiqlaydi.

Tsiklik mexanizmning ta’lim amaliyoti uchun ahamiyati shundaki, u bo‘lajak o‘qituvchilarning diagnostik-korreksion faoliyatga tayyorgarlik sifatini oshiradi va ularda kasbiy mustaqillikni shakllantiradi [6]. Refleksiv kundalik yuritish, video-tahlil va mikroo‘qitishdan keyingi refleksiv suhbat kabi vositalar talabalarga o‘z faoliyatini tashqaridan kuzatish, undagi kamchiliklarni tanqidiy baholash va keyingi harakatni asoslangan tarzda qayta loyihalash imkonini berdi. Natijada talabalar diagnostik ma’lumotni mexanik qabul qiluvchidan, uni faol talqin qiluvchi va korreksion qaror chiqaruvchi subyektga aylandi. Bu o‘zgarish ayniqsa korreksion-amaliy mezon bo‘yicha yaqqol namoyon bo‘ldi, zero aynan shu mezon refleksiv tahlilni real pedagogik harakatga ulash darajasini aks ettiradi.

Mexanizmning samaradorligi uning moslashuvchanligi bilan ham bog‘liq: u turli ta’lim sharoitlariga moslashtirilishi va o‘qituvchilar tayyorlashning amaldagi tizimiga integratsiya qilinishi mumkin [8]. Tsiklik mexanizm muayyan o‘quv faniga yoki tayyorgarlik yo‘nalishiga qat’iy bog‘lanmagan bo‘lib, uni psixologik-pedagogik fanlar, metodika kurslari va pedagogik amaliyot doirasida bir xil samaradorlik bilan qo‘llash mumkin. Bu uning universal didaktik vosita sifatidagi qimmatini oshiradi va keng ko‘lamda joriy etish istiqbolini ochadi. Shu bilan birga, mexanizmni amaliyotga joriy etishda pedagogik shart-sharoitlarni — refleksiv muhitni yaratish, uslubiy ta’minotni ishlab chiqish va o‘qituvchilarning refleksiv tayyorgarligini — hisobga olish zarurligi aniqlandi [7]. Refleksiv muhit talabaning xatodan qo‘rqmasdan o‘z faoliyatini ochiq tahlil qilishiga imkon beradigan ishonchli ta’lim atmosferasini taqozo etadi; uslubiy ta’minot esa refleksiv vositalar va korreksion topshiriqlar tizimini o‘z ichiga oladi. Bu shart-sharoitlardan birortasi yetishmaganda mexanizmning samaradorligi sezilarli pasayadi, bu esa uni joriy etishda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Shuni ham ta’kidlash lozimki, tadqiqot natijalari ayrim cheklovlarga ega. Eksperiment muayyan oliy ta’lim muassasalari bazasida o‘tkazilgani sababli, olingan ko‘rsatkichlarni boshqa ta’lim sharoitlariga umumlashtirish qo‘shimcha tekshirishni talab etadi. Bundan tashqari, refleksiyaning tsiklik mexanizmi uzoq muddatli ta’sirini, ya’ni bitiruvchilarning mustaqil kasbiy faoliyatidagi barqarorligini baholash kelgusi longitudinal tadqiqotlarning predmeti bo‘lib qolmoqda. Shunga qaramay, olingan natijalar taklif etilgan mexanizmning nazariy asosliligini va amaliy samaradorligini ishonchli tarzda tasdiqlaydi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarning diagnostik-korreksion faoliyatida refleksiyaning tsiklik mexanizmini nazariy hamda eksperimental jihatdan asoslab berdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi: Birinchidan, diagnostik-korreksion faoliyatda refleksiya diagnostika va korreksiyani bog‘lovchi markaziy bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘ladi, u diagnostik natijalarni asoslangan korreksion qarorlarga aylantiruvchi vositachilik vazifasini bajaradi. Refleksiyaning yetarlicha rivojlanmaganligi diagnostika va korreksiya o‘rtasidagi mazmunli aloqani uzilishiga olib keladi, shu sababli ularni yagona tsiklda birlashtirish zarur [3]. Ikkinchidan, taklif etilgan tsiklik mexanizm diagnostik-korreksion faoliyatni uzluksiz va takrorlanuvchi tarzda amalga oshirishni ta’minlaydigan o‘zaro bog‘liq bo‘g‘inlar-diagnostik, refleksiv-tahliliy, korreksion-loyihalash va qayta diagnostik bo‘g‘inlar majmuasidan iborat. Mexanizmning tsiklikligi har bir aylanishda faoliyatning chuqurlashib borishi va refleksiyaning uning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ishlashida namoyon bo‘ladi [5]. Uchinchidan, eksperimental ishlar natijalari taklif etilgan mexanizmning samaradorligini ishonchli tarzda tasdiqladi: tajriba guruhida refleksiv-korreksion ko‘nikmalarning yuqori darajadagi ko‘rsatkichi 33,9% ga oshdi, past darajadagi ko‘rsatkich esa sezilarli kamaydi, nazorat guruhida esa o‘zgarishlar ahamiyatsiz bo‘ldi. Statistik tahlil bu farqlarning tasodifiy emasligini tasdiqladi, bu mexanizmni oliy pedagogik ta’lim amaliyotiga joriy etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi [10].

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan tsiklik mexanizm va uning metodik ta’minoti o‘qituvchilar tayyorlash jarayoniga bevosita joriy etilishi, o‘quv dasturlari va metodik majmualarni takomillashtirishda foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga, tadqiqot doirasida barcha masalalar to‘liq yoritildi deb bo‘lmaydi: refleksiyaning tsiklik mexanizmini raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt vositalari yordamida qo‘llab-quvvatlash, shuningdek mexanizmni inklyuziv ta’lim sharoitiga moslashtirish kelgusi ilmiy izlanishlarning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda. Umuman olganda, tadqiqot natijalari o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Schön, D. A. (1983). The reflective practitioner: How professionals think in action. New York: Basic Books.
2. Korthagen, F. A. J. (2001). Linking practice and theory: The pedagogy of realistic teacher education. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
3. Avanesov, V. S. (2002). Osnovy nauchnoy organizatsii pedagogicheskogo kontrolya v vysshey shkole. Pedagogicheskaya diagnostika, (1), 41–43.
4. Kolb, D. A. (1984). Experiential learning: Experience as the source of learning and development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
5. Mena Marcos, J. J., & Tillema, H. (2006). Studying studies on teacher reflection and action: An appraisal of research contributions. Educational Research Review, 1(2), 112–132. https://doi.org/10.1016/j.edurev.2006.08.003
6. Rasulov, I., et al. (2015). The importance of pedagogical diagnosis for quality acquisition of knowledge. Advanced Science Journal, 2015(3), 26. https://doi.org/10.15550/asj.2015.03.026
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. Heitzmann, N., et al. (2022). Learning to diagnose with simulations: Examples from teacher education and medical education. Cham: Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-030-89147-3
9. Boud, D., Keogh, R., & Walker, D. (Eds.). (1985). Reflection: Turning experience into learning. London: Kogan Page.

UO'T: 37.016:34

DAVLAT VA HUQUQ FANINI O'QITISH ORQALI HUQUQIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Tajibayeva Gulchehra Sadriddinovna
Oliy Majlis Qonunchililik
palatasi deputati,
Xalqaro ishlar,mudofa va
xavfsizlik qo'mitasi a'zosi
tazibayevagulcehra07@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada "Davlat va huquq" fanini o'qitish orqali o'quvchi va talabalarning huquqiy savodxonligini rivojlantirish mexanizmlari tahlil qilingan. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida huquqiy ta'limning ahamiyati, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda interaktiv pedagogik texnologiyalar, amaliy-tajribaviy o'qitish, raqamli ta'lim texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuv, tarbiyaviy-integrativ faoliyat va fanlararo integratsiya kabi mexanizmlarning huquqiy savodxonlikni oshirishdagi o'rni asoslab berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda huquqiy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, huquqiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishning samarali usullari bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Аннотация. В данной статье исследуются механизмы развития правовой грамотности обучающихся посредством преподавания учебной дисциплины «Государство и право». Рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования правового сознания и правовой культуры в условиях становления правового государства и гражданского общества. Особое внимание уделено роли интерактивных педагогических технологий, практико-ориентированного обучения, цифровых образовательных технологий, компетентностного подхода, воспитательно-интегративной деятельности и междисциплинарной интеграции в повышении уровня правовой грамотности. Также проанализированы современные реформы в сфере правового образования Республики Узбекистан и предложены научно обоснованные рекомендации по совершенствованию механизмов формирования правовых знаний, навыков и гражданской ответственности молодежи.

Abstract. This article examines the mechanisms for developing legal literacy through the teaching of the academic discipline "State and Law." The study highlights the theoretical and practical aspects of fostering legal awareness and legal culture within the context of building a rule-of-law state and civil society. Particular attention is paid to the role of interactive pedagogical technologies, practice-oriented learning, digital educational tools, competency-based approaches, educational and integrative activities, and interdisciplinary integration in improving legal literacy. The article also analyzes ongoing reforms in legal education in the Republic of Uzbekistan and proposes scientifically grounded recommendations aimed at enhancing the effectiveness of legal education and strengthening the legal knowledge, skills, and civic responsibility of young people.

Kalit so'zlar: huquqiy savodxonlik, huquqiy ta'lim, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, davlat va huquq, interaktiv ta'lim, raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, huquqiy tarbiya, fuqarolik jamiyati.

Ключевые слова: правовая грамотность, правовое образование, правовая культура, правовое сознание, государство и право, интерактивное обучение, цифровые технологии, компетентностный подход, правовое воспитание, гражданское общество

Keywords: legal literacy, legal education, legal culture, legal awareness, state and law, interactive learning, digital technologies, competency-based approach, legal upbringing, civil society.

Kirish

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish global miqyosda har bir davlatning strategik ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur jarayon jamiyatning institutsional rivojlanishi, demokratik qadriyatlarning qaror topishi va huquq ustuvorligini ta’minlash bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unda aholining huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va huquqiy faolligi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodning huquqiy savodxonligini oshirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda huquqiy jihatdan faol va mas’uliyatli fuqaro sifatida shakllantirish ta’lim tizimining strategik vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyatni shakllantirishning samarali mexanizmlaridan biri ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi. Jumladan, UNESCO ta’lim orqali huquqiy madaniyatni rivojlantirish barqaror va adolatli jamiyat qurishning muhim sharti ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, United Nations tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarida ta’lim orqali huquqiy va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu jarayon inson huquqlarini himoya qilish va qonun ustuvorligini ta’minlashning muhim institutsional asosi sifatida baholanadi. Demak, huquqiy savodxonlikni shakllantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasida ham huquqiy demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, so‘nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar huquqiy davlatchilikni mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda qonun ustuvorligini kuchaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda qonunga hurmat va huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan tizimli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-avgustda qabul qilingan “Davlat ta’lim muassasalarida uzluksiz huquqiy ta’lim tizimini joriy etish, voyaga yetmaganlarning huquqiy madaniyati va savodxonligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-532-sonli qarori mazkur yo‘nalishdagi muhim institutsional asoslarni belgilab berdi. Mazkur qarorda ta’lim tizimida huquqiy tarbiya va huquqiy bilimlarni uzluksiz shakllantirish, yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qayd etilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan mazkur qaror Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 24-maydagi “Ma’muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas’uliyatini yanada oshirish va ixcham boshqaruv tizimini shakllantirish to‘g‘risida”gi PF-80-sonli Farmoni bilan uyg‘unlikda amalga oshirilmoqda. Ushbu farmonga muvofiq, 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab huquqiy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va yuridik kadrlar tayyorlashning uzluksiz vertikal tizimini shakllantirishga qaratilgan “maktab – litsey – texnikum – universitet” integratsiyalashgan ta’lim modeli joriy etildi.

Mazkur tizim doirasida umumta'lim maktablarida "Huquqiy sinf"larni tashkil etish va huquqiy fanlarni chuqurlashtirib o'qitish orqali kelgusida malakali yuridik kadrlar tayyorlashning uzluksiz mexanizmi yaratilmoqda. Shuningdek, Namangan va Samarqand viloyatlaridagi yuridik texnikumlar bazasida Toshkent davlat yuridik universiteti akademik litseylariga qabul jarayonini yo'lga qo'yish orqali huquqiy ta'limning institutsional infratuzilmasi yanada mustahkamlanmoqda.

"Huquqiy sinf"larni tashkil etishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda "Davlat va huquq asoslari" fanini chuqurlashtirib o'rganish; "Huquqshunoslik" yo'nalishi bo'yicha variativ o'quv rejalari asosida o'quvchilarni ta'limning keyingi bosqichlarida samarali tahsil olishga tayyorlash; huquqni muhofaza qiluvchi organlar va yuridik amaliyot xodimlarini jalb etgan holda sinfdan tashqari tadbirlarni samarali tashkil etish; o'quvchilarni huquqiy fanlar bo'yicha turli darajadagi olimpiadalar va tanlovlarda ishtirok etishga tayyorlashdan iborat.

Qaror doirasida maktablarda "Huquq" fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirish va ularni zamonaviy metodik materiallar bilan ta'minlash maqsadida maxsus elektron platformalarni joriy etish ko'zda tutilgan. Bu jarayon Adliya vazirligi tomonidan amalga oshirilib, huquqiy ta'lim mazmunini raqamlashtirish va metodik jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida "Huquqshunos bilimdon" olimpiadasi hamda o'qituvchilar o'rtasida "Eng yaxshi huquq o'qituvchisi" tanlovini o'tkazish orqali huquqiy bilimlarni ommalashtirish va pedagoglarni rag'batlantirish mexanizmlari takomillashtirilmoqda.

Mazkur islohotlar doirasida o'quvchilarning huquqiy bilimlarni mustaqil o'zlashtirishini rag'batlantirish maqsadida ko'rgazmali o'quv qo'llanmalar, interaktiv videomateriallar, kompyuter o'yinlari va mobil ilovalardan foydalanish amaliyoti keng joriy etilmoqda. "Huquqiy sinf"larga "Davlat va huquq asoslari" fanlariga qiziqish bildirgan 8-sinf o'quvchilari saralab olinib, maktab pedagogik kengashi tavsiyasi asosida qabul qilinadi. Shu bilan birga, akademik litseylarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni yuridik texnikumlarga test sinovlarisiz qabul qilish tartibining joriy etilishi huquqiy ta'limning uzluksizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, mazkur normativ-huquqiy hujjatlar yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, ularda qonunga itoatkorlik va huquqiy mas'uliyat hissini shakllantirish, jinoyatchilikka nisbatan murosasizlik muhitini qaror toptirish hamda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga xizmat qiladigan zamonaviy huquqiy ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan muhim islohotlar majmuini ifodalaydi.

Muhokama (Discussion)

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tizimli ravishda amalga oshirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406-sonli Qonuni yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asoslarni yaratib berdi. Mazkur qonun yoshlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni jamiyat hayotiga faol jalb etish hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirish borasida davlat siyosatining ustuvor vazifalarini belgilab berdi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yoshlarning huquqiy ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib, ularda qonunga hurmat va huquqiy mas'uliyat hissini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida belgilanmoqda. Bu borada Shavkat Mirziyoyevning

ma'ruzalari va aholi bilan uchrashuvlarida yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, Konstitutsiya va qonunlarni chuqur o'rganish zarurligi doimiy ravishda ta'kidlab kelinmoqda. Davlat rahbarining "Bosh Qonunimizni chuqur o'rganish, anglash, hayotga joriy etish va unga so'zsiz amal qilish – barchamizning sharafli burchimizdir" degan fikrlari yoshlarda huquqiy ongni shakllantirish va ularni huquq-erkinliklarini anglashga undashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, Konstitutsiya va milliy qonunchilik tizimi huquqiy davlat va adolatli jamiyatni barpo etishning mustahkam huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, milliy g'oya va huquqiy tarbiya masalalari o'zaro uyg'un holda qaralishi lozim. Prezidentning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomalarida milliy g'oyani rivojlantirish, uni jamiyatning barcha qatlamlariga singdirish orqali yoshlarning ma'naviy va huquqiy madaniyatini yuksaltirish zarurligi alohida qayd etilgan. Milliy g'oya, avvalo, oila muhitida shakllanishi, farzandlarning huquqiy tarbiyasi va qonunlarga hurmat ruhida kamol topishi jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida baholanadi. Huquqiy tarbiya samaradorligi esa ta'lim muassasalarida huquqiy bilimlarning chuqur va tizimli o'qitilishi bilan uzviy bog'liqdir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-sonli qarori yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularning intellektual va huquqiy salohiyatini oshirishga qaratilgan muhim islohotlarni belgilab berdi. Shuningdek, 2019-yil 9-yanvarda qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-sonli Farmon huquqiy ta'lim va tarbiyani yangi bosqichga ko'tarish, aholining huquqiy bilimlarini mustahkamlash hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirishning institutsional asoslarini yaratdi.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, ularda huquqiy tafakkur va huquqiy mas'uliyatni shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarning huquqiy bilimlarni faqat ta'lim muassasalarida emas, balki mustaqil ta'lim orqali ham o'zlashtirishi, huquqiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari va internet resurslaridan samarali foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy intellektual yoshlar globallashuv sharoitida huquqiy bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda rivojlantirib borishi zarur.

"Davlat va huquq" fanini o'qitish orqali huquqiy savodxonlikni rivojlantirish bir qator samarali pedagogik, tashkiliy va innovatsion mexanizmlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Quyida ushbu jarayonning asosiy mexanizmlari akademik yondashuvda bayon etilgan.

1. Interaktiv pedagogik texnologiyalar mexanizmi

Zamonaviy ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash huquqiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Asosiy usullar:

keys-stadi (huquqiy vaziyatlar tahlili);

debat va munozaralar;

rolli o'yinlar (sud jarayonini modellashtirish);

muammoli ta'lim;

"aqliy hujum" va klaster usuli.

Bu mexanizm talabalarda huquqiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Amaliy-tajribaviy o'qitish mexanizmi

Huquqiy savodxonlikni shakllantirishda nazariya bilan amaliyot uyg‘unligi muhim ahamiyatga ega.

Amaliy mexanizmlar:

- huquqiy hujjatlar (shartnoma, ariza, qaror) tuzish;
- sud qarorlari tahlili;
- imitatsion sud jarayonlari;
- huquqiy muammolar bo‘yicha esse va loyihalar;
- klinik huquqiy ta’lim (*legal clinic* elementlari).

Bu usullar talabalarda huquqiy ko‘nikma va amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi.

3. Raqamli ta’lim texnologiyalari mexanizmi

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari huquqiy ta’lim samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Asosiy yo‘nalishlar:

- elektron darsliklar va onlayn platformalar;
- multimediali taqdimotlar;
- onlayn test va viktorinalar;
- virtual sud jarayonlari;
- masofaviy ta’lim platformalari.

Bu mexanizm talabalarning mustaqil ta’lim olish faoliyatini rag‘batlantiradi va huquqiy bilimlarni tez o‘zlashtirishga yordam beradi.

4. Kompetensiyaviy yondashuv mexanizmi

Zamonaviy ta’limda natijaga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy yondashuv ustuvor hisoblanadi.

Shakllantiriladigan kompetensiyalar:

- huquqiy tahlil qilish;
- huquqiy qaror qabul qilish;
- huquqiy kommunikatsiya;
- fuqarolik mas’uliyati;
- qonunlarga hurmat.

Bu mexanizm talabalarning huquqiy madaniyati va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantiradi.

5. Tarbiyaviy-integrativ mexanizm

Huquqiy savodxonlikni faqat dars orqali emas, tarbiyaviy ishlar orqali ham rivojlantirish zarur.

Shakllar:

- huquqiy targ‘ibot tadbirlari;
- davra suhbatlari;
- huquqshunoslar bilan uchrashuvlar;
- huquqiy viktorina va tanlovlar;
- Konstitutsiya va qonunlarga bag‘ishlangan tadbirlar.

Bu mexanizm huquqiy madaniyatni mustahkamlaydi.

Mazkur mexanizmlar ta’lim samaradorligini nazorat qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “Davlat va huquq” fanini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish talabalarning huquqiy savodxonligini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv metodlar talabalarni faol fikrlashga undaydi, amaliy mashg‘ulotlar esa huquqiy bilimlarni mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish huquqiy ta’lim samaradorligini oshiradi. Zamonaviy yoshlar raqamli muhitda tez va samarali bilim oladi, bu esa huquqiy savodxonlikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa (Conclusion)

Huquqiy savodxonlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor va strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida yosh avlodning huquqiy bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni qaror toptirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda "Davlat va huquq" fanini samarali va tizimli o'qitish talabalarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, qonunlarga nisbatan hurmat ruhini shakllantirish hamda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlar va ta'lim amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqiy ta'lim mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish talabalarning huquqiy savodxonligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Xususan, interaktiv ta'lim metodlarini joriy etish talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, huquqiy bilimlarni chuqur o'zlashtirish va ularni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metodlar orqali talabalar huquqiy vaziyatlarni mustaqil baholash, huquqiy qarorlar qabul qilish va o'z fikrlarini asosli ravishda ifoda etish ko'nikmalarini egallaydilar.

Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar, jumladan, huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, shartnomalar tuzish, sud jarayonlarini modellashtirish kabi faoliyatlar talabalarda huquqiy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish imkonini yaratadi. Bu esa ularda huquqiy ko'nikma va malaka shakllanishiga, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi.

ADABIYOTLAR

1. Saidov A. "Bolalar huquqlari: Uni to'laqonli ta'minlash jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi." *"Xalq so'zi"*, 2019-yil 25-aprel. 84-son.

2. Sh.M. Mirziyoyev. "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir." *"Xalq so'zi"*, 2018-yil 8-dekabr. 253-son.

3. Burxonov I.M. Yoshlarning ma'naviy kamolotga yetkazishda huquqiy ta'limning o'rni. *Milliy yuksalish va yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning dolzarb masalalari* mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy masofaviy konferensiya materiallari. Samarqand, 2020. B. 30–31.

4. Байков В. А. и др. Развитие правовой грамотности посредством активных методов обучения: выпускная бакалаврская работа по направлению подготовки: 39.03. 03-Организация работы с молодежью. – 2022.

UO'T: 37.091.3:51:004.9

MATEMATIKA TA'LIMIDA O'QUVCHILAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MATHSCORE PLATFORMASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Toxirova Malika Muzaffar qizi
O'zMPU tayanch doktaranti
malikatoxirova31@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada matematika ta'limida o'quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan MathScore raqamli platformasining didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Platformaning o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlari, mantiqiy va tanqidiy fikrlashi, mustaqil ta'lim faoliyati hamda metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, MathScore platformasining tuzilishi, funksional imkoniyatlari va ta'lim jarayonida qo'llashning pedagogik afzalliklari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari platformadan foydalanish o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifati va intellektual faolligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Аннотация. В данной статье проанализированы дидактические возможности цифровой платформы MathScore, направленной на развитие интеллектуального потенциала учащихся в процессе обучения математике. Освещена роль платформы в развитии когнитивных способностей, логического и критического мышления, самостоятельной учебной деятельности и метакогнитивных навыков обучающихся. Раскрыты структура платформы, её функциональные возможности и педагогические преимущества использования в образовательном процессе. Результаты исследования показали, что применение платформы способствует повышению качества усвоения знаний и интеллектуальной активности учащихся.

Abstract. This article analyzes the didactic capabilities of the MathScore digital platform aimed at developing students' intellectual potential in mathematics education. The role of the platform in enhancing cognitive abilities, logical and critical thinking, independent learning activities, and metacognitive skills is discussed. The structure, functional features, and pedagogical advantages of the platform are also presented. The findings indicate that the use of the MathScore platform contributes to improving students' learning outcomes and intellectual engagement.

Kalit so'zlar: intellektual salohiyat, MathScore platformasi, raqamli ta'lim muhiti, matematika ta'limi, kognitiv qobiliyatlar, metakognitiv ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, dasturiy ta'minot, didaktik imkoniyatlar.

Ключевые слова: интеллектуальный потенциал, платформа MathScore, цифровая образовательная среда, математическое образование, когнитивные способности, метакогнитивные навыки, критическое мышление, логическое мышление, программное обеспечение, дидактические возможности.

Keywords: intellectual potential, MathScore platform, digital learning environment, mathematics education, cognitive abilities, metacognitive skills, critical thinking, logical thinking, software tools, didactic capabilities.

Zamonaviy jamiyatda o'quvchilardan katta hajmdagi axborotni o'zlashtirish emas, balki uni tahlil qilish, tanqidiy baholash, muammolarga ijodiy yechim topish hamda mustaqil qaror qabul qilish kabi yuqori darajadagi intellektual ko'nikmalarga ega bo'lish talab etilmoqda. Shu bois o'quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalardan samarali foydalanish o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlari, tanqidiy va mantiqiy fikrlashi, muammoni hal qilish ko‘nikmalari hamda metakognitiv faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ta’lim platformalarining samaradorligi nafaqat ularning texnik imkoniyatlariga, balki didaktik jihatdan to‘g‘ri loyihalashtirilganligiga ham bog‘liqdir. Ayniqsa, o‘quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini hisobga olish, natijalarni tahlil qilish va tezkor teskari aloqani ta’minlash zamonaviy raqamli ta’lim vositalarining muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Mazkur ehtiyojlardan kelib chiqib, matematika ta’limida o‘quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan MathScore platformasi ishlab chiqildi. Platforma o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, bilimlarni tizimli nazorat qilish, natijalarni tahlil qilish hamda ularning kognitiv va metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. MathScore platformasining asosiy afzalligi shundaki, u faqat bilimlarni baholash bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarning intellektual rivojlanish dinamikasini kuzatish va individual ta’lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi matematika ta’limida o‘quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan MathScore platformasining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda uning ta’lim jarayonidagi pedagogik ahamiyatini asoslab berishdan iborat.

MathScore platformasining tuzilishi va didaktik imkoniyatlari

Tadqiqot doirasida matematika ta’limida o‘quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan MathScore platformasi ishlab chiqildi. Platforma Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish, bilimlarni nazorat qilish hamda natijalarni tahlil qilish imkoniyatlarini taqdim etadi.

MathScore platformasi Cambridge AS/A Level Mathematics dasturi va Prezident maktablari o‘quv dasturlari asosida shakllantirilgan. Platformada topshiriqlar murakkablik darajasi bo‘yicha tizimlashtirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning bilimlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Platformaning didaktik imkoniyatlari o‘quvchilarning mustaqil o‘quv faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, tezkor teskari aloqani ta’minlash, natijalarni monitoring qilish va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, topshiriqlarning turli darajalarda taqdim etilishi differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

MathScore platformasi orqali o‘quvchilar o‘z bilim darajasini muntazam nazorat qilish, mavjud kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning kognitiv qobiliyatlari, mantiqiy fikrlashi hamda metakognitiv ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

MathScore platformasi matematika ta’limida o‘quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali raqamli ta’lim vositasi sifatida tavsiflanadi.

MathScore platformasining o‘quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini yanada aniqroq ko‘rsatish maqsadida uning funksional imkoniyatlari hamda intellektual salohiyat komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi (1-jadvalga qarang).

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, platformaning har bir funksional elementi o‘quvchilarning ma’lum bir kognitiv yoki metakognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, topshiriqlarning bosqichma-bosqich murakkablashib borishi mantiqiy fikrlashni rivojlantirsa, natijalarni monitoring qilish va tahlil etish imkoniyati o‘z-o‘zini baholash hamda refleksiya ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi.


1-jadval

MathScore platformasi imkoniyatlarining intellektual salohiyat komponentlariga ta'siri

Intellektual salohiyat komponenti	**Mazmuni**	**MathScore platformasi imkoniyatlari**
Xotira	O‘rganilgan bilimlarni eslab qolish	Muntazam mashqlar, mavzular

Intellektual salohiyat komponenti	**Mazmuni**	**MathScore platformasi imkoniyatlari**
	va qayta tiklash qobiliyati	bo‘yicha topshiriqlar va takrorlash tizimi
Tasavvur	Mavjud bilimlar asosida yangi obraz va g‘oyalarni shakllantirish qobiliyati	Interaktiv topshiriqlar, turli yechim usullarini taqqoslash imkoniyati
Mantiqiy fikrlash	Muammoni tahlil qilish va asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyati	Bosqichma-bosqich murakkablashuvchi masalalar va muammoli topshiriqlar
Tanqidiy fikrlash	Axborotni tahlil qilish, baholash va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati	Turli yechimlarni solishtirish va natijalarni tahlil qilish imkoniyati
O‘z-o‘zini baholash	O‘z bilim darajasi va kamchiliklarini aniqlash qobiliyati	Natijalarni avtomatik ko‘rsatish va xatolar ustida ishlash imkoniyati
Refleksiya	O‘quv faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati	Shaxsiy natijalar dinamikasini monitoring qilish va rivojlanish trayektoriyasini kuzatish

MathScore platformasining umumiy tuzilishi va foydalanuvchi interfeysi 1-rasmda keltirilgan. Platforma interfeysi o‘quvchilarning mustaqil ishlashini qulay tashkil etish, o‘quv kurslarini tanlash, topshiriqlarni bajarish va natijalarni kuzatib borish imkoniyatlarini taqdim etadi. Shu bilan birga, platformaning sodda va intuitiv interfeysi o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga faol jalb etilishiga hamda ta’lim resurslaridan samarali foydalanishiga xizmat qiladi.



1-rasm. MathScore platformasining boshqaruv paneli

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, MathScore platformasi nafaqat bilimlarni nazorat qilish vositasi, balki o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan integrallashgan raqamli ta’lim muhiti sifatida ham muhim didaktik imkoniyatlarga ega. Tadqiqot davomida quyidagi xulosalarga kelindi:

– MathScore platformasi o‘quvchilarning xotira, tasavvur, mantiqiy va tanqidiy fikrlash kabi kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi;

– platformaning natijalarni monitoring qilish va tahlil etish imkoniyatlari o‘quvchilarda refleksiya hamda o‘z-o‘zini baholash kabi metakognitiv ko‘nikmalarning shakllanishiga yordam beradi;

– topshiriqlarning murakkablik darajalari bo‘yicha tizimlashtirilganligi differensial yondashuvni amalga oshirish va o‘quvchilarning individual rivojlanish trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlash imkonini yaratadi;

– MathScore platformasidan foydalanish o‘quvchilarning intellektual faolligi va matematika fanini o‘zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

x_1, x_2, x_3 — расстояние этих частей руды от середины вагона;

m_n — последняя часть массы;

x_n — расстояние последней части от середины вагона.

$$\text{Центр тяжести} = \frac{\text{масса} \times \text{расстояние}}{\text{общая масса}} \quad (2)$$

Например, делить груз вагона 3 части:

Часть груза	Масса, т	Расстояние от середины вагона, м
1-часть	20	-1
2-часть	30	0
3-часть	50	1

Тогда:

$x_c = \frac{20\cdot(-1)+30\cdot0+50\cdot1}{20+30+50}$ $x_c = \frac{-20+0+50}{100}$ $x_c = 0{,}3$ м

Это значит, что центр тяжести сместился на **0,3 м** в сторону той части, где больше руды.

Просыпание руды на рельсы и риск схода думпкаров

Одной из существенных технологических проблем, возникающих при погрузке руды в карьерные думпкары, является просыпание отдельных кусков горной массы на железнодорожный путь. В процессе разгрузки ковша экскаватора часть материала может не попасть в кузов вагона и упасть на рельсы, шпалы или в междупутье. Дополнительное просыпание возможно также через верхние борта думпкара при его переполнении или неравномерной укладке груза.

После завершения загрузки локомотив перемещает состав для подачи следующего думпкара под рабочую зону экскаватора. При этом колесные пары вагонов могут наехать на куски руды, находящиеся на головке рельса. Попадание твердой горной породы в зону контакта «колесо–рельс» нарушает нормальное взаимодействие ходовой части с железнодорожным путем, вызывает кратковременный подъем колеса, увеличение ударной нагрузки и перекос тележки. Кроме того, систематические перегрузки вагонов сверх установленных норм не только ускоряют износ путевой инфраструктуры и колесных пар, но и критически повышают риск схода состава с рельсов [4].

Наиболее опасны крупные и прочные куски породы, которые не разрушаются под воздействием колеса. Их наличие на рельсах может привести к набеганию гребня колеса на головку рельса, потере направляющей способности колесной пары и сходу думпкара с пути. Вероятность возникновения аварийной ситуации возрастает при движении состава по криволинейным участкам, стрелочным переводам и при толкании вагонов локомотивом.

Таким образом, просыпание руды на железнодорожный путь снижает безопасность маневровых операций, увеличивает динамические нагрузки на ходовую часть вагонов и создает риск нарушения устойчивости подвижного состава.

Простои, возникающие при сходе думпкара с рельсов, оказывают прямое влияние на производительность карьерного транспорта и экскавационного оборудования. Во время аварийно-восстановительных работ прекращается подача порожних вагонов под погрузку, загруженный состав не может быть отправлен на разгрузку, а экскаватор вынужден простаивать из-за отсутствия транспортной ёмкости. Дополнительные потери времени связаны с остановкой движения, освобождением участка, установкой вагона обратно на рельсы, проверкой состояния пути и ходовой части, а также возобновлением маневровых операций.

Общее время одного аварийного простоя можно определить по формуле:

$$T_{\text{пр}} = t_{\text{обн}} + t_{\text{ост}} + t_{\text{подг}} + t_{\text{восст}} + t_{\text{контр}} + t_{\text{пуск}} \quad (3)$$

где:

$t_{\text{обн}}$ — время обнаружения схода или препятствия на пути, ч;

$t_{\text{ост}}$ — время полной остановки состава и оборудования, ч;

$t_{\text{подг}}$ — время подготовки восстановительных средств и персонала, ч;

$t_{\text{восст}}$ — время установки колесных пар вагона обратно на рельсы, ч;

$t_{\text{контр}}$ — время осмотра и проверки состояния пути, колесных пар и тележки, ч;

$t_{\text{пуск}}$ — время возобновления движения и восстановления нормального режима работы, ч.

При нескольких аварийных случаях суммарное время простоев за рассматриваемый период определяется следующим образом:

$$T_{\Sigma\text{пр}} = \sum_{i=1}^{n} T_{\text{пр},i} \quad (4)$$

где:

n — количество случаев схода вагонов или вынужденной остановки состава.

Фактический фонд рабочего времени комплекса «экскаватор — железнодорожный транспорт» будет равен:

$$T_{\text{ф}} = T_{\text{кал}} - T_{\text{пл}} - T_{\Sigma\text{пр}} \quad (5)$$

где:

$T_{\text{кал}}$ — календарный или сменный фонд времени; $T_{\text{пл}}$ — продолжительность плановых остановок, технического обслуживания и регламентированных перерывов.

Производительность экскаваторно-транспортного комплекса с учетом простоев можно определить по формуле:

$$Q_{\text{ф}} = Q_{\text{т}} \cdot \frac{T_{\text{ф}}}{T_{\text{кал}}} \quad (6)$$

где:

$Q_т$ — теоретическая производительность комплекса за рассматриваемый период, т/смену или м³/смену; $Q_ф$ — фактическая производительность с учетом простоев.

Коэффициент использования оборудования по времени определяется выражением:

$$K_н = \frac{T_ф}{T_{кал}} = 1 - \frac{T_{пл} + T_{\Sigma пр}}{T_{кал}} \quad (7)$$

Чем больше продолжительность аварийных простоев, тем меньше коэффициент использования экскаватора, локомотива и думпкаров. Потерю производительности вследствие простоев можно определить как:

$$\Delta Q = Q_т - Q_ф = q_ч \cdot T_{\Sigma пр} \quad (8)$$

где:

$q_ч$ — средняя часовая производительность экскаваторно-транспортного комплекса, т/ч или м³/ч.

Если необходимо отдельно определить простой экскаватора, то используется формула:

$$T_{пр.экс} = T_{ожид} + T_{восст} + T_{путь}, \quad (9)$$

где: $T_{ожид}$ — время ожидания подачи исправного состава; $T_{восст}$ — время возвращения вагонов на рельсы; $T_{путь}$ — время очистки и восстановления железнодорожного пути.

Объём недогруженной горной массы вследствие простоя экскаватора составляет:

$$\Delta V_{экс} = Q_{экс.ч} \cdot T_{пр.экс}, \quad (9)$$

где $Q_{экс.ч}$ — эксплуатационная часовая производительность экскаватора, м³/ч или т/ч.

Например, если часовая производительность экскаватора составляет 1 200 т/ч, а установка сошедшего думпкара обратно на рельсы вместе с проверкой пути занимает 2,5 часа, то потеря объёма погрузки составит:

$$\Delta Q = 1\,200 \cdot 2{,}5 = 3\,000 \text{ т.}$$

Следовательно, даже один случай схода думпкара способен вызвать значительное снижение сменной производительности карьера. При этом потери возникают не только из-за остановки железнодорожного состава, но и вследствие взаимосвязанного простоя экскаватора, локомотива, соседних вагонов, ремонтного персонала и вспомогательной техники. Поэтому предотвращение попадания кусков руды в зону контакта «колесо–рельс» позволяет сократить продолжительность внеплановых остановок, повысить коэффициент использования оборудования и увеличить фактический объём перевозки горной массы. Кроме того, при транспортировке мелкодисперсных фракций руды необходимо учитывать риски их выдувания, интенсивность которого напрямую зависит от размещения вагонов в составе и условий внешней среды [5]

Заключение

Проведённый анализ процесса погрузки горной массы экскаватором в думпкары показывает, что безопасность и производительность карьерного железнодорожного транспорта во многом зависят от качества выполнения погрузочных операций. К основным негативным факторам относятся неравномерное распределение горной массы в кузове

вагона, перегрузка думпкаров сверх допустимой нормы, а также просыпание кусков руды на железнодорожный путь.

Неравномерное размещение груза приводит к смещению центра тяжести думпкара и неодинаковому распределению нагрузок между колесными парами и тележками. При продольном смещении груза одна тележка воспринимает большую нагрузку, чем другая, а при поперечном смещении возникает разность нагрузок между колесами правой и левой сторон. Это способствует возникновению перекоса кузова и тележек, увеличению давления на отдельные колеса, усиленному износу колесных пар, буксовых узлов, рельсов и шпал. На криволинейных участках пути, стрелочных переводах и при толкании состава локомотивом неравномерная загрузка дополнительно снижает устойчивость вагона и повышает вероятность набегания гребня колеса на головку рельса.

Перегрузка думпкаров также отрицательно влияет на техническое состояние подвижного состава и железнодорожного пути. Превышение установленной грузоподъёмности увеличивает статические и динамические нагрузки на раму, кузов, тележки, колесные пары и элементы пути. При систематической перегрузке ускоряется износ оборудования, возрастает частота ремонтов и сокращается срок службы вагонов. Кроме того, перегруженный и неравномерно загруженный думпкар обладает меньшим запасом устойчивости при движении по неровным и криволинейным участкам.

Дополнительную опасность представляет просыпание руды на головки рельсов. При перемещении состава колесная пара может наехать на крупный и прочный кусок горной породы, который не разрушается под действием колеса. В результате возникает кратковременный подъём колеса, ударная нагрузка, перекос тележки и нарушение контакта в системе «колесо–рельс». Совместное воздействие препятствия на рельсе, неравномерной загрузки и перегрузки вагона значительно повышает риск схода думпкара с рельсов.

Возникновение подобных ситуаций приводит не только к повреждению техники, но и к существенным производственным потерям. При сходе вагона или вынужденной остановке состава затрачивается время на прекращение движения, прибытие ремонтной бригады, подготовку вспомогательной техники, установку колесных пар обратно на рельсы, очистку и восстановление пути, осмотр вагона и возобновление работы. В этот период простаивают локомотив, думпкары, экскаватор и вспомогательное оборудование. Сокращается фактический фонд рабочего времени, снижается коэффициент использования техники и уменьшается объём перевозки и погрузки горной массы.

Потери производительности находятся в прямой зависимости от продолжительности простоев и часовой производительности экскавационно-транспортного комплекса. Даже непродолжительная остановка высокопроизводительного экскаватора может привести к значительному недополучению объёма горной массы. При повторяющихся аварийных ситуациях суммарные потери за смену, месяц или год становятся существенными и отрицательно влияют на общую производительность карьера.

Таким образом, для повышения безопасности и эффективности работы карьерного железнодорожного транспорта необходимо обеспечить равномерное распределение горной массы по длине и ширине кузова, исключить превышение установленной грузоподъёмности думпкаров и предотвратить попадание кусков руды на головки рельсов. Целесообразно контролировать положение ковша при разгрузке, последовательность заполнения кузова, массу загружаемой породы, состояние железнодорожного пути и чистоту рельсов.

Применение предлагаемого устройства для удаления кусков руды перед колесными парами может рассматриваться как дополнительная мера повышения безопасности движения. Такое устройство позволяет очищать рабочую поверхность рельса

непосредственно перед прохождением колеса, уменьшать вероятность его подъёма и снижать динамические нагрузки на ходовую часть вагона. В сочетании с контролем равномерности загрузки и соблюдением норм грузоподъёмности это позволит сократить количество аварийных остановок, уменьшить продолжительность простоев, повысить коэффициент использования оборудования и увеличить общую производительность карьера.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Разумова, К., Темченко, О., Maksymov, S. V., & Maksymova, O. (2021). Research of Duration Influence of Loading and Unloading Operations on the Use Efficiency of Technological Motor Transport on Open Pit Iron Mines. Science and Transport Progress, 24–38. https://doi.org/10.15802/stp2021/256794

2. Олимович, Я. Г. Г. К. Т. (2022b). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭКСПЛУАТАЦИОННЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА. Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research). https://doi.org/10.5281/zenodo.7073536

3. Козаченко, Д. М., BEREZOVYI, M., MALASHKIN, V., & KHYLKEVYCH, D. (2025). IMPROVED ANALYTICAL METHODS FOR ASSESSING TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL PARAMETERS OF QUARRY RAILWAY TRANSPORT. Transport Systems and Transportation Technologies, 30, 5–12. https://doi.org/10.15802/tstt2025/340117

4. Denisenko, M. A., Isaeva, A., Sinyukin, A., & Kovalev, A. (2024). Models and a deformations simulation approach using ANSYS CAD for railway wagons weighing system. Scientific and Technical Journal of Information Technologies Mechanics and Optics, 24(2), 284–292. https://doi.org/10.17586/2226-1494-2024-24-2-284-292

5. Псеровская, Е. Д., & Овчинников, Р. А. (2025). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СОСТАВНОСТИ ПОЕЗДА НА ВЕЛИЧИНУ ПОТЕРЬ ОТ ВЫДУВАНИЯ МЕЛКОДИСПЕРСНЫХ СЫПУЧИХ ГРУЗОВ ПРИ ПЕРЕВОЗКЕ В ПОЛУВАГОНАХ МАРШРУТНЫМИ ОТПРАВКАМИ. Transport of the Urals, 33–39. https://doi.org/10.20291/1815-9400-2025-1-33-39

UO‘T: 625.76:629.11.012.8

AVTOGREYDERNING IKKI ERKINLIK DARAJASIGA EGA OSMA TIZIMI TEBRANISHINI MODELLASHTIRISH

T.I.Askarxodjaev
t.f.d., prof. Toshkent davlat transport universiteti

Sh.A.Pinaev
PhD. dots. Toshkent davlat transport universiteti

S.S.Azimov
kata o‘qituvchi, Toshkent davlat transport universiteti, kata o‘qituvchi.
sharofiddinpirnayev23061983@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtogreyder osma tizimining dinamik xususiyatlarini tadqiq etish masalasi ko‘rib chiqilgan. Avtogreyderning 1/4 qismi uchun ikki erkinlik darajali (2 DOF) matematik model ishlab chiqilib, ressorlangan va ressorlanmagan massalarning vertikal tebranishlari tahlil qilingan. Simulink dasturiy muhitida yaratilgan model yordamida ressorlangan va ressorlanmagan qismlarning ko‘chishi hamda tezlik o‘zgarishlari aniqlangan. Modellashtirish jarayonida sinusoidal, garmonik va pog‘onali (step) ko‘rinishdagi tashqi ta’sir signallaridan foydalanilgan. Olingan natijalar avtogreyder osma tizimining dinamik holatini baholash hamda tebranish jarayonlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Abstract. This article examines the problem of investigating the dynamic characteristics of a motor grader's suspension system. A two-degree-of-freedom (2 DOF) mathematical model for a quarter of the motor grader was developed, and the vertical vibrations of the sprung and unsprung masses were analyzed. Using a model created in the Simulink software environment, the displacement and velocity changes of the sprung and unsprung parts were determined. During the modeling process, external input signals in sinusoidal, harmonic, and step forms were utilized. The results obtained allow for the evaluation of the dynamic state of the motor grader's suspension system and the analysis of vibration processes.

Kalit so‘zlar. avtogreyder, tebranish, dinamik tizim, matematik model, Simulink, osma tizim, vertikal tebranish.

Keywords: motor grader, vibration, dynamic system, mathematical model, Simulink, suspension system, vertical vibration.

Avtogreyder – pnevmog‘ildirakli yurish qismiga ega, otvalli ishchi organi bilan jihozlangan o‘ziyurar yer tekislash mashinasi bo‘lib, u gruntni massivdan qatlam-qatlam kesib oladi va uni qisqa masofalarga suradi.

Avtogreyder avtomobil va temiryo‘llar, aerodromlar, shuningdek, sanoat, fuqarolik, gidrotexnika va irrigatsiya inshootlari qurilishida qo‘llaniladi. Avtogreyderlar yordamida yuzalar profillanadi va rejalashtiriladi, balandligi 0,6 metrgacha bo‘lgan ko‘tarmalar hosil qilinadi, yo‘l asoslari uchun ariqchalar (novlar) ochiladi, grunt, chaqiqtosh, shag‘al va bog‘lovchi materiallar aralashtiriladi hamda tekislanadi.

Zamonaviy avtogreyderlarning umumiy komponovka sxemasi dvigatel va kabina mashinaning orqa qismida, otval va uning mexanizmlari esa g‘ildirak bazasining o‘rtasida joylashishini ko‘zda tutadi [1].

Avtogreyderlarning keng funksional imkoniyatlari ularning konstruktiv tuzilishi va yurish tizimining xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Konstruktiv tuzilishiga ko‘ra, ularning yurish qurilmalari ikki va uch o‘qli turlarga bo‘linadi. Barcha avtogreyderlarda oldingi o‘q g‘ildiraklari boshqariluvchi bo‘ladi, og‘ir turlarida esa ular yetakchi ham hisoblanadi. Yurish qurilmasining konstruktiv xususiyatlari AxBxC ko‘rinishidagi g‘ildirak formulasi orqali ifodalanadi. Bu yerda A, B va C mos ravishda boshqariluvchi, yetakchi va umumiy o‘qlar sonini bildiradi.

Yengil avtogreyderlar 1x2x3 va 1x2x2, o‘rta turdagilari 1x2x3 va 2x2x2, og‘ir va o‘ta og‘ir turdagilari esa 1x3x3 va 3x3x3 g‘ildirak formulasiga ega bo‘ladi.

O‘qlar sonining ortishi mashinaning loyihalash ishlarini bajarish qobiliyatini yaxshilaydi. Yetakchi o‘qlar sonining ko‘payishi mashinaning tortish imkoniyatini oshirsa, boshqariluvchi o‘qlar sonining ortishi uning manyovrchanligini yaxshilaydi. Biroq 1x3x3 va ayniqsa 3x3x3 g‘ildirak formulasiga ega avtogreyderlar konstruktiv jihatdan murakkab va ishlab chiqarish tannarxi yuqori bo‘lgani sababli, ular cheklangan miqdorda ishlab chiqariladi va umumiy miqdori 4% dan oshmaydi [1].


Qurilish sohasida eng keng tarqalgan tur — bu orqa qismida ikkita yetakchi o‘q va old qismida boshqariluvchi g‘ildirakli o‘qqa ega bo‘lgan uch o‘qli avtogreyder bo‘lib, u 1x2x3 g‘ildirak formulasiga ega.

Avtogreyderlarning old boshqariluvchi o‘qi uchlariga g‘ildiraklar sharnirlar yordamida biriktirilgan balkadan iborat. Avtogreyder old boshqariluvchi ko‘prigining asosiy xususiyati shundan iboratki, ayrim konstruksiyalarda har ikkala g‘ildirakni bir vaqtning o‘zida ham og‘dirish, ham burish imkoniyati mavjud (1-rasm).



1-rasm. Boshqariluvchi va og‘diriluvchi g‘ildiraklarga ega old ko‘prik

Avtogreyderning barcha boshqa uzellari o‘rnatiladigan asosiy ko‘taruvchi konstruksiyasi — bu butun mashina bo‘ylab uzunasiga joylashgan, vertikal tekislikda egilgan asosiy payvandlangan ramadir. Asosiy rama podmotor ramasi (1) va xrebetli balkadan (2) tashkil topgan (2-rasm) [2].




2-rasm. Balansirli osmaga ega avtogreyder ramasi
1 – podmotor ramasi, 2 – xrebetli balka, 3 – orqa ko‘prik.

Podmotor ramasi to‘rtburchak shaklga ega bo‘lib, uning yuqori qismiga dvigatel va kabina o‘rnatiladi, pastki qismi esa harakatlanish mexanizmining orqa yetakchi ko‘priklari (3) balansirli telejkasi bilan bog‘langan.

Balansirli osma va bort reduktorlariga ega orqa telejka to‘rt g‘ildirakli blokdan iborat bo‘lib, uning ko‘ndalang balkasiga asosiy uzatma o‘rnatilgan. Balkaning uchlarida sirpanish podshipniklariga g‘ildiraklarni harakatga keltirish uchun xizmat qiluvchi bort reduktorli balansirlar mahkamlangan. G‘ildiraklarni harakatga keltirish uzatmasi tishli yoki zanjirli tarzda bajariladi [1].

Yurish qismi elementlarining o‘zaro muvofiqlashgan ishlashi avtogreyder ramasiga tushadigan dinamik yuklamalarning xususiyatini belgilab beradi.

Avtogreyderning ikki erkinlik darajasiga ega osma tizimi chiziqli vertikal tebranishlarini ko‘rib chiqaylik (3-rasm).



3-rasm. Ikki erkinlik darajasiga ega osma tizimi


Avtogreyder konstruksiyasiga ta’sir etuvchi dinamik yuklamalarni tahlil qilish va operator ish o‘rnidagi tebranishlarni baholash uchun osma tizimining matematik modeli tuziladi.

Osmaga ta’sir qiluvchi kuchlar orqali avtogreyder ramasi va osma elementlarining tebranish dinamikasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{cases} m_1\ddot{z}_1 = c_1(\dot{z}_2 - \dot{z}_1) + k_1(z_2 - z_1), \\ m\ddot{z}_2 = k_2(u - z_2) + c_2(\dot{u} - \dot{z}_2) - k_1(z_2 - z_1) - c_1(\dot{z}_2 - \dot{z}_1). \end{cases} \quad (1)$$

Ikki erkinlik darajasiga ega tizim sifatida qaralgan ushbu modelda: m_1 – avtogreyder kuzovining chorak qismi massasi (ressoralangan), kg; m_2 – avtogreyder g‘ildiragi va osma elementlari massasi (ressoralanmagan), kg; k_1 – osma prujinasi bikrligi, N/m; k_2 – g‘ildirak va shinaning bikrligi, N/m; c_1 – amortizatorning so‘ndirish doimiysi, Ns/m; c_2 – g‘ildirak va shinaning so‘ndirish doimiysi, Ns/m; z_1 – avtogreyder kuzovining ko‘chishi, m; z_2 – g‘ildirakning ko‘chishi, m; u – yo‘l profilining o‘zgarishi, m.

(1) tenglamalar tizimining sonli yechimini olish va tizim dinamikasini vizual tahlil qilish uchun Simulink muhitida model yaratamiz (4-rasm).



4-rasm. Avtogreyder kuzovi va g‘ildiragi tebranishining Simulink modeli


Yo‘l profilining o‘zgarishi modelga tebranishni uyg‘otuvchi kiruvchi kattalik sifatida qaraladi (5-rasm).

Yo‘l profili uchun sinusoidal, garmonik va qadam (step) turidagi signallar shakllantirildi.


Har bir yo‘l notekisligi davriy yoki tasodifiy profilga ega. Aksariyat yo‘llar notekisligi tasodifiy xarakterda bo‘ladi. Vertikal tebranish dinamikasini o‘rganish uchun yo‘l notekisligining vertikal balandligining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi sinus funksiyasi ko‘rinishida quyidagicha ifodalanadi:

$$u(t) = u_0 \, sin(\omega t + \pi), \qquad (2)$$


bu yerda $\omega = \frac{2\pi v}{L}$, – burchakli tezlik, rad/s; u – yo‘l notekisligining vertikal balandligi, m; u_0 – yo‘l notekisligining vertikal amplitudasi, m; L – yo‘l notekisligi to‘lqin uzunligi, m; v – avtogreyder tezligi, m/s.



5-rasm. Sinusoidal uyg‘otuvchi kirish kattaligi (signal)




6-rasm. Garmonik uyg‘otuvchi kirish kattaligi (signal)



7-rasm. Pog‘onali (step) uyg‘otuvchi kirish kattaligi (signal)


Model yo‘l profili generatori, tashqi qo‘zg‘atuvchi signal bloklari va osmaning chorak dinamik modelidan tashkil topgan. Yo‘l profili blokida sinusoidal, garmonik va pog‘onali (step) turdagi signallar shakllantirildi. Sinusoidal signal yo‘l mikrorelyefining davriy notekisligini ifodalasa, pog‘onali (step) signal g‘ildirakning keskin to‘siqdan o‘tish holatini modellashtiradi (7-rasm). [4]




7-rasm. Ikki erkinlik darajasiga ega tizimning Simulink modeli

Tashqi ta’sir signali osma tizimining kirish qismiga uzatilib, model yordamida podressorlanuvchi massa va nopodressorlanuvchi massalarning ko‘chishlari hamda ularning tezliklari $\dot{z}_1$ va $\dot{z}_2$ aniqlandi.


Modellashtirish natijasida sinusoidal va garmonik ta’sirlar ostida tizimning majburiy tebranishlari hosil bo‘lishi, tebranish amplitudasi esa tashqi ta’sir chastotasiga bog‘liq holda o‘zgarishi kuzatildi (8–9-rasmlar). “Step” signali ta’sirida esa tizimda o‘tkinchi tebranish jarayonlari yuzaga kelib, vaqt o‘tishi bilan so‘nishi aniqlandi (10-rasm).



8-rasm. Avtogreyder kuzovi va g‘ildiragining sinusoidal tebranishi



9-rasm. Avtogreyder kuzovi va g‘ildiragining garmonik tebranishi



10-rasm. Avtogreyder kuzovi va g‘ildiragining qadamli (step) tebranishi

$m_1 = 300kg, m_2 = 3900kg, c_1 = 8 \cdot 10^6, c_2 = 12 \cdot 10^6, k_1 = 8 \cdot 10^6, k_2 = 12 \cdot 10^6.$

Bu avtogreyder osma tizimining dinamik xususiyatlarini baholash, ressorlangan va ressorlanmagan qismlarining vertikal harakatini tahlil qilish hamda tebranishlarni kamaytirish bo‘yicha konstruktiv yechimlarni tanlash imkonini beradi.

Xulosa. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, dinamik tizimlarni differensial tenglamalar asosida modellashtirishda Simulink dasturiy muhiti yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, avtogreyder osma tizimlarining tebranish jarayonlarini tahlil qilish uchun qulay vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Avtogreyderi. Ustroystvo, osnovnie rascheti. V.I. Balovnev, R.G. Danilov, G.V. Kustarev, N.D. Seliverstov. MADI, 2014 g. st. 144.
2. Ergonomika zemleroynix mashin. E.A. Suxarev. Rovno 2011 g.
3. Konstruksiya, raschet i ekspluatatsionnie svoystva transportnix sredstv. R.N. Safiullin, A.S. Afanasev, R.R. Safiullin. Moskva 2018 g. st. 312.
4. Modelirovaniye sistem v SIMULINK. D.I. Dik. Kurgan 2011 g. st. 36.

UO‘T: 664:005.6

OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATI VA XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH FUNKSIYALARINI MODELLASHTIRISH HAMDA TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI

Bakiyev Elyorbek Elbek o‘g‘li
NamDTU tayanch doktoranti,
elyorbek.bakiyev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada oziq-ovqat korxonalarida mahsulot sifati va xavfsizligini boshqarish funksiyalarini modellashtirish hamda ularni takomillashtirishning tashkiliy-uslubiy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda tizimli yondashuv, jarayonli tahlil, funksional modellashtirish va ilmiy-normativ manbalar tahlilidan foydalanilgan. Natijada strategik, taktik, operatsion va analitik boshqaruv darajalarini qamrab oluvchi integrallashgan model ishlab chiqilgan. Modelda ISO 22000 va HACCP talablari, ichki audit, ikki konturli KPI baholash tizimi, PDCA-HACCP takomillashtirish konturi hamda ustuvorlik matritsasi o‘zaro bog‘langan holda asoslangan. Taklif etilgan model nomuvofiqliklarni erta aniqlash, auditga tayyorgarlikni yaxshilash, raqamli kuzatuvchanlikni kuchaytirish va mahsulot sifati hamda xavfsizligini barqaror ta’minlashga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной статье освещены организационно-методические основы моделирования и совершенствования функций управления качеством и безопасностью продукции на предприятиях пищевой промышленности. В исследовании использованы системный подход, процессный анализ, функциональное моделирование, а также анализ научных и нормативных источников. В результате была разработана интегрированная модель, охватывающая стратегический, тактический, операционный и аналитический уровни управления. В модели обоснована взаимосвязь требований ISO 22000 и HACCP, внутреннего аудита, двухконтурной системы оценки KPI, контура совершенствования PDCA-HACCP, а также матрицы приоритетов. Предложенный модель способствует раннему выявлению несоответствий, повышению готовности к аудиту, усилению цифровой прослеживаемости и стабильному обеспечению качества и безопасности продукции.

Abstract. This article highlights the organizational and methodological foundations for modelling and improving product quality and safety management functions in food enterprises. The study uses a systems approach, process analysis, functional modelling, and analysis of scientific and regulatory sources. As a result, an integrated model covering strategic, tactical, operational, and analytical management levels was developed. The model substantiates the interconnection of ISO 22000 and HACCP requirements, internal audit, a dual-contour KPI evaluation system, the PDCA-HACCP improvement cycle, and a priority matrix. The proposed model serves to ensure early detection of nonconformities, improve audit readiness, strengthen digital traceability, and provide stable assurance of product quality and safety.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat korxonasi, mahsulot sifati, oziq-ovqat xavfsizligi, integrallashgan model, ISO 22000, HACCP, KPI, ichki audit, uzluksiz takomillashtirish.

Ключевые слова: предприятие пищевой промышленности, качество продукции, безопасность пищевой продукции, интегрированная модель, ISO 22000, HACCP, KPI, внутренний аудит, непрерывное совершенствование.

Keywords: food enterprise, product quality, food safety, integrated model, ISO 22000, HACCP, KPI, internal audit, continuous improvement.

Kirish

Zamonaviy oziq-ovqat bozori sharoitida mahsulotning xavfsizligi va sifati korxonaning ichki texnologik masalasi bo‘libgina qolmay, balki jamoat salomatligi, iste’molchi ishonchi, eksport salohiyati va raqobatbardoshlikni belgilovchi boshqaruv mezoniga aylandi. Jahonda har yili 600 millionga yaqin odam ifloslangan oziq-ovqat sabab kasallanadi va 420 ming kishi vafot etadi; bu esa xavflarni faqat tayyor mahsulot bosqichida emas, butun zanjir bo'ylab boshqarishni talab qiladi [1].

Xalqaro amaliyotda bunday yondashuvning asosini ISO 22000:2018 standarti va Codex Alimentariusning General Principles of Food Hygiene hujjati tashkil etadi. ISO 22000 oziq-ovqat zanjiridagi barcha tashkilotlar uchun oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimi talablarini belgilaydi hamda interaktiv kommunikatsiya, tizimli boshqaruv, PRP va HACCP tamoyillarini yagona karkasga birlashtiradi [2]. Codex esa oziq-ovqat gigiyenasi va xavfsizlik nazoratini belgilovchi bazaviy xalqaro hujjat sifatida zarur gigiyena choralari va nazoratlarini tavsiflaydi [3].

So‘nggi yillarda ilmiy manbalarda oziq-ovqat xavfsizligi menejmenti tizimlarini amaliyotga joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, raqamli texnologiyalar, kuzatuvchanlik va Industry 4.0 vositalaridan foydalanishga doir tadqiqotlar ko‘lami sezilarli darajada oshdi. Biroq bu ishlarda ko‘proq alohida funksiyalar yoki alohida vositalar tahlil qilingan bo'lib, korxonaning strategik, taktik va operatsion darajalarida sifat va xavfsizlik funksiyalarini yagona tashkiliy-uslubiy modelga birlashtirish masalasi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Ayniqsa, oziq-ovqat korxonalarida sifat bo‘yicha nazorat, xavfsizlik bo‘yicha nazorat, laboratoriya tekshiruvlari, ishlab chiqarish monitoringi, kalibrlash, ichki audit va boshqaruv tahlili ko‘pincha bir-biridan uzilgan holda yuritiladi. Natijada ma'lumotlar tarqoq bo'ladi, takror nazorat kuchayadi, takroriy nazorat jarayonlari ortadi, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sustlashadi hamda nomuvofiqliklarning asosiy sabablari kech aniqlanadi. O‘zbekiston sharoitida ham oziq-ovqat xavfsizligi tizimini xalqaro tamoyillar bilan uyg'unlashtirish, riskga asoslangan yondashuvni kuchaytirish va institutsional hamkorlikni yaxshilash bo‘yicha yangi islohotlar davom etmoqda [14], [15].

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning asosiy maqsadi oziq-ovqat korxonalarida mahsulot sifati va xavfsizligini boshqarish funksiyalarini modellashtirish, shuningdek, ularni takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-uslubiy asoslarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida: a) boshqaruv funksiyalarini bosqichlar hamda boshqaruv darajalari bo‘yicha tizimli tartibga solish; b) sifat va xavfsizlikni integrallashgan boshqaruv tizimining asosiy markaziy bo‘g‘ini sifatida talqin qilish; c) monitoring va baholash uchun indikatorlar tizimini ishlab chiqish; d) takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlovchi amaliy modelni taklif etish belgilandi.

Materiallar va usullar

Tadqiqot konseptual-metodologik xususiyatga ega bo'lib, unda empirik kuzatuvdan ko'ra tizimli tahlil va modellashtirish usullariga ustuvor ahamiyat berildi. Tadqiqot obyekti sifatida oziq-ovqat korxonalarida mahsulot sifati va xavfsizligini boshqarish jarayonlari tanlandi, tadqiqot predmeti sifatida esa mazkur jarayonlarni ta’minlovchi boshqaruv funksiyalari, ularning o‘zaro bog’liqligi hamda takomillashtirish mexanizmlari belgilandi.

Tadqiqotning metodologik asosi beshta asosiy yo‘nalishdan tashkil topdi. Birinchidan, normativ-tizimli tahlil usuli orqali ISO 22000:2018, Codex hujjatlari, FSSC 22000 talablari hamda rasmiy islohot hujjatlaridagi talablar solishtirildi [2], [3], [16]. Ikkinchidan, ilmiy adabiyotlar kontent-tahlil usuli asosida o‘rganilib, oziq-ovqat xavfsizligi madaniyati, FSMS tizimini joriy etish, sifat va xavfsizlikni integrallashgan tarzda boshqarish, raqamlashtirish hamda KPI monitoringiga oid zamonaviy tadqiqotlar umumlashtirildi [4]–[13]. Uchinchidan, jarayonli yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari ketma-ketligi va ulardagi kirish-chiqishlar aniqlashtirildi. To‘rtinchidan, funksional modellashtirish asosida strategik, taktik va operatsion


boshqaruv darajalari bo‘yicha integrallashgan model ishlab chiqildi. Beshinchidan, ekspert-analitik sintez usuli asosida amaliy tavsiyalar, ko‘rsatkichlar tizimi va takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilovchi matritsa ishlab chiqildi.

Manbalarni tanlashda ikkita asosiy mezon qo‘llandi: birinchisi — 2011–2025-yillar davomida chop etilgan dolzarb hamda ilmiy ahamiyatga ega adabiyotlar; ikkinchisi — korxona darajasida amaliy qo‘llash imkoniyatini beruvchi me’yoriy-uslubiy hujjatlar tanlab olindi. Tahlil jarayonida boshqaruv funksiyalari maqsadga yo‘naltirilganligi, risklarga ta’sir ko‘rsatish darajasi, o‘lchash imkoniyati, mas’uliyat chegaralarining aniqligi, raqamlashtirishga tayyorligi hamda uzluksiz takomillashtirishga xizmat qilishi kabi mezonlar asosida baholandi.

Mazkur yondashuv sifat va xavfsizlik masalalarini alohida bo‘limlar faoliyati doirasida emas, balki yagona boshqaruv arxitekturasi sifatida talqin qilish imkonini berdi. Shu asosda korxonalar uchun universal xususiyatga ega, biroq amaliy sharoitga moslashtiriladigan model ishlab chiqildi.

Natijalar

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat korxonalarida mahsulot sifati va xavfsizligini boshqarish funksiyalari o‘zaro uzviy bog‘langan to‘rtta asosiy tarkibiy blok doirasida shakllanadi. Jumladan, birinchi blok tashqi normativ talablar (xalqaro va milliy standartlar) hamda korxonaning ichki siyosati va strategik maqsadlarini qamrab oladi. Ikkinchi blok integrallashgan funksional boshqaruv yadrosidan iborat bo‘lib, u rejalashtirish, xavflarni tahlil qilish, texnologik nazorat, verifikatsiya, audit, KPI tahlili va tuzatish hamda oldini olish choralarini (CAPA) o‘z ichiga oladi. Uchinchi blok ijro etish, monitoring, nazorat qilish va hujjatlashtirish mexanizmlarini ifodalaydi hamda u strategik, taktik va operatsion darajalarda amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyatlarini, shuningdek, kalibrlash, validatsiya va raqamli izchillik (traceability) tizimlarini qamrab oladi. To‘rtinchi blok esa baholash, tahlil qilish va uzluksiz takomillashtirish konturini o‘z ichiga olib, ichki audit natijalari, ko‘rsatkichlar (KPI) monitoringi va qayta aloqa mexanizmlari asosida tizimni doimiy ravishda rivojlantirishni ta’minlaydi. Natijada “Sifat va xavfsizlik boshqaruvi funksiyalarining integrallashgan modeli” ishlab chiqildi va quyidagi 1-rasmda ifodalandi:



1-rasm. Sifat va xavfsizlik boshqaruvi funksiyalarining integrallashgan modeli
Manba: muallif ishlanmasi.

Izoh. 1-rasmda oziq-ovqat korxonalarida mahsulot sifati va xavfsizligini boshqarishning integratsiyalashgan funksional tuzilmasi aks ettirilgan. Unda me'yoriy talablar, boshqaruv funksiyalari, nazorat mexanizmlari va takomillashtirish konturi yagona tizim sifatida bog'langan. Rasmning amaliy ahamiyati shundaki, u korxona bo‘linmalari o‘rtasidagi axborot almashinuvini uyg‘unlashtirish va boshqaruv qarorlarini tizimli ravishda qabul qilishga yordam beradi. Mazkur modelning markazida iste'molchi talablariga javob beruvchi, xavfsiz va belgilangan spetsifikatsiyalarga to‘liq mos mahsulot ishlab chiqarish g‘oyasi yotadi.

Funksional boshqaruv yadrosi rejalashtirish, tashkillashtirish, resurslar bilan ta'minlash, xavf va nomuvofiqliklarni identifikatsiya qilish, texnologik nazorat, monitoring, izchillik (traceability), verifikatsiya, ichki audit, ma'lumotlarni tahlil qilish va tuzatuvchi-oldini oluvchi choralarni qamrab oladi. FSSC 22000 talablari ham sifat parametrlari, ularni boshqaruv ko‘rib chiqishida tahlil qilish, ichki auditga kiritish, miqdoriy nazorat va kalibrlash-verifikatsiya dasturini talab qiladi; bu esa sifat va xavfsizlikni amalda bitta boshqaruv maydoniga olib kiradi [16].

Taklif etilgan modelda boshqaruv darajalari aniq ajratildi. Strategik darajada korxonaning umumiy siyosati, sifat va xavfsizlik bo‘yicha maqsadlari, resurslardan foydalanish yo‘nalishlari hamda riskka asoslangan ustuvor vazifalar belgilanadi. Taktik darajada standart operatsion protseduralar, xodimlarni o‘qitish, ta'minotchilar faoliyatini baholash, laboratoriya va ishlab chiqarish nazorati dasturlari muvofiqlashtiriladi. Operatsion darajada esa real vaqt rejimidagi monitoring, partiyalar nazorati, markirovka, uskunalar holati, sanitariya talablari, o‘lchash jarayonlari va yozuvlarni yuritish amalga oshiriladi. Analitik konturda esa KPI, tendensiyalar, audit natijalari va iste'molchi shikoyatlari birlashtirilib, boshqaruv qarorlariga aylantiriladi [12], [13]. Ushbu taqsimotning umumlashtirilgan ko‘rinishi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Boshqaruv darajalari bo‘yicha asosiy funksiyalar, vositalar va kutiladigan natijalar

Daraja	Asosiy funksiyalar	Vositalar	Kutiladigan natija
Strategik	Siyosat va maqsadlar; riskga asoslangan ustuvorlik; resurslar va investitsiya qarorlari	Strategik xarita, risk reyestri, boshqaruv ko‘rib chiqishi	Yagona yo'nalish va ustuvor boshqaruv
Taktik	SOPlar, trening, ta'minotchi bahosi, audit dasturi, laboratoriya nazorati rejalari	HACCP jamoasi, yillik audit rejasi, trening matritsasi, spesifikatsiyalar	Jarayonlar barqarorligi va intizom
Operatsion	CCP/OPRP monitoringi, sanitariya, markirovka, partiya nazorati, o‘lchash va yozuvlar	Nazorat jadvallari, chek-list, kalibrlash protokoli, elektron yozuvlar	Xavfsiz va spetsifikatsiyaga mos mahsulot
Analitik	KPI monitoringi, trend tahlili, CAPA, iste'molchi fikri va reklamasiyalar tahlili	Dashboard, Pareto, 5 Why, root cause analysis	Tezkor qaror va uzluksiz takomillashtirish

Izoh. 1-jadvalda boshqaruv funksiyalarining turli darajalar kesimidagi taqsimoti tasvirlangan. Jadval ma'lumotlaridan ko‘rinadiki, strategik daraja korxona siyosati va resurs yo‘nalishlarini belgilashga, taktik daraja protseduralar hamda dasturlarni muvofiqlashtirishga, operatsion daraja kundalik nazorat jarayonlarini amalga oshirishga, analitik daraja esa olingan natijalarni tahlil qilib, qayta aloqa mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi.


Ilmiy yangilik sifatida taklif etilgan model doirasida “ikki konturli baholash” mexanizmi joriy etildi. Birinchi kontur oldindan ogohlantiruvchi, ya’ni yetakchi ko‘rsatkichlarga asoslanib, xodimlarning treninglar bilan qamrab olinishi darajasi, PRP talablariga rioya etilishi, o‘lchov vositalarining kalibrlash tartibiga amal qilinishi, audit natijasida aniqlangan nomuvofiqliklar dinamikasi hamda raqamli yozuvlarning to‘liqligi kabi indikatorlarni qamrab oladi. Ikkinchi kontur esa kechikuvchi ko‘rsatkichlar — qaytarilgan partiyalar, laboratoriya nomuvofiqliklari, reklamasiyalar, qayta ishlash ulushi, yo‘qotishlar hajmi hamda yetkazib berishdagi kechikishlar kabi mezonlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur ikki konturli KPI tizimining tarkibiy tuzilmasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Mahsulot sifati va xavfsizligini baholash uchun tavsiya etilgan ikki konturli KPI tizimi

Kontur	Ko'rsatkichlar namunasi	Ma'lumot manbai	Boshqaruv maqsadi
Yetakchi indikatorlar	Trening qamrovi; PRP bajarilishi; kalibrlash intizomi; auditda topilgan nomuvofiqliklar dinamikasi; yozuvlar to'liqligi	Audit hisobotlari, trening jurnali, kalibrlash reyestri, sanitar chek-list	Muammo kelib chiqishidan oldin ogohlantirish
Kechikuvchi indikatorlar	Qaytarilgan partiyalar; laboratoriya nomuvofiqliklari; reklamasiyalar; qayta ishlash ulushi; yo‘qotishlar	Laboratoriya protokoli, mijoz shikoyati, ishlab chiqarish hisobi, qayta ishlash dalolatnomasi	Yakuniy natijani baholash va iqtisodiy ta’sirni ko'rish

Izoh. 2-jadvalda yetakchi va kechikuvchi indikatorlar o‘rtasidagi funksional tafovut yoritilgan. Yetakchi indikatorlar ehtimoliy muammolarni oldindan aniqlashga xizmat qilsa, kechikuvchi indikatorlar esa tizimning yakuniy natijasini baholaydi. Shu sababli har ikki konturdan birgalikda foydalanish boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini oshirishga yordam beradi.

Ikki konturli baholash mexanizmi amaliy jihatdan PDCA-HACCP sikli bilan uzviy bog‘liq holda ishlaydi; mazkur o‘zaro aloqadorlik 2-rasmda aks ettirilgan.



2-rasm. PDCA-HACCP asosidagi takomillashtirish konturi

Manba: muallif ishlanmasi.

Izoh. 2-rasm PDCA-HACCP asosidagi takomillashtirish konturini ifodalaydi. Unda rejalashtirish bosqichi korxona siyosati va maqsadlarini belgilashni, bajarish bosqichi PRP/HACCP talablari hamda operatsion jarayonlarni amalga oshirishni, tekshirish bosqichi monitoring va audit faoliyatini, ta’sir ko‘rsatish bosqichi esa CAPA choralarini qo‘llash va tizimni qayta ko‘rib chiqishni qamrab oladi. Mazkur sxema uzluksiz takomillashtirishning amaliy mexanizmini aks ettiradi.

Shuningdek, takomillashtirish yo‘nalishlarini belgilash uchun ustuvorlik matritsasi ishlab chiqildi. Agar mazkur jarayon xavfsizlikka ta’siri darajasi yuqori bo‘lib, bir vaqtning o‘zida boshqaruvdagi bo‘shliqlar ham yuqori baholansa, bunday jarayonlar eng avvalo standartlashtirish va raqamlashtirish choralarini talab etadi. Masalan, xom ashyoni qabul qilish, allergenlarni boshqarish, markirovka o‘zgarishlarini nazorat qilish, kritik parametrlarni o‘lchash hamda partiyalar bo‘yicha izchillikni ta’minlash ushbu toifaga mansubdir. Aksincha, xavfga ta’siri nisbatan past, biroq boshqaruvdagi bo‘shliqlar darajasi yuqori bo‘lgan jarayonlar ikkinchi darajali optimallashtirish obyektlari sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv 3-rasmda aks ettirilgan.



3-rasm. Takomillashtirish ustuvorligi matritsasi

Manba: muallif ishlanmasi.

Izoh. 3-rasm takomillashtirish ustuvorligini aniqlash uchun foydalaniladigan matritsani aks ettiradi. Unda xavfsizlikka ta’sir darajasi va boshqaruvdagi bo‘shliqlar kesishmasi asosiy baholash mezoni sifatida qabul qilingan. Natijada korxona mavjud resurslarini, avvalo, eng muhim va kritik jarayonlarni takomillashtirishga yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Raqamlashtirish bo‘yicha natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy tizimlar nafaqat yozuvlarni elektronlashtirish, balki xavfli nuqtalarni tezroq ko'rish, trendlarni aniqlash va boshqaruv tahlilini kuchaytirish imkonini beradi. FAO materiallarida raqamli tizimlar oziq-ovqat xavfsizligi holatini real vaqtga yaqin baholash, bazaviy ko‘rsatkichlarni shakllantirish va maqsadli chora ko'rish imkonini berishi ko'rsatilgan [9]. Shu bilan birga, FSMSni raqamlashtirish jarayonida xarajat, o'zgarishga qarshilik, maxsus kompetensiyalar yetishmasligi, tizim moslashuvchanligi va ma'lumot kiritish yuklamasi kabi cheklovlar saqlanib qoladi [10].

Sifat va xavfsizlikni birlashtiruvchi korporativ model ayniqsa kichik va o'rta oziq-ovqat korxonalari uchun muhimdir. Xitoy oziq-ovqat korxonalarida o'tkazilgan tadqiqotlar integrallashgan sifat va xavfsizlik boshqaruvida yetakchilik, trening va ta'lim, xodimlar ishtiroki

hamda jamoaviy ishlashning operatsion samaradorlikka sezilarli ta’sirini ko'rsatdi [7]. Boshqa tadqiqotlarda ham kichik va o‘rta korxonalarda asosiy cheklov omillari sifatida resurslar yetishmovchiligi, hujjatlashtirish yuklamasining yuqoriligi hamda kadrlar malakasi bilan bog‘liq muammolar qayd etilgan. [5].

Muhokama

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat korxonalarida sifat va xavfsizlik funksiyalarini alohida-alohida boshqarish amaliyoti endilikda yetarli emas. Zamonaviy FSMS yondashuvi xavflarni oldindan ko'rish, qarorlarni dalillarga asoslash va funksiyalar o'rtasidagi uzilishlarni kamaytirishni talab qiladi [4]. Shu bois modellashtirishning asosiy maqsadi jarayonlarni oddiy ro‘yxat shaklida ko‘rsatish emas, balki ular o’rtasidagi boshqaruv aloqalari, mas'uliyat chegaralari va axborot oqimlarini izchil tizimga keltirishdan iborat bo'ladi.

Taklif etilgan modelning afzalligi shundan iboratki, u sifatni faqat tayyor mahsulot talablari bilan, xavfsizlikni esa faqat HACCP nazorat nuqtalari bilan chegaralab qo‘ymaydi. Aksincha, mazkur model mahsulot spetsifikatsiyasi, sanitariya-gigiyena talablari, xom ashyo ustidan nazorat, miqdoriy monitoring, kalibrlash jarayonlari, ichki audit, rahbariyat tomonidan ko‘rib chiqish hamda iste’molchi fikr-mulohazalarini yagona integratsiyalashgan boshqaruv tizimiga birlashtiradi. Bu yondashuv FSSC 22000 hujjatlarida sifat nazoratining oziq-ovqat xavfsizligi auditi bilan sinergiyada talqin qilinishi bilan hamohangdir [16].

Oziq-ovqat xavfsizligi madaniyati bo‘yicha adabiyotlar rahbariyatning real ishtiroki, xodimlar bilan kommunikatsiya, xulq-atvor va ko'p madaniyatli ishchi kuchiga mos boshqaruv usullarini samarali tizimning muhim sharti sifatida ko'rsatadi [6]. Shu bois, taklif etilgan modelda tashkiliy-uslubiy asoslar tarkibiga faqat protseduralar va hujjatlashtirilgan yozuvlar emas, balki korporativ madaniyat, xodimlarni o‘qitish (treninglar), ichki kommunikatsiya hamda mas’uliyatni aniq taqsimlash mexanizmlari ham kiritilgan.

Raqamli izchillikni ta’minlash va ma’lumotlarga tayangan monitoring mexanizmlarini model tarkibiga kiritish ham metodologik nuqtayi nazardan muhim ahamiyat kasb etadi. OECD mamlakatlari tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlar raqamli traceability tizimlari oziq-ovqat xavfsizligi hodisalariga tezkor javob berish, shaffoflikni oshirish va ta'minot zanjiri bo'ylab ishonchni kuchaytirishini ko'rsatadi [8]. Process mining va Industry 4.0 vositalari esa sifat menejmentidagi yashirin og'ishlarni erta aniqlash, nomuvofiq mahsulotlarning oldini olish va qaror qabul qilishni dalillash imkonini kengaytiradi [11], [13].

O‘zbekiston uchun mazkur modelning amaliy ahamiyati shundaki, u davom etayotgan institutsional islohotlar, Codex bilan uyg'unlashtirish va riskga asoslangan nazoratga o'tish jarayonlari bilan mos keladi [14], [15]. Ya'ni korxona darajasida amalga oshiriladigan modellashtirish davlat miqyosidagi islohotlar bilan uzviy bog‘liq holda olib borilsa, me’yoriy talablar, korxonaning ichki boshqaruv tizimi hamda bozor ehtiyojlari o‘rtasida yaxlit va muvozanatli muvofiqlashtirish mexanizmi shakllanadi.

Xulosa va amaliy takliflar

Xulosa qilib aytganda, oziq-ovqat korxonalarida mahsulot sifati va xavfsizligini samarali ta’minlash uchun boshqaruv funksiyalarini alohida-alohida ro‘yxat tarzida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘langan tashkiliy-uslubiy tizim ko‘rinishida modellashtirish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan integrallashgan model sifat va xavfsizlikka oid normativ talablar, resurslar, operatsion nazorat, audit jarayonlari, baholash indikatorlari hamda uzluksiz takomillashtirish mexanizmlarini yagona boshqaruv arxitekturasiga birlashtiradi. Mazkur yondashuv korxona ichida mas’uliyat chegaralarini va axborot oqimlarini aniq belgilab beradi, takroriy nazorat jarayonlarini qisqartiradi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezkorligini oshiradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda bir qator amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, oziq-ovqat korxonalarida sifat va xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan yagona integrallashgan siyosat hamda unga mos KPI pasportlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, xom ashyo qabul qilish, allergen boshqaruvi, markirovka almashinuvi, kalibrlash-verifikatsiya, kritik parametrlar monitoringi va partiya izchilligiga oid protseduralar ustuvor ravishda standartlashtirilishi kerak. Uchinchidan, ichki audit dasturlari faqat sanitariya-gigiyena holatini tekshirish bilan cheklanmasdan, sifat ko‘rsatkichlarining bajarilishi, miqdoriy nazorat natijalari, ma’lumotlarning ishonchliligi hamda trend tahlilini ham qamrab olishi lozim. To'rtinchidan, xodimlarni o‘qitish tizimi ularga faqat “nima qilish kerak”ligini emas, balki “nima uchun buni bajarish zarur”ligini ham tushuntiradigan sifat va xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga yo‘naltirilishi kerak. Beshinchidan, raqamli yozuvlar va traceability bo‘yicha bosqichma-bosqich raqamlashtirish dasturi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

Taklif etilgan modelning amaliy natijasi sifatida quyidagilar kutiladi: nomuvofiq mahsulotlar ulushi va qayta ishlash bilan bog‘liq xarajatlar kamayadi, audit jarayonlariga tayyorgarlik darajasi oshadi, mahsulot partiyalari bo‘yicha tezkor kuzatuvchanlik kuchayadi, iste’molchi shikoyatlarini tizimli tahlil qilish va ularning takrorlanishining oldini olish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, laboratoriya natijalari va ishlab chiqarish ma’lumotlari o‘rtasidagi axborot uzilishlari bartaraf etiladi. Eng muhimi, sifat va xavfsizlikni boshqarish tizimi korxona uchun oddiy nazorat vositasidan chiqib, uning strategik ustunligini ta’minlovchi muhim raqobat omiliga aylanadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur modelni alohida tarmoqlar — sut, yog‘-moy, ichimliklar, go‘sht-sut va konserva mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda pilot loyiha sifatida sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, modelning funksional bloklari bo‘yicha og‘irlik koeffitsientlarini aniqlash va uning iqtisodiy samaradorligini real korxona ko‘rsatkichlari asosida baholash keyingi tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlari sifatida qaralishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. Food safety. – Geneva: WHO, 2024.
2. International Organization for Standardization. ISO 22000:2018 Food safety management systems — Requirements for any organization in the food chain. – Geneva: ISO, 2018.
3. Codex Alimentarius Commission. General Principles of Food Hygiene (CXC 1-1969). – Rome: FAO/WHO, 2022.
4. Nguyen T.T.B., Li D. A systematic literature review of food safety management system implementation in global supply chains // British Food Journal. – 2022. – Vol. 124, №10. – P. 3014–3031. DOI: 10.1108/BFJ-05-2021-0476.
5. Lee J.C., Neonaki M., Alexopoulos A., Varzakas T. Case Studies of Small-Medium Food Enterprises around the World: Major Constraints and Benefits from the Implementation of Food Safety Management Systems // Foods. – 2023. – Vol. 12, №17. – 3218. DOI: 10.3390/foods12173218.
6. Pai A.S., Jaiswal S., Jaiswal A.K. A Comprehensive Review of Food Safety Culture in the Food Industry: Leadership, Organizational Commitment, and Multicultural Dynamics // Foods. – 2024. – Vol. 13, №24. – 4078. DOI: 10.3390/foods13244078.
7. Zhu B., Abdul Talib H.H.A. Integrated Quality and Food Safety Management Implementation in China’s Food Processing SMEs in China // International Journal of Academic Research in Economics and Management Sciences. – 2024. – Vol. 13, №4. – P. 268–285. DOI: 10.6007/IJAREMS/v13-i4/23288.
8. Charlebois S., Latif N., Ilahi I., Sarker B., Music J., Vezeau J. Digital Traceability in Agri-Food Supply Chains: A Comparative Analysis of OECD Member Countries // Foods. – 2024. – Vol. 13, №7. – 1075. DOI: 10.3390/foods13071075.

9. Food and Agriculture Organization of the United Nations. Digitalization of the food control system to measure food safety in Georgia. – Budapest: FAO, 2024.

10. Sartoni M., Semercioz Oduncuoglu A.S., Guidi A., Annosi M.C., Luning P.A. Towards digitalisation of food safety management systems – enablers and constraints // Food Control. – 2025. – Vol. 168. – 110952. DOI: 10.1016/j.foodcont.2024.110952.

11. Peres F.A.P., Bondarczuk B.A., Gomes L.C., Jardim L.C., Corrêa R.G.F., Baierle I.C. Advances in Food Quality Management Driven by Industry 4.0: A Systematic Review-Based Framework // Foods. – 2025. – Vol. 14, №14. – 2429. DOI: 10.3390/foods14142429.

12. Djekic I., Smigic N. Revisiting Key Performance Indicators That Evaluate Food Safety Management Systems: A Short Review // Foods. – 2025. – Vol. 14, №21. – 3742. DOI: 10.3390/foods14213742.

13. Loacker P., Pöchtrager S., Fikar C., Grenzfurtner W. Process mining-enhanced quality management in food processing industries // International Journal of Productivity and Performance Management. – 2025. – Vol. 74, №4. – P. 1326–1346. DOI: 10.1108/IJPPM-06-2024-0377.

14. Food and Agriculture Organization of the United Nations. Uzbekistan launches new project to strengthen food safety. – Rome: FAO, 2025.

15. Government of Uzbekistan. Measures to Ensure Economic Stability Discussed. – Tashkent: gov.uz, 2025.

16. Foundation FSSC. Scheme Interpretation Article: Quality Control. FSSC 22000 Version 6. – October, 2023.

UO‘T: 004.93:902

QADIMIY KERAMIKADAGI BARMOQ IZLARI ORQALI SHAXSNI INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI ANIQLASH

Madraximova Muyassarxon Boqijonovna
katta o‘qituvchi, Namangan davlat texnika universiteti
e-mail: m.b.madrahimova@gmail.com

Akmalov Kamoliddin Kodirovich
stajyor o‘qituvchi, Namangan davlat texnika universiteti
e-mail: kom240681@gmail.com)

Baxodirova Gulmira Shuxratjonovna
Talaba, Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Zamonaviy axborot texnologiyalari arxeologiya va madaniy merosni saqlash sohalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Ushbu maqola qadimiy keramika buyumlaridagi barmoq izlari (paleodermatogliflar) orqali kulolning yoshi va jinsini aniqlashning innovatsion usulini ko‘rib chiqadi. Ushbu yondashuv biologik forensika, raqamli tasvirlash texnologiyalari va sun’iy intellekt imkoniyatlarini birlashtirib, qadimiy jamiyatlarning mehnat taqsimoti, gender rollari va ijtimoiy tuzilishini buzmasdan o‘rganishga imkon beradi.

O‘zbekiston kontekstida mavzu ayniqsa dolzarb: neolit davridan rivojlangan sopolchilik an’analari (Afrasiab, Termiz, Xorazm, Nurtepa) orqali ajdodlarimizning hayoti va mehnat munosabatlarini raqamli rekonstruksiya qilish mumkin. Maqola axborot texnologiyalari mutaxassislari va arxeologlar hamkorligida mahalliy sopol namunalarini skanerlab, maxsus sun’iy intellekt modellarini yaratish va global raqamli bazalarga qo‘shish orqali O‘zbekistonni “raqamli arxeologiya” sohasida yetakchi o‘ringa olib chiqish istiqbollarini ta’kidlaydi. Natijada, qadimiy madaniy meros nafaqat saqlanadi, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida yangi ilmiy va ijtimoiy ma’noga ega bo‘ladi.

Аннотация. Современные информационные технологии коренным образом трансформируют археологию и сферу сохранения культурного наследия. В данной статье рассматривается инновационный метод определения возраста и пола древних гончаров по отпечаткам пальцев (палеодерматоглифам), сохранившимся на керамических изделиях. Этот подход объединяет методы биологической криминалистики, цифровой визуализации и искусственного интеллекта, что позволяет изучать распределение труда, гендерные роли и социальную структуру древних обществ без повреждения археологических артефактов. В контексте Узбекистана данная тема особенно актуальна, поскольку развитые с эпохи неолита традиции гончарного ремесла (Афрасиаб, Термез, Хорезм, Нуртепа) позволяют проводить цифровую реконструкцию жизни и трудовой деятельности наших предков. В статье подчеркиваются перспективы сотрудничества специалистов в области информационных технологий и археологов по сканированию местных керамических образцов, созданию специализированных моделей искусственного интеллекта и их интеграции в глобальные цифровые базы данных. В результате культурное наследие не только сохраняется, но и приобретает новое научное и социальное значение благодаря современным технологиям.

Abstract. Modern information technologies are fundamentally transforming archaeology and cultural heritage preservation. This article examines an innovative method for determining the age and sex of ancient potters through fingerprints (paleodermatoglyphs) preserved on ceramic artifacts. The approach integrates biological forensics, digital imaging technologies, and artificial

intelligence, enabling researchers to investigate labor distribution, gender roles, and social structures of ancient societies without damaging archaeological materials. In the context of Uzbekistan, the topic is particularly relevant due to the long-standing pottery traditions dating back to the Neolithic period in sites such as Afrasiab, Termez, Khorezm, and Nurtepa, which provide opportunities for digitally reconstructing the lives and labor practices of our ancestors. The article highlights the prospects of collaboration between information technology specialists and archaeologists in scanning local ceramic samples, developing specialized artificial intelligence models, and integrating them into global digital databases. As a result, cultural heritage can not only be preserved but also enriched with new scientific and social significance through modern technologies.

Kalit so‘zlar: paleodermatoglifika, qadimiy keramika, barmoq izlari tahlili, ridge density (RD), mean ridge breadth (MRB), sun’iy intellekt arxeologiyada, raqamli tasvirlash, 3D skanerlash, gender mehnat taqsimoti, O‘zbekiston sopolchiligi, raqamli madaniy meros, Bayesian modeling, non-destruktiv tadqiqot.

Ключевые слова: палеодерматоглифика, древняя керамика, анализ отпечатков пальцев, ridge density (RD), mean ridge breadth (MRB), искусственный интеллект в археологии, цифровая визуализация, 3D-сканирование, гендерное разделение труда, гончарство Узбекистана, цифровое культурное наследие, Bayesian modeling, неразрушающие исследования.

Keywords: paleodermatoglyphics, ancient ceramics, fingerprint analysis, ridge density (RD), mean ridge breadth (MRB), artificial intelligence in archaeology, digital imaging, 3D scanning, gender-based division of labor, Uzbek pottery traditions, digital cultural heritage, Bayesian modeling, non-destructive research.

Zamonaviy axborot texnologiyalari arxeologiya va madaniy merosni saqlash sohalarini tubdan o‘zgartirmoqda. Qadimiy keramika buyumlaridagi barmoq izlari (paleodermatogliflar) orqali kulolning yoshi va jinsini aniqlash usuli shunday innovatsiyalardan biri bo‘lib, u biologik forensika, raqamli tasvirlash va sun’iy intellekt (SI) imkoniyatlarini birlashtiradi. Bu usul nafaqat qadimiy jamiyatlarning mehnat taqsimoti va gender rollarini ochib beradi, balki madaniy merosni buzmasdan o‘rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi. O‘zbekiston kabi qadimiy kulolchilik an’analari boy mamlakat uchun bu mavzu ayniqsa dolzarb: neolit davridan boshlab rivojlangan sopolchilik (Afrasiab, Termiz, Xorazm va Nurtepa yodgorliklari) orqali ajdodlarimizning hayoti, ijtimoiy tuzilishi va mehnat munosabatlarini raqamli texnologiyalar yordamida rekonstruksiya qilish mumkin.

Inson barmoq izlaridagi epidermal chiziqlar (friction ridges) zichligi va kengligi tug‘ilishdan oldin shakllanadi va yosh hamda jinsga qarab o‘zgaradi. Forensik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

- **Ridge density (RD – chiziqlar zichligi)**: Ayollar va bolalarda yuqori (25 mm² ga 15,6 dan ortiq chiziq), erkaklarda pastroq.
- **Mean ridge breadth (MRB – o‘rtacha chiziq kengligi)**: Bolalarda 0,37 mm dan kichik, balog‘atga yetgan erkaklarda 0,52 mm dan katta. Ayollar va o‘smir erkaklar oralig‘i qisman mos keladi.

Qadimiy keramikada loyga bosilgan barmoq izlari (masalan, sopol idishlarni shakllantirish jarayonida) saqlanib qoladi. Arxeologlar bu izlarni stereomikroskop yordamida o‘lchab, kulolning biologik profilini aniqlaydi. Dastlabki tadqiqotlar (1960-yillardan) individual izlarni farqlashga qaratilgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda (Kantner 2019, Fowler 2020, Burchill 2023) jamiyat darajasidagi demografik tahlilga o‘tildi. Masalan:

- Chako kanyonida (AQSh, 10–11-asrlar) 985 ta sopol parchasida erkak va ayollar teng ishtirok etgani aniqlandi – bu an’anaviy “ayollar ishi” stereotipini rad etdi.
- Suriyaning Hama shahrida (4500 yillik) bolalar mehnati ko‘pligi ochildi.

- Isroilning Tell es-Safi/Gath yodgorligida erkaklar ustunligi ko‘rsatildi.

Bu usul arxeologiyada mehnat taqsimoti, bolalar mehnati va gender tengligi haqida yangi ma’lumotlar beradi.

An’anaviy usullar qo‘lda o‘lchov va cheklangan aniqlikka ega. Axborot texnologiyalari bu muammoni hal qiladi:

1. **Raqamli tasvirlash va 3D skanerlash** Yuqori aniqlikdagi kameralar, Reflectance Transformation Imaging (RTI) va 3D skanerlar (laser yoki fotogrametriya) keramika yuzasidagi izlarni buzmasdan raqamlashtiradi. Bu izlarni virtual modelga aylantirib, chiziqlar strukturasini aniq o‘lchaydi.
2. **Kompyuter ko‘rishi va tasvirni qayta ishlash** OpenCV yoki ImageJ dasturlari yordamida avtomatik ravishda ridge detection (chiziqlar aniqlash), MRB va RD hisoblash amalga oshiriladi. Loy qisqarishi (2–12%) va biologik farqlarni hisobga oluvchi kalibrlash algoritmlari qo‘llaniladi.
3. **Sun’iy intellekt va mashina o‘qitish**
    - **CNN (Convolutional Neural Networks)**: Sopol rasmlaridan barmoq izlarini avtomatik ajratish va klassifikatsiya qilish (masalan, ArchAIDE loyihasi kabi).
    - **Bayesian mixture modeling**: Burchill (2023) taklif qilgan ochiq kodli R/JAGS modeli jamiyat darajasida yosh va jins nisbati, noaniqlik darajasini hisoblaydi. Bu individual izlardagi xatolarni kamaytiradi.
    - **AFIS (Automated Fingerprint Identification System)** moslashtirilgan versiyalari: Forensikadan olingan algoritmlar arxeologik bazalarga qo‘llaniladi.
4. **Big Data va raqamli bazalar** Global arxeologik izlar bazasi yaratilishi mumkin – O‘zbekiston uchun mahalliy sopol namunalarini skanerlab, SI modelini o‘qitish orqali milliy madaniy merosni raqamlashtirish.

Bu texnologiyalar tadqiqot tezligini oshiradi, subyektiv xatolarni kamaytiradi va katta hajmdagi materiallarni tahlil qilish imkonini beradi.

Qadimiy keramikadagi barmoq izlari orqali shaxs yoshi va jinsini aniqlash axborot texnologiyalarining arxeologiyaga integratsiyasi misolidir. Bu usul nafaqat o‘tmishni ochib beradi, balki kelajakda O‘zbekiston arxeologik yodgorliklarini raqamli platformalarda saqlash va tahlil qilish uchun asos bo‘ladi. Kelgusida mahalliy sopol namunalarini skanerlab, maxsus SI modelini yaratish va xalqaro bazalarga qo‘shish orqali O‘zbekiston global “raqamli arxeologiya”da yetakchi o‘rin egallashi mumkin.

Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar davom etishi kerak: Axborot texnologiyalari mutaxassislari, arxeologlar hamkorligida. Natijada, qadimiy merosimiz nafaqat saqlanadi, balki zamonaviy texnologiyalar orqali yangi ma’noga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Burchill, A. T., Sanders, A., & Morgan, T. J. H. (2023). Inferring the age and sex of ancient potters from fingerprint ridge densities: a data-driven, Bayesian mixture modelling approach. *MethodsX, 10*, 102289. https://doi.org/10.1016/j.mex.2023.102289 (yoki PMC: PMC10428107). — Ridge density (RD) va Bayesian modeling orqali yosh va jinsni aniqlashning zamonaviy usuli, ochiq kodli model taklifi.

2. Kantner, J., et al. (2019). Reconstructing sexual divisions of labor from fingerprints on Ancestral Puebloan pottery. *Proceedings of the National Academy of Sciences (PNAS), 116*(25), 12220–12225. https://doi.org/10.1073/pnas.1901367116. — Chaco Canyon (AQSh) sopollaridagi 985 ta namunada erkak va ayollar mehnat taqsimotini ko‘rsatgan tadqiqot; “ayollar ishi” stereotipini rad etgan ish.

3. Fowler, K. D., et al. (2020). Fingerprint evidence for the division of labour and learning pottery-making at Early Bronze Age Tell eṣ-Ṣâfi/Gath, Israel. *PLOS ONE, 15*(4), e0231046. https://doi.org/10.1371/journal.pone.0231046. — Tell es-Safi/Gath yodgorligida (Isroil) barmoq izlari orqali yosh, jins va mehnat taqsimotini tahlil qilgan; bolalar va o‘smirlar ishtiroki haqida ma’lumot.

4. Sanders, A. (2015). Fingerprints, sex, state, and the organization of the Tell Leilan ceramic industry. *Journal of Archaeological Science, 57*, 223–238. https://doi.org/10.1016/j.jas.2015.02.009. — Suriyadagi Tell Leilan sopollarida ridge density orqali jinsni aniqlash va davlat shakllanishi bilan bog‘liq gender rollari.

5. Fowler, K. D., Walker, E., Greenfield, H. J., Ross, J., & Maeir, A. M. (2019). The identity of potters in early states: determination of the age and sex of fingerprints on Early Bronze Age pottery from Tell eṣ-Ṣâfi/Gath, Israel. *Journal of Anthropological Archaeology* (tegishli maqola).

O‘zbekiston va madaniy meros bilan bog‘liq manbalar:

6. UNESCO (2023). Ceramic arts in Uzbekistan. Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity. https://ich.unesco.org/en/RL/ceramic-arts-in-uzbekistan-01989. — O‘zbekiston sopolchilik san’ati 2023-yilda UNESCO ro‘yxatiga kiritilgani haqida rasmiy ma’lumot. Bu maqolada dolzarblikni ta’kidlash uchun ishlatilgan.

7. Rakhimov, M. K. va boshqalar. *Artistic ceramics of Uzbekistan* (UNESCO nashrlari, turli yillar) — O‘zbekiston sopolchilik tarixi va texnologiyasi haqida umumiy manbalar.

UO‘T: 621.311.22:697.34:620.9

PORSHENLI KOGENERATSION ISSIQLIK MARKAZLARIDA ELEKTR VA ISSIQLIK YUKLAMALARINI MUVOFIQLASHTIRISH ASOSIDA GAZ SARFINI KAMAYTIRISH MEXANIZMI

Zokirov Shohjahon Shokir o‘g‘li
Toshkent davlat texnika universiteti
zokirov.shohjahon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola porshenli kogeneratsion issiqlik markazida gaz ta’minoti cheklanganda elektr va issiqlik yuklamalari o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish masalasiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda ko‘rib chiqiladigan asosiy yechim — issiqlik akkumulyatsiyasi, yuklama grafigini siljitish va qurilmani optimal yuklama oralig‘ida ishlatish orqali umumiy foydali ish koeffitsiyentini saqlab qolishdir. Maqolada energiya balansi asosida gaz porshenli kogeneratsion qurilmaning samaradorlik ko‘rsatkichlari baholanadi, past yuklama rejimlarining salbiy ta’siri tushuntiriladi va issiqlik talabini vaqt bo‘yicha boshqarish modeli taklif etiladi. Shartli hisob-kitob asosida issiqlik akkumulyatori qo‘llanganda qurilmani uzoq muddat past yuklamada ishlatish o‘rniga qisqaroq vaqt davomida yuqori samarali rejimda ishlatish mumkinligi ko‘rsatiladi. Ushbu yondashuv gaz sarfini kamaytirish, ishlab chiqarilgan foydali energiya ulushini oshirish va kogeneratsion markazning ekspluatatsion barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Аннотация. Статья посвящена решению проблемы несоответствия электрической и тепловой нагрузки поршневого когенерационного теплового центра при ограниченном газоснабжении. В качестве основного решения рассматривается применение тепловой аккумуляции, перенос части нагрузки во времени и работа установки в оптимальном диапазоне нагрузки. На основе энергетического баланса оцениваются показатели эффективности газопоршневой когенерационной установки, объясняется отрицательное влияние длительной работы на малой нагрузке и предлагается модель управления тепловым спросом. Условный расчет показывает, что использование теплового аккумулятора позволяет заменить длительную низкоэффективную работу установки более короткой работой в экономичном режиме. Такой подход способствует снижению расхода газа, повышению доли полезно используемой энергии и улучшению эксплуатационной устойчивости когенерационного центра.

Annotation. This article is devoted to solving the mismatch between electrical and thermal loads in a reciprocating-engine cogeneration heat center under limited gas supply. The proposed solution combines thermal storage, partial load shifting, and operation of the unit within an optimal load range. Based on an energy balance approach, the efficiency indicators of a gas-engine cogeneration unit are evaluated, the negative impact of long-term low-load operation is explained, and a heat demand management model is proposed. A sample calculation demonstrates that the use of a thermal storage tank can replace prolonged low-efficiency operation with shorter operation at a more efficient load level. This approach reduces gas consumption, increases the share of useful energy, and improves operational stability.

Kalit so‘zlar: *energiya balansi, issiqlik akkumulyatori, gaz porshenli qurilma, optimal* yuklama, kogeneratsion samaradorlik, issiqlik grafigi, yuklama siljitish.

Ключевые слова: энергетический баланс, тепловой аккумулятор, газопоршневая установка, оптимальная нагрузка, эффективность когенерации, тепловой график, перенос нагрузки.

Keywords: energy balance, thermal storage, gas reciprocating unit, optimal load, cogeneration efficiency, heat load curve, load shifting.

Kirish

Porshenli kogeneratsion issiqlik markazlarining amaliy samaradorligi ularning nominal ko‘rsatkichlariga emas, balki real yuklama sharoitida qanday boshqarilishiga bog‘liq. Qurilma katalogida yuqori elektr va issiqlik samaradorligi ko‘rsatilgan bo‘lishi mumkin, ammo obyektning elektr va issiqlik talabi vaqt bo‘yicha bir-biriga mos kelmasa, bu imkoniyatdan to‘liq foydalanilmaydi. Ayniqsa, gaz ta’minoti cheklangan sharoitda bu nomutanosiblik yanada kuchayadi.

Ko‘plab obyektlarda elektr yuklamasi kunduzgi ish vaqti bilan, issiqlik yuklamasi esa tashqi havo harorati, isitish jadvali yoki issiq suv iste’moli bilan belgilanadi. Ba’zi soatlarda elektr talabi yuqori, issiqlik talabi past bo‘ladi; boshqa soatlarda esa aksincha, issiqlik talabi ko‘tarilib, elektr iste’moli kamayadi. Kogeneratsion qurilma esa bir vaqtning o‘zida elektr va issiqlik ishlab chiqaradi. Shuning uchun ikki yuklama turining moslashmasligi foydali issiqlikning yo‘qotilishiga yoki elektr ishlab chiqarish rejimining cheklanishiga olib keladi.

Mazkur maqolada ko‘rib chiqiladigan yechim shundan iboratki, gaz cheklangan sharoitda qurilmani doimiy past yuklamada ushlab turish emas, balki issiqlik akkumulyatsiyasi va yuklama grafigini boshqarish orqali uni optimal samaradorlik oralig‘ida ishlatish kerak. Bu yondashuv nafaqat gazni tejaydi, balki dvigatelning texnik holatini saqlash va chiqindi issiqlikdan to‘liq foydalanish imkonini beradi.

Energiya balansi va samaradorlik mezonlari

Kogeneratsion markazning umumiy energetik samaradorligi yoqilg‘i bilan kirgan energiyaning qancha qismi foydali elektr va issiqlikka aylanganini ko‘rsatadi. Umumiy samaradorlik

$$Q_{ak} = c \cdot m \cdot \Delta t$$

ifodasi orqali aniqlanadi. Bu yerda E_{el} ishlab chiqarilgan elektr energiyasi, Q_{foy} foydali ishlatilgan issiqlik, Q_{yoq} esa gaz yoqilg‘isi bilan kirgan umumiy energiya miqdoridir.

Gaz porshenli qurilmalarda elektr samaradorligi odatda dvigatel yuklanishiga bog‘liq bo‘ladi. Juda past yuklamada mexanik va issiqlik yo‘qotishlarining nisbiy ulushi ortadi, yonish jarayoni barqarorligi pasayadi, ishlab chiqarilgan 1 kW·soat elektr energiyasiga to‘g‘ri keladigan gaz sarfi oshadi. Shu sababli gaz cheklangan vaziyatda qurilmani shunchaki “kamroq gaz bilan uzoqroq ishlatish” har doim ham to‘g‘ri yechim emas.

Issiqlik samaradorligi ham foydali ishlatilgan issiqlik miqdoriga bog‘liq. Agar chiqindi gazlar issiqligi, dvigatel sovitish suvi va moy sovitgichdan olingan issiqlik to‘liq ishlatilmasa, kogeneratsiyaning ustunligi kamayadi. Demak, optimal yechim elektr ishlab chiqarish bilan birga issiqlikni maksimal darajada foydali ishlatishni ham nazarda tutishi kerak.

Maqolada taklif qilinayotgan yechim uchta asosiy qismdan iborat. Birinchi qism — kogeneratsion qurilmani optimal yuklama oralig‘ida ishlatish. Amaliyotda gaz porshenli qurilmalarning iqtisodiy jihatdan maqbul yuklama oralig‘i ko‘pincha nominal quvvatning 65–90 foizi atrofida bo‘ladi. Aniq qiymat qurilma turiga bog‘liq bo‘lsa-da, umumiy qoida shundan iboratki, juda past yuklama uzoq davom etmasligi kerak.

Ikkinchi qism — issiqlik akkumulyatoridan foydalanish. Issiqlik akkumulyatori odatda issiq suv sig‘imi ko‘rinishida bo‘lib, u ortiqcha issiqlikni vaqtincha to‘playdi va keyinchalik talab oshgan paytda tizimga qaytaradi. Bunda kogeneratsion qurilma issiqlik talabi past soatlarda ham foydali issiqlikni yo‘qotmaydi, balki uni zaxira sifatida saqlaydi.

Uchinchi qism — yuklama grafigini siljitish. Masalan, ayrim yordamchi elektr yuklamalarini gaz limiti yuqori bo‘lgan davrga, issiq suv tayyorlashni esa tungi yoki past elektr talabli soatlarga ko‘chirish mumkin. Bu usul energiya iste’molining umumiy hajmini keskin kamaytirmaydi, lekin uning vaqt bo‘yicha taqsimotini kogeneratsion qurilmaning samarali ish rejimiga moslashtiradi.

Taklif etilgan boshqaruv modeli quyidagi mantiqqa asoslanadi: agar elektr va issiqlik talabi bir vaqtning o‘zida yuqori bo‘lsa, qurilma maksimal ruxsat etilgan samarali rejimda ishlaydi; agar issiqlik talabi past, elektr talabi yuqori bo‘lsa, ortiqcha issiqlik akkumulyatorga uzatiladi; agar elektr talabi past, issiqlik talabi yuqori bo‘lsa, avval akkumulyatordagi issiqlikdan foydalaniladi, keyin qurilma ishga tushiriladi. Shu tariqa gaz sarfi va foydali energiya ishlab chiqarish o‘rtasidagi nisbat yaxshilanadi.

Namunaviy hisob-kitob

Faraz qilaylik, kogeneratsion qurilmaning nominal elektr quvvati 800 kW, foydali issiqlik quvvati 900 kW, nominal gaz sarfi 225 m3/soat bo‘lsin. Gaz limiti tufayli qurilmani sutka davomida 24 soat past yuklamada ishlatish o‘rniga uni 16 soat davomida 75 foiz yuklamada ishlatish varianti ko‘rib chiqiladi. Birinchi variantda qurilma 50 foiz yuklamada 24 soat ishlaydi. Elektr ishlab chiqarish 800 · 0,50 · 24 = 9600 kW·soat bo‘ladi. Agar past yuklama tufayli umumiy samaradorlik pasaysa, gazdan foydalanish samarasi kamayadi.

Ikkinchi variantda qurilma 75 foiz yuklamada 16 soat ishlaydi. Elektr ishlab chiqarish 800 · 0,75 · 16 = 9600 kW·soat bo‘ladi. Demak, elektr energiyasi miqdori bir xil qoladi, lekin qurilma samaradorligi yuqoriroq yuklama oralig‘ida ishlaydi. Shu bilan birga 900 · 0,75 · 16 = 10800 kW·soat issiqlik hosil bo‘ladi. Agar shu issiqlikning bir qismi akkumulyatorga yig‘ilsa, qurilma ishlamay turgan soatlarda ham issiqlik ta’minoti uzluksiz davom etadi.

Issiqlik akkumulyatorining zarur sig‘imi soddalashtirilgan holda

$$Q_{ak} = c \cdot m \cdot \Delta t$$

formula orqali aniqlanishi mumkin. Bu yerda c suvning issiqlik sig‘imi, m suv massasi, Δt esa akkumulyatordagi foydalaniladigan harorat farqidir. Masalan, 20 m3 suv sig‘imli akkumulyator va 30 °C foydali harorat farqi qabul qilinsa, zaxira issiqlik miqdori taxminan 20 000 kg · 4,187 kJ/(kg·°C) · 30 °C = 2 512 200 kJ yoki 698 kW·soatni tashkil etadi. Bu miqdor qisqa muddatli issiqlik tanqisligini qoplash yoki qurilmaning past samarali rejimga tushishini oldini olish uchun yetarli bo‘lishi mumkin.


Hisob-kitobdan ko‘rinadiki, gaz cheklangan sharoitda vaqt bo‘yicha boshqaruv va akkumulyatsiya qurilmaning umumiy ishlab chiqarish hajmini kamaytirmagan holda uning samaradorligini oshirishi mumkin. Asosiy farq shundaki, energiya ishlab chiqarish va iste’mol qilish vaqti bir-biriga qattiq bog‘lanib qolmaydi.

Boshqaruv algoritmi

1-jadval.

Ikki xil boshqaruv variantining taqqoslanishi

Ko‘rsatkich	**1-variant: 50% yuklama, 24 soat**	**2-variant: 75% yuklama, 16 soat + akkumulyatsiya**
Ish vaqti, soat/sutka	24	16
O‘rtacha quvvat, kW	400	600
Elektr ishlab chiqarish, kW·soat	9600	9600
Foydali issiqlikdan foydalanish darajasi, %	72	88
Nisbiy gaz sarfi, m³/kW·soat	0,31	0,27
Umumiy samaradorlik, %	74	82



1-rasm. Sutkalik yuklama grafigi va kogeneratsion qurilmaning tavsiya etilgan ish rejimi

Izoh: jadval va diagrammadan ko‘rinadiki, qurilmani 24 soat past yuklamada ishlatishdan ko‘ra, uni qisqaroq vaqt davomida samarali yuklama oralig‘ida ishlatish foydaliroqdir. Issiqlik akkumulyatori qo‘llanganda ishlab chiqarilgan issiqlik ortiqcha vaqtda zaxiralanadi va yuqori talab paytida ishlatiladi.

Issiqlik akkumulyatsiyasi asosidagi boshqaruv algoritmi quyidagi ketma-ketlikda tashkil etiladi. Avval sutkalik elektr va issiqlik yuklama grafigi tuziladi. Keyin gaz limiti bo‘yicha qurilmaning maksimal ishlash vaqti hamda ruxsat etilgan yuklama oralig‘i aniqlanadi. So‘ngra elektr talabi yuqori bo‘lgan davrlar issiqlik talabi bilan solishtiriladi. Agar ikki talab bir vaqtga to‘g‘ri kelsa, kogeneratsion qurilma ishga tushiriladi. Agar issiqlik talabi past bo‘lsa, issiqlik akkumulyatori zaryadlanadi.

Keyingi bosqichda akkumulyatordagi issiqlik zaxirasi nazorat qilinadi. Zaxira minimal ruxsat etilgan qiymatdan pastga tushsa, qurilma qayta ishga tushiriladi yoki issiqlik yuklamasi vaqtincha kamaytiriladi. Agar zaxira maksimal qiymatga yaqinlashsa, qurilmaning issiqlik ishlab chiqarishi cheklanadi yoki ortiqcha issiqlik boshqa foydali ehtiyojga yo‘naltiriladi. Bunday boshqaruv issiqlik yo‘qotishlarini kamaytiradi.

Algoritmni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga kiritish mumkin. Bunda har bir soat uchun elektr yuklama, issiqlik yuklama, gaz limiti, akkumulyator zaryadi va qurilmaning ruxsat etilgan yuklama oralig‘i ma’lumotlari olinadi. Tizim maqsad funksiyasi sifatida foydali energiya ulushini maksimal qilish va gaz sarfini limitdan oshirmaslikni belgilaydi.

Amaliy muhokama

Taklif etilgan yechimning muhim afzalligi shundaki, u energiya ishlab chiqarish tizimini iste’mol grafigiga passiv bog‘lab qo‘ymaydi. Aksincha, akkumulyatsiya orqali ishlab chiqarish va iste’mol orasida moslashuvchanlik hosil qiladi. Bu ayniqsa qish mavsumida, gaz bosimi pasayganda yoki obyektning energiya talabi notekis bo‘lganda muhim ahamiyatga ega.

Biroq issiqlik akkumulyatorini tanlashda iqtisodiy va texnik cheklovlar ham mavjud. Juda kichik sig‘im yetarli samara bermaydi, juda katta sig‘im esa kapital xarajatlarni oshiradi va joy talab qiladi. Shuning uchun akkumulyator sig‘imi obyektning sutkalik issiqlik grafigi, gaz limiti davri, qurilma quvvati va issiqlik tarmog‘i harorat rejimi asosida tanlanishi kerak.

Shuningdek, issiqlik akkumulyatsiyasi elektr yuklamani to‘liq hal qilmaydi. Agar elektr talabi keskin yuqori bo‘lsa, yordamchi yuklamalarni siljitish, zaxira manbalar yoki tarmoq bilan parallel ishlash variantlari ham ko‘rib chiqilishi kerak. Demak, maqolada taklif etilgan yechim kompleks yuklama boshqaruvining muhim qismi hisoblanadi.

Amaliy tavsiyalar

1. Elektr va issiqlik yuklamalari sutkalik grafik asosida alohida tahlil qilinishi, kogeneratsion qurilmaning ishlash vaqti esa ushbu grafiklarning mos kelgan davrlariga bog‘lanishi kerak.

2. Issiqlik akkumulyatori sig‘imi obyektning kamida bir necha soatlik issiqlik ehtiyojini qoplaydigan darajada tanlansa, gaz limiti paytida tizim ancha barqaror ishlaydi.

3. Qurilmani uzoq vaqt past yuklamada ishlatishdan qochish, uning o‘rniga samarali yuklama oralig‘ida ishlatish va ortiqcha issiqlikni zaxiralash tavsiya etiladi.

Xulosa va takliflar

Gaz ta’minoti cheklangan sharoitda porshenli kogeneratsion issiqlik markazining samaradorligini oshirish uchun elektr va issiqlik yuklamalarini alohida emas, balki yagona energiya balansi sifatida boshqarish zarur. Maqolada issiqlik akkumulyatsiyasi, yuklama grafigini vaqt bo‘yicha siljitish va qurilmani optimal yuklama oralig‘ida ishlatish yechim sifatida taklif etildi.

Namunaviy hisob-kitob shuni ko‘rsatadiki, qurilmani uzoq vaqt past yuklamada ishlatish o‘rniga qisqaroq vaqt davomida samarali rejimda ishlatish elektr ishlab chiqarish hajmini saqlagan holda gazdan foydalanish samaradorligini oshiradi. Issiqlik akkumulyatori esa issiqlik ta’minotining uzluksizligini ta’minlab, ortiqcha issiqlik yo‘qotishlarini kamaytiradi. Mazkur yondashuv kogeneratsion markazlarning gaz cheklangan sharoitdagi amaliy barqarorligini oshirish uchun muhim yechim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. U.S. Department of Energy. Combined Heat and Power: A Clean Energy Solution. DOE/EE, Washington, DC, 2012.

2. U.S. Environmental Protection Agency. Combined Heat and Power Partnership: CHP Benefits and Applications. Washington, DC.

3. International Energy Agency. Co-generation and Renewables: Solutions for a Low-carbon Energy Future. Paris: IEA, 2011.

4. Kavvadias K., Jimenez Navarro J.P., Thomassen G. Case Study on the Impact of Cogeneration and Thermal Storage on the Flexibility of the Power System. European Commission JRC, 2017.

5. Ju Y., Li P., Hong T. Benefits through Space Heating and Thermal Storage with Demand Response Control. Buildings, 2023.

6. Qin X., Guo Y., Shen X., Sun H. Increasing the Flexibility of Combined Heat and Power Systems through Optimal Dispatch with Variable Mass Flow. Applied Energy, 2020.

7. Jiang Y., Wan C., Botterud A., Song Y., Shahidehpour M. Convex Relaxation of Combined Heat and Power Dispatch. IEEE Transactions on Power Systems, 2021.

8. Horlock J.H. Cogeneration – Combined Heat and Power. Pergamon Press, 1987.

9. Beith R. Small and Micro Combined Heat and Power Systems. Woodhead Publishing, 2011.

10. ASHRAE Handbook: HVAC Systems and Equipment. American Society of Heating, Refrigerating and Air-Conditioning Engineers, latest edition.

11. ISO 50006:2014. Energy Management Systems – Measuring Energy Performance Using Energy Baselines and Energy Performance Indicators. ISO, Geneva.

12. EDUCOGEN. The European Educational Tool on Cogeneration. Brussels, 2001.
13. Eurostat. Combined Heat and Power Generation Reporting Instructions. Luxembourg, 2017.
14. U.S. EPA. Catalog of CHP Technologies. Full Report. Washington, DC, 2017.
15. O‘zbekiston Respublikasining “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘RQ-539-sonli Qonuni. 21.05.2019.
16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi energiya samaradorligi va energiya tejashga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. Toshkent.
17. Allaev Q.R. Energetika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.
18. Majidov T.Sh. Noan’anaviy va qayta tiklanuvchi energiya manbalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.
19. Бродянский В.М. Эксергетический метод термодинамического анализа. Москва: Энергия, 1973.
20. Аметистов Е.В., Григорьев В.А., Емцев Б.Т. Тепло- и массообмен. Теплотехнический эксперимент. Москва: МЭИ, 2004.
21. Гуров В.А., Кудинов А.А. Энергосбережение в теплоэнергетике и теплотехнологиях. Москва: Инфра-М, 2018.
22. Долинский А.А., Басок Б.И. Когенерационные технологии в системах теплоснабжения. Киев: Наукова думка, 2015.

UO‘T: 681.518.5

UZLUKSIZ ISHLAB CHIQARISHDA MONITORING VA NAZORAT TIZIMLARINING MUAMMOLARI, TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Xusainova Xusnidaxon Saloyidinovna
Namangan davlat texnika universiteti “Oliy matematika kafedrasi katta o‘qituvchisi .
xusnidaxonxusainova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llanilayotgan monitoring va nazorat tizimlarining mavjud muammolari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy sanoat korxonalarida raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sanoat interneti (IIoT) texnologiyalarining keng joriy etilishi monitoring tizimlarining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan bo‘lsa-da, ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi, prognozlash imkoniyatlari, integratsiya darajasi va kiberxavfsizlik sohasidagi kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish uchun sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, raqamli egizaklar (Digital Twin) va sanoat interneti texnologiyalariga asoslangan takomillashtirish yo‘nalishlari taklif etiladi.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ существующих проблем систем мониторинга и управления, используемых в непрерывных производственных процессах. Несмотря на широкое внедрение цифровизации, автоматизации и технологий промышленного интернета вещей (IIoT) в современных промышленных предприятиях, значительно расширившее возможности систем мониторинга, сохраняются недостатки в скорости обработки данных, возможностях прогнозирования, уровне интеграции и кибербезопасности. В статье предлагаются направления улучшения, основанные на искусственном интеллекте, машинном обучении, цифровых двойниках (цифровых двойниках) и технологиях промышленного интернета, для преодоления этих проблем.

Abstract. This article scientifically analyzes the existing problems of monitoring and control systems used in continuous production processes. Although the widespread introduction of digitalization, automation and industrial Internet of Things (IIoT) technologies in modern industrial enterprises has significantly expanded the capabilities of monitoring systems, shortcomings in the field of data processing speed, forecasting capabilities, level of integration and cybersecurity remain. The article proposes areas of improvement based on artificial intelligence, machine learning, digital twins and industrial Internet technologies to overcome these problems.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ishlab chiqarish, monitoring tizimlari, nazorat tizimlari, sanoat interneti, raqamli egizak, sun’iy intellekt, kiberxavfsizlik.

Ключевые слова: непрерывное производство, системы мониторинга, системы управления, промышленный интернет, цифровой двойник, искусственный интеллект,

Keywords: continuous production, monitoring systems, control systems, industrial internet, digital twin, artificial intelligence, cybersecurity

KIRISH

Sanoat korxonalarida uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlari mahsulot sifati, ishlab chiqarish unumdorligi va texnologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, kimyo, neft-gaz, energetika, metallurgiya va oziq-ovqat sanoati kabi sohalarda texnologik jarayonlarning uzluksizligi korxonaning iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bunday ishlab chiqarish tizimlarida texnologik parametrlarni real vaqt rejimida kuzatish, tahlil qilish va boshqarish monitoring hamda nazorat tizimlari orqali amalga oshiriladi.[1]

Zamonaviy ishlab chiqarish muhitida ushbu tizimlar texnologik jarayonlarning barqaror ishlashini ta’minlash, avariyaviy holatlarning oldini olish va inson omili bilan bog‘liq xatolarni

kamaytirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda sanoat korxonalarida raqamlashtirish, avtomatlashtirish va sanoat interneti (Industrial Internet of Things – IIoT) texnologiyalarining keng joriy etilishi monitoring va nazorat tizimlarining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Biroq, mavjud tizimlar texnologik taraqqiyotga qaramasdan qator muammolarni saqlab qolmoqda.[2]

Monitoring va nazorat tizimlarining zamonaviy holati

Sanoat korxonalarida monitoring va nazorat tizimlari texnologik jarayonlarni boshqarishning markaziy elementi hisoblanadi. Ushbu tizimlar sensorlar, kontrollerlar, boshqaruv bloklari va dasturiy ta’minotdan iborat murakkab kompleks sifatida ishlaydi. Zamonaviy ishlab chiqarishda SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) tizimlari, DCS (Distributed Control System) va PLC (Programmable Logic Controller) asosidagi tizimlar keng qo‘llaniladi.

Monostori (2014) ta’kidlashicha, kiber-fizik ishlab chiqarish tizimlari (Cyber-Physical Production Systems) rivojlanishi bilan monitoring va nazorat tizimlari yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Ushbu tizimlar fizik jarayonlarni raqamli modellar bilan bog‘laydi va real vaqt rejimida o‘zaro ta’sir qilish imkonini beradi.

Mavjud muammolar

Ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish muammolari

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, zamonaviy monitoring tizimlarining asosiy kamchiliklaridan biri katta hajmdagi ma’lumotlarni samarali qayta ishlash va ulardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligidir. Lee va hamkorlari (2015) sanoatning "Industry 4.0" konsepsiyasiga o‘tishi sharoitida ishlab chiqarish tizimlari ulkan hajmdagi ma’lumotlarni hosil qilayotganini, biroq ushbu ma’lumotlarning katta qismi amaliy qarorlar qabul qilish jarayonida to‘liq foydalanilmayotganini qayd etganlar. Natijada monitoring tizimlari ma’lumotlarni yig‘ish vazifasini bajarsa-da, ularni intellektual tahlil qilish va nosozliklarni oldindan aniqlash imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmagan.

Chiang va Zhang (2016) sanoatning raqamli transformatsiyasi sharoitida "Big Data" texnologiyalaridan samarali foydalanish monitoring tizimlarining aniqligi va tezkorligini oshirish uchun muhim omil ekanligini ta’kidlaydilar. Ulaming fikricha, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlashning samarasizligi ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Eskirgan apparat va dasturiy platformalar

Ko‘plab korxonalarda foydalanilayotgan nazorat tizimlari eskirgan apparat va dasturiy platformalarga asoslangan bo‘lib, ular zamonaviy ishlab chiqarish talablariga to‘liq javob bermaydi. Qin va Badgwell (2003) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ko‘plab sanoat korxonalarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining samaradorligi sensorlardan olinadigan ma’lumotlarning sifatiga va boshqaruv algoritmlarining moslashuvchanligiga bevosita bog‘liq ekanligi ko‘rsatib berilgan. Sensorlarning kalibrovka xatolari yoki texnik nosozliklari noto‘g‘ri boshqaruv qarorlariga sabab bo‘lishi mumkin

Kiberxavfsizlik tahdidlari

Monitoring va nazorat tizimlarining yana bir muhim muammosi kiberxavfsizlik bilan bog‘liq. Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ishlab chiqarish tizimlarini tashqi tarmoqlar bilan integratsiyalash imkonini bergan bo‘lsa-da, bu holat kiberhujumlar xavfini ham oshirmoqda. Humayed va boshqalar (2017) sanoat boshqaruv tizimlari (ICS) va SCADA tizimlariga qarshi amalga oshirilayotgan kiberhujumlar soni ortib borayotganini hamda bunday tahdidlar ishlab chiqarishning to‘xtab qolishi yoki texnologik avariyalarga sabab bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaganlar.

Real vaqt rejimidagi kechikishlar

Uzluksiz ishlab chiqarishda monitoring va nazorat tizimlari samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biri ma’lumotlarning real vaqt rejimida uzatilishi va qayta ishlanishidagi kechikishlardir. Murakkab texnologik jarayonlarda hatto soniyaning kichik ulushlaridagi kechikishlar ham mahsulot sifatining pasayishiga yoki energiya resurslarining ortiqcha sarflanishiga olib kelishi mumkin.

Takomillashtirish yo‘nalishlari

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud monitoring va nazorat tizimlari texnologik jarayonlarni nazorat qilishda muhim rol o‘ynayotgan bo‘lsa-da, ularning ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi, prognozlash imkoniyatlari, integratsiya darajasi va kiberxavfsizlik jihatlarida bir qator kamchiliklari mavjud. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi:

Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish texnologiyalari

Sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish algoritmlari monitoring tizimlarining prognozlash imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Ushbu texnologiyalar yordamida nosozliklarni oldindan aniqlash, texnologik parametrlarning optimallashtirilgan qiymatlarini hisoblash va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatik boshqarish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Raqamli egizaklar (Digital Twin) texnologiyasi

Raqamli egizaklar texnologiyasi fizik jarayonlarning raqamli nusxalarini yaratish va ular yordamida real vaqt rejimida simulyatsiya va tahlillar o‘tkazish imkonini beradi. Bu yondashuv texnologik jarayonlarni chuqurroq tushunish, muammoli holatlarni oldindan bashorat qilish va samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Sanoat interneti (IIoT) va bulutli hisoblash texnologiyalari

IIoT texnologiyalari sensorlar, kontrollerlar va boshqaruv tizimlari o‘rtasida samarali ma’lumot almashishni ta’minlaydi. Bulutli hisoblash platformalari esa katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish

Zamonaviy kriptografik usullar, tarmoq segmentatsiyasi, multi-faktorli autentifikatsiya va doimiy monitoring asosida sanoat tizimlarining kiberxavfsizligini ta’minlash strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

XULOSA

Uzluksiz ishlab chiqarishda monitoring va nazorat tizimlari mahsulot sifati, ishlab chiqarish unumdorligi va texnologik xavfsizlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biroq, mavjud tizimlar ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi, prognozlash imkoniyatlari, integratsiya darajasi va kiberxavfsizlik jihatlarida bir qator kamchiliklarga ega.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, raqamli egizaklar va sanoat interneti texnologiyalariga asoslangan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va joriy etish muhim ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu texnologiyalarning sanoat monitoring tizimlariga integratsiyasi bo‘yicha amaliy tadqiqotlarni davom ettirish, shuningdek, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash bo‘yicha ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Lee, J., Bagheri, B., & Kao, H. A. (2015). A Cyber-Physical Systems Architecture for Industry 4.0-Based Manufacturing Systems. *Manufacturing Letters*, 3, 18–23.
2. Qin, S. J., & Badgwell, T. A. (2003). A Survey of Industrial Model Predictive Control Technology. *Control Engineering Practice*, 11(7), 733–764.
3. Humayed, A., Lin, J., Li, F., & Luo, B. (2017). Cyber-Physical Systems Security—A Survey. *IEEE Internet of Things Journal*, 4(6), 1802–1831.
4. Chiang, L., & Zhang, B. (2016). Process Monitoring, Fault Diagnosis, and Prognosis in the Big Data Era: Basic Concepts, Methods, and Challenges. *ACS Symposium Series*,1245,1–19.

UO‘T: 004.8:658.5.

ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARIDA PROGNOZLASH VA MA’LUMOTLARNI TAHLIL QILISH MODELLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

XusainovaXusnidaxon Saloyidinovna
Namangan davlat texnika universiteti “Oliy matematika “
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ishlab chiqarishda prognozlash va ma’lumotlarni tahlil qilish modellari — zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular kompaniyalarga bozor talabini, resurslarni va jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu modellar yordamida kelajakdagi o‘zgarishlarni oldindan aytib berish mumkin, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini samarali rejalashtirish imkonini beradi.

Аннотация. Модели прогнозирования и анализа данных в производстве являются неотъемлемой частью современной экономики. Они помогают компаниям лучше понимать рыночный спрос, ресурсы и процессы. С помощью этих моделей можно предсказывать будущие изменения, что позволяет эффективно планировать производственные процессы.

Annotation. Forecasting and data analysis models in production are an integral part of the modern economy. They assist companies in better understanding market demand, resources, and processes. Utilizing these models allows for the anticipation of future changes, enabling more effective planning of production processes

Kalit so‘zlar: Prognozlash, modellar, strategik, , regressiya, analitika, strategiya, raqobat.

Ключевые слова: прогнозирование, модели, стратегическое планирование, регрессионный анализ, аналитика, стратегия, конкуренция.

Keywords: Forecasting, models, strategic, regression, analytics, strategy, competition.

Prognozlash — bu kelajakdagi voqealarni, tendentsiyalarni va holatlarni oldindan aytib berishga qaratilgan tizimli jarayondir. U ishlab chiqarishda ehtiyojlarni aniqlash, xarajatlarni rejalashtirish va resurslarni taqsimlash kabi muhim vazifalarni hal qilish uchun ishlatiladi. Prognozlash jarayonida dastlabki ma’lumotlar yig‘iladi — bu o‘tgan davrdagi sotuvlar, iste’mol ma’lumotlari, bozor dinamikasi va boshqa statistik ko‘rsatkichlardir. Statistik usullar yordamida ma’lumotlar tahlil qilinadi, bu esa o‘tgan davrlar bo‘yicha trendlar va izchilliklarni aniqlashga yordam beradi. Tahlil jarayonida muhim statistik ko‘rsatkichlar, masalan, o‘rtacha, median, dispersiya va standart og‘ish kabi ma’lumotlar foydalaniladi. Ushbu ma’lumotlar asosida, statistik xulosalar orqali kelajakdagi ehtimollar keltiriladi.[1]Olingan natijalar asosida matematik modellar quriladi. Bular orasida regressiya tahlili keng tarqalgan, u bog‘lanishlarni tushunishga yordam beradi, masalan, xarajatlar va daromad o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishda. Vaqt qatorlari modeli esa vaqt o‘zgarishlari nuqtai nazaridan ma’lumotlarni tahlil qilishga mo‘ljallangan, bu orqaga qarab vaqt bo‘yicha ma’lumotlar asosida kelajagini taxmin qiladi. Sezon tarzi modellari esa yil va oy bo‘yicha ko‘rsatkichlarni farqlash uchun ishlatiladi, masalan, mavsumiy xaridlar yoki turizm faoliyatidagi o‘zgarishlarni aniqlashda foydali. Statistika va modellar qo‘shilishi natijasida korxonalar ko‘proq ishonch bilan keladigan tendensiyalarni oldindan belgilashlari va strategiyalarini yanada samarali yo‘naltirishlari mumkin.Mashina o‘rgatish texnikalari murakkab ma’lumotlar to‘plamlarini samarali tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu usullar, o‘z navbatida, katta hajmdagi ma’lumotlardan ko‘p o‘rganish jarayonini amalga oshirish va avtomatik prognozlar yaratish uchun juda foydalidir.[2]

Nazorat ostida o‘rgatishda modelga ma’lum bir natijaga yetish uchun ma’lumotlar kiritiladi,masalan, sinflar yoki kategoriya belgilari bo‘yicha. Nazoratsiz o‘rgatish esa ko‘rsatmalar bo‘lmagan chog‘da ma’lumotlardan umumiy tushunchalarni aniqlashga qaratilgan, bu klasterizatsiya va asosiy komponentlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Kuchli o‘rgatishda esa

agent muammolarni hal qilish uchun muayyan maqsadlarga sarflanadigan vaqtni va resurslarni optimallashtirish orqali o‘rganadi.Mashina o‘rgatish salohiyati oziq-ovqat sanoati, moliya, sog‘liqni saqlash, va marketing kabi sohalarda katta muvaffaqiyatga erishishimizga yordam beradi. Misol uchun, mijozlar xulq-atvorini tahlil qilib, shaxsiy takliflar yaratish, yoki tibbiy ma’lumotlarni qayta ishlab, kasalliklarni oldindan aniqlashda qo‘llaniladi. Yana bir misol sifatida, avtomatik tarjima va nutqni tanish texnologiyalari mashina o‘rgatish orqali rivojlanmoqda. Bu texnologiyalar kelajakda ko‘plab sohalarda yangiliklar kiritishi, samaradorlikni oshirishi va qaror qabul qilish jarayonlarini osonlashtirishi kutilmoqda.Natijada, prognozlash jarayoni kompaniyalar uchun strategik qarorlarni qabul qilishda asosiy rol o‘ynaydi va raqobatbardosh ustunlikni ta’minlaydi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish modellariga kelsak, ular ma’lumotlarni yig‘ish, tozalash va tahlil qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Birinchi navbatda, ma’lumotlar yig‘ish jarayoni turli manbalardan, masalan, sensorlar, onlayn platformalar yoki tadqiqotlardan to‘planadi. Keyin, tozalash bosqichida, berilgan ma’lumotlardagi noaniqliklar, takrorlar va xatolar aniqlanadi va tuzatiladi. Tahlil jarayoni esa ma’lumotlardan foydali ma’lumotlarni olishga qaratilgan. Bu jarayonda statistik usullar, mashina o‘rgatish algoritmlari va ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish texnikalari qo‘llaniladi. Masalan, ishlab chiqarishda ma’lumotlar bazasidan foydalanish.Ishlab chiqarish bo‘yicha ma’lumotlar bazasi, kompaniya yoki tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda mahsulotlar, xizmatlar va ichki jarayonlarga oid ma’lumotlar to‘plamini anglatadi. Bu ma’lumotlar bazasi, arxivlashing, qidirish, tahlil etish va ma’lumotlarni ishlashning boshqa jarayonlarini o‘tkazishni tashkil etadi.Bu ma’lumotlar bazasidan foydalanish, iste’molchilarga arz etilgan ma’lumotlarni tez va sodda usulda topish va olishlarini ta’minlaydi. Istalgan paytda, kompaniya rahbarlari, xodimlar va boshqa shaxslar, ma’lumotlar bazasidan foydalanib, faoliyatlarini yaxshilashga yordam beradi va qaror qabul qilish jarayonlarini soddalashtiradi.Ma’lumotlar bazasidan foydalanish, kompaniyangizning faolliklarini yaxshilash, musterilar bilan taalluqli ko‘rsatmalarni takomillashtirish va yangi strategiyalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bu esa, kompaniyangizni rivojlantirish va muvafaqqiyatini rag‘batlantirishga yordam beradi. jarayonlarini yanada samarali qilishga yordam beradi. Bu, mahsulot sifatini nazorat qilish, xarajatlarni minimallashtirish, va ishlab chiqarishda muammolarni aniqlashga imkon beradi

Ishlab chiqarishda prognozlash va ma’lumotlarni tahlil qilish zamonaviy iqtisodiyotning muhim qismidir. Ushbu modellar bozor talabini tushunish va ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirishga yordam beradi. Prognozlash kelajakdagi voqealarni oldindan aytish jarayonidir, u o‘tgan ma’lumotlarga asoslangan tahlillarni o‘z ichiga oladi. Statistik usullar yordamida trendlar va izchilliklar aniqlanadi, bu esa muhim ko‘rsatkichlar, masalan, dispersiya va standart og‘ishdan foydalanadi. Regressiya tahlili xarajatlar va daromadlar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashda, vaqt qatorlari esa vaqt o‘zgarishlarini tahlil qilishda qo‘llaniladi. Mashina o‘rgatish texnikalari murakkab ma’lumotlarni tahlil qilishda samarali vosita bo‘lib, nazorat ostida, nazoratsiz va kuchli o‘rgatish usullarini o‘z ichiga oladi. Bu yondashuvlar korxonalarga mustaqil ravishda prognozlar tuzish imkonini beradi.Mashina o‘rgatish salohiyati nafaqat oziq-ovqat sanoati, moliya, sog‘liqni saqlash, va marketing kabi sohalarda, balki umuman zamonaviy iqtisodiyot va texnologik taraqqiyotda katta rol o‘ynaydi. Mijozlarning xulq-atvorini tahlil qilish orqali shaxsiy takliflar yaratish, kasalliklarni oldindan aniqlash uchun tibbiy ma’lumotlarni qayta ishlash kabi misollar, mashina o‘rgatish texnologiyalarining amaliy qo‘llanilishining samaradorligini ko‘rsatadi. Avtomatik tarjima va nutqni tanish texnologiyalari, odamlar o‘rtasida muloqotni osonlashtirib, global aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.Ma’lumotlarni tahlil qilish jarayoni esa, kompaniyalar uchun strategik qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda ma’lumotlar yig‘ish, tozalash va tahlil qilish bosqichlari katta rol o‘ynaydi. Foydali ma’lumotlarni

olish uchun statistik usullar, mashina o‘rgatish algoritmlari va vizualizatsiya texnikalari qo‘llaniladi. Natijada, bu jarayonlar mahsulot sifatini nazorat qilish, xarajatlarni kamaytirish va ishlab chiqarishdagi muammolarni aniqlashga yordam beradi.Kelajakda mashina o‘rgatish va ma’lumotlar tahlili texnologiyalari ko‘plab sohalarda innovatsiyalar kiritadi, samaradorlikni oshiradi va qaror qabul qilish jarayonini yengillashtiradi. Shu bilan birga, bu jarayonlar orqali kompaniyalar raqobatbardosh ustunlikka ega bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ladi, bu esa biznesni rivojlantirish va foyda olish jarayonini tezlashtiradi.

ADABIYOTLAR

1. W. Edwards Deming - "Out of the Crisis": ishlab chiqarishda sifatni oshirish va statistik sifat nazorati haqida.
2. Michael Hammer - "Reengineering the Corporation": biznes jarayonlarini qayta ko‘rib chiqish va ma’lumotlarni samarali boshqarish haqida.
3. David E. Rumelhart, Geoffrey E. Hinton, and Ronald J. Williams - "Learning Representations by Back-Propagating Errors": sun’iy intellekt va ma’lumotlarning qayta ishlanishi bo‘yicha asosiy tushunchalar.
4. Peter F. Drucker - "The Effective Executive": samarali boshqaruv va prognozlash strategiyalari
5. Toshpo‘latov D. - "Ishlab chiqarish menejmenti: nazariya va amaliyot": ishlab chiqarish jarayonlarida menejment va prognozlash haqida.
6. Abdumavlonov A. - "Biznesda ma’lumotlarni qayta ishlash va ularni analiz qilish": ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar.
7. Sirojiddinov S. - "Iqtisodiy prognozlash asoslari": iqtisodiy prognozlar va ularning ishlab chiqarishga ta’siri.
8. Pulatov Sh. - "Ishlab chiqarishni rejalashtirish va nazorat qilish": rejalashtirish konseptsiyalari va amaliyoti haqida.

UO‘T: 622.7:669.3

YOSHLIK KONI MIS RUDALARINING TEXNOLOGIK TADQIQOTLARI

Abdullayeva Dilnoza Ochilboy qizi.
ToshDTU 1-kurs magistranti
dabdullaeva787@gmail.com,*orcid. org/0009-0002-1710-9435*

Gazibekova Umida Raximovna.
ToshDTU 1-kurs tayanch doktaranti.
umidagazibekova737@gmail.com, orcid.org/0009-0008-2417-2305

Mamayunusov Rovshanbek Baxtiyor o‘g‘li
ToshDTU 1-kurs magistranti
mamayunusovrovshanbek3@gmail.com

Annatatsiya. Ushbu ishda dastlabki xomashyoning moddiy tarkibi hamda foydali minerallarni flotatsiya usulida ajratish jarayoni o‘rganildi. Tadqiqotlarda yangi X133 ko’pik xosil qiluvchi flotoreagent qo‘llanildi. Olingan natijalarga ko‘ra, X133 va T 92 ko’pik xosil qiluvchilar T -80 ga nisbatan misning ajralish foiz ko’rsatkichini oshirdi.

Abstract. This study investigated the material composition of the initial raw ore and the process of separating valuable minerals by flotation. A new frothing flotation reagent, X133, was used in the experiments. According to the research results, the X133 and T-92 frother increased the copper recovery rate compared to the conventional T-80 frother, demonstrating higher efficiency in the flotation process.

Аннотация. В данной работе изучены вещественный состав исходного сырья и процесс разделения полезных минералов методом флотации. В ходе исследований был применён новый пенообразующий флотореагент X133 и T-92. Полученные результаты показали, что флотореагент X133 обеспечивает более высокий показатель извлечения меди по сравнению с традиционным пенообразователем T-80. Это свидетельствует о его эффективности при флотационном обогащении медных руд.

Kalit so‘zlar: sulfidli mis rudalari, maydalash darajasi, ruda namunalari, kollektiv flotatsiya, X133,T-92 ,T-80 maydalash, yig‘uvchi reagent, ruda.

Keywords: copper ore, flotation, frother, X133, T-92,T-80 copper recovery, flotation reagents, mineral processing.

Ключевые слова: медная руда, флотация, пенообразователь, X133, T-92, T-80 извлечение меди, флотореагенты, обогащение полезных ископаемых.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi xalq xo‘jaligi oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ko‘plab omillarga, jumladan, tog‘-kon sanoatining rivojlanish sur’atlariga bog‘liq. Mazkur tarmoq oldida foydali qazilmalarni qazib olish hajmini minimal xarajatlar bilan oshirish vazifasi turibdi.

Respublikamizda ikkita yirik korxona – Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari faoliyat yuritadi. Xomashyo zaxiralari va qazib olish ko‘lami bo‘yicha ular dunyoning yetakchi o‘nta korxonasi qatoridan o‘rin olgan.

Yangi turdagi reagentlardan foydalangan holda mis rudalarini boyitish texnologiyasini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotlarning maqsadi Yoshlik koni mis rudalarining moddiy tarkibi va boyitilish xususiyatlarini an’anaviy hamda yangi mahalliy reagentlar qo‘llagan holda o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot uchun olingan texnologik namuna birlamchi sulfidli mis-molibden rudasidan iborat. Namunadagi foydali komponentlar miqdori quyidagicha: mis – 0,47 %, molibden – 0,0025 %, oltin – 0,20 g/t. Rudadagi misning deyarli barchasi xalkopirit va qisman bornit sulfid minerallari ko‘rinishida uchraydi.

Misning asosiy qismi xalkopirit, bornit,xalkazin,kovellin,malaxit,azurit,kuprit minerallari tarkibida uchraydi. Molibden esa molibdenit shaklida mavjud.Bundan tashqari kamroq uchraydigan molibden minerallari Vulfenit,Pauellit xisoblanadi. Noruda minerallari asosan kvars, seritsit, dala shpati, xlorit va karbonatlardan tashkil topgan. Rudada seritsit va xloritning yuqori miqdorda mavjudligi, ularning mayda va yupqa tangachasimon agregatlar hosil qilishi rudaning texnologik xossalarini yomonlashtiradi. Sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan asosiy mineral – xalkopirit donalarining juda mayda o‘lchamda bo‘lishi hamda boshqa minerallar bilan zich va nozik o‘sganligi yuqori sifatli konsentrat olishni murakkablashtiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Mis-molibden rudalarini boyitishda flotatsiya usuli asosiy texnologik jarayonlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan qo‘llaniladigan reagentlar, xususan ko‘pik hosil qiluvchilarning xossalariga bog‘liq. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda flotatsiya jarayonida ko‘pik hosil qiluvchi reagentlarning mineral zarrachalarining ajralishiga, ko‘pikning barqarorligiga va konsentrat sifatiga ta'siri keng o‘rganilgan.

Mahalliy olimlar va ishlab chiqarish mutaxassislari tomonidan ham Olmaliq konlari rudalarini boyitishda qo‘llaniladigan reagentlarning texnologik ko‘rsatkichlarga ta'siri bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur ishlarda T-80 reagenti flotatsiya jarayonida samarali ko‘pik hosil qiluvchi reagent sifatida tavsiflanib, uning qo‘llanilishi natijasida qimmatbaho komponentlarning ajralish ko‘rsatkichlari yaxshilanishi qayd etilgan.

Shu bilan birga, reagentlar assortimentini kengaytirish, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlardan foydalanish hamda texnologik va iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida yangi reagentlarni tadqiq etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Xususan, T-92 va X-133 reagentlari flotatsiya jarayonida qo‘llash uchun istiqbolli reagentlar sifatida qiziqish uyg‘otmoqda. Biroq mavjud ilmiy manbalarda ushbu reagentlarning T-80 reagentiga nisbatan samaradorligi bo‘yicha ma'lumotlar cheklangan.

Mazkur tadqiqotda T-92 va X-133 reagentlarining mis-molibden rudalarini flotatsiyalash jarayonidagi ta'siri T-80 reagenti bilan taqqoslab o‘rganildi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi yangi reagentlarning texnologik ko‘rsatkichlarga ta'sirini kompleks baholash hamda ularni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Flotatsiyaning optimal rejimi:

Rudani flotatsion boyitish jarayonida quyidagi optimal flotatsiya rejimi aniqlandi:

I-bosqich maydalash mahsulotining yirikligi:

−0,074 mm sinf ulushi – 70 %

Reagentlar sarfi

Maydalash jarayonida:

Ohak – 2.400 g/t

Asosiy flotatsiyada:

Natriy sulfidi (Na_2S) – 50 g/t

Ksantogenatlar aralashmasi (butil va izopropil ksantogenatlari) – 20 g/t

T-80 ko‘pik hosil qiluvchi reagent – 26 g/t

Nazorat flotatsiyasida:

Natriy sulfidi (Na_2S) – 11 g/t

Ksantogenatlar aralashmasi – 3,5 g/t

Mis konsentratini qayta tozalash sikli

Qo‘shimcha maydalash darajasi: −0,074 mm sinfning 98 % gacha
Asosiy flotatsiya davomiyligi – 14 daqiqa
Nazorat flotatsiyasi davomiyligi – 7 daqiqa
Birinchi qayta tozalash davomiyligi – 5,0 daqiqa
Ikkinchi qayta tozalash davomiyligi – 3,0 daqiqa

Jadval-1

Mahsulot nomi	Chiqish, %	Tarkibi, %		Ajralib chiqishi, %	
		(Cu)	(S)	(Cu)	(S)
a) Ochiq sikldagi flotatsiya natijalari					
Konsentrat	1,5	24,81	32,91	82,7	17,3
Oraliq mahsulot-1	6,7	0,17	1,50	2,4	3,0
Oraliq mahsulot-2	2,0	0,80	5,20	3,0	2,8
Oraliq mahsulot-3	6,5	0,19	17,17	3,0	34,6
Chiqindi	81,1	0,05	1,50	6,4	36,7
Ruda	100,0	0,45	3,45	100,0	100,0
b) Uzluksiz jarayon tamoyili bo‘yicha flotatsiya natijalari					
Konsentrat	1,8	19,77	34,54	84,7	15,3
Chiqindi	95,1	0,059	2,53	11,3	80,0
Ruda	100	0,45	3,45	100	100

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, T-80 reagenti qo‘llanilganda ochiq siklda tarkibida **24,81 % mis** va **32,91 % oltingugurt** bo‘lgan sifatli mis konsentrati olingan. Bunda misning ajralib chiqish darajasi **82,7 %** ni tashkil etgan.

Uzluksiz jarayon tamoyili asosida olib borilgan tajribalarda esa tarkibida **19,77 % mis** va **34,54 % oltingugurt** bo‘lgan mis konsentrati olinib, misning ajralib chiqishi **84,7 %** ga yetgan. Bu ko‘rsatkich ochiq sikldagi natijalarga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, uzluksiz jarayonning samaradorligini tasdiqlaydi.

Mazkur ishda ko‘pik hosil qiluvchi reagent sifatida yangi T-92va X-133 reagentlaridan foydalanish taklif etildi. Turli ko‘pik hosil qiluvchi reagentlar ishtirokida olib borilgan flotatsiya tajribalarining natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Flotatsiyaning optimal rejimi:

Rudani flotatsion boyitish jarayonida quyidagi optimal flotatsiya rejimi aniqlandi:

I-bosqich maydalash mahsulotining yirikligi:
−0,074 mm sinf ulushi – 70 %
Reagentlar sarfi
Maydalash jarayonida:
Ohak – 2.400 g/t
Asosiy flotatsiyada:
Natriy sulfidi (Na_2S) – 50 g/t
Ksantogenatlar aralashmasi (butil va izopropil ksantogenatlari) – 20 g/t
X-133 ko‘pik hosil qiluvchi reagent – 22g/t
Nazorat flotatsiyasida:
Natriy sulfidi (Na_2S) – 11 g/t
Ksantogenatlar aralashmasi – 3,5 g/t
Mis konsentratini qayta tozalash sikli
Qo‘shimcha maydalash darajasi: −0,074 mm sinfning 98 % gacha

Asosiy flotatsiya davomiyligi – 14 daqiqa
Nazorat flotatsiyasi davomiyligi – 7 daqiqa
Birinchi qayta tozalash davomiyligi – 5,0 daqiqa
Ikkinchi qayta tozalash davomiyligi – 3,0 daqiqa

Rudani turli xil ko‘pik hosil qiluvchi reagentlar ishtirokida flotatsiya qilish natijalari.

Jadval- 2.

Mahsulot nomi	Chiqish, %	Tarkibi, %		Ajralib chiqishi, %		
		(Cu)	(S)	(Cu)	(S)	
a) Ochiq sikldagi flotatsiya natijalari						
Konsentrat	1,5	24,81	32,91	82,7	17,3	T-80-26
Oraliq mahsulot-1	6,7	0,17	1,50	2,4	3,0	
Oraliq mahsulot-2	2,0	0,80	5,20	3,0	2,8	
Oraliq mahsulot-3	6,5	0,19	17,17	3,0	34,6	
Chiqindi	81,1	0,05	1,50	6,4	36,7	
Ruda	100,0	0,45	3,45	100,0	100,0	
Konsentrat	1,5	19,15	40,8	83,4	16,6	T-92-24
Oraliq mahsulot-1	7,7	0,18	1,58	2,5	3,2	
Oraliq mahsulot-2	5,0	0,83	6,20	3,6	3,8	
Oraliq mahsulot-3	7,7	0,19	17,35	3,8	35,4	
Chiqindi	83,1	0,04	1,60	6,7	40	
Ruda	100	0,47	3,5	100	100	
Konsentrat	1,5	18,88	39,13	88,6	11,1	X-133-22
Oraliq mahsulot-1	7,9	0,23	2,25	3,3	4,1	
Oraliq mahsulot-2	5,9	0,85	7,73	4,9	4,8	
Oraliq mahsulot-3	4,5	0,54	17,76	5,6	36,5	
Chiqindi	85,3	0,04	1,72	7,6	42,4	
Ruda	100	0,43	3,46	100	100	
b) Uzluksiz jarayon tamoyili bo‘yicha flotatsiya natijalari						
Konsentrat	1,7	20,77	38,54	83,7	16,3	T-80-26
Chiqindi	97,1	0,056	2,83	12,3	80,4	
Ruda	100	0,45	3,45	100	100	
Konsentrat	1,8	18,13	39,73	85,8	14,2	T-92-24
Chiqindi	98,4	0,045	2,89	14,2	82,5	
Ruda	100	0,45	3,45	100	100	
Konsentrat	1,8	17,58	40,94	89,6	10,4	X-133-22
Chiqindi	98,0	0,040	2,52	6,4	19,6	
Ruda	100	0,42	3,4	100	100	

2-jadval ma’lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, Yoshlik koni rudasini flotatsion boyitishda yangi T-92 va X-133 ko‘pik hosil qiluvchi reagentlari qo‘llanilganda olingan texnologik ko‘rsatkichlar T-80 reagentidan foydalanilgandagi natijalarga yaqin bo‘lib, mazkur reagentlarni T-80 ning samarali muqobili sifatida qo‘llash mumkin.

Tadqiqot natijalari

Ochiq siklda o‘tkazilgan tajribalarda tarkibida 18,88 % mis va 39,13 % oltingugurt bo‘lgan mis konsentrati olindi. Misning ajralib chiqish darajasi 88,6 % ni tashkil etdi.Uzluksiz jarayon

tamoyili asosida o‘tkazilgan tajribalarda tarkibida 17,58 % mis va 40,94 % oltingugurt bo‘lgan mis konsentrati olinib, misning ajralib chiqish darajasi 89,6 % ga yetdi.

T-92 ko‘pik hosil qiluvchi reagent o‘rniga yangi X133 reagenti sinovdan o‘tkazildi. Tadqiqot natijalari ushbu reagentning texnologik ko‘rsatkichlari T-80 ga nisbatan samaraliroq deb topildi.

Xulosa

Yoshlik koni mis rudalarini flotatsion boyitishda yangi turdagi reagent T-92, Tarkibida dioksan spirtlari, efirlari hamda bir atomli, ikki atomli va uch atomli spirtlar aralashmasi mavjud. X133 yuqori samaradorlik ko‘rsatdi.U aralash spirtlar va glikol asosidagi reagent bo’lib,flotatsiya jarayonida barqaror ko’pik hosil qilishga yordam beradi.Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va misning ko’proq ajratib olinishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Kaxarovna G.K. va boshqalar. Kalmakir va Sari-Cheku konlari rudalarini mahalliy reagentlar yordamida boyitish natijalari.
2. Axmedov X., Bekpo‘latov J.M., Salijonova G.K. Oltin saqlovchi sulfidli rudalarni qayta ishlash texnologiyasi.
3. Mis-molibden rudalarini boyitishda yangi flotoreagentlardan foydalanish.
4. Yoshlik koni mis rudalarining moddiy tarkibini o‘rganish.
5. Polimetall rudalarni boyitish bo‘yicha tadqiqotlar.
6.Bekpo‘latov J.M. Tog‘-kon xomashyolarini boyitish nazariyasi va amaliyoti.
7.Salijonova G.K. Mis-molibden rudalarini flotatsion boyitish texnologiyasi.
8. Ahmedov X. Flotatsiya jarayonlarida reagentlar ta'siri.
9. Wills B.A. Mineral Processing Technology.
10.Fuerstenau M.C. Froth Flotation: A Century of Innovation.
11.Bulatovic S.M. Handbook of Flotation Reagents.
12.Klimpel R.R. Reagent Optimization in Sulfide Ore Flotation.
13.Gaudin A.M. Principles of Mineral Dressing.

УДК 621.383

АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ ЭНЕРГЕТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Жураханов Мухаммадмирзо
Наманганский государственный технический университет

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi energetika sektorining hozirgi holati tahlil qilinadi. Davlat tomonidan belgilangan energetika siyosatining va O‘zbekiston elektr energetikasi sanoatini 2030 yilgacha rivojlantirishning asosiy maqsadi iqtisodiy o‘sish va sanoatning mavjud ishlab chiqarish, ilmiy va texnik salohiyatidan foydalanish orqali aholining turmush darajasini yaxshilash uchun barqaror energiya ta’minoti hisoblanadi. 2017-2025 yillarda respublika bo‘ylab 76 ming kilometr elektr uzatish liniyalari va 24 mingta transformator modernizatsiya qilindi, 787 km magistral tarmoqlar, 29,5 ming km taqsimlash tarmoqlari, asosiy podstansiyalardagi 9 ta transformator va 10 270 ta transformator punktlari to‘liq ta'mirlandi, 8,6 ming km elektr uzatish tarmoqlari, 2,3 mingta transformator punktlari va 28 ta podstansiya modernizatsiya qilindi va rekonstruksiya qilindi, natijada 954 ta tumandagi 800 mingdan ortiq xonadonlarning elektr energiyasi ta’minoti yaxshilandi. Hozirda O‘zbekiston Respublikasida 15 ta quyosh va 5 ta shamol elektr stantsiyalari faoliyat yuritmoqda. 2026-yil boshidan beri ushbu stansiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan energiya 1 milliard kVt·soatga yetdi.

Аннотация. В настоящей работе сделан анализ нынешного состояния энергетической отрасли Республики Узбекистан. Главной целью энергетической политики электроэнергетики Узбекистана на период до 2030 года, определяемой государством, является устойчивое энергообеспечение экономического роста и повышение качества жизни населения на основе использования имеющегося производственного и научно-технического потенциала отрасли. В период 2017-2025 годов по всей республике было модернизировано 76 тысяч километров линий электропередачи и 24 тысячи трансформаторов, полностью отремонтированы магистральные сети - 787 км, распределительные сети - 29,5 тыс. км, трансформаторы на главных подстанциях - 9, трансформаторные точки – 10270, модернизировано и реконструировано сети электропередачи - 8,6 тыс. км, трансформаторные точки - 2,3 тыс., подстанции – 28, в результате чего улучшилось электроснабжение более 800 тысяч домохозяйств в 954 районах. В настоящее время в Республике Узбекистан функционируют 15 солнечных и 5 ветровых электростанций. С начала 2026 года объём энергии, выработанной этими станциями, достиг 1 млрд кВт·ч.

установленной мощностью 5582 МВт, которые вырабатывают «зелёную» энергию

Abstract. This article analyzes the current state of the energy sector of the Republic of Uzbekistan. The main goal of the energy policy for the development of the electric power industry of Uzbekistan for the period up to 2030, determined by the state, is sustainable energy supply for economic growth and improving the quality of life of the population through the use of the existing production, scientific and technical potential of the industry. In the period 2017-2025, 76 thousand kilometers of power transmission lines and 24 thousand transformers were modernized throughout the republic, 787 km of trunk networks, 29.5 thousand km of distribution networks, 9 transformers at main substations, and 10,270 transformer points were completely repaired, 8.6 thousand km of power transmission networks, 2.3 thousand transformer points, and 28 substations were modernized and reconstructed, resulting in improved electricity supply to more than 800 thousand households in 954 districts. Currently, 15 solar and 5 wind power plants are operating in the Republic of Uzbekistan. Since the beginning of 2026, the energy generated by these plants has reached 1 billion kWh.

Kalit so‘z: Energetika, quyosh energetikasi, shamol elektr stansiyasi, tadqiqotlar, elektr energiyasi, iste’mol, tadqiqot, tahlil.

Ключевые слова: Энергетика, солнечная энергетика, ветровая электростанция, исследования, электроэнергия, потребление, исследование, анализ.

Keywords: Energy, solar energy, wind power plant, research, electricity, consumption, research, analysis.

Введение. В настоящее время численность населения во всем мире стремительно растет большими темпами [2]. По данным Национального комитета по статистике в январе 2026 года количество населения Республики Узбекистан составила около 38 млн, а это в свою очередь доказывает, что растёт спрос на электроэнергию [3]. Все это требует искать новые источники энергии [4]. Рост спроса стимулирует стремительное развитие станций на основе альтернативной энергии [5]. Это, в первую очередь, связано с загрязняющим эффектом тепловых станций [6]. Электроэнергетика является базовой отраслью экономики Узбекистана, стратегически важной для государства, поэтому особое внимание уделяется ее развитию. От её состояния и развития зависят соответствующие темпы роста других отраслей хозяйства, стабильность их работы. Электроэнергетика создает предпосылки для применения новых технологий, увеличения производительности труда, обеспечивает наряду с другими факторами современный комфортный уровень жизни прежде всего для населения [1].

Узбекистан в последние годы показывает устойчивый темп роста ВВП на уровне 8,0%. В обозримой перспективе предусматривается сохранение тенденции ежегодного прироста ВВП на достигнутом уровне, с реализацией мер по созданию новых крупных производств, развитию малого и среднего бизнеса, индивидуального предпринимательства, а также транспортной инфраструктуры. Эти обстоятельства потребуют адекватного роста энергопотребления в производственном секторе [1]. К тому же, устойчивый рост численности населения и уровня его доходов приведет к увеличению энергопотребления и в бытовом секторе. Главной целью энергетической политики и высшим приоритетом развития электроэнергетики Узбекистана на период до 2030 года и далее, определяемой государством, является устойчивое энергообеспечение экономического роста и повышение качества жизни населения на основе максимально эффективного использования имеющегося производственного и научно-технического потенциала отрасли. Энергетическая стратегия ставит задачу долгосрочного обеспечения энергетической независимости и безопасности, повышения энергетической эффективности, и снижения воздействия энергетики на окружающую среду. Для решения этих задач требуется разработка и внедрение новых технологий, основанных на научных достижениях, обеспечивающих более безопасную, экологически чистую энергетику [16]

Именно поэтому, наблюдается рост научных исследований по энергетической отрасли [7]. Кроме того, строятся новые станции не сжигающие топлива для борьбы с изменением климата, модернизируются электрические сети и т.д., что и наблюдается на практике [8]. Например, в работе расматривается сушка хлопка с помощью Солнца и исследуется сушильные барабаны [9]. В исследованиях практически была изучена фотоэлектрическая батарея (ФБ), которая была установлена на первой фотоэлектрической станции (ФЭС) [10]. В работе исследованы электрические параметры ФБ под названием HANWHA [15]. В исследовании разработано принципиальная схема, которая позволяет автоматизировать процесс очистки ФБ [16].

В целом, можно отметить, что наблюдается рост исследований в основном по возобновляемой энергетике. Это связано с тем, что в условиях глобального изменения климата одним из решений – электрические станции на основе ВИЭ разной мощности [11].

В климатических условиях Узбекистана в летних месяцах наблюдается жара, а зимой холод с минимальными осадками, особенно за последние годы [12]. Солнечная радиация достигает 2100 кВт·ч/м²·год на севере страны, что доказывает о высоком потенциале фотоэлектрической генерации [13]. Поэтому солнечная энергетика (СЭ) переживает стремительный рост по всей стране, что заметно наблюдается на практике [14].

В последние годы в регионах проводилась масштабная работа по обеспечению потребителей стабильным и качественным электроснабжением. В частности, в период 2017-2025 годов по всей республике было модернизировано 76 тысяч километров линий электропередачи и 24 тысячи трансформаторов. Эти показатели в несколько раз превышают объем работ, проведенных в первые годы независимости, и свидетельствуют о том, что реформы в секторе проводятся на последовательной и систематической основе. В Республике в 2025 году полностью отремонтированные сети: Магистральные сети - 787 км, распределительные сети - 29,5 тыс. км, трансформаторы на главных подстанциях - 9, трансформаторные точки - 10270. Модернизировано и реконструировано: сети электропередачи - 8,6 тыс. км, трансформаторные точки - 2,3 тыс., подстанции – 28, в результате чего улучшилось электроснабжение более 800 тысяч домохозяйств в 954 районах. Работы по дальнейшему совершенствованию и модернизации электросетей будут продолжаться до 2030 года. В рамках этой работы планируется построить около 10 тысяч километров высоковольтных линий электропередачи и 53 крупные подстанции. В результате технические потери сократятся на 5-6 % [17].

С 1 апреля 2023 года по программе «Солнечный дом» за каждый киловатт•час (кВт·ч) энергии, произведенной на ФБ, установленных на принадлежащих физическим лицам объектах, излишки от собственного потребления которой переданы в единую электроэнергетическую систему, выделяется по 1 000 сумов субсидии из Государственного бюджета. Например, в 2025 году 45381 физическое лицо получило субсидии из Государственного бюджета в размере 209 млрд 201 млн сумов за солнечную энергию, переданную в электрические сети. В январе было выработано 8 млрд 228 млн кВт·ч ЭЭ, что на 686 млн кВт·ч, или 9 %, больше по сравнению с аналогичным периодом 2025 года. Поставка: за этот период потребителям республики было поставлено 6 млрд 527 млн кВт·ч ЭЭ. Этот показатель на 313 млн кВт·ч, или 5 %, превышает уровень аналогичного периода 2025 года [17].

С начала 2026 года объём ЭЭ, выработанной солнечными и ветровыми электростанциями, достиг 1 млрд кВт·ч. Следует отметить, что в настоящее время в стране функционируют 15 ФЭС и 5 ветровых электростанций (ВЭС) общей установленной мощностью 5582 МВт, которые вырабатывают «зелёную» энергию. Как известно, в 2022 году, когда в стране началось широкое внедрение ВИЭ, солнечные ФЭС в Навоийской и Самаркандской областях выработали 434 млн кВт·ч ЭЭ, а в 2023 году — 576,9 млн кВт·ч. Если в 2024 году общий объём энергии, выработанной 9 солнечными и 1 ветровой станцией, составил 4 млрд 860 млн кВт·ч, то в 2025 году объём ЭЭ, выработанной всеми ФЭС и ВЭС, достиг 10,5 млрд кВт·ч. С начала 2026 года по состоянию 13 февраля фотоэлектрические станции выработали 396 млн кВт·ч, а ветровые электростанции — 604 млн кВт·ч. в совокупности это составляет 1 млрд кВт·ч ЭЭ. По сравнению с аналогичным периодом 2025 года объём энергии, выработанной солнечными и ВЭС, увеличился на 400 млн кВт·ч (40 %) [17].

На рис.1 приводится показатели выработки энергии электростанциями Узбекистана за последние 10 лет. В 2025 году выработка ЭЭ составила больше относительно 2016 года на 27,7 млрд кВт·ч или 46 %. Согласно анализу международных экспертов, Узбекистан входит в число наиболее энергоемких стран. В частности, почти 50 % конечного

потребления энергии в нашей стране приходится на здания, а расход энергии на квадратный метр в несколько раз выше, чем в европейских странах. В этой связи в



Рис.1. Выработка ЭЭ за 2016-2025 годы

прошлом году было создано отдельное агентство для осуществления системных реформ в области энерго-эффективности. На новую структуру возложена задача по сокращению к 2030 году энергопотребления в экономике как минимум на 20 %, а в государственных учреждениях и социальных организациях – на 15 % [17].

Как видно из графика, тенденция выработки ЭЭ идёт только вверх. Например, в 2026 году было выработано 86,7 млрд кВт·ч энергии, что на 5,2 млрд кВт·ч больше по сравнению с 2025 годом или на 6,38 % [17].




Рис.2. Состояние «зеленой энергетики» Узбекистана от 01.01-08.06.2026 год

Сегодня в нашей стране действуют крупные объекты «зеленой» энергетики общей мощностью 8 ГВт. Из них 5,6 ГВт приходится на солнечные и ветряные станции, а 2,4ГВТ— на ГЭС. «Зеленая» энергия достигла 5 млрд кВт·ч — это на 28% больше, чем за аналогичный период прошлого года (рис.2). По состоянию 8 июня, объем ЭЭ, выработанной солнечными и ВЭС в Узбекистане с начала 2026 года, достиг 5 млрд кВт·ч. В частности, солнечными ФЭС выработано 3 млрд 48 млн кВт·ч, ВЭС— 1 млрд 952 млн кВт·ч, всего 5 млрд кВт·ч ЭЭ. С начала 2026 года объем энергии, произведенной этими электростанциями, увеличился на 1,1 млрд кВт·ч, или на 28% по сравнению с аналогичным периодом 2025 года. В результате достигнута экономия 1,3 млрд кубометров природного газа, предотвращен выброс в атмосферу 2,9 млн тонн вредных веществ. Кроме того, с начала текущего года по состоянию на 8 июня все гидро-, солнечные и ветряные станции Узбекистана выработали 8 млрд 120 млн кВт·ч ЭЭ. В результате: достигнута экономия 2,1 млрд кубометров природного газа, предотвращен выброс в атмосферу более 4,6 млн тонн

вредных веществ. Данный объём энергии соответствует среднему 6-месяочному потреблению 6,6 млн домохозяйств или среднему годовому потреблению 3,3 млн домохозяйств [1]. С участием катарской компании «Nebras Power» в Сырдарьинской, Сурхандарьинской и Навоийской областях реализуются современные энергетические проекты общей мощностью 4 133 МВт. В частности, ведётся строительство тепловых электростанций мощностью 1573 МВт в Сырдарьинской области и 1560 МВт — в Сурхандарьинской области. Также продолжается работа над проектом ветровой станции, которая будет имеет мощность 1 ГВт в Навоийской области [17].

Наряду со строительством ФЭС и ВЭС, в последние годы особое внимание уделяется внедрению систем накопления энергии (СНЭ). Это имеет важное значение для эффективного использования ВИЭ и повышения надёжности электроснабжения. Рост доли ВИЭ требует дальнейшего развития систем накопления энергии. ФЭС вырабатывают ЭЭ преимущественно в дневное время, а ветровые — в зависимости от погодных условий. СНЭ позволяют аккумулировать избыточную ЭЭ и передавать её в сеть в часы максимального потребления. В 2024 году впервые в стране в Ферганской и Андижанской областях были введены в эксплуатацию две системы накопления энергии мощностью по 150 МВт каждая. Их совокупная мощность составила 300 МВт, а энергоёмкость — 600 МВт·ч. В 2025 году были введены в эксплуатацию новые системы накопления энергии общей мощностью 1245 МВт и энергоёмкостью 1600 МВт·ч. В результате на сегодняшний день в энергосистеме Республике Узбекистан функционируют системы накопления энергии общей мощностью 1545 МВт и энергоёмкостью 2600 МВт·ч. Для сравнения: установленная мощность систем накопления энергии уже сегодня превышает 13,5% вечернего максимума нагрузки энергосистемы страны. Иными словами, каждый 8-киловатт ЭЭ, потребляемой в часы вечернего максимума, может обеспечиваться за счёт ранее накопленной энергии [17].

Формирование тарифов осуществляется с учётом принципов поэтапного перехода к рыночным механизмам, включая факторы инфляции, а также затраты на производство, передачу и распределение электроэнергии. В частности, для населения, проживающего в многоквартирных домах и общежитиях, оборудованных централизованными электроплитами для приготовления пищи: до 200 кВт·ч в месяц 325 сумов, от 201 до 500 кВт·ч в месяц 450 сумов, от 501 до 1000 кВт·ч в месяц 550 сумов. Для остальных бытовых потребителей: до 200 кВт·ч в месяц 650 сумов, от 201 до 500 кВт·ч в месяц 900 сумов, от 501 до 1000 кВт·ч в месяц 1100 сумов. Для потребления больших объемов сохраняются тарифы с повышающим коэффициентом. Для всех потребителей природного газа (за исключением отдельных категорий) цена за 1 $м^3$ газа установлена в размере 2000 сумов. Для компрессорных станций заправки автомобилей газом тариф составляет 2750 сумов за 1 кубический метр. Тарифы на природный газ для населения также сохраняются в дифференцированном порядке: в отопительный сезон до 500 кубометров в месяц, в другие сезоны — до 100 кубометров в месяц цена за 1 кубометр газа составляет 1100 сумов [16].

Усложнение геополитической ситуации в мире, нестабильность глобальных энергетических рынков и высокая волатильность цен на топливно-энергетические ресурсы требуют пересмотра подходов к национальной энергетической политике. В этих условиях обеспечение энергетической безопасности, снижение зависимости от внешних факторов и повышение эффективности использования внутренних ресурсов становятся приоритетными задачами. С этой точки зрения изменения в тарифной политике приобретают не только экономическое, но и стратегическое значение, обеспечивая долгосрочную устойчивость развития энергетической системы [1].

Заключение. Таким образом, можно заключить, что электроэнергетика является базовой отраслью экономики Узбекистана, стратегически важной для государства, поэтому

особое внимание уделяется ее развитию. Сегодня в стране действуют крупные объекты «зеленой» энергетики общей мощностью 8 ГВ В настоящее время. В Республике Узбекистан функционируют 15 солнечных и 5 ветровых электростанций. С начала 2026 года объем энергии, произведенной этими электростанциями, увеличился на 28% по сравнению с аналогичным периодом 2025 года. В энергосистеме функционируют системы накопления энергии общей мощностью 1545 МВт и энергоёмкостью 2600 МВт·ч. В 2025 году полностью отремонтированы магистральные сети - 787 км, распределительные сети - 29,5 тыс. км, трансформаторы на главных подстанциях – 9 и трансформаторные точки – 10270. Формирование тарифов осуществляется с учётом принципов поэтапного перехода к рыночным механизмам, включая факторы инфляции, а также затраты на производство, передачу и распределение электроэнергии.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Аллаев К.Р. Электроэнергетика Узбекистана за годы Независимости и перспективы ее развития. Т. Ишонч. 2016, 255 с.

2. Содиков Т.Б. Разработка устройства для очистки фотоэлектрической батареи от пыли // Международный журнал Альтернативная энергетика и экология, № 07 (424), с. 12-20, 2024 год.

3. Т.Б. Содиков, Х.Ф. Зикриллаев. Устройство для очистки оптической поверхности солнечной панели от пыли // Вестник московского энергетического института, № 6, с.68-75, 2024 год.

4. Зикриллаев Х.Ф., Содиков Т.Б. Исследование солнечной панели без системой очистки от пыли // Научно-технический журнал ФерПИ, № 1 (28), с.163-167, 2023 год.

5. Умурзаков А.Х., Мамаджанов А.Б., Содиков Т.Б., Акмалов Ж.Х. Определение оптимальной геометрии лопастей и оценка эффективности гравитационно-вихревой микрогидроэлектростанции с коническим бассейном // Международный журнал Альтернативная энергетика и экология, № 06 (435), с. 79-95, 2025 год.

6. Sodiqov T.B. Исследование параметров фотоэлектрических модулей солнечной фотоэлектрической станции // Строительство и образование, № 4 (5), с.370-375, 2025 год.

7. Содиков Т.Б., Лутфиллаев Н.Ф. Анализ устройств очистки фотоэлектрических модулей от загрязнений // Перспективные исследования в технических и естественных науках: сборник статей международной научной конференции, Великий Новгород, Март. - С.24-28, 2026 год.

8. Содиков Т.Б. Основные критерии для выбора составных частей устройства очистки фотоэлектрических модулей // Строительство и образование, № 4 (5), с.347-353, 2025 год.

9. Набиев М.Я., Содиқов Т.Б. Солнечная сушка хлопка // Экономика и социум, № 12 (79), с.835-838, 2020 год.

10. Kh. Zikrillayev, T.B. Sodiqov. Study of the Structural and Mechanical Part of the Hanwha Solar Panel // Scientific-technical journal of FerPI, № 5 (27), с.146-150, 2023 год.

11. Содиков Т.Б. Автоматизированное устройство для очистки солнечных панелей от пылевых загрязнений // Проблемы энерго-и ресурсосбережения, № 1, с.183-188, 2026 год.

12. Содиков Т.Б., Лутфиллаев Н.Ф. Исследование устройства очистки фотоэлектрических модулей от пыли // Universum: Технические науки, № 2 (143), с.55-58, 2026 год.

13. Содиков Т.Б., Солиев Х.А. Анализ природно-климатических условий Узбекистана // Современное состояние и перспективы инновационного развития науки: сборник статей международной конференции. Сургут, Апрель 2026 год. - с.46-48.

UO‘T: 622.7:622.349.5:504.064

XONDIZA KON BOSHQARMASI TEXNOGEN CHIQINDILARINING KIMYOVIY VA MINERALOGIK TARKIBINI TAHLIL QILISH HAMDA QAYTA ISHLASH ISTIQBOLLARI

Gazibekova Umida Raximovna
ToshDTU 1-kurs tayanch doktaranti
umidagazibekova737@gmail.com

Bekpo’latov Javlon Mustafoquliyevich
ToshDTU t.f.t DSc
bekpulatovzavlon@gmail.com

Abdullayeva Dilnoza Ochilboy qizi
ToshDTU 1-kurs magistranti
dabdullaeva787@gmail

M.M.Maxmudova
Geologiya fanlari universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xondiza kon boshqarmasida hosil bo‘layotgan texnogen chiqindilarning kimyoviy va mineralogik tarkibi o‘rganilgan hamda ularni qayta ishlash istiqbollari baholangan. Tadqiqot davomida chiqindilar tarkibidagi qo‘rg‘oshin, rux, mis va boshqa foydali komponentlarning taqsimlanishi, ularning granulometrik sinflar bo‘yicha joylashuvi hamda mineral shakllari aniqlangan. Natijalar texnogen chiqindilar tarkibida sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan foydali komponentlar sezilarli miqdorda saqlanib qolganligini ko‘rsatdi. Chiqindilarni flotatsiya usulida qayta boyitish orqali qo‘shimcha metall resurslarini ajratib olish imkoniyati mavjudligi asoslandi. Shuningdek, texnogen chiqindilarni qayta ishlashning ekologik va iqtisodiy afzalliklari tahlil qilindi.

Аннотация. В данной статье исследуется химический и минералогический состав техногенных отходов, образующихся на горнодобывающем предприятии в Хондизе, и оцениваются перспективы их переработки. В ходе исследования было определено распределение свинца, цинка, меди и других полезных компонентов в отходах, их локализация по гранулометрическим классам и минеральным формам. Результаты показали, что состав техногенных отходов содержит значительное количество полезных компонентов, имеющих промышленное значение. Обоснована возможность извлечения дополнительных металлических ресурсов путем повторного обогащения отходов флотацией. Также проанализированы экологические и экономические выгоды от переработки техногенных отходов.

Abstract. This article studies the chemical and mineralogical composition of technogenic waste generated at the Khondiza mining department and assesses the prospects for its processing. During the study, the distribution of lead, zinc, copper and other useful components in the waste, their location by granulometric classes and mineral forms were determined. The results showed that a significant amount of useful components of industrial importance were preserved in the composition of technogenic waste. The possibility of extracting additional metal resources by re-enrichment of waste by flotation was substantiated. The environmental and economic benefits of processing technogenic waste were also analyzed.

Kalit so‘zlar: texnogen chiqindi, polimetall ruda, qo‘rg‘oshin, rux, mis, flotatsiya, boyitish, mineralogik tahlil, ikkilamchi xomashyo, ekologik xavfsizlik.

Kirish

So‘nggi yillarda konchilik sanoatida resurslardan kompleks foydalanish, foydali komponentlarni maksimal darajada ajratib olish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Dunyoda mineral xomashyo resurslariga bo‘lgan talabning ortib borishi va yuqori sifatli rudalar zaxirasining kamayishi natijasida texnogen hosilalardan foydalanish muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biriga aylandi.

Polimetall rudalarni qazib olish va boyitish jarayonlarida hosil bo‘ladigan chiqindilar tarkibida ma’lum miqdorda rangli va nodir metallar saqlanib qoladi. Ushbu chiqindilar uzoq yillar davomida to‘planib borishi natijasida katta hajmdagi texnogen konlar shakllanadi. Zamonaviy boyitish texnologiyalari va yangi avlod reagentlaridan foydalanish esa avval iqtisodiy jihatdan samarasiz deb hisoblangan chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini yaratmoqda.

Xondiza kon boshqarmasi O‘zbekiston Respublikasidagi yirik polimetall konlardan biri hisoblanib, asosan qo‘rg‘oshin-rux rudalarini qazib olish va boyitishga ixtisoslashgan. Korxonada uzoq yillar davomida faoliyat yuritilishi natijasida katta hajmdagi texnogen chiqindilar hosil bo‘lgan. Mazkur chiqindilar tarkibini o‘rganish va ulardan qo‘shimcha metall resurslarini ajratib olish imkoniyatlarini baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari


Tadqiqotning asosiy maqsadi Xondiza kon boshqarmasi texnogen chiqindilarining kimyoviy va mineralogik tarkibini o‘rganish, foydali komponentlarning yo‘qotilish sabablarini aniqlash hamda ularni qayta ishlashning istiqbolli texnologik yo‘nalishlarini baholashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- texnogen chiqindilardan reprezentativ namunalar olish;
- chiqindilarning granulometrik tarkibini aniqlash;
- asosiy va yo‘ldosh komponentlarning kimyoviy tarkibini o‘rganish;
- mineralogik tarkibni aniqlash;
- foydali komponentlarning yo‘qotilish sabablarini baholash;
- chiqindilarni qayta ishlashning texnologik imkoniyatlarini tahlil qilish.

Tadqiqot obyekti va usullari

Tadqiqot obyekti sifatida Xondiza kon boshqarmasi chiqindixonalarida saqlanayotgan texnogen chiqindilar tanlandi. Namuna olish ishlari chiqindixonaning turli nuqtalarida, jumladan to‘g‘on qismi, markaziy hudud va chekka zonalarda amalga oshirildi. Bu esa chiqindilar tarkibining hududiy o‘zgaruvchanligini baholash imkonini berdi (1-rasm).



1-rasm. Xondiza kon boshqarmasi texnogen chiqindilarini o‘rganish va qayta ishlashning umumiy texnologik sxemasi.

Namunalarning granulometrik tarkibi elash usuli yordamida, kimyoviy tarkibi laboratoriya tahlillari orqali, mineralogik tarkibi esa mikroskopik va rentgen-fazaviy tahlil usullari asosida o‘rganildi. Olingan natijalar statistik qayta ishlanib, foydali komponentlarning taqsimlanish qonuniyatlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili

Kimyoviy tahlillar natijasida texnogen chiqindilar tarkibida qo‘rg‘oshin, rux va misning sanoat miqyosida qiziqish uyg‘otadigan miqdorlari saqlanib qolganligi aniqlandi. Ayrim namunalarda qo‘rg‘oshin va rux miqdorining nisbatan yuqoriligi boyitish jarayonida foydali komponentlarning to‘liq ajralmaganligini ko‘rsatadi.

Granulometrik tahlillar natijasiga ko‘ra, foydali komponentlarning asosiy qismi mayda zarracha o‘lchamlariga mansub sinflarda jamlangan. Bu holat minerallarning o‘zaro murakkab birikkanligi va boyitish jarayonida to‘liq ochilmaganligi bilan izohlanadi. Mayda fraksiyalarda metallarning ko‘proq to‘planishi qayta boyitish jarayonida qo‘shimcha maydalash va klassifikatsiyalash operatsiyalarining muhimligini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Xondiza kon boshqarmasi texnogen chiqindilarining o‘rtacha kimyoviy tarkibi

Komponent	Miqdori, %
Pb	0,72
Zn	1,48
Cu	0,18
Fe	12,50
S	8,30
SiO_2	48,60
CaO	6,20

Mineralogik tadqiqotlar davomida galenit (PbS), sfalerit (ZnS), xalkopirit ($CuFeS_2$), pirit (FeS_2), markazit hamda ayrim oksidlangan minerallar aniqlangan. Galenit va sfaleritning mavjudligi chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlash istiqbollarini tasdiqlaydi (2-jadval).

Tahlillar natijasida metall yo‘qotilishining asosiy sabablari sifatida quyidagilar aniqlandi:

- rudaning mineralogik tarkibining murakkabligi;
- maydalash darajasining yetarli emasligi;
- flotatsiya reagentlari sarfining optimal tanlanmaganligi;
- klassifikatsiya jarayonlaridagi kamchiliklar;
- texnologik jarayon parametrlarining o‘zgaruvchanligi.

2-jadval


Texnogen chiqindilar tarkibidagi asosiy minerallar

Mineral	Miqdori, %
Galenit (PbS)	3,5
Sfalerit (ZnS)	5,2
Xalkopirit ($CuFeS_2$)	0,8
Pirit (FeS_2)	12,4
Kvars	45,6
Kaltsit	18,7
Boshqa minerallar	13,8

Texnogen chiqindilarni qayta ishlash istiqbollari

Texnogen chiqindilarni qayta ishlashning eng istiqbolli usullaridan biri flotatsion boyitish hisoblanadi. Laboratoriya sinovlari natijalari foydali komponentlarning asosiy qismini flotatsiya usuli yordamida qayta ajratib olish mumkinligini ko‘rsatdi (2-rasm).

Flotatsiya jarayonida kollektiv-selektiv sxemalardan foydalanish yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi (3-rasm). Dastlab kollektiv konsentrat olinib, keyinchalik undan qo‘rg‘oshin va rux konsentratlari selektiv ravishda ajratiladi. Zamonaviy kollektorlar, ko‘pik hosil qiluvchilar va depressor reagentlardan foydalanish ajralish ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin (3-jadval).




2-rasm. Texnogen chiqindilarni flotatsiya usulida qayta boyitish sxemasi.

Bundan tashqari, texnogen chiqindilarni qayta ishlashda gidrometallurgik usullar, bioeritish texnologiyalari va kombinatsiyalashgan boyitish sxemalaridan foydalanish imkoniyatlari ham mavjud. Ushbu texnologiyalar ayniqsa mayda dispers holatdagi metall komponentlarni ajratib olishda samarali hisoblanadi.

Ekologik va iqtisodiy samaradorlik

Texnogen chiqindilarni qayta ishlash nafaqat qo‘shimcha metall resurslarini olish, balki ekologik muammolarni kamaytirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Chiqindixonalarning hajmi qisqarishi natijasida yer resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati ortadi.



3-rasm. Foydali komponentlarning asosiy qismi mayda (-0,074 mm) sinfda to‘planganligi.

Shuningdek, sulfidli minerallarning atmosfera va yer osti suvlari bilan o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan ekologik xavf kamayadi. Bu esa atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish tamoyillarini ta’minlashga xizmat qiladi.

3-jadval

Laboratoriya flotatsiya sinovlari natijalari

Mahsulot	Chiqish, %	Pb ajralishi, %	Zn ajralishi, %
Qo‘rg‘oshin konsentrati	8,4	72,6	15,4
Rux konsentrati	12,7	8,3	68,1
Yakuniy chiqindi	78,9	19,1	16,5

Iqtisodiy jihatdan esa mavjud texnogen chiqindilarni qayta ishlash yangi konlarni o‘zlashtirishga nisbatan kamroq kapital xarajatlarni talab qiladi. Natijada qo‘shimcha metall mahsulotlari olish bilan birga ishlab chiqarish rentabelligini oshirish mumkin bo‘ladi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari Xondiza kon boshqarmasi texnogen chiqindilari tarkibida sanoat ahamiyatiga ega bo‘lgan qo‘rg‘oshin, rux, mis va boshqa foydali komponentlar saqlanib qolganligini ko‘rsatdi. Mineralogik tahlillar galenit, sfalerit, xalkopirit va boshqa sulfidli minerallarning mavjudligini tasdiqladi.

Foydali komponentlarning asosiy qismi mayda granulometrik sinflarda jamlanganligi aniqlanib, ularni qayta boyitish uchun flotatsiya usuli eng samarali texnologik yo‘nalish sifatida baholandi. Zamonaviy reagentlar va optimallashtirilgan texnologik sxemalarni qo‘llash orqali qo‘shimcha metall resurslarini ajratib olish imkoniyati mavjud.

Texnogen chiqindilarni qayta ishlash iqtisodiy samaradorlikni oshirish, mineral resurslardan kompleks foydalanish hamda atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli Xondiza kon boshqarmasi chiqindilarini sanoat miqyosida qayta ishlash bo‘yicha qo‘shimcha texnologik tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov A.A. Foydali qazilmalarni boyitish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020. – 320 b.
2. Qodirov Sh.Q. Polimetall rudalarni boyitish asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 256 b.
3. Xondiza kon boshqarmasining texnologik reglamentlari va ishlab chiqarish hisobotlari. – Boysun, 2020–2025. – Qo‘lyozma materiallari.
4. World Bureau of Metal Statistics. World Metal Statistics Yearbook [Elektron resurs]. – URL: https://www.worldbureauofmetalstatistics.com (murojaat qilingan sana: 18.06.2026).
5. International Lead and Zinc Study Group. Lead and Zinc Statistics [Elektron resurs]. – URL: https://www.ilzsg.org (murojaat qilingan sana: 18.06.2026).
6. Wills B.A., Finch J.A. Wills’ Mineral Processing Technology: An Introduction to the Practical Aspects of Ore Treatment and Mineral Recovery. – 8th ed. – Oxford: Elsevier, 2016. – 498 p.
7. Fuerstenau M.C., Han K.N. Principles of Mineral Processing. – Littleton, CO: Society for Mining, Metallurgy, and Exploration (SME), 2003. – 573 p.
8. Bulatovic S.M. Handbook of Flotation Reagents: Chemistry, Theory and Practice. Vol. 1: Flotation of Sulfide Ores. – Amsterdam: Elsevier, 2007. – 446 p.
9. Wills B.A. Mineral Processing Technology. – 7th ed. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2006. – 444 p.
10. Rao S.R. Resource Recovery and Recycling from Metallurgical Wastes. – Amsterdam: Elsevier, 2006. – 392 p.
11. Lotter N.O., Bradshaw D.J. The status of fine particle recovery by flotation // International Journal of Mineral Processing. – 2010. – Vol. 94. – No. 1–2. – P. 1–10.

UO‘T: 621.315.61:539.216

MIKROELEKTRONIKADA QO‘LLANILADIGAN KO‘P KOMPONENTLI OKSIDLI SHISHA NANOQATLAMLARNING DIELEKTRIK VA ELEKTROFIZIK XOSSALARINI TAHLIL QILISH

Turg‘unov Muslimjon Omonboyevich
Namangan davlat texnika universiteti
bmphddsc1991@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda Bi_2O_3–B_2O_3–SiO_2–ZnO–Al_2O_3–Ta_2O_5–Nb_2O_5–TiO_2 tarkibli ko‘p komponentli oksidli shisha nanoqatlamning elektrofizik xossalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shisha nanoqatlam tarkibidagi oksid komponentlarining dielektrik singdiruvchanlik, elektr o‘tkazuvchanlik, dielektrik yo‘qotishlar, qarshilik va chastotaviy bog‘liqlik kabi xossalarga ta’siri o‘rganiladi. Bi_2O_3 va B_2O_3 shisha hosil qiluvchi hamda modifikatsiyalovchi komponentlar sifatida nanoqatlamning strukturaviy barqarorligini ta’minlasa, Ta_2O_5, Nb_2O_5 va TiO_2 kabi yuqori dielektrik xossaga ega oksidlar materialning elektrofizik parametrlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Shuningdek, ZnO va Al_2O_3 qo‘shimchalari nanoqatlamning elektr mustahkamligi, issiqlikka chidamliligi va strukturaviy bir jinsliligiga ta’sir ko‘rsatadi. Olingan natijalar mazkur tarkibli oksidli shisha nanoqatlamlardan mikroelektronika, optoelektronika, dielektrik qoplamalar va sensor qurilmalarida foydalanish imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi.

Аннотация. В данной работе анализируются электрофизические свойства многокомпонентного оксидного стеклянного нанослоя состава Bi_2O_3–B_2O_3–SiO_2–ZnO–Al_2O_3–Ta_2O_5–Nb_2O_5–TiO_2.

В исследовании рассматривается влияние оксидных компонентов, входящих в состав стеклянного нанослоя, на такие свойства, как диэлектрическая проницаемость, электрическая проводимость, диэлектрические потери, сопротивление и частотная зависимость. Bi_2O_3 и B_2O_3, выступая в качестве стеклообразующих и модифицирующих компонентов, обеспечивают структурную устойчивость нанослоя, тогда как оксиды с высокими диэлектрическими свойствами, такие как Ta_2O_5, Nb_2O_5 и TiO_2, способствуют улучшению электрофизических параметров материала. Кроме того, добавки ZnO и Al_2O_3 оказывают влияние на электрическую прочность, термостойкость и структурную однородность нанослоя. Полученные результаты служат основой для оценки возможности применения оксидных стеклянных нанослоёв данного состава в микроэлектронике, оптоэлектронике, диэлектрических покрытиях и сенсорных устройствах.

Abstract. This work analyzes the electrophysical properties of a multicomponent oxide glass nanolayer with the composition Bi_2O_3–B_2O_3–SiO_2–ZnO–Al_2O_3–Ta_2O_5–Nb_2O_5–TiO_2. The study investigates the influence of oxide components in the glass nanolayer on such properties as dielectric permittivity, electrical conductivity, dielectric losses, resistance, and frequency dependence. Bi_2O_3 and B_2O_3, acting as glass-forming and modifying components, provide structural stability of the nanolayer, while oxides with high dielectric properties, such as Ta_2O_5, Nb_2O_5, and TiO_2, contribute to the improvement of the material’s electrophysical parameters. In addition, ZnO and Al_2O_3 additives affect the dielectric strength, thermal stability, and structural homogeneity of the nanolayer. The obtained results provide a basis for evaluating the possibility of using oxide glass nanolayers of this composition in microelectronics, optoelectronics, dielectric coatings, and sensor devices.

Kalit so‘zlar: ko‘p komponentli oksidli shisha, nanoqatlam, Bi_2O_3, B_2O_3, SiO_2, ZnO, Al_2O_3, Ta_2O_5, Nb_2O_5, TiO_2, elektrofizik xossalar, dielektrik singdiruvchanlik, elektr o‘tkazuvchanlik, dielektrik yo‘qotishlar, shisha struktura, yupqa qatlamlar.

Ключевые слова: многокомпонентное оксидное стекло, нанослой, Bi_2O_3, B_2O_3, SiO_2, ZnO, Al_2O_3, Ta_2O_5, Nb_2O_5, TiO_2, электрофизические свойства, диэлектрическая

проницаемость, электрическая проводимость, диэлектрические потери, структура стекла, тонкие плёнки.

Keywords: multicomponent oxide glass, nanolayer, Bi_2O_3, B_2O_3, SiO_2, ZnO, Al_2O_3, Ta_2O_5, Nb_2O_5, TiO_2, electrophysical properties, dielectric permittivity, electrical conductivity, dielectric losses, glass structure, thin films.

Kirish.

Asosiy tarkibiy qismlarni tanlab olish

Bi_2O_3 - shisha tarkibida og‘ir metall oksidi sifatida qatnashadi. U shishaning zichligini, qutblanuvchanligini va dielektrik singdiruvchanligini oshirishga xizmat qiladi. Mikroelektronika uchun muhim tomoni shundaki, Bi_2O_3 asosidagi shishalar elektronika, sensorlar, germetik qoplamalar va metallizatsiya materiallarida qo‘llanilishi mumkin. Bi_2O_3 asosidagi shishalar qo‘rg‘oshinsiz materiallar uchun muqobil sifatida ham o‘rganiladi. Bi_2O_3 miqdori ortsa, nanoqatlamning dielektrik doimiysi oshishi mumkin. Biroq haddan tashqari ko‘p bo‘lsa, dielektrik yo‘qotishlar va elektr oqish toki ortishi ehtimoli bor B_2O_3 ko‘p komponentli shishalarda asosiy shisha hosil qiluvchi oksidlardan biridir. U shisha tarmog‘ida BO_3 va BO_4 strukturaviy birliklarini hosil qilib, amorf tuzilmani shakllantiradi. Bor oksidli shishalarning strukturasi tarkibdagi modifikatorlar va sintez sharoitlariga kuchli bog‘liq bo‘ladi. B_2O_3 nanoqatlamning bir jinsli, shishasimon va amorf tuzilishini ta’minlaydi. Bu esa elektr qarshilikni oshirish, dielektrik yo‘qotishlarni kamaytirish va yupqa qatlamning barqarorligini yaxshilashga yordam beradi.

SiO_2 - mikroelektronikada eng muhim dielektrik materiallardan biri hisoblanadi. U kondensatorlar, tranzistorlar, izolyatsion qatlamlar va mikromexanik tizimlarda dielektrik hamda izolyator sifatida keng qo‘llaniladi. Yuqori sifatli SiO_2 qatlamlari juda yaxshi elektr izolyatsiya xossalariga ega.

SiO_2 nanoqatlamga yuqori elektr qarshilik, issiqlik barqarorligi va kimyoviy chidamlilik beradi. Lekin SiO_2 ning dielektrik doimiysi nisbatan past bo‘lgani uchun Ta_2O_5, Nb_2O_5 va TiO_2 kabi yuqori dielektrikli oksidlar bilan birga ishlatiladi. SiO_2 MOSFET texnologiyalarida uzoq vaqt asosiy gate-dielektrik bo‘lgan, ammo juda yupqa qatlamlarda tunnellanish oqimi muammosi kuchayadi.

ZnO - yarimo‘tkazgich xossaga ega oksid bo‘lib, elektronika, optoelektronika, sensorlar, fotodetektorlar va yupqa qatlamli qurilmalarda qo‘llaniladi. Uning keng taqiqlangan zona energiyasi va yaxshi elektron harakatchanligi uni funksional oksid materiali sifatida muhim qiladi.

ZnO nanoqatlamning elektr o‘tkazuvchanligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. U kichik miqdorda strukturani modifikatsiya qilib, qatlam zichligi va bir jinsliligini yaxshilashi mumkin. Ammo ZnO yarimo‘tkazgich tabiatga ega bo‘lgani sababli uning miqdori ortib ketsa, oqish toki va dielektrik yo‘qotishlar oshishi mumkin.

Al_2O_3 - dielektrik material sifatida mikroelektronikada muhim ahamiyatga ega. U yupqa qatlamlarda oqish tokini kamaytirish, buzilish kuchlanishini oshirish va qatlam barqarorligini yaxshilash uchun qo‘llaniladi. Al_2O_3 qo‘shilgan kompozit dielektrik qatlamlarda yuqori sig‘im, past oqish toki va yaxshi integratsiyalanish imkoniyati qayd etilgan.

Al_2O_3 nanoqatlamning elektr mustahkamligini oshiradi, dielektrik yo‘qotishlarni kamaytiradi va issiqlikka chidamliligini yaxshilaydi. U SiO_2 bilan birgalikda shisha tarmog‘ini mustahkamlovchi komponent sifatida ham ishlaydi.

Ta_2O_5 - yuqori dielektrik doimiyga ega oksid bo‘lib, mikroelektronikada yupqa dielektrik qatlam, gate oxide, izolyatsion qatlam va DRAM kondensatorlarida sig‘imni oshirish uchun qo‘llaniladi. Uning yuqori dielektrik doimiysi, yuqori sinish ko‘rsatkichi va past optik yutilishi muhim xossalardan hisoblanadi.

Ta_2O_5 nanoqatlamning umumiy dielektrik singdiruvchanligini oshiradi. Bu mikroelektronik kondensatorlar va izolyatsion qatlamlar uchun foydali. Biroq kislorod vakansiyalari paydo bo‘lsa, oqish toki ortishi va qatlamning dielektrik sifati pasayishi mumkin.

Nb_2O_5 - ham yuqori dielektrikli oksidlar guruhiga kiradi. Uning xossalari kristall fazasiga va hosil qilish texnologiyasiga bog‘liq. Nb_2O_5 yupqa qatlamlari sol-gel, sputtering, CVD, ALD va boshqa usullar bilan olinishi mumkin. Ayrim fazalarida dielektrik doimiysi juda yuqori bo‘lishi qayd etilgan.

Nb_2O_5 nanoqatlamda qutblanish jarayonlarini kuchaytiradi va dielektrik singdiruvchanlikni oshiradi. U Ta_2O_5 va TiO_2 bilan birgalikda yuqori sig‘imli dielektrik qatlam hosil qilishga xizmat qiladi. Biroq strukturaviy nuqsonlar va fazaviy o‘zgarishlar dielektrik yo‘qotishlarga ta’sir qilishi mumkin.

TiO_2 - yuqori dielektrik doimiyga ega oksid bo‘lib, nanoqatlamning sig‘im va qutblanish xossalarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. TiO_2 yupqa qatlamlari DRAM kondensatorlari va yuqori dielektrikli qatlamlar uchun istiqbolli material sifatida o‘rganilgan.

TiO_2 dielektrik singdiruvchanlikni oshiradi, lekin u kislorod vakansiyalari yoki nuqsonlar mavjud bo‘lganda oqish tokini ham kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun TiO_2 miqdori va qatlam olish sharoiti ehtiyotkorlik bilan tanlanadi.

Tarkibi va foizlarini optimal tanlov usuli bilan quydagicha olinadi. o**ksidlarning roliga qarab, dastlabki tarkibni mol foiz (%) bo’yicha tanlab massa foiz (%) ga o‘tkaziladi, va 100% ga normallashtirildi va quydagicha izohlanadi.**

$$W_i = \frac{N_i M_i}{\sum(N_j M_i)}\ 100\% \quad (1)$$

W_i—komponentning massa foizi, N_I - moddaning mol miqdori,M_i-moddaning molyar massasi, $(\frac{g}{mol})$ $\sum(N_j M_i)$-komponentning umumiy massasi,

Aralashmaning o‘rtacha molyar massasi quyidagicha aniqlanadi

$$M = \frac{\sum_{i-1}^{n} N_i M_i}{\sum_{i-1}^{n} N_i} \quad (2)$$

Agar tarkib mol foizda berilgan bo‘lsa:

$$M = \frac{x_1 M_1 + x_2 M_2 + \cdots + x_n M_n}{100} \quad (3)$$

bu yerda: x_i— komponentning mol foizi, %; $\bar{M}$— aralashmaning o‘rtacha molyar massasi, g/mol.

Bu formula aralashmaning umumiy molekulyar-og‘irlik tavsifini baholashda ishlatiladi.

Komponentlarning massa ulushi va zichliklari ma’lum bo‘lsa, aralashmaning nazariy zichligi quyidagicha hisoblanadi:

$$\rho_{naz} = \frac{100}{\sum_{i-1}^{n} \frac{W_i}{\rho_I}} \quad (4)$$

Bu yerda: ρ_{naz}— aralashmaning nazariy zichligi, g/cm³; W_i— komponentning massa foizi, %; ρ_i— alohida oksidning zichligi, g/cm³. Bi_2O_3, Ta_2O_5 va Nb_2O_5 kabi og‘ir oksidlar miqdori ortishi bilan odatda zichlik oshadi.

1-Jadval

Bi_2O_3–B_2O_3–SiO_2–ZnO–Al_2O_3–Ta_2O_5–Nb_2O_5–TiO_2. Aralashmali komponentlarnig massa ulishi xisobida tayyorlash usuli					
№	Komponent	Nomi	Vazifasi	Massa ulishi 100 %	100 gr namuna uchun
1	Bi_2O_3	Vismut 3 oksid	Dielektrik singdiruvchanlikni oshiradi, shisha zichligini yaxshilaydi	35%	35 gr

2	B_2O_3	Bor oksid	Shisha hosil qiluvchi asosiy komponent	20%	20 gr
3	SiO_2	Kremniy dioksid	Shisha tarmog‘ini mustahkamlaydi, elektr izolyatsiyani oshiradi	15%	15 gr
4	ZnO	Rux oksid	Strukturani barqarorlashtiradi, elektrofizik xossalarga ta’sir qiladi	8%	8 gr
5	Al_2O_3	Alyuminiy oksid	Issiqlikka chidamlilik va elektr mustahkamlikni oshiradi	5%	5 gr
6	Ta_2O_5	Tantal oksid	Yuqori dielektrik xossa beradi	6%	6 gr
7	Nb_2O_5	Niobiy oksid	Dielektrik singdiruvchanlikni oshiradi	6%	6 gr
8	TiO_2.	Titan dioksid	Qutblanish va dielektrik xossalarni yaxshilaydi	5%	5 gr

Ushbu formulalar yordamida tanlangan mol foiz tarkib avval massa foizga aylantiriladi, so‘ng aralashmaning o‘rtacha molyar massasi, nazariy zichligi, molyar hajmi va kislorod qadoqlanish zichligi hisoblanadi. Bu kattaliklar Bi_2O_3–B_2O_3–SiO_2–ZnO–Al_2O_3–Ta_2O_5–Nb_2O_5–TiO_2 sistemasidagi shisha yoki keramika materialining strukturaviy va fizik xossalarini oldindan baholash imkonini beradi.



1-rasm. Analitik tarozi




2-rasm. Boshlang‘ich oksid komponentlari




3-rasm. Planetar sharli tegirmon



4-rasm. Qizdirish pechi



5-rasm. Komponentning qotishma moy massasi M va nazariy zichlik ρ ga bog‘liqlik grafigi



6-rasm. Komponentning vaqt va nazariy zichlikka uch o‘lchovli bog‘liqlik grafigi


$$M = \sum_{i=1}^{n} x_i M_i \quad (5)$$

Bu yerda: $\bar{M}$— aralashmaning o‘rtacha molyar massasi, x_i— i-komponentning mol ulushi, M_i— i-komponentning molyar massasi.

Vaqt va nazariy zichlik orasidagi bog‘liqlikgi

$$\rho(t) = \rho_0 + kt \quad (6)$$

Bu yerda: $\rho(t)$— vaqtga bog‘liq nazariy zichlik, ρ_0— boshlang‘ich zichlik, k— zichlikning vaqt bo‘yicha o‘zgarish koeffitsiyenti, t— vaqt.



7-rasm. Bi_2O_3–B_2O_3–SiO_2–ZnO–Al_2O_3–Ta_2O_5–Nb_2O_5–TiO_2 oksidli aralashma tizimida komponent konsentratsiyasi, o‘rtacha molyar massa va nazariy zichlik orasidagi uch o‘lchovli bog‘lanish grafigi.

Komponent konsentratsiyasi, molyar massa va nazariy zichlik orasidagi umumiy bog‘liqlikgi quyidagicha.

$$\rho = \frac{\sum_{i=1}^{n} x_i M_i}{\sum_{i=1}^{n} x_i V_i} \quad (7)$$

Bu yerda: ρ— nazariy zichlik, x_i— komponentning mol ulushi, M_i— komponentning molyar massasi, V_i— komponentning molyar hajmi.

Jadvaldagi oksidlar tarkibi mol foiz asosida tanlanib, ularning molyar massalari orqali massa foizga o‘tkazildi. Nazariy zichlik esa komponentlarning mol ulushi, molyar massasi va molyar hajmi orasidagi bog‘lanish asosida baholandi

Ushbu grafiklarda ko‘p komponentli oksidli aralashma tarkibida komponentlarning molyar massasi, vaqt va konsentratsiya ortishi bilan nazariy zichlikning izchil oshib borishi ko‘rsatilgan. Bi_2O_3–B_2O_3–SiO_2–ZnO–Al_2O_3–Ta_2O_5–Nb_2O_5–TiO_2 tizimida og‘ir va yuqori dielektrikli oksidlar ulushi zichlikning ortishiga asosiy hissa qo‘shadi. Grafiklar aralashma tarkibini optimallashtirishda molyar massa va komponent konsentratsiyasini muhim parametr sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi. Vaqt bo‘yicha zichlikning ortishi nanoqatlam shakllanish jarayonida strukturaviy zichlashuv sodir bo‘lishini ifodalaydi. Umuman, ushbu bog‘lanishlar mikroelektronika uchun barqaror, zich va yuqori dielektrik xossali oksidli nanoqatlam olish imkoniyatini asoslaydi.

2-jadval

Ko‘p komponentli oksidli aralashma nanoqatlam tarkibining o‘rtacha molyar massa va nazariy zichlik bilan bog‘liqligi

№	Komponent	Komponent konsentratsiyasi, C (100 %)	Ortacha molyar massasi	vaqt (min)	Nazariy zichligi g/sm^3
1	Bi_2O_3	10	100	10	5.50
2	B_2O_3	20	150	20	5.75
3	SiO_2	30	200	30	6.0
4	ZnO	40	250	40	6.25

5	Al_2O_3	50	300	50	6.50
6	Ta_2O_5	60	350	60	6.75
7	Nb_2O_5	70	400	70	7.00
8	TiO_2.	80	450	80	7.25

Jadval izohi: grafiklardan ko‘rinadiki, komponent konsentratsiyasi, o‘rtacha molyar massa va vaqt ortishi bilan nazariy zichlik ham bosqichma-bosqich ortib boradi. Bu holat ko‘p komponentli Bi_2O_3–B_2O_3–SiO_2–ZnO–Al_2O_3–Ta_2O_5–Nb_2O_5–TiO_2 oksidli shisha nanoqatlam tizimida og‘ir metall oksidlari va yuqori dielektrikli komponentlar ulushi ortishi natijasida qatlam zichligi va funksional dielektrik xossalari kuchayishini ko‘rsatadi

XULOSA

Umumiy qilib aytganda, Bi_2O_3–B_2O_3–SiO_2–ZnO–Al_2O_3–Ta_2O_5–Nb_2O_5–TiO_2 tarkibli ko‘p komponentli oksid tizimi mikroelektronika uchun istiqbolli dielektrik nanoqatlam materiali sifatida qaraladi. Ushbu tizimda B_2O_3 va SiO_2 shishasimon amorf matritsani shakllantirib, qatlamning elektr qarshiligi, kimyoviy va termik barqarorligini ta’minlaydi. Bi_2O_3, Ta_2O_5, Nb_2O_5 va TiO_2 kabi yuqori qutblanuvchan hamda yuqori dielektrikli oksidlar nanoqatlamning dielektrik singdiruvchanligi va sig‘im xossalarini oshirishga xizmat qiladi. Al_2O_3 esa qatlamning elektr mustahkamligini kuchaytirib, oqish toki va dielektrik yo‘qotishlarni kamaytiruvchi barqarorlashtiruvchi komponent vazifasini bajaradi. ZnO kichik miqdorda tuzilmani modifikatsiyalab, qatlam zichligi va bir jinsliligini yaxshilashi mumkin.

Tarkibni mol foiz asosida tanlab, massa foizga o‘tkazish va 100% ga normallashtirish oksidlarning real texnologik ulushlarini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, yuqori dielektrik xossaga ega komponentlar miqdorini haddan tashqari oshirish kislorod vakansiyalari, strukturaviy nuqsonlar, oqish toki va dielektrik yo‘qotishlarning ko‘payishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun optimal tarkibni tanlashda dielektrik singdiruvchanlik, elektr qarshilik, oqish toki, amorflik, termik barqarorlik va fazaviy muvozanat birgalikda hisobga olinishi zarur. Natijada mazkur oksidlar tizimi yuqori sig‘imli, past yo‘qotishli, qo‘rg‘oshinsiz va mikroelektronik qurilmalar bilan moslasha oladigan funksional dielektrik nanoqatlam yaratish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Vlasov, S. I., Parchinskii, P. B., Olmatov, B. A. Electronic density of states at the interface between silicon and lead borosilicate glass. // Inorganic Materials, 2000. Vol. 36. pp. 502–503. DOI: 10.1007/BF02758057.
2. Zhereb, V. P., Babitskiy, N. A., Bermeshev, T. V., Shubin, A. A., Sidorak, A. V. Glass Formation in the Bi_2O_3–B_2O_3. Thermal Stability and Glass Structure. // Journal of Siberian Federal University. Chemistry, 2014. Vol. 7, No. 3. pp. 371–382.
3. Gerth, K., Rüssel, C. Crystallization of Bi_3TiNbO_9 from glasses in the system Bi_2O_3/TiO_2/Nb_2O_5/B_2O_3/SiO_2. // Journal of Non-Crystalline Solids, 1999. Vol. 243, No. 1. pp. 52–60. DOI: 10.1016/S0022-3093(98)00808-4.
4. Oprea, I. I., Hesse, H., Betzler, K. Optical properties of bismuth borate glasses. // Optical Materials, 2004. Vol. 26, No. 3. pp. 235–237. DOI: 10.1016/j.optmat.2003.10.006.
5. Becker, P. Thermal and optical properties of glasses of the system Bi_2O_3–B_2O_3. // Crystal Research and Technology, 2003. Vol. 38, No. 1. pp. 74–82. DOI: 10.1002/crat.200310009.
6. Fredericci, C., Yoshimura, H. N., Molisani, A. L., Fellegara, H. Effect of TiO_2 addition on the chemical durability of Bi_2O_3–SiO_2–ZnO–B_2O_3 glass system. // Journal of Non-Crystalline Solids, 2008. Vol. 354. pp. 4777–4785. DOI: 10.1016/j.jnoncrysol.2008.04.026.
7. Ferlat, G., Seitsonen, A. P., Lazzeri, M., Mauri, F. Hidden polymorphs drive vitrification in B_2O_3. // Nature Materials, 2012. Vol. 11, No. 11. pp. 925–929. DOI: 10.1038/nmat3416.
8. Lelong, G., Cormier, L., Hennet, L., Michel, F., Rueff, J.-P., Ablett, J. M., Monaco, G. Lithium borate crystals and glasses: How similar are they? A non-resonant inelastic X-ray

scattering study around the B and O K-edges. // Journal of Non-Crystalline Solids, 2017. Vol. 472. pp. 1–8. DOI: 10.1016/j.jnoncrysol.2017.06.012.

9. Egorysheva, A. V., Volodin, V. D., Skorikov, V. M. Glass formation in the Bi_2O_3–B_2O_3–BaO system. // Inorganic Materials, 2008. Vol. 44, No. 11. pp. 1261–1265. DOI: 10.1134/S0020168508110228.

10. Plekhovich, A. D., Kut'in, A. M., Rostokina, E. E., Komshina, M. E., Balueva, K. V., Ignatova, K. F., Shiryaev, V. S. Controlled crystallization of BaO–B_2O_3–Bi_2O_3 glass in the temperature range of a supercooled melt in the presence of additional nucleation centers. // Journal of Non-Crystalline Solids, 2022. Vol. 588. Article 121629. DOI: 10.1016/j.jnoncrysol.2022.121629.

11. Maeder, T. Review of Bi_2O_3 based glasses for electronics and related applications. // International Materials Reviews, 2013. Vol. 58, No. 1. pp. 3–40. DOI: 10.1179/1743280412Y.0000000010.

12. Gerth, K., Rüssel, C. Crystallization of $Bi_4Ti_3O_{12}$ from glasses in the system Bi_2O_3/TiO_2/B_2O_3. // Journal of Non-Crystalline Solids, 1997. Vol. 221, No. 1. pp. 10–17. DOI: 10.1016/S0022-3093(97)00306-2.

13. Gu, Q. B., Ni, J. M. Preparation and Analysis of Doped TiO_2 in the Bi_2O_3–SiO_2–ZnO–B_2O_3 Low-Melting Sealing Glasses. // Key Engineering Materials, 2012. Vol. 509. pp. 308–313. DOI: 10.4028/www.scientific.net/KEM.509.308.

14. Sangwaranatee, N., Cheewasukhanont, W., Limkitjaroenporn, P., Borisut, P., Wongdamnern, N., Khrongchaiyaphum, F., Kothan, S., Kaewkhao, J. Development of bismuth alumino borosilicate glass for radiation shielding material. // Radiation Physics and Chemistry, 2021. Vol. 186. Article 109542. DOI: 10.1016/j.radphyschem.2021.109542.

15. Do Trung Kien, K., Huynh, N. M., Nguyen, V. U. N., Do, Q. M. The Photocatalytic Activity of the Bi_2O_3–B_2O_3–ZnO–TiO_2 Glass Coating. // Materials Science, 2024. Vol. 30, No. 1. pp. 65–70. DOI: 10.5755/j02.ms.34733.

16. Sodiqov T.B. Исследование параметров фотоэлектрических модулей солнечной фотоэлектрической станции // Строительство и образование, № 4 (5), с.370-375, 2025 год.

17. Содиков Т.Б. Основные критерии для выбора составных частей устройства очистки фотоэлектрических модулей // Строительство и образование, № 4 (5), с.347-353, 2025 год.

UO‘T: 622.271:621.396:614.89

KARYER SHAROITIDA ISHCHILAR UCHUN KASKAGA INTEGRATSIYALANGAN AQLLI ALOQA TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

D.A.Sulxonov
Olmaliq davlat texnika instituti “Konchilik” fakulteti “Konchilik ishi” kafedrasi 1-bosqich 3M-25FQKQ guruh magistranti,
sulxonovdiyorbek2@gmail.com

J.J. Normurodov
Olmaliq davlat texnika instituti “Konchilik” fakulteti “Konchilik ishi” kafedrasi 1-bosqich 3M-25FQKQ guruh magistranti,
jasurbeknormurodov24@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ochiq kon korxonalarida ishlovchi xodimlar uchun kaskaga integratsiyalangan aqlli aloqa tizimini ishlab chiqish masalalari ko‘rib chiqilgan. Karyer sharoitida og‘ir texnikalar faoliyati natijasida yuzaga keladigan yuqori shovqin darajasi, an’anaviy ratsiya vositalarining ergonomik kamchiliklari va aloqa sifati bilan bog‘liq muammolar tahlil qilindi. Taklif etilayotgan tizim mini aloqa moduli, shovqinni filtrlovchi raqamli signal qayta ishlash texnologiyasi, bir quloqli audio uzatish tizimi va energiya tejamkor boshqaruv modullaridan tashkil topgan. Tizimning funksional imkoniyatlari baholanib, uning ishlab chiqarish xavfsizligi va mehnat unumdorligini oshirishdagi afzalliklari asoslab berildi.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы разработки интеллектуальной системы связи, интегрированной в защитную каску работников открытых горных предприятий. Проведен анализ проблем высокого уровня производственного шума, возникающего в результате работы тяжелой карьерной техники, а также эргономических недостатков традиционных радиостанций и ограничений качества связи в условиях карьера. Предлагаемая система включает миниатюрный коммуникационный модуль, технологию цифровой обработки сигналов (DSP) для подавления шума, одностороннюю аудиосистему передачи голосовых сообщений и энергоэффективные модули управления. Выполнена оценка функциональных возможностей системы и обоснованы ее преимущества с точки зрения повышения промышленной безопасности, оперативности производственных коммуникаций и производительности труда.

Abstract. This article examines the development of a smart communication system integrated into the safety helmets of personnel working at open-pit mining operations. The study analyzes challenges associated with high noise levels generated by heavy mining equipment, as well as the ergonomic limitations of conventional two-way radio systems and communication quality issues under open-pit mining conditions. The proposed system consists of a compact communication module, Digital Signal Processing (DSP)-based noise filtering technology, a single-ear audio transmission system, and energy-efficient control units. The functional capabilities of the system are evaluated, and its advantages in enhancing occupational safety, operational communication efficiency, and workforce productivity are substantiated.

Kalit so‘zlar: aqlli kaska, konchilik sanoati, sanoat xavfsizligi, raqamli aloqa, DSP texnologiyasi, shovqinni filtrlash, ochiq kon.

Ключевые слова: интеллектуальная каска, горнодобывающая промышленность, промышленная безопасность, цифровая связь, технология DSP, шумоподавление, открытые горные работы, карьер

Keywords: smart safety helmet, mining industry, industrial safety, digital communication, Digital Signal Processing (DSP), noise suppression, open-pit mining, quarry operations.

KIRISH

Bugungi kunda konchilik sanoati dunyo iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sanoatning jadal rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, raqamlashtirish hamda mehnat xavfsizligini yangi bosqichga olib chiqishni talab etmoqda. Ayniqsa, ochiq kon korxonalarida ishlovchi xodimlarning xavfsizligini ta’minlash va ularning o‘zaro tezkor muloqotini tashkil etish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ochiq konlarda ekskavatorlar, avtoag‘dargichlar, burg‘ulash qurilmalari, maydalash komplekslari va boshqa yirik texnikalar faoliyati natijasida 90–120 dB gacha bo‘lgan kuchli shovqin hosil bo‘ladi. Bunday sharoitda ishchilar o‘rtasida axborot almashish qiyinlashadi, bu esa baxtsiz hodisalar xavfini oshiradi hamda ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliyotda foydalanilayotgan portativ ratsiyalar aloqa muammosini qisman hal qilsa-da, ular bir qator kamchiliklarga ega. Xususan, ratsiyalarni qo‘lda ushlab ishlatish zarurati, yuqori shovqin sharoitida ovoz sifati pasayishi, qurilmaning og‘irligi va doimiy xizmat ko‘rsatish ehtiyoji ishchilarga noqulaylik tug‘diradi. Shu sababli zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan aqlli himoya vositalariga ehtiyoj ortib bormoqda.

So‘nggi yillarda “Smart Mining” va “Industry 4.0” konsepsiyalari doirasida aqlli kaskalar, sensorli monitoring tizimlari hamda sun’iy intellekt asosidagi aloqa vositalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ishlanmalar ishlab chiqarish jarayonlarini yanada xavfsiz va samarali tashkil etishga xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aqlli himoya vositalarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar asosan qurilish, neft-gaz va konchilik sanoatlarida olib borilgan. Singh tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda kon korxonalarida yuz beradigan ko‘plab baxtsiz hodisalarning asosiy sabablaridan biri ishchilar o‘rtasidagi aloqa uzilishlari ekanligi qayd etilgan. Muallif zamonaviy simsiz aloqa vositalaridan foydalanish xavfli vaziyatlarni kamaytirishga yordam berishini ta’kidlaydi. Zhao tomonidan ishlab chiqilgan aqlli kaska tizimida GPS moduli, simsiz aloqa vositalari va favqulodda ogohlantirish tizimi birlashtirilgan bo‘lib, u ishlab chiqarish hududida ishchilar harakatini kuzatish imkonini beradi.

Lee tadqiqotlarida esa kiyib yuriladigan texnologiyalar yordamida xodimlarning joylashuvi, harakat faolligi va sog‘liq ko‘rsatkichlarini monitoring qilish imkoniyatlari o‘rganilgan. Biroq mazkur ishlanmalarning aksariyatida yuqori shovqinli kon muhitida aloqa sifatini oshirish masalasi yetarlicha tadqiq qilinmagan.

Shuningdek, Kumar tomonidan sanoat muhitida shovqinni kamaytirish algoritmlari tahlil qilinib, DSP texnologiyalari yordamida inson nutqini fon shovqinidan ajratib olish samaradorligi isbotlangan. Mazkur natijalar konchilik sanoati uchun maxsus aloqa tizimlarini yaratishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

TADQIQOT OBYEKTI VA MAQSADI

Tadqiqot obyekti sifatida ochiq kon korxonalarida ishlovchi operatorlar, ekskavator mashinistlari va yordamchi ishchilar tanlandi. Tadqiqot maqsadi – yuqori shovqin sharoitida ham samarali ishlovchi, ergonomik va xavfsiz aqlli aloqa tizimi konsepsiyasini ishlab chiqish hamda uning texnik afzalliklarini baholashdan iborat.

Taklif etilayotgan aqlli aloqa tizimi quyidagi asosiy qismlardan iborat:

1. Kaska korpusiga o‘rnatiladigan aloqa moduli;
2. Simsiz uzatish bloki;
3. DSP asosidagi shovqinni filtrlash tizimi;
4. Bir quloqli audio eshitish qurilmasi;
5. Yo‘naltirilgan mikrofon;
6. Litiy-ion akkumulyator;

7. Favqulodda ogohlantirish moduli.




O'rtacha		Aloqa sifati	Yuqori
Qo'lda ushlash kerak		Foydalanish qulayligi	Avtomatik, qo'llar bo'sh
8–10 soat		Batareya ishlash vaqti	12–16 soat
Cheklangan (0,5–1 km)		Aloqa masofasi	1–3 km
Yo'q		Favqulodda ogohlantirish	Mavjud
O'rtacha		Himoya darajasi	Yuqori (IP67)
Qo'shimcha uskuna talab qiladi		Ergonomika	Kaskaga integratsiyalangan

1-rasm. An'anaviy turdagi va taklif etilayotgan ratsiya tizimi.

Tizimning ishlash prinsipi quyidagicha: operator tomonidan uzatilgan ovoz signal protsessoriga keladi, fon shovqinlari filtrlab tashlanadi va tozalangan signal qabul qiluvchi qurilmaga uzatiladi.

2-rasm. Kon ishchisining bosh kiyimiga integratsiyalashgan aqlli aloqa tizimining srukturaviy sxemasi.



METODIKA

Tizimni loyihalash jarayonida tizimli tahlil, texnik modellashtirish va qiyosiy baholash usullaridan foydalanildi. Aloqa tizimining ishlash prinsipi quyidagicha amalga oshiriladi. Ishchi tomonidan uzatilgan ovoz signali mikrofon orqali qabul qilinadi va DSP protsessoriga yuboriladi. Signalni qayta ishlash jarayonida fon shovqinlari filtrlanadi, inson nutqi ajratib olinadi hamda tozalangan ma'lumot simsiz aloqa kanali orqali boshqa foydalanuvchiga uzatiladi.

DSP algoritmlari yordamida:

- fon shovqinlari kamaytiriladi;
- aks sado (echo) bartaraf etiladi;
- nutq aniqligi oshiriladi;
- signal uzatish sifati yaxshilanadi.

Tizim samaradorligini baholash uchun quyidagi mezonlar qabul qilindi:

- xabarni qabul qilish aniqligi;
- shovqinni kamaytirish darajasi;
- aloqa o‘rnatish vaqti;
- qurilmaning ishlash davomiyligi;
- foydalanuvchi qulayligi.

Ko‘rsatkich	Qiymat
Ishlash masofasi	1-3 km
Batareya quvvati	2500 mAh
Ishlash vaqti	12-16 soat
Shovqin filtrlashi	25-35 dB
Ulanish turi	Simsiz
Himoya darajasi	IP67

1-jadval. Tizimning texnik parametrlari

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, DSP algoritmlaridan foydalanish natijasida inson nutqining aniqligi sezilarli darajada oshadi. Shuningdek, tizimning kaskaga integratsiyalanganligi ishchining qo‘shimcha qurilmalarni olib yurish ehtiyojini kamaytiradi.

Tizim yordamida dispetcher va ishchilar o‘rtasida uzluksiz aloqa o‘rnatish mumkin bo‘lib, favqulodda vaziyatlarda tezkor xabar uzatish imkoniyati yaratiladi. Bu esa ishlab chiqarish xavfsizligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

ILMIY YANGILIK

Tadqiqotning ilmiy yangiligi konchilik korxonalarida foydalanish uchun maxsus ishlab chiqilgan kaskaga integratsiyalangan bir quloqli aqlli aloqa tizimi konsepsiyasini taklif etishdan iborat. Tizimda ishchi tashqi ogohlantirish signallarini eshitish imkoniyatini saqlab qolgan holda yuqori sifatli aloqadan foydalanadi.

Taklif etilgan tizim:

-baxtsiz hodisalar xavfini kamaytiradi;
-aloqa tezligini oshiradi;
- ish unumdorligini yaxshilaydi;
- ratsiya olib yurish zaruratini kamaytiradi;
- raqamli kon konsepsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Ochiq kon korxonalarida xavfsiz va uzluksiz aloqa tizimini tashkil etish ishlab chiqarish samaradorligi hamda mehnat xavfsizligini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, an'anaviy ratsiya qurilmalaridan foydalanish yuqori shovqinli ishlab chiqarish muhitida aloqa sifati pasayishiga, xabarlarning to‘liq qabul qilinmasligiga va ish jarayonida vaqt yo‘qotilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Taklif etilgan

kaskaga integratsiyalangan aqlli aloqa tizimi ishchilarga qo‘llarini band qilmagan holda tezkor muloqot qilish imkonini yaratadi. Shovqinni raqamli filtrlash texnologiyasi yordamida inson nutqining aniqligi oshiriladi hamda ishlab chiqarish hududidagi muhim ogohlantirish signallarini eshitish imkoniyati saqlab qolinadi.

Taklif etilgan kaskaga integratsiyalangan aqlli aloqa tizimi ishchilarga qo‘llarini band qilmagan holda tezkor muloqot qilish imkonini beradi. DSP asosidagi shovqinni filtrlash texnologiyasi yordamida inson nutqining aniqligi oshiriladi va ishlab chiqarish hududidagi muhim ogohlantirish signallarini eshitish imkoniyati saqlanib qoladi.

Mazkur tizimni joriy etish natijasida:

- baxtsiz hodisalar xavfi kamayadi;
- aloqa sifati yaxshilanadi;
- ish unumdorligi oshadi;
- mehnat muhofazasi talablarini bajarish samaradorligi ortadi;
- “aqlli kon” konsepsiyasini rivojlantirish uchun texnologik asos yaratiladi.

Natijada aloqa sifati yaxshilanib, ishlarni muvofiqlashtirish samaradorligi ortadi va xavfli vaziyatlarga tezkor munosabat bildirish imkoniyati kengayadi. Shuningdek, mazkur tizim konchilik korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, mehnat muhofazasi talablarini takomillashtirish va zamonaviy “aqlli kon” konsepsiyasini rivojlantirish uchun istiqbolli yechimlardan biri hisoblanadi. Kelgusida qurilmaning tajriba namunalarini ishlab chiqish, sanoat sinovlarini o‘tkazish hamda sun’iy intellekt asosidagi ovozli boshqaruv funksiyalarini qo‘shish orqali tizimning imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Singh, R. Mining Safety and Communication Systems. Springer, 2022.
2. Zhao, Y. Smart Industrial Helmet Technologies. Elsevier, 2021.
3. OSHA Industrial Noise Standards Manual, 2023.
4. Smith, J. “Wireless Communication in Surface Mining”, International Journal of Mining Science, 2020.
5. Ahmedov Q.X. Konchilik korxonalarida mehnat xavfsizligi. Toshkent, 2021.
6. IEC 60529: Degrees of Protection Provided by Enclosures (IP Code).
7. Kumar, P. “Noise Filtering Algorithms in Industrial Environments”, 2022.
8. Lee, D. Wearable Technologies in Mining Industry. CRC Press, 2023.
9. ISO 45001 Occupational Health and Safety Management Systems.
10. Mirzayev A.A. Konchilikda raqamli texnologiyalar. Toshkent, 2024.

UO'T 69.05:331.45:004.8

QURILISH MAYDONLARIDA MEHNAT XAVFSIZLIGINI AQLLI MONITORING VA PREDIKTIV BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bino va inshootlarni barpo etish jarayonida mehnat xavfsizligini aqlli monitoring va prediktiv boshqaruv asosida takomillashtirish masalasi tadqiq etilgan. Tadqiqotda qurilish maydonidagi xavflarni real vaqt rejimida aniqlash, baholash va boshqarish uchun BIM, IoT datchiklari, kompyuter ko‘rishi, kiyiladigan qurilmalar, telemetriya va raqamli egizak elementlarini yagona axborot konturida integratsiyalash zarurati asoslab berilgan. Muallif etakchi indikatorlarga tayangan holda xavfning o‘sish trayektoriyasini oldindan aniqlash, xavf xaritasini dinamik yangilash va boshqaruv choralarini ustuvorlik asosida faollashtirish modelini taklif qiladi. Maqolada xavfsizlikni sodir bo‘lgan hodisalar statistikasi orqali emas, balki proaktiv boshqaruv obyekti sifatida talqin qilishning nazariy va amaliy afzalliklari ochib berilgan. Olingan natijalar O‘zbekiston qurilish tizimida raqamlashtirish va BIMni joriy etish jarayonlari bilan uyg‘un holda aqlli xavfsizlik tizimlarini bosqichma-bosqich tatbiq etish imkoniyatini ko‘rsatadi.

Аннотация. В статье исследованы вопросы совершенствования охраны труда при возведении зданий и сооружений на основе интеллектуального мониторинга и прогнозного управления. Обоснована необходимость интеграции BIM, датчиков Интернета вещей, компьютерного зрения, носимых устройств, телеметрии и элементов цифрового двойника в единую информационную среду для выявления, оценки и управления рисками на строительной площадке в режиме реального времени. На основе опережающих индикаторов предложена модель прогнозирования траектории роста риска, динамического обновления карты рисков и приоритетной активации управленческих мер. Раскрыты теоретические и практические преимущества рассмотрения безопасности не только посредством статистики произошедших происшествий, но и в качестве объекта проактивного управления. Полученные результаты показывают возможность поэтапного внедрения интеллектуальных систем безопасности во взаимосвязи с процессами цифровизации и внедрения BIM-технологий в строительной отрасли Узбекистана.

Abstract. This article examines the improvement of occupational safety during the construction of buildings and structures through intelligent monitoring and predictive management. It substantiates the need to integrate Building Information Modelling, Internet of Things sensors, computer vision, wearable devices, telemetry and digital twin elements into a unified information environment to identify, assess and manage construction-site risks in real time. A model based on leading indicators is proposed to predict risk-growth trajectories, dynamically update risk maps and activate management measures according to their priority. The theoretical and practical advantages of treating safety as an object of proactive management rather than evaluating it solely through statistics on past incidents are revealed. The findings demonstrate the feasibility of gradually implementing intelligent safety systems in coordination with the digitalisation and BIM adoption processes in Uzbekistan’s construction sector.

Kalit so‘zlar: aqlli qurilish, bino va inshootlarni barpo etish, mehnat xavfsizligi, BIM, IoT, kompyuter ko‘rishi, raqamli egizak, prediktiv boshqaruv, etakchi indikatorlar, qurilish maydoni.

Ключевые слова: интеллектуальное строительство, возведение зданий и сооружений, охрана труда, BIM, Интернет вещей, компьютерное зрение, цифровой двойник, прогнозное управление, опережающие индикаторы, строительная площадка.

Keywords: smart construction, construction of buildings and structures, occupational safety, BIM, Internet of Things, computer vision, digital twin, predictive management, leading indicators, construction site.

Kirish

Qurilish sohasi ishlab chiqarishning eng murakkab, ko‘p omilli va xavfi yuqori tarmoqlaridan biri hisoblanadi, chunki bu sohada odam, texnika, material, vaqt, ob-havo, balandlik, elektr energiyasi, ko‘tarish-tashish jarayonlari va muntazam o‘zgarib turadigan tashkiliy vaziyatlar bir maydonda bir vaqtning o‘zida kesishadi. Binolar va inshootlarni barpo etish amaliyotida mehnat xavfsizligi ko‘pincha loyihaning oxirida nazorat qilinadigan yordamchi yo‘nalish sifatida talqin etilgan bo‘lsa-da, zamonaviy yondashuvlar xavfsizlikni ishlab chiqarish samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish, sifat, muddat va ijtimoiy mas’uliyat bilan uzviy bog‘liq boshqaruv kategoriyasi sifatida ko‘rmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti va ISO 45001 standartining asosiy g‘oyasi ham xavflarni sodir bo‘lgandan keyin bartaraf etish emas, balki ularni oldindan aniqlash, baholash, ustuvorlashtirish va qaror qabul qilish tizimiga integratsiyalash orqali mehnat muhitini proaktiv ravishda boshqarishdan iborat [1; 2]. Ayniqsa, balandlikda ishlash, yuk ko‘tarish mexanizmlaridan foydalanish, vaqtincha konstruksiyalar, betonlash, armaturalash, payvandlash, yer qazish, yopiq fazoda ishlash, chang, shovqin, tebranish va mikroiqlim omillari mavjud bo‘lgan qurilish maydonida an’anaviy jurnal yuritish, davriy instruktaj va kuzatuvga asoslangan xavfsizlik tizimining imkoniyatlari cheklangan. Chunki qurilish maydonidagi xavf omillari statik emas, ular vaqt bo‘yicha ham, makon bo‘yicha ham, ishtirokchilar soni bo‘yicha ham yuqori dinamikaga ega; shu sababli bir nuqtada tuzilgan xavf xaritasi bir necha soatdan keyin eskirishi, bir brigada uchun xavfsiz bo‘lgan ish zonasi boshqa brigada uchun yuqori xatarli bo‘lishi mumkin. Shu yerda “aqlli qurilish” tushunchasi mehnat xavfsizligi bilan bevosita bog‘lanadi: aqlli qurilish faqat sensorlar, mobil ilovalar yoki BIM modeli mavjudligi emas, balki real vaqtda ma’lumot yig‘ish, ma’lumotni kontekstual tahlil qilish, tavakkal darajasini hisoblash, ogohlantirish generatsiya qilish va boshqaruv qarorini tezkor qabul qilishni yagona axborot muhitida tashkil etish demakdir [3; 4]. Boshqacha aytganda, aqlli qurilishning eng muhim sinov maydoni aynan xavfsizlikdir, chunki bu yerda raqamli yechimning qiymati iqtisodiy samara bilangina emas, balki inson hayoti va sog‘lig‘ini saqlab qolish bilan o‘lchanadi. So‘nggi yillarda BIM, IoT, kompyuter ko‘rishi, kiyiladigan sensor qurilmalar, raqamli egizak, bulutli analitika va sun’iy intellekt asosidagi prediktiv modellarning qurilish xavfsizligidagi qo‘llanishi tezlashdi. Tadqiqotlar BIM asosidagi xavf zonalarini vizual modellashtirish, ishlar ketma-ketligini xavfsizlik talablariga mos qayta rejalashtirish, ishchi trajektoriyasini nazorat qilish, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishni kamera orqali aniqlash va fiziologik holatni kuzatish kabi imkoniyatlarning samarali ekanini ko‘rsatmoqda [5; 6; 7]. Bunda raqamli egizak texnologiyasi jismoniy obyekt, jarayon va muhit holatini raqamli modelda aks ettirgan holda monitoring, anomaliya aniqlash, bashorat va boshqaruv tavsiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi [3; 8]. Biroq muammo shundaki, ko‘plab qurilish tashkilotlarida ushbu vositalar alohida-alohida joriy etiladi: BIM loyihalash bo‘limida qoladi, sensorlar texnika bo‘limida ishlatiladi, xavfsizlik bo‘yicha muhandis esa hisobotlarni qo‘lda tayyorlaydi. Natijada ma’lumotlar orasida operativ aloqadorlik hosil bo‘lmaydi, qurilish maydoniga ta’sir etuvchi qarorlar kechikadi va raqamli tizimlar yordamchi aksessuar darajasida qolib ketadi. O‘zbekiston qurilish tizimida ham so‘nggi yillarda raqamlashtirish, BIM texnologiyalarini joriy etish, monitoring uskunalarini o‘rnatish va nazoratning axborot tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha huquqiy hamda institutsional qadamlar kuchaydi [9; 10; 11]. Bu esa mehnat xavfsizligini alohida nazorat yo‘nalishi emas, balki qurilish obyektining umumiy raqamli boshqaruv arxitekturasining tarkibiy qismi sifatida talqin etish zaruratini tug‘diradi. Ayniqsa, yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarni avtomatik monitoring qilish bo‘yicha normativ talablar paydo bo‘lishi, BIM bo‘yicha o‘quv dasturlarining kengayishi va qurilish jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan dasturlar prediktiv xavfsizlik boshqaruvi uchun real institutsional

zamin yaratmoqda [9; 10; 11]. Shunga qaramay, nazariy va amaliy muammolar saqlanib qolmoqda: birinchidan, xavfsizlikka doir ma'lumot oqimlari ko'p formatli bo'lib, ularni birlashtirish metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan; ikkinchidan, xavfsizlik ko'rsatkichlari ko'proq kechikkan indikatorlar, ya'ni sodir bo'lgan hodisalar asosida baholanadi, bu esa proaktiv boshqaruvni cheklaydi; uchinchidan, sensor, kamera va BIM ma'lumotlaridan foydalanishda maxfiylik, axborot ishonchliligi va javobgarlik masalalari paydo bo'ladi; to'rtinchidan, iqtisodiy jihatdan barcha qurilish obyektlariga bir xil darajadagi "aqlli" yechimni qo'llash samarasiz bo'lishi mumkin, demak, moslashuvchan sinfiylashtirish va bosqichma-bosqich joriy etish modeli zarur. Mazkur maqolaning dolzarbligi ana shu ziddiyatdan kelib chiqadi: qurilish maydonidagi mehnat xavfsizligini ta'minlash uchun ko'p yillardan beri ma'lum bo'lgan tashkiliy-texnik choralar saqlanib qoladi, ammo ular endi real vaqt ma'lumotlari, prediktiv analitika va integratsiyalashgan raqamli boshqaruv bilan boyitilmasa, murakkab obyektlarda kerakli natijani bermaydi. Tadqiqotning maqsadi qurilish maydonlarida mehnat xavfsizligini aqlli monitoring va prediktiv boshqaruv asosida tashkil etishning ilmiy-metodologik asoslarini ishlab chiqish, ya'ni BIM, IoT, kompyuter ko'rishi, kiyiladigan qurilmalar va boshqaruv indikatorlari integratsiyasiga tayangan holda qurilish xavflarini erta aniqlash, baholash va boshqarish modelini taklif qilishdan iborat. Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda mehnat xavfsizligi "nazorat qilinadigan natija" sifatida emas, balki qurilish maydonining raqamli egizagi bilan uzluksiz bog'langan dinamik boshqaruv jarayoni sifatida asoslanadi; bunda xavf zonalari, ishchi harakati, fiziologik ko'rsatkichlar, mashina-harakat trajektoriyasi, mikroiqlim va ishlab chiqarish jadvali yagona semantik maydonda tahlil qilinadi. Amaliy ahamiyat esa taklif etilayotgan modelni O'zbekiston sharoitidagi turli masshtabdagi obyektlarda moslashtirish, xususan ko'p qavatli turar joy, sanoat binolari, ijtimoiy soha obyektlari va murakkab rekonstruksiya maydonlarida bosqichma-bosqich joriy etish imkoniyati bilan belgilanadi. Mazkur mavzuning yana bir dolzarblik tomoni shundaki, qurilish sohasida xavfsizlik bo'yicha qarorlar ko'pincha tajribaga tayangan individual hukmlar sifatida qabul qilinadi. Tajriba, albatta, katta boylik, biroq murakkab obyektlar soni oshgan, pudratchilar zanjiri kengaygan va qurilish jadvali siqilgan sharoitda faqat tajriba bilan boshqarish yetarli bo'lmay qoladi. Bugungi qurilish obyektida bir vaqtning o'zida bir nechta subpudratchi, turli texnika, bir-biriga zid logistika yo'nalishlari, vaqtinchalik omborlar va doimiy ravishda o'zgarib turadigan ish frontlari mavjud bo'ladi. Bunday muhitda xavfsizlik bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilish uchun operativ, tekshiriladigan va taqqoslanadigan ma'lumot zarur. Aynan shuning uchun mehnat xavfsizligini boshqarishda "raqamli dalillilik" tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi: har bir xavfli vaziyatning qayerda, qachon, qanday sharoitda va kimlar ishtirokida yuzaga kelganini bilish, so'ng shu ma'lumotni keyingi rejalashtirishga qayta uzatish kerak bo'ladi. Mazkur maqola ana shu dalillilikni ta'minlaydigan ilmiy ramkani ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, uning amaliy ruhi shundaki, taklif etilayotgan yondashuv faqat yuqori texnologiyali namoyish obyektlari uchun emas, balki bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinayotgan odatiy qurilish maydonlari uchun ham qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot metodologiyasi tizimli, ko'p darajali va amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvga asoslandi hamda to'rtta o'zaro bog'liq blokdan tashkil etildi: konseptual tahlil, axborot arxitekturasini modellashtirish, xavf indikatorlarini ishlab chiqish va boshqaruv algoritmlarini shakllantirish. Birinchi bosqichda qurilishdagi mehnat xavfsizligi bo'yicha xalqaro me'yoriy-huquqiy va ilmiy manbalar tahlil qilinib, xavfsizlikni boshqarishning asosiy prinsiplaridan tavakkalni baholash, etakchi indikatorlar, ishchi ishtiroki, uzluksiz takomillashtirish, xavf manbaini manbada bartaraf etish va raqamli monitoringning funksional o'rni ajratib olindi [1; 2; 12]. Shu asosda qurilish maydonidagi xavf omillari besh guruhga tasniflandi: fazoviy xavflar, texnologik xavflar, texnik-transport xavflari, inson omiliga bog'liq xavflar va muhit xavflari. Fazoviy xavflarga balandliklar, qirqimlar, ochiq shaxtalar, zich ishchi oqimlari, vaqtincha

yo‘laklar va evakuatsiya cheklovlari; texnologik xavflarga betonlash, demontaj, payvandlash, montaj, qoplama ishlari, qolip va tayanch tizimlari; texnik-transport xavflariga kranlar, ko‘tarish moslamalari, yuk mashinalari, ekskavatorlar va ichki logistika; inson omiliga bog‘liq xavflarga charchoq, intizom buzilishi, malaka yetishmasligi, himoya vositalaridan noto‘g‘ri foydalanish; muhit xavflariga issiqlik stressi, chang, shovqin, gazlar, yoritish va ob-havo sharoiti kiritildi. Ikkinchi bosqichda ushbu xavf omillari uchun ma’lumot manbalari xaritasi tuzildi. Ma’lumot manbalari sifatida BIM modeli, kalendar-reja va ishlar jadvali, sensorlar, kiyiladigan qurilmalar, statsionar va mobil kameralar, geolokatsion belgilar, mashina telemetriyasi, meteorologik ma’lumotlar, mehnat muhofazasi bo‘yicha aktlar, instruktaj jurnallari va hodisa protokollari belgilandi. Bu manbalar orasidagi aloqani ta’minlash uchun “raqamli xavfsizlik konturi” tushunchasi joriy qilindi; mazkur kontur uch qatlamdan iborat deb qabul qilindi: ma’lumotlarni yig‘ish qatlami, semantik integratsiya qatlami va qaror qabul qilish qatlami. Ma’lumotlarni yig‘ish qatlamida IoT datchiklari, smart-kaska, yurak urishi va tana haroratini qayd etuvchi kiyiladigan sensorlar, GPS/UWB teglar, kran va boshqa mashinalarning pozitsion ma’lumotlari, chang va gaz konsentratsiyasi datchiklari, mikroiqlim sensorlari va video kuzatuv tizimlari ishlaydi [6; 7; 13]. Semantik integratsiya qatlamida esa har bir ma’lumot oqimi BIM modelidagi element, ish zonasi, ish turi, brigada yoki texnik birlik bilan bog‘lanadi; bu bog‘lanish vaqt o‘qi bilan boyitilib, qurilishning qaysi bosqichida qaysi xavf yuzaga kelayotganini aniqlash imkonini beradi. Qaror qabul qilish qatlamida real vaqt monitoringi, ogohlantirishlar, ustuvorlikka ko‘ra eskalatsiya, xavf xaritalari, rahbar paneli va prediktiv tahlil modullari joylashadi. Uchinchi bosqichda mehnat xavfsizligining etakchi va kechikkan indikatorlari tizimi ishlab chiqildi. Kechikkan indikatorlarga baxtsiz hodisalar soni, jarohatlanish koeffitsienti, ishni to‘xtatish holatlari va intizomiy choralar kirsa, etakchi indikatorlar sifatida himoya vositasiz ish joyiga kirish soni, xavf zonasida ruxsatsiz bo‘lish vaqti, mikroiqlim me’yoridan chiqish davomiyligi, kran va ishchi trajektoriyasi kesishish chastotasi, xavfli operatsiya oldidan briefing o‘tkazish intizomi, ogohlantirishga javob tezligi, charchoq ko‘rsatkichi, yaqin qolib ketgan hodisalar va nazorat ro‘yxatidagi og‘ishlar qabul qilindi [12; 14]. Etakchi indikatorlarning ustunligi shundaki, ular hodisa sodir bo‘lishidan oldin boshqaruv signalini beradi; shu sababli maqolada aynan ushbu ko‘rsatkichlar prediktiv modelning asosiy kirish parametrlari sifatida belgilandi. To‘rtinchi bosqichda xavfni baholashning ko‘p mezonli modeli ishlab chiqildi. An’anaviy ehtimollik–oqibat matritsasiga qo‘shimcha ravishda vaqt sezgirligi, ekspozitsiya davomiyligi, bir vaqtning o‘zida ishtirok etuvchi odamlar soni, texnik birliklarning yaqinlik koeffitsienti va insonning funksional holati kabi ko‘rsatkichlar kiritildi. Natijada integral xavf indeksi quyidagi mantiq asosida shakllantirildi: fazoviy xavf balli, texnologik xavf balli, muhit xavfi balli, inson omili balli va tashkiliy intizom koeffitsienti yig‘indisi dinamik vaznlar bilan ko‘paytirilib, obyektning joriy xavf sinfi aniqlanadi. Dinamik vaznlar turli obyekt turlariga qarab moslashtiriladi; masalan, baland qavatli monolit qurilishda balandlik va yuk ko‘tarish operatsiyalarining vazni yuqori, ichki pardozlash bosqichida esa chang, yoritish, tor makon va transport yo‘laklari kesishishi muhimroq bo‘ladi. Mazkur modelni prediktiv boshqaruvga ulash uchun “xavfning o‘sish trayektoriyasi” tushunchasi taklif etildi: agar ma’lum vaqt oralig‘ida etakchi indikatorlar kombinatsiyasi xavf indeksining tez o‘sishini ko‘rsatsa, tizim oddiy ogohlantirish bilan cheklanmaydi, balki ishlarni qayta rejalashtirish, muayyan hududni vaqtincha yopish, qo‘shimcha instruktaj, brigada tarkibini o‘zgartirish yoki texnik birliklar marshrutini qayta belgilash bo‘yicha tavsiya beradi. Metodologiyada kompyuter ko‘rishidan foydalanish masalasi ham alohida ko‘rib chiqildi. Kamera oqimlaridan shaxsiy himoya vositalari, xususan kaska, signal nimcha, xavfsizlik kamari va himoya ko‘zoynaklarining mavjudligi; ishchining xavfli zonaga kirishi; texnika va odam orasidagi xavfli yaqinlashuv; ochiq chekka hududlar; ko‘tarilgan yuk ostidagi nojoiz bo‘lish kabi holatlarni aniqlash uchun ob’ektni tanish va sahnani tushunish algoritmlaridan foydalanish tavsiya etildi [13; 15]. Biroq metodologik jihatdan kamera tizimlari “yagona haqiqat manbai” deb olinmadi, chunki ularning aniqligi rakurs, yoritish, to‘siq

va ob-havo sharoitiga bog‘liq; shu sababli video analitika doimo boshqa ma’lumot manbalari bilan verifikatsiya qilinishi kerak deb belgilandi. Shuningdek, kiyiladigan qurilmalar yordamida ishchi fiziologik ko‘rsatkichlarini qayd etishda inson huquqlari, shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash va ma’lumotning maqsadga muvofiqligi tamoyillari ustuvor qoida sifatida qabul qilindi; tizim sog‘liqni to‘liq tibbiy diagnostika qilishga emas, faqat ishlab chiqarish xavfiga ta’sir etuvchi funksional holatning og‘ishlarini erta aniqlashga xizmat qilishi lozim deb asoslandi [6; 16]. Tadqiqot dizaynida amaliy joriy etish uchun uch pog‘onali model ishlab chiqildi: bazaviy, kengaytirilgan va integrallashgan daraja. Bazaviy darajada raqamli chek-list, mobil foto-aktlar, onlayn instruktaj reyestri va BIM bilan bog‘langan xavf xaritasi yetarli deb olindi. Kengaytirilgan darajada statsionar kameralar, mikroiqlim datchiklari, kirish nazorati va texnika telemetriyasi ulanadi. Integrallashgan darajada esa kiyiladigan qurilmalar, real vaqt joylashuvni aniqlash, raqamli egizak, prediktiv analitika va avtomatlashtirilgan boshqaruv tavsiyalari joriy etiladi. Ushbu bosqichma-bosqichlik metodologiyaning muhim qismi bo‘lib, turli iqtisodiy quvvatga ega tashkilotlar uchun moslashuvchan tatbiq etish imkonini beradi. Natijalarni baholash mezonlari sifatida baxtsiz hodisalar sonining kamayishi bilan cheklanilmay, yaqin qolib ketgan holatlarning aniqlanishi, xavf zonalarida bo‘lish vaqtining qisqarishi, ogohlantirishlarga javob berish tezligi, ishlarni to‘xtatishdan oldingi erta aralashuvlar soni, instruktaj sifatining oshishi va jadvaldan og‘ishlarning xavfsizlik nuqtai nazaridan qayta optimallashtirilishi ham qamrab olindi. Shu tariqa metodologiya mehnat xavfsizligini passiv nazoratdan faol va bashoratli boshqaruvga o‘tkazuvchi ilmiy asos sifatida shakllantirildi. Metodologiyaning yana bir tarkibiy qismi sifatida xavfsizlik ma’lumotlarining hayot sikli belgilandi. Har bir signal uchun hosil bo‘lish manbai, uzatish formati, vaqt tamg‘asi, mas’ul shaxs, saqlash muddati, verifikatsiya usuli va boshqaruvga uzatish ssenariysi tavsiflandi. Bu yondashuv axborot tizimini faqat texnik jihatdan emas, boshqaruv va huquqiy jihatdan ham tartibga soladi. Masalan, kamera orqali aniqlangan kaskasiz ishchi holati tizimga “potensial xavfli og‘ish” sifatida kiradi, u joylashuv sensori yoki navbatchi muhandis tasdig‘i bilan verifikatsiya qilinadi, keyin mas’ul ustaga uzatiladi va muammo bartaraf etilgach qayta tekshiriladi; agar og‘ish ma’lum vaqt oralig‘ida yopilmasa, tizim avtomatik ravishda yuqori boshqaruv pog‘onasiga eskalatsiya qiladi. Shu kabi data-flow xaritasi qurilmalar soni ortgan sari paydo bo‘ladigan boshqaruv chalkashligini kamaytiradi. Bundan tashqari, metodologiyada kadrlar kompetensiyasi uchun ham alohida matritsa ishlab chiqildi: xavfsizlik muhandisi sensor ma’lumotlarini talqin qila olishi, uchastka boshlig‘i BIM-xarita va xavf paneli bilan ishlashi, IT mutaxassisi esa uskunaning uzluksiz ishlashini ta’minlashi lozim. Demak, aqlli monitoringni joriy etish qurilish tashkilotida yangi “raqamli xavfsizlik kompetensiyasi”ni shakllantirishni talab qiladi. Mazkur kompetensiya o‘quv instruktajlarini ham o‘zgartiradi: xodim faqat xavfsizlik qoidalarini emas, ogohlantirish signalining ma’nosi, mobil ilovada xavf haqida xabar berish tartibi, shaxsiy teg yoki smart-kaska bilan ishlash madaniyatini ham bilishi kerak. Metodologiyada shu sababli instruktajlar uch pog‘onada ko‘zda tutildi: umumiy, kasbiy va raqamli xavfsizlik instruktaji.

Natijalar

Tadqiqotning natijalari aqlli monitoring va prediktiv boshqaruvga asoslangan xavfsizlik tizimi qurilish maydonida alohida qurilmalar yig‘indisi emas, balki boshqaruvning yangi logikasi sifatida ishlashi zarurligini ko‘rsatdi. Eng avvalo, BIM modeli asosida shakllantirilgan dinamik xavf xaritasi an’anaviy ikki o‘lchamli sxemalarga nisbatan sezilarli metodik ustunlikka ega ekanligi aniqlandi. Chunki BIM muhiti qurilishning fazoviy-geometrik tuzilishi, elementlar o‘rnatilish ketma-ketligi va ishlarning kalendar rejasini birlashtirib, xavf zonasini “qayerda” degan savol bilan cheklamaydi, balki “qachon, kim uchun va nima sababdan” degan savollar bilan birgalikda ko‘rsatadi. Masalan, monolit karkasning yuqori qavatlarida balandlik bilan bog‘liq xavf statik zona sifatida emas, balki qolip ko‘chirilishi, armatura qoplamalari, vaqtinchalik to‘siqlar holati va vertikal transport jadvali bilan bog‘liq holda dinamik ssenariyga aylanadi; natijada tizim bir xil qavatda turli soatlarda turli xavf sinfini qayd etishi mumkin.

Kamera va joylashuv datchiklari bilan boyitilgan BIM-xarita tajribasi xavfli hududga ruxsatsiz kirish holatlarini erta aniqlash, ayniqsa turli pudrat brigadalari bir nuqtada to‘qnashadigan davrlarda xavfli kesishmalarni kamaytirish imkonini berdi [5; 13]. Ikkinchi muhim natija shuki, etakchi indikatorlar tizimi qurilish xavfsizligini baholashda kechikkan indikatorlarga nisbatan ancha foydali boshqaruv signallarini beradi. Tadqiqot tahlili shuni ko‘rsatdiki, baxtsiz hodisa yoki jarohat statistikasiga qarab baho berish obyekt holatini kechikib aks ettiradi; aksincha, himoya vositalarisiz ish maydoniga kirishlar, xavfli yaqinlashuvlar, briefing intizomidagi uzilishlar, mikroiqlim me’yoridan chiqish va charchoq belgilarining kuchayishi singari signalchilar xavfning o‘sish trayektoriyasini ancha oldin ko‘rsatadi [12; 14]. Shu asosda ishlab chiqilgan integral xavf indeksi sinov hisob-kitoblarida xavfni “past–o‘rta–yuqori” kabi umumiy toifalar bilan emas, balki vaqtga bog‘langan va choraga yo‘naltirilgan ko‘rsatkich sifatida ifodalash imkonini berdi. Misol uchun, xavf indeksi 0,40 dan 0,55 gacha ko‘tarilganida tizim oddiy ogohlantirish va nazoratchi e’tiborini kuchaytirish tavsiya etdi; 0,55 dan 0,70 gacha oraliqda ishchi oqimini qayta tashkil etish, vaqtincha to‘siqlarni mustahkamlash yoki texnika marshrutini o‘zgartirish bo‘yicha chora ko‘rildi; 0,70 dan yuqori qiymatlarda esa ishning muayyan operatsiyasini vaqtincha to‘xtatish, qo‘shimcha instruktaj o‘tkazish va ruxsatnomalarni qayta tasdiqlash kabi qat’iy boshqaruv signaliga o‘tildi. Bu darajalash amalda xavf oshgan sari boshqaruv reaksiyasi ham avtomatik ravishda qattiqlashib borishini ta’minlaydi. Uchinchi natija sifatida kiyiladigan qurilmalar va mikroiqlim sensorlarining birgalikdagi tahlili ayniqsa issiq iqlim yoki yopiq, shamollatilishi cheklangan joylarda ishchi funksional holatini kuzatish bo‘yicha yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Qurilish amaliyotida ko‘plab xatolar faqat malaka yoki intizom yetishmasligidan emas, balki charchoq, suvsizlanish, yuqori tana harorati, yurak urishidagi ortiqcha tezlashuv yoki psixofiziologik zo‘riqishdan ham kelib chiqadi. Kiyiladigan qurilma ma’lumotlari mikroiqlim, ishning jismoniy yuklamasi va smena davomidagi vaqt bilan bog‘langanida, tizim “xavfli xulq”ni jazolash emas, balki uning ildizidagi funksional cheklovni aniqlash imkonini beradi [6; 16]. Bu esa xavfsizlik boshqaruvini repressiv emas, profilaktik ruhga yaqinlashtiradi. To‘rtinchi natija kompyuter ko‘rishining qurilish maydonidagi real qiymatini aniqlash bilan bog‘liq bo‘ldi. Tadqiqot davomida kompyuter ko‘rishi ayniqsa shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish intizomi, ko‘tarilgan yuk ostida bo‘lish, texnika va odamning xavfli yaqinlashuvi, chekka hududlarda himoya to‘sig‘i yo‘qligi va cheklangan hududga kirish holatlarini tez aniqlashda foydali ekanligi ko‘rsatildi [13; 15]. Biroq shu bilan birga, kamera tahlili barcha holatlarni bir xil aniqlikda ushlay olmasligi, rakurs o‘zgarishi, vaqtinchalik to‘siqlar, yomg‘ir, chang va tungi yoritish sharoitlarida xatoliklar ortishi mumkinligi aniqlandi. Shu sababli amaliy modelda kompyuter ko‘rishi mustaqil hukm chiqaruvchi vosita emas, balki boshqa sensor ma’lumotlari bilan to‘ldiriladigan “yuqori chastotali kuzatuv kanali” sifatida joylashtirildi. Beshinchi natija qurilish texnikasi telemetriyasi bilan odam joylashuvini bog‘lash orqali transport xavflarini boshqarish imkoniyatlarining sezilarli kengayishini ko‘rsatdi. Kran, avtoko‘taruvchi, beton nasosi, yuk mashinasi, ekskavator va forklift singari texnik birliklar uchun geofens, tezlik chegarasi, xavfli burilish radiusi va piyoda yo‘laklari bilan kesishuv algoritmlari ishlab chiqilganda, tizim “yaqin qolib ketgan” hodisalarni real hodisaga aylanmasdan turib qayd eta oladi. Shu tariqa transport xavfsizligi tahlili faqat avariya sodir bo‘lganda emas, balki xavfli yaqinlashuvlar va intizom buzilishlarining takrorlanuvchi naqshlari asosida tashkil etiladi. Oltinchi natija tashkiliy intizom ko‘rsatkichlarining kutilganidan ham muhim ekanini tasdiqladi. Amaliy modelda briefing o‘tkazish, ruxsatnoma berish, nazorat ro‘yxati bandlarining yopilishi, foto-akt bilan tasdiqlash, nuqsonni bartaraf etishgacha bo‘lgan vaqt va ogohlantirishga javob reaksiyasi singari boshqaruv intizomi parametrlari integral xavf indeksiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Bu holat shuni anglatadiki, aqlli monitoring texnologiyasi intizomni almashtirmaydi; aksincha, uni o‘lchab bo‘ladigan va boshqaruv qaroriga ulanadigan kategoriyaga aylantiradi. Yettinchi natija sifatida bazaviy, kengaytirilgan va integrallashgan joriy etish darajalari bo‘yicha differensial modelning amaliy qulayligi tasdiqlandi. Kichik va o‘rta

obyektlarda minimal raqamli chek-list, onlayn instruktaj reyestri va BIM bilan bog‘langan xavf xaritasining o‘zi ham sezilarli boshqaruv samarasini berishi mumkin; murakkab obyektlarda esa sensor, telemetriya va kompyuter ko‘rishining qo‘shilishi xavfning makon-vaqt bo‘yicha tahlilini kuchaytiradi; eng murakkab, zich va yuqori xavfli obyektlarda esa kiyiladigan qurilmalar hamda raqamli egizak integratsiyasi prediktiv boshqaruvning to‘laqonli platformasini yaratadi. Bu natija iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham muhim, chunki barcha obyektlarga bir xil qimmat tizimni joriy etish shart emas, balki xavf profili va obyekt masshtabiga ko‘ra moslashtirilgan konfiguratsiya tanlanadi. Sakkizinchi natija O‘zbekiston sharoitida aqlli xavfsizlik tizimini joriy etish uchun normativ va institutsional asoslar tobora shakllanib borayotganini ko‘rsatdi. Yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarni avtomatik monitoring qilish bo‘yicha huquqiy talablar, BIM texnologiyalari bo‘yicha malaka oshirish dasturlari va qurilish jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan davlat dasturlari amaliyotda bunday tizimlarni bosqichma-bosqich kengaytirish uchun muhim tayanch bo‘lib xizmat qilishi mumkin [9; 10; 11]. To‘qqizinchi natija sifatida ma’lumotlarning ishonchliligi va xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi qarorlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ochib berildi: agar sensor nosoz bo‘lsa, kamera ko‘rish maydoni to‘silsa yoki brigada identifikatsiyasi noto‘g‘ri yuritilsa, tizim noto‘g‘ri ijobiy yoki noto‘g‘ri salbiy signal berishi mumkin. Shu bois modelda “ishonchlilik koeffitsienti” kiritildi; u ma’lumot manbalarining texnik holati, kalibrovka davriyligi, qamrov darajasi va verifikatsiya natijalariga qarab hisoblandi. Bu koeffitsient past bo‘lsa, tizim qattiq boshqaruv qarorlarini emas, qo‘shimcha tekshiruv talab qiluvchi signal generatsiya qiladi. O‘ninchi natija sifatida xavfsizlik bo‘yicha raqamli tizimlarning eng katta amaliy samara manbai ularning “hodisalarni ro‘yxatga olishi” emas, balki ishlab chiqarish rejalashtirishiga ta’sir ko‘rsatishida ekani aniqlandi. Agar xavf ma’lumotlari kalendar reja, resurslar taqsimoti va brigadalar ketma-ketligiga uzatilmasa, monitoring tizimi faqat kuzatuv darajasida qoladi. Aksincha, xavf signali ishlar jadvalini moslashtirish, brigadalar oqimini ajratish, transport marshrutini qayta qurish yoki muayyan ish turini boshqa vaqtga ko‘chirishga sabab bo‘lsa, tizimning qiymati keskin oshadi. Natijada aqlli monitoring qurilish xavfsizligini ishlab chiqarish boshqaruvining ajralmas qismiga aylantirib, “xavfsizlik va unumdorlik bir-biriga zid” degan eskicha qarashni inkor etadi. Natijalarning yana bir muhim qatlami joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy samaradorligi bilan bog‘liq bo‘ldi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, xavfsizlikka doir raqamli tizimlarning samarasini faqat baxtsiz hodisalar kamayishi orqali baholash tor yondashuvdir, chunki ular ko‘plab yashirin yo‘qotishlarni ham qisqartiradi. Masalan, yaqin qolib ketgan hodisalar kamayishi ishni favqulodda to‘xtatishlar sonini pasaytiradi, fotodalillar va raqamli aktlar qayta tekshiruvga ketadigan vaqtni qisqartiradi, xavfli hududlar bo‘yicha aniq makonli ma’lumot esa qo‘shimcha to‘siqlarni keraksiz joyga o‘rnatishning oldini oladi. Shu bilan birga, ogohlantirishlarning tarixiy bazasi shakllanganidan so‘ng tashkilot qaysi brigada, qaysi ish turi yoki qaysi vaqt oralig‘ida xavf ko‘proq ortishini ko‘ra boshlaydi; bu esa resurslarni ko‘r-ko‘rona emas, dalilga tayangan holda taqsimlash imkonini beradi. Tajribaviy ssenariy tahlili shuni ko‘rsatdiki, ertalabki ishga tushirish davri, tushdan keyingi charchoq bosqichi va smena oxiridagi shoshilish holatlari xavf signallarining to‘planish davri hisoblanadi. Agar shu davrlarda qo‘shimcha nazorat, qisqa briefing, ichimlik suvi rejimi, texnika oqimini vaqtincha cheklash yoki brigadalar almashinuvini moslashtirish choralari ko‘rilsa, xavf indeksi ancha barqarorlashadi. Bu natija xavfsizlikning faqat “kim xato qildi” savoli bilan emas, “qachon va qanday sharoitda xato ehtimoli ortadi” savoli bilan boshqarilishi kerakligini tasdiqlaydi. Yana bir natija xabar berish madaniyati bilan bog‘liq bo‘ldi. Mobil ilova yoki planshet orqali yaqin qolib ketgan holat, nosoz to‘siq, yomon yoritilgan zona yoki himoya vositasiz ishchi haqida tezkor xabar berish imkoniyati yaratilganda, maydon ichidagi axborot oqimi faollashadi. Bunda xodim yuborgan xabar darhol BIM-zonaga biriktirilsa va uni yopish muddati nazorat qilinsa, oddiy xabar haqiqiy boshqaruv instrumentiga aylanadi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ishchilar o‘z xabarining natijasini ko‘rib turgan taqdirda tizimga ishonchi ortadi; aks holda raqamli platforma yana bir rasmiy forma bo‘lib qolishi mumkin. Shu

sababli taklif etilgan modelda qayta aloqa tamoyili — ya’ni xabar yuboruvchi xodimga ko‘rilgan chora haqida javob berish — majburiy boshqaruv elementi sifatida kiritildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari obyektlar tipologiyasiga qarab xavf indikatorlarining tarkibi farqlanishini ko‘rsatdi. Ko‘p qavatli turar joy qurilishida balandlik va vertikal transport omillari ustun bo‘lsa, sanoat binolarida yirik montaj birliklari, ko‘tarish operatsiyalari va vaqtincha tayanchlar, rekonstruksiya obyektlarida esa noma’lum konstruktiv holat, cheklangan makon va bir vaqtning o‘zida foydalanishdagi hudud bilan to‘qnashuvlar ustuvor xavf omillariga aylanadi. Demak, aqlli monitoringning yadrosi universal bo‘lsa-da, indikatorlar kitobi va eskalatsiya logikasi obyekt turiga moslashtirilishi lozim.

Muhokama

Olingan natijalar qurilish xavfsizligini aqlli monitoring asosida boshqarish masalasida bir nechta konseptual xulosalarni ilgari surish imkonini berdi. Birinchidan, mehnat xavfsizligini raqamlashtirish uning mohiyatini o‘zgartiradi: xavfsizlik endi faqat nazorat bo‘limi yoki muhandis zimmasidagi vazifa bo‘lib qolmay, loyiha boshqaruvi, ishlab chiqarish logistikasi, inson resurslari, texnik xizmat ko‘rsatish va sifat nazorati bilan teng huquqli axborot oqimiga aylanadi. Bu o‘zgarishning nazariy ahamiyati shundaki, xavfsizlikni “normativga muvofiqlik” paradigmasidan “dinamik tizim holati” paradigmasiga o‘tkazadi. Qurilish maydoni o‘z mohiyatiga ko‘ra doimiy ravishda o‘zgaruvchan, ko‘p agentli va noaniqlik darajasi yuqori bo‘lgan tizimdir; bunday tizimlarda yakkama-yakka inspeksiya yoki davriy instruktaj, albatta, zarur, biroq ular xavflarning dinamik evolyutsiyasini to‘liq qamrab olmaydi. Shuning uchun aqlli monitoringning asosiy ilmiy qiymati ko‘proq ma’lumot yig‘ishda emas, balki vaqt, makon va kontekstni birlashtirgan holatda qaror qabul qilish imkonini yaratishidadir [3; 8]. Ikkinchidan, BIMning xavfsizlikdagi roli ko‘p hollarda faqat vizual model sifatida talqin etib kelingan bo‘lsa, tadqiqot natijalari uni xavfsizlik semantikasi uchun “asosiy koordinata tizimi” deb qarash lozimligini ko‘rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, sensor, kamera, telemetriya va human-factor ma’lumotlari BIMsiz ham mavjud bo‘lishi mumkin, ammo ular bir-biriga bog‘lanmagan alohida signallar to‘plami bo‘lib qoladi; BIM esa ushbu signallarni element, zona, bosqich, brigada va ish turi bilan semantik jihatdan bog‘lab, boshqaruv ma’nosiga ega qiladi [5; 17]. Shu nuqtai nazardan, qurilish xavfsizligining raqamli egizagi oddiy 3D maket emas, balki ma’lumotlarga javob beruvchi boshqaruv modeli hisoblanadi. Uchinchi jihat inson omili bilan bog‘liq. Aqlli monitoring tizimlari joriy etilganda ko‘pincha nazoratning kuchayishi, ishchini “raqamli kuzatuv obyekti”ga aylantirish, shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi va kasbiy avtonomiya cheklanishi haqidagi xavotirlar paydo bo‘ladi [16]. Bu xavotirlarni inkor etish emas, aksincha, tizim dizayniga etik va huquqiy talablarga asoslangan holda singdirish zarur. Maqolada taklif etilgan yondashuvda kiyiladigan qurilmalar yoki videoanalitika ishchini jazolash vositasi emas, xavfli vaziyatni erta aniqlash vositasi sifatida talqin qilindi; shu bilan birga ma’lumotlarni minimallashtirish, maqsadga muvofiqlik, anonimlashtirish, ruxsat darajalari va audit izi kabi prinsiplar ustuvor deb olindi. Bu nafaqat etik, balki boshqaruv nuqtai nazaridan ham to‘g‘ri, chunki ishonchsiz ijtimoiy muhitda eng yaxshi texnologiya ham yashirin qarshilik va formalizm tufayli samarasiz bo‘lib qoladi. To‘rtinchidan, tadqiqot natijalari “aqlli texnologiya qimmat, demak, faqat yirik loyihalarga mos” degan keng tarqalgan fikrni qisman rad etadi. Haqiqatan, to‘liq integrallashgan raqamli egizak, kiyiladigan qurilmalar va kompyuter ko‘rishi bilan jihozlangan tizim murakkab va resurs talab qiladi. Biroq bazaviy raqamli chek-list, foto-akt, mobil ruxsatnoma, onlayn instruktaj va BIM bilan bog‘langan xavf xaritasidan iborat minimal konfiguratsiya ham o‘rta obyektlarda sezilarli samara berishi mumkin. Demak, muammo texnologiya bor-yo‘qligida emas, uni xavf profiliga mos konfiguratsiyada tanlashdadir. Bu esa O‘zbekiston sharoitida juda muhim, chunki qurilish obyektlari moliyaviy qudrat, texnologik murakkablik va kadrlar salohiyati bo‘yicha keskin farqlanadi. Beshinchidan, aqlli xavfsizlik tizimining muvaffaqiyati apparat ta’minotiga emas, ma’lumotlardan kelib chiqadigan boshqaruv mexanizmlarining sifati va tashkiliy intizomga bog‘liq ekani aniqlandi. Agar ogohlantirishlar

ko‘p, ammo javob harakati noaniq bo‘lsa, tizim tez orada “signal shovqini”ga aylanadi; agar ogohlantirishlar ishlab chiqarish boshqaruviga uzatilmasa, xavf haqida bilish va uni kamaytirish o‘rtasida uzilish paydo bo‘ladi. Shu sababli maqolada eskalatsiya darajalari, javob mas’ullari, vaqt chegaralari va qayta aloqa mexanizmlari alohida ta’kidlandi. Oltinchidan, qurilish maydonidagi xavflarning ko‘pligi aqlli tizimning “hammasini birdan yechishi”ni anglatmaydi. Ayrim xavflar, xususan tor yopiq fazoda gaz yig‘ilishi, yirik yuklarni ko‘tarish, favqulodda ob-havo yoki vaqtinchalik tayanchlarning barqarorligi kabi holatlar hanuz muhandislik hisoblari, maxsus ruxsatnomalar va tajribali nazoratni talab etadi. Demak, aqlli monitoring mutaxassisni almashtirmaydi; u mutaxassis qarorini tezlashtiradi, dalillaydi va operativlashtiradi. Yettinchidan, xalqaro manbalar bilan uyg‘un holda olingan natijalar ko‘rsatadiki, etakchi indikatorlarga tayanuvchi xavfsizlik tizimi qurilishda samaraliroqdir [12]. Bu ilmiy xulosaning amaliy qiymati juda katta: korxona o‘z e’tiborini faqat sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalarga qaratish o‘rniga, hodisaga olib boruvchi mayda, lekin takrorlanuvchi og‘ishlarni boshqarishi kerak. Masalan, kaskaning yo‘qligi yoki ruxsatsiz zonaga qisqa muddatli kirish bir qarashda “katta hodisa” emas, biroq ular tizimli bo‘lsa, yirik jarohatlanish xavfining signalchisidir. Sakkizinchidan, O‘zbekiston qurilish tizimidagi institutsional o‘zgarishlar aqlli xavfsizlik yondashuvini joriy etish uchun muhim imkoniyatlar ochadi. BIM bo‘yicha kadrlar tayyorlash, monitoring uskunalari bo‘yicha normativ talablar va qurilish faoliyatini avtomatlashtirishga qaratilgan dasturlar raqamli xavfsizlikning alohida tajriba emas, balki tizimli rivojlanish yo‘nalishiga aylanishi mumkinligini ko‘rsatmoqda [9; 10; 11]. Biroq bu yerda yana bir murakkab masala mavjud: texnologiyani joriy etish bilan uning institutlashuvi bir xil narsa emas. Texnologiya uskunani sotib olish va dastur o‘rnatish bilan boshlansa, institutlashuv me’yor, mas’uliyat, kompetensiya va ma’lumot almashish qoidalarining shakllanishini anglatadi. Shunday ekan, kelgusida qurilish xavfsizligini aqlli boshqarish bo‘yicha mahalliy klassifikatorlar, minimal ma’lumot to‘plamlari, interoperabellik talablari va etik me’yorlarni ishlab chiqish alohida tadqiqot yo‘nalishiga aylanishi lozim. To‘qqizinchidan, tadqiqotning cheklovlari ham mavjud. Maqolada taklif etilgan model umumiy metodologik platforma bo‘lib, uning ayrim koeffitsientlari turli obyekt va iqlim sharoitlari bo‘yicha kalibrovka qilishni talab qiladi. Masalan, issiqlik stressi bo‘yicha chegara ko‘rsatkichlari, shovqin ta’sirining ish unumdorligiga bog‘liqligi yoki brigadalar zichligi bilan xavf darajasi o‘rtasidagi nozik nisbatlar mahalliy amaliy ma’lumotlar asosida aniqlashtirilishi kerak. Shunga qaramay, modelning afzalligi uning moslashuvchanligida: u aniq bitta qurilma yoki dasturga bog‘lanmaydi, balki ma’lumot manbalaridan qat’i nazar boshqaruv logikasini belgilaydi. Demak, ilmiy va amaliy jihatdan eng muhim natija shuki, aqlli qurilishdagi xavfsizlik masalasi texnik gadjetlarni tanlash muammosi emas, balki qurilish maydonini ma’lumotga asoslangan boshqaruv tizimiga aylantirish muammosidir. Muhokama doirasida kadrlar masalasini alohida urg‘ulash zarur. Qurilishda ko‘pincha texnologik transformatsiya uskunalarni xarid qilish bilan tenglashtiriladi, holbuki aqlli xavfsizlik tizimining markazida ma’lumotni talqin qila oladigan va undan boshqaruv chorasi chiqara oladigan mutaxassis turadi. Shu sababli raqamli xavfsizlik bo‘yicha yangi rollar paydo bo‘ladi: xavf paneli operatori, BIM-xavfsizlik koordinatori, sensor tarmog‘i bo‘yicha administrator, videoanalitika nazoratchisi kabi funksiyalar an’anaviy mehnat muhofazasi muhandisi vazifasini to‘ldiradi. Bu yangi rollar qurilish oliy ta’limi va malaka oshirish tizimida ham aks etishi kerak. Yana bir muhim jihat — standartlashtirish. Agar turli qurilmalardan kelayotgan ma’lumotlarning nomlanishi, formatlari va bog‘lanish qoidalari standartlashmasa, amaliyotda “raqamli parchalanish” yuz beradi: har bir pudratchi o‘z platformasida ishlaydi, ma’lumot almashish qiyinlashadi, bosh buyurtmachi esa yaxlit holatni ko‘ra olmaydi. Shuning uchun kelajakda O‘zbekiston sharoitiga mos, lekin xalqaro interoperabellik tamoyillariga zid bo‘lmagan minimal xavfsizlik ma’lumot modeli ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir. Bu modelda ishchi identifikatori, brigada kodi, xavf turi, fazoviy zona, vaqt belgisi, ogohlantirish darajasi, verifikatsiya holati va yopilish natijasi kabi

majburiy atributlar bo‘lishi zarur. Iqtisodiy nuqtai nazardan qaralganda ham aqlli monitoringga sarmoya ko‘p hollarda o‘zini bevosita va bilvosita yo‘l bilan qoplaydi. Bevosita samara jarohatlanish, ish to‘xtashlari va zararni kamaytirishda ko‘rinsa, bilvosita samara qayta bajarishlar, da’volar, sug‘urta xavflari, tekshiruvlar bilan bog‘liq tranzaksion xarajatlar va obro‘ yo‘qotishlarini pasaytirishda namoyon bo‘ladi. Shu bois kelgusida xavfsizlikning raqamli tizimlari iqtisodiy model bilan ham birga o‘rganilishi, ya’ni “bir ogohlantirishning qiymati”, “oldi olingan hodisaning iqtisodiy effekti”, “sensor va video qamrovining chegaraviy foydasi” kabi ko‘rsatkichlar ishlab chiqilishi lozim. Shuningdek, aqlli monitoringni joriy etishda qurilish tashkilotining boshqaruv madaniyati hal qiluvchi omil bo‘lib qoladi. Agar rahbariyat xavfsizlik ma’lumotini faqat nazorat va jazolash vositasi deb qabul qilsa, tizimdan olinadigan signal yashirin qarshilik sabab kamayadi; agar u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va jarayonni barqarorlashtirish vositasi sifatida qabul qilinsa, xodimlar ham tizimni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bois raqamli xavfsizlik loyihalari texnik topshiriq bilan bir qatorda o‘zgarishlarni boshqarish dasturi, kommunikatsiya rejasi va motivatsion mexanizmlar bilan birga olib borilishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bino va inshootlarni barpo etish jarayonida mehnat xavfsizligini ta’minlashning an’anaviy modeli murakkab va tez o‘zgaruvchan qurilish maydonlari uchun yetarli emas; u albatta saqlanadi, biroq aqlli monitoring, semantik integratsiya va prediktiv boshqaruv bilan boyitilgandagina haqiqiy samaradorlikka erishadi. Maqolada ishlab chiqilgan ilmiy-metodologik yondashuv mehnat xavfsizligini BIM, IoT, kompyuter ko‘rishi, kiyiladigan qurilmalar, telemetriya va tashkiliy indikatorlar birikmasida ko‘rib, xavfni sodir bo‘lgandan keyin qayd etiladigan hodisa emas, balki real vaqt rejimida kuzatiladigan va boshqariladigan dinamik jarayon sifatida talqin qildi. Taklif etilgan modelning asosiy natijasi shundaki, u qurilish maydonida fazoviy, texnologik, transport, inson omili va muhit xavflarini bitta raqamli boshqaruv konturida birlashtirish, etakchi indikatorlar orqali xavfning o‘sish trayektoriyasini oldindan ko‘rish va boshqaruv choralarini ustuvorlik bilan faollashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqot aqlli xavfsizlik tizimlari faqat yirik va qimmat loyihalar uchun emasligini, balki bazaviy, kengaytirilgan va integrallashgan darajalar bo‘yicha moslashtirilgan holda turli obyektlarda joriy etilishi mumkinligini ko‘rsatdi. Amaliy nuqtai nazardan, ushbu yondashuv ishchi va texnika oqimlarini muvofiqlashtirish, xavf zonalarini dinamik qayta baholash, issiqlik yoki charchoq bilan bog‘liq xatarlarni erta aniqlash, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish intizomini kuchaytirish hamda xavfsizlikni ishlab chiqarish rejalashtirishiga bevosita bog‘lash imkonini beradi. Nazariy nuqtai nazardan esa mehnat xavfsizligini normativ talablarga rioya etish bilan cheklangan yo‘nalishdan chiqarib, ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv fanining tarkibiy qismiga aylantiradi. O‘zbekiston sharoitida qurilish sohasini raqamlashtirish, BIMni joriy etish va avtomatik monitoring talablari kuchayib borayotgani ushbu konsepsiyani bosqichma-bosqich amaliyotga tatbiq etish uchun qulay imkoniyat yaratmoqda. Keyingi tadqiqotlarda integrallashgan xavf indeksining mahalliy obyektlar bo‘yicha kalibrovkasi, etik-huquqiy me’yorlar, ma’lumot almashish standartlari va iqtisodiy samaradorlik modellarini chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir. Demak, aqlli qurilishda mehnat xavfsizligi kelajakdagi qo‘shimcha opsiya emas, balki sifatli, tezkor va barqaror qurilishning asosiy shartlaridan biridir. Shu ma’noda, qurilish maydonida xavfsizlikni aqlli boshqarish — bu qo‘shimcha gadjetlar to‘plami emas, balki loyiha madaniyatining o‘zgarishidir. Xavfsizlikka oid qarorlar jadval, logistika, kadrlar tayyorgarligi va texnik xizmat ko‘rsatish bilan birgalikda ko‘rilgandagina raqamli tizim o‘zining haqiqiy qiymatini beradi.

ADABIYOTLAR

1. International Organization for Standardization. ISO 45001:2018 Occupational health and safety management systems — Requirements with guidance for use. Geneva: ISO; 2018.

2. International Organization for Standardization. ISO 19650-1:2018 Organization and digitization of information about buildings and civil engineering works, including building information modelling (BIM) — Information management using building information modelling — Part 1: Concepts and principles. Geneva: ISO; 2018.

3. National Institute of Standards and Technology. Digital twins. Gaithersburg, MD: NIST; 2025.

4. Voas J, et al. Security and Trust Considerations for Digital Twin Technology. Gaithersburg, MD: NIST; 2025.

5. Occupational Safety and Health Administration. Construction Industry — Safety. Washington, DC: OSHA; 2026.

6. Occupational Safety and Health Administration. Using Leading Indicators to Improve Safety and Health Outcomes. OSHA 3970. Washington, DC: OSHA; 2019.

7. International Labour Organization. Safety and health in construction. Geneva: ILO; 1992.

8. International Labour Organization. Revolutionizing health and safety: The role of AI and digitalization at work. Geneva: ILO; 2025.

9. Martínez-Aires MD, López-Alonso M, Martínez-Rojas M. Building information modeling and safety management: A systematic review. Safety Science. 2018;101:11–18.

10. Parsamehr M, Perera US, Dodanwala TC, et al. A review of construction management challenges and BIM-based solutions: perspectives from the schedule, cost, quality, and safety management. Asian Journal of Civil Engineering. 2023;24:353–389.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori, PQ-161-son, 2024-yil 17-aprel. Bino va inshootlarning yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish tizimlarini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar.

12. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi. BIM texnologiyalarini joriy etish va mutaxassislar malakasini oshirish bo‘yicha materiallar. Toshkent; 2025–2026.

UO‘T: 711.4-16:504.06

РОЛЬ ГЕНЕРАЛЬНОГО ПЛАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ТЕРРИТОРИИ: НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА НУКУСА

Jumabayev Dauletbay Maratovich
t.f.f.d., dotsent. “Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti”
e-mail: jumabaevdawlet0115@gmail.com

Ten Izabel Vadimovna
talaba “Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti”
e-mail: tenizabel1@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается роль генерального плана как базового инструмента пространственного управления, обеспечивающего экологическую безопасность городской территории. Цель исследования состоит в том, чтобы показать, каким образом генеральный план может снижать экологические риски через функциональное зонирование, формирование санитарно-защитных и зеленых коридоров, регулирование застройки, управление отходами и охрану водных объектов, а также определить, какие решения наиболее актуальны для города Нукуса. Исследование опирается на нормативно-правовой анализ, сравнительно-градостроительный подход, контент-анализ генерального плана Нукуса и интерпретацию зарубежного опыта интеграции устойчивого развития и здоровья населения в мастер-планы городов. Установлено, что в условиях Нукуса генеральный план должен рассматриваться не как формальный проект размещения объектов, а как превентивный экологический механизм, связывающий рост города с требованиями к озеленению, санитарной защите, водной безопасности, климатической адаптации и общественному контролю. На основе анализа предлагается подход, при котором экологическая безопасность встраивается в генеральный план на стадии принятия ключевых пространственных решений, а не после возникновения негативных последствий.

Annotatsiya. Maqolada shahar hududining ekologik xavfsizligini ta’minlaydigan fazoviy boshqaruvning asosiy vositasi sifatida bosh rejaning o‘rni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi – bosh reja funksional zonalashtirish, sanitariya-himoya va yashil yo‘laklarni shakllantirish, qurilishni tartibga solish, chiqindilarni boshqarish hamda suv obyektlarini muhofaza qilish orqali ekologik xatarlarni qay tarzda kamaytirishi mumkinligini ko‘rsatish, shuningdek, Nukus shahri uchun qaysi yechimlar eng dolzarb ekanini aniqlashdan iborat. Tadqiqot me’yoriy-huquqiy tahlil, qiyosiy-shaharsozlik yondashuvi, Nukus shahri bosh rejasining kontent-tahlili hamda shaharlarning bosh rejalariga barqaror rivojlanish va aholi salomatligi masalalarini integratsiya qilish bo‘yicha xorijiy tajribani sharhlashga tayanadi. Aniqlanishicha, Nukus sharoitida bosh reja obyektlarni joylashtirishning rasmiy loyihasi sifatida emas, balki shaharning o‘sishini ko‘kalamzorlashtirish, sanitariya muhofazasi, suv xavfsizligi, iqlimga moslashish va jamoatchilik nazorati talablari bilan bog‘laydigan preventiv ekologik mexanizm sifatida qaralishi lozim. Tahlil asosida ekologik xavfsizlik salbiy oqibatlar yuzaga kelgandan so‘ng emas, balki asosiy fazoviy qarorlarni qabul qilish bosqichidayoq bosh rejaga singdiriladigan yondashuv taklif etiladi.

Abstract. This article examines the role of the master plan as a fundamental tool of spatial management for ensuring the environmental safety of urban territories. The study aims to demonstrate how a master plan can mitigate environmental risks through functional zoning, the creation of sanitary protection zones and green corridors, development regulation, waste management, and the protection of water bodies, as well as to identify which solutions are most relevant for the city of Nukus. The research is based on a legal and regulatory analysis, a comparative urban planning approach, a content analysis of the Nukus master plan, and an interpretation of international experience in integrating sustainable development and public health into urban master plans. It is established that, in the context of Nukus, the master plan should be regarded not as a formal project for siting facilities, but as a preventive environmental mechanism that links the city's growth to requirements for landscaping, sanitary protection, water security, climate adaptation, and public oversight. Based on this analysis, an approach is proposed in which environmental safety is integrated into the master plan at the stage of key spatial decision-making, rather than after negative consequences have already occurred.

Ключевые слова: генеральный план, экологическая безопасность, территориальное зонирование, санитарно-защитные зоны, зеленые коридоры, Нукус, Республика Каракалпакстан, устойчивое городское развитие.

Kalit so‘zlar: bosh reja, ekologik xavfsizlik, hududiy zonalashtirish, sanitariya-himoya zonalari, yashil yo‘laklar, Nukus, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, shaharning barqaror rivojlanishi.

Keywords: master plan, environmental safety, territorial zoning, sanitary protection zones, green corridors, Nukus, Republic of Karakalpakstan, sustainable urban development.

Введение. В современных условиях генеральный план перестает быть только документом территориального развития и все в большей степени становится инструментом предупреждения экологических рисков. Для Узбекистана эта постановка вопроса имеет прямое нормативное и методологическое значение: Градостроительный кодекс закрепляет требования к генеральным планам, режимам использования территории и санитарно-защитным зонам, а закон об экологической экспертизе, оценке воздействия на окружающую среду и стратегической экологической оценке усиливает превентивный характер экологических решений уже на стадии подготовки планов и программ [1, 2]. Следовательно, экологическая безопасность территории должна обеспечиваться не только природоохранными мероприятиями, но и самой логикой пространственного планирования.

Для города Нукуса эта задача особенно актуальна. Нукус развивается в сложных природно-климатических условиях Приаралья, где, по данным UNICEF, прогнозируются рост числа экстремально жарких дней, усиление дефицита воды и повышение климатической уязвимости населения [4]. Одновременно инженерно-геоэкологические исследования по городу Нукусу показывают, что засоление почв и колебания уровня грунтовых вод остаются существенными факторами, осложняющими состояние городской среды и озеленения [12]. Утвержденный в 2024 году генеральный план Нукуса также исходит из дальнейшего роста населения и территориального расширения города, что усиливает нагрузку на зеленый каркас, систему санитарной очистки, водные объекты и транспортно-коммунальную инфраструктуру [3].

Актуальность темы подтверждается и современной научной литературой. Систематический обзор исследований по master plans показывает, что устойчивость и

экологическая эффективность генеральных планов возрастает тогда, когда пространственные решения, экологические цели и инструменты управления рассматриваются как единая система [5]. Опыт города Вик (Барселона) демонстрирует, что интеграция вопросов здоровья и качества среды в генеральный план возможна уже на ранних стадиях его подготовки [6]. Исследования по стратегической экологической оценке подчеркивают, что экологические требования наиболее результативны тогда, когда они встроены в процесс планирования, сопровождаются мониторингом и общественным обсуждением [7, 8]. Наряду с этим обзоры по городским зеленым и зелено-голубым инфраструктурам показывают их значение для снижения тепловой нагрузки, улучшения здоровья и повышения климатической устойчивости городской среды [9, 10].

Материалы и методы. Исследование выполнено на основе междисциплинарного подхода, сочетающего градостроительный, экологический и нормативно-правовой анализ. В качестве эмпирической базы использованы Градостроительный кодекс Республики Узбекистан, закон об экологической экспертизе, оценке воздействия на окружающую среду и стратегической экологической оценке, а также утвержденный генеральный план города Нукуса [1–3]. Для характеристики климатической уязвимости Приаралья привлечен аналитический доклад UNICEF [4]. Теоретическую основу составили современные зарубежные исследования, посвященные устойчивым генеральным планам, интеграции здоровья в мастер-планы, стратегической экологической оценке и роли зеленой инфраструктуры в климатической адаптации [5–10], а также публикации, отражающие особенности развития городов Узбекистана и экологические условия Нукуса [11, 12].

Методически работа опирается на четыре взаимосвязанных приема. Во-первых, использован нормативно-правовой анализ, позволивший определить, какие требования к экологической безопасности уже встроены в систему градостроительного регулирования [1–3]. Во-вторых, проведен контент-анализ решений генерального плана Нукуса, прежде всего по озеленению, санитарной очистке, защите водных объектов и размещению производственных и коммунальных территорий [3]. В-третьих, применен сравнительно-градостроительный подход, в рамках которого зарубежные публикации о master plans, стратегической экологической оценке, здоровье городской среды и зелено-голубой инфраструктуре использованы как аналитическая рамка [5–10]. В-четвертых, использован интерпретационный метод, позволивший перевести общие принципы устойчивого планирования в конкретные условия Нукуса как города Приаралья [11, 12].

Результаты и обсуждение. Проведенный анализ показывает, что генеральный план выполняет экологическую функцию прежде всего через пространственное разграничение рисков. Градостроительный кодекс Узбекистана прямо связывает режим использования территории с градостроительными регламентами и предусматривает санитарно-защитные зоны вокруг производственных, инженерных и транспортных объектов; размещение жилья, образовательных, медицинских и рекреационных объектов в пределах таких зон не допускается [1]. С точки зрения современной планировочной теории и практики стратегической экологической оценки именно такие решения позволяют предотвращать экологические конфликты еще до начала строительства и эксплуатации объектов [7, 8].

Для Нукуса это особенно важно, поскольку сам генеральный план фиксирует сочетание роста населения, территориального расширения и дефицита зеленых

пространств [3]. В документе прямо указано, что существующие парки и зеленые площади города не обеспечивают население в нормативном объеме, а возможности их расширения в сложившейся части города ограничены; поэтому новые рекреационные территории предполагается размещать преимущественно в присоединяемых зонах [3]. Одновременно план предлагает связать зеленые участки жилых районов, промышленные территории, автомобильные дороги, инженерно-коммуникационные сети, каналы и санитарно-защитные зоны в единую систему зеленых коридоров. Это соответствует выводам современных обзоров о том, что городская зеленая инфраструктура повышает климатическую устойчивость, снижает тепловую нагрузку и улучшает качество городской среды [9, 10]. В исследованиях по городам Узбекистана также подчеркивается необходимость учитывать пространственную специфику территориального развития и взаимосвязь жилых, общественных и рекреационных зон [11].



Рисунок 1. Пространственная схема экологически безопасного развития территории Нукуса

Не менее важно, что экологическая безопасность в генеральном плане Нукуса раскрывается через водно-санитарный и коммунальный блок. В проекте предусмотрены меры по санитарной очистке города, раздельному сбору твердых бытовых отходов, размещению современных пунктов накопления, совершенствованию полигона и строительству сооружений, защищающих атмосферу, почвы, поверхностные и подземные воды от загрязнения [3]. Рекомендовано также расширение территорий переработки и

размещения отходов: от 9,7 га в текущем состоянии до 30,5 га на расчетный период [3]. Дополнительно в генеральном плане содержится предложение освобождать охранные зоны каналов, арыков и водоемов от застройки, чтобы предотвратить загрязнение воды и использовать эти территории для отдыха и спорта. Для города в аридной зоне это означает, что генеральный план должен регулировать не только сухопутную застройку, но и «синюю» инфраструктуру — водные коридоры и прилегающие к ним защитные полосы. Подобный подход согласуется с исследованиями, в которых стратегическая экологическая оценка рассматривается как механизм учета долгосрочных и кумулятивных экологических последствий пространственных решений [7, 8].

Еще один результат анализа состоит в том, что генеральный план в условиях Нукуса должен учитывать не только текущие экологические проблемы, но и климатические сценарии будущего. Сам документ подчеркивает необходимость учитывать природно-климатические условия, прогноз численности населения и меры защиты территории от природных и техногенных чрезвычайных ситуаций [3]. С учетом прогнозируемого усиления жары и водного дефицита для региона Приаралья [4] это означает, что генеральный план города должен включать непрерывный зеленый каркас, локальные тенеобразующие общественные пространства, защитные насаждения вдоль транспортных магистралей, сохранение и благоустройство водных каналов, а также сеть санитарно-защитных поясов между жилой и производственной средой. В условиях Нукуса такие меры дополнительно важны из-за засоления почв и чувствительности городских экосистем к гидрогеологическим изменениям [12], тогда как современные обзоры по зеленой инфраструктуре подтверждают их роль в снижении тепловой нагрузки и повышении устойчивости к климатическим стрессам [10].

Зарубежный опыт подтверждает, что экологическая и санитарная проблематика должна интегрироваться в генеральный план на ранних этапах, а не добавляться к нему постфактум. Современный систематический обзор показывает, что устойчивые master plans формируются там, где пространственное развитие, экологические ориентиры и инструменты управления объединяются в единой структуре [5]. Исследование по городу Вик (Барселона) демонстрирует, что включение в мастер-план локально адаптированных решений, повышающих здоровье населения, позволяет превратить документ из схемы землепользования в реальный механизм улучшения городской среды [6]. Работы по стратегической экологической оценке подчеркивают значение мониторинга, общественного участия и учета возможных неблагоприятных эффектов при реализации планировочных решений [7, 8]. Наконец, обзоры по городским зеленым пространствам и зеленой инфраструктуре подтверждают их положительное влияние на здоровье населения, микроклимат и устойчивость к тепловым стрессам [9, 10].

С практической точки зрения роль генерального плана в обеспечении экологической безопасности территории Нукуса можно свести к четырем связанным функциям. Первая — предупредительная, когда риски снижаются еще на стадии зонирования и выбора площадок. Вторая — компенсационная, когда город развивает зеленые и санитарно-защитные пояса, сглаживая уже существующие экологические нагрузки. Третья — адаптационная, когда в план закладываются решения на случай жары, засухи, дефицита воды и пыле-песчаных воздействий. Четвертая — управленческая, когда генеральный план увязывается с общественным обсуждением, экологической оценкой и

постоянным мониторингом. В этом смысле генеральный план выступает не только архитектурно-планировочным, но и экологико-правовым документом, что подтверждается как национальной нормативной базой, так и современной литературой по стратегической экологической оценке и устойчивому планированию [1–3, 7, 8].



Рисунок 2. Как генеральный план обеспечивает экологическую безопасность территории

Заключение. Проведенное исследование показывает, что роль генерального плана в обеспечении экологической безопасности территории заключается в его способности заранее формировать экологически допустимую модель городского развития. Для Нукуса это особенно значимо из-за сочетания климатической уязвимости Приаралья, дефицита зеленых территорий, водных ограничений, роста населения и необходимости обновления коммунальной инфраструктуры [4, 10, 12].



Рисунок 3. Приоритетные экологические решения для города Нукуса в составе генерального плана

На примере Нукуса можно сделать вывод, что экологически ориентированный генеральный план должен включать: жесткое функциональное зонирование с

соблюдением санитарно-защитных режимов; формирование единого зеленого и водно-зеленого каркаса; защиту каналов и водоемов; развитие современной системы обращения с отходами; вынос экологически конфликтных объектов из чувствительных зон; а также увязку пространственных решений со стратегической экологической оценкой, общественным обсуждением и мониторингом. В этом случае генеральный план становится не формальным документом застройки, а основой долгосрочной экологической устойчивости городской территории [1–3, 7–10].

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Градостроительный кодекс Республики Узбекистан: Закон Республики Узбекистан от 22.02.2021.

2. Закон Республики Узбекистан № O‘RQ-1036 от 24.02.2025 «Об экологической экспертизе, оценке воздействия на окружающую среду и стратегической экологической оценке».

3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан № 837 от 13.12.2024 «Об утверждении генерального плана города Нукуса».

4. UNICEF. A Climate Landscape Analysis for Children in Uzbekistan. Tashkent, 2025.

5. Przybysz A.L., Lima A.D., Sá C.P.d., Resende D.N., Pagani R.N. Integrating City Master Plans with Sustainable and Smart Urban Development: A Systematic Literature Review // Sustainability. 2024. Vol. 16, No. 17. Art. 7692. DOI: 10.3390/su16177692.

6. Puig-Ribera A., Rofin M., Bort-Roig J., Aumatell E., Juncà A., de San Pedro M., Garcia-Cuyàs F., Chamorro C., Perona-Ribes L., Torrentó J.R., Jabardo-Camprubí G., Palmero F., Geli M. Integrating Health Into the Urban Master Plan of Vic, Barcelona: A Comprehensive Approach // Urban Planning. 2022. Vol. 7, No. 4. P. 25–41. DOI: 10.17645/up.v7i4.5492.

7. Mabey P.T., Li W., Sundufu A.J., Lashari A.H. The Potential of Strategic Environmental Assessment to Improve Urban Planning in Sierra Leone // International Journal of Environmental Research and Public Health. 2021. Vol. 18, No. 18. Art. 9454. DOI: 10.3390/ijerph18189454.

8. Reicher Salazar O., Delgado Schneider V., Arumí J.L. Regulatory Analysis of Strategic Environmental Assessment Follow-Up // Land. 2024. Vol. 13, No. 8. Art. 1221. DOI: 10.3390/land13081221.

9. Gianfredi V., Buffoli M., Rebecchi A., Croci R., Oradini-Alacreu A., Stirparo G., Marino A., Odone A., Capolongo S., Signorelli C. Association between Urban Greenspace and Health: A Systematic Review of Literature // International Journal of Environmental Research and Public Health. 2021. Vol. 18, No. 10. Art. 5137. DOI: 10.3390/ijerph18105137.

10. Salih K., Báthoryné Nagy I.R. Review of the Role of Urban Green Infrastructure on Climate Resiliency: A Focus on Heat Mitigation Modelling Scenario on the Microclimate and Building Scale // Urban Science. 2024. Vol. 8, No. 4. Art. 220. DOI: 10.3390/urbansci8040220.

11. Madrimov R., Tashtaeva S., Kasimov K., Yusupov H. Modern Features of Urban Development: A Case Study from Uzbekistan // E3S Web of Conferences. 2024. Vol. 563. Art. 02001. DOI: 10.1051/e3sconf/202456302001.

UO‘T: 622.831:624.131.537

YER OSTI KON LAHIMI ATROF TOG‘ JINSLARINING DEFORMATSIYALANISHINI VA DARZLIKNING GEOMETRIK TAVSIFINI ANIQLASH

Sulxonov Diyorbek Ahror o‘g‘li
Olmaliq davlat texnika instituti “Konchilik” fakulteti “Konchilik ishi” kafedrasi
1-bosqich 3M-25FQKQ guruh magistranti,
sulxonovdiyorbek2gmail.com

Toshtemirov Umarali Tulqin o‘g‘li
Olmaliq davlat texnika instituti “Konchilik” fakulteti “Konchilik ishi” kafedrasi dotsenti, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada tog‘ jinsi massivlarining strukturaviy holati, ularning deformatsiyalanish jarayonlari va darzlikning geometrik xususiyatlarini aniqlash metodikasi tahlil qilinadi. Tog‘ jinslarining tabiiy buzilganligi (darzlanganligi) massivning fizik-mexanik xossalariga, uning mustahkamligi va turg‘unligiga ta’sir etuvchi asosiy omil sifatida ko‘rib chiqiladi.

Аннотация. В данной статье анализируется структурное состояние массивов горных пород, процессы их деформации и методика определения геометрических характеристик трещиноватости. Естественная трещиноватость горных пород рассматривается как основной фактор, влияющий на физико-механические свойства массива, его прочность и устойчивость.

Abstract. This article analyzes the structural state of rock masses, their deformation processes, and the methodology for determining the geometric characteristics of fracturing. The natural cracking of rock formations is considered a primary factor affecting the physical and mechanical properties of the massif, as well as its strength and stability.

Kalit so‘zlar: tog‘ jinsi, massiv, deformatsiya, darzlik, geometrik tavsif, strukturaviy tahlil, anizotropiya.

Ключевые слова: горная порода, массив, деформация, трещина, геометрическая характеристика, структурный анализ, анизотропия.

Keywords: rock, massif, deformation, crack, geometric characteristic, structural analysis, anisotropy.

Tog‘ jinslari massivlari tabiatan bir jinsli bo‘lmagan va turli o‘lchamdagi darzliklar bilan ajralgan diskret muhit hisoblanadi. Tog‘ jinsi massivining deformatsiyalanish jarayonini bashorat qilish, konchilik ishlari va muhandislik inshootlari xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Massivning yaxlitligi (yoki buzilganligi) darzlik tizimlarining geometrik parametrlari bilan bevosita bog‘liq. Foydali qazilma konlarini qazib olishda boshlang‘ich jarayon tog‘ jinslarini massivdan ajratib olishdir. Hozirgi kunda qoyali tog‘ jinslarini eng samarador va amaliyotda yagona (f>6) parchalash usuli bu portlash energiyasidan foydalanishdir. Portlatish ishlarini olib borish uchun tog‘ jinslari massivida shpurlar va skvajinalar burg‘ilanadi, bunda burg‘ilash va portlatish ishlari samaradorligiga tog‘ jinslarining mustahkamligi va darzliklari eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadi.

Darzlik bu — tog‘ jinslari massivini bo‘laklarga bo‘luvchi yoriqlar majmuasidir. Massivdagi darzliklarni tavsiflash uchun quyidagi asosiy geometrik ko‘rsatkichlardan foydalaniladi: darzlik yo‘nalishi (azimut va yotish burchagi); darzlar zichligi (yoki darzlanganlik darajasi); darzlik teshilishi (ochiq darzliklar); darzliklarning uzluksizligi va uzunligi. Tog‘ jinslari massiviga tashqi kuchlar (tektonik bosim yoki konchilik ishlari natijasida) ta’sir qilganda, deformatsiya jarayoni ikki bosqichda kechadi: Strukturaviy deformatsiya va yangi darzliklarning hosil bo‘lishi. Yer osti kon lahimi atrofidagi tog‘ jinslari o‘pirilishi va deformatsiyalanishiga

darzliklar uzunligining eng yuqori qiymati 10 m gacha bo‘lgandagi darzliklar ta’sir qilishi mumkin (1-rasm).

Darzliklar o‘zaro yo‘nalishi bo‘yicha tartibli va tartibsiz darzliklarga bo‘linadi. Tartibli joylashgan darzliklarda bir yoki bir necha umumiy yo‘nalishga ega bo‘lgan darzliklar bo‘lishi mumkin. Tartibsiz darzliklarning umumiy yo‘nalishini aniqlash mumkin emas.



1-rasm. Yer osti kon lahimi borti va shipidagi darzliklar holati

Hozirgi kunda massivni baholashda fotogrammetrik usul, kuzatuv usullari va geofizik usullar kabi zamonaviy yondashuvlar qo‘llaniladi. Massiv deformatsiyalanishini aniqlash uchun tog‘ jinsi yuzasiga shtamp bosish yoki burg‘ilash qudug‘i devoriga pressiometr yordamida bosim berish usullari qo‘llaniladi. Buzilmagan yaxlit tog‘ jinsining deformatsiya moduli va Puasson koeffitsiyenti, tog‘ jinsi namunalarini tekshirish natijasida aniqlanadi. Ko‘rilayotgan holat uchun (E va ν) darzlangan massiv deformatsiya modulining vertikal yo‘nalishdagi qiymati quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$E_I = \frac{E}{1+\sum_1^n \eta_1(1-sin^4 Q_1}};$$

Ushbu formulaga asosan darzlangan massiv deformatsiya moduli gorizontal yo‘nalishda E_{II}, siljish moduli vertikal G_I, gorizontal G_{II} yo‘nalishdagi va Puasson koeffitsiyenti $\nu_{I,II}$,II qiymati quyidagi ifodalar orqali aniqlanadi:

$$E_{II} = \frac{E}{1+\sum_1^n \eta_1(1-cos^4 Q_1)};$$

$$G_I = \frac{E}{2(1+\nu+\sum_1^n \eta_1 sin^2 Q_1)};$$

$$G_{II} = \frac{E}{2(1+\nu+\sum_1^n \eta_1 sin^2 Q_1)};$$

$$\nu_{I,II} = \nu + \sum_1^n \eta_I sin^2\, Q_i cos^2 Q_i$$

Yuqorida keltirilgan ifodadagi o‘lchamlarni δ_i, h_i, ζ_i darzliklar tizimining o‘rtacha geometrik tavsifi yoki alohida olingan darzlik tavsifi deb qaraladi [1].

Keyingi ko‘rinishdagi holatda darzlik haqida to‘liq ma’lumot berish talab etiladi va u hisoblashning aniqlik darajasini oshiradi. Uzunligi L<1 m va gorizontga nisbatan qiyaligi (Q) burchak bo‘lgan yoriqlari tog‘ jinslari bilan to‘lgan darzliklar misolida massiv deformatsiyalanishini ko‘rib chiqamiz.

Agar darzlik yoriqlari qattiq yoki yarim qattiq to‘ldiruvchilardan iborat bo‘lsa, u holda deformatsiya moduli E=1 va Puasson koeffitsiyenti $\nu_1 \neq 0{,}5$ bo‘ladi. Tog‘ jinslari massivida

darzliklarning tartibsiz joylashishi uning kvazi-izotropligidan dalolat beradi, uning deformatsiya moduli (E_0) massivning buzilmagan qismidan olingan tog‘ jinsi namunasi deformatsiya modulidan (E) kichik bo‘ladi. E_0 qiymatini aniqlash uchun quyidagi ifodadan foydalanamiz.

$$E_0 = \frac{E}{1+\frac{5}{8}n\eta};\ \eta = \frac{\delta}{h\zeta}$$

bu yerda: n>4 — darzliklar tizimi soni (ularning balandliklari taxminan teng holat uchun), ν — darzlikning geometrik tavsifi, δ — ochiq darzlikning o‘rtacha kengligi, h — bir darzlikka to‘g‘ri keluvchi buzilmagan tog‘ jinslari o‘rtacha uzunligi [2].

Tog‘ jinsi massivi donador (sochma) tog‘ jinsi sochiluvchan muhitdan iborat bo‘lsa, uni haddan tashqari tartibsiz darzliklardan iborat deb qarash mumkin, chunki darzliklar juda ko‘p va ularni tizimlarga ajratish mumkin emas. Bu holatda massiv deformatsiya moduli (E_0), tog‘ jinsi namunasi deformatsiyasi moduli (E) ma’lum bo‘lmagan holatda quyidagi ifoda orqali aniqlanishi mumkin.

$$E_0 = 1.6\left(1+\frac{1}{k}\right)\zeta E$$

bunda k — darzlikning bo‘shliq koeffitsiyenti, bu qiymat darzlik bo‘shlig‘ining tog‘ jinsi hajmiga nisbati orqali aniqlanadi. Yuqorida keltirilgan ifoda orqali tog‘ jinslari massivining deformatsiyalanishi ikki darzlikning geometrik tavsifini quyidagi qiymatlarida aniqlaymiz:

$Q_1 = 0°$, $Q_2 = 30°$, $\delta_1 = \delta_2 = 0{,}02$ sm, $h_1 = 80$ sm, $h_2 = 100$ sm, $\zeta = 4\cdot10^{-3}$. Hisoblash natijalari: E_I = 0,4E va : E_I = 0,7E. Tartibsiz darzlik tizimi uchun: n = 7, δ = 0,02 sm, h = 10 sm, $\zeta = 4\cdot10^{-3}$. Natija: E_0 = 0,1E.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, tog‘ jinsi massivining deformatsiya moduli tartibsiz darzliklar mavjud bo‘lgan namunaning deformatsiya modulidan 10 marotaba katta bo‘ladi. Tog‘ jinsi massivining deformatsiyalanishini to‘g‘ri baholash uchun darzlikning geometrik parametrlari (zichlik, yo‘nalish, ochilishi) kompleks tahlil qilinishi shart. Darzliklar massivning anizotrop xossalarini belgilaydi va ularni inobatga olmaslik inshootlarning hisob-kitoblarida xatoliklarga olib kelishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlar sun’iy intellekt va raqamli modellashtirish (FEM/DEM) yordamida massivning o‘zini tutishini bashorat qilishga qaratilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. В.Р.Рахимов Геомеханика. Конспект лекций, ТГТУ ,2002г.
2. И.В. Баклашов Геомеханика. Том 1,Основы геомеханики, МГТУ,2004г.
3. И.В. Баклашов Геомеханика. Том 2, Геомеханические процессы, МГТУ, 2004г.
4. И.А.Турчанинов и.др. Основы механики горны пород.Л.Недра , 1989г.
5. Баклашов И.В. Геомеханика М.,МГТУ,1996.
6. Khasanov, A., Khasanov, U., Toshtemirov, U., Abdurakhmanov, D., & Melnikova, T. (2024). Studying the condition of tungsten-containing man-made waste in the territory of Uzbekistan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 538, p. 03023). EDP Sciences.
7. Mutalova, M., Khasanov, A., Toshtemirov, U., Melnikova, T., & Yuldashava, N. (2024). Modern technology for enrichment of tailings from an enrichment plant processing tungsten ores. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 538, p. 01002). EDP Sciences
8. Yormatov, O. S., Toshtemirov, U. T. (2023). YER QA’RIDA MASSIVNING TABIIY SHAROITIDA DINAMIK JARAYONLARNI SODIR BO ‘LISHINI TAHLIL QILISH. *МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА*, *1*(1), 13-17.
9. Nishonov, A. I., Toshtemirov, U. T. (2022). YER OSTIDA KON ISHLARINI BEXATAR OLIB BORILISHINI TA’MINLASHNING ASOSIY TALABLARI. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, *2*(10), 138-142.

UO‘T: 504.064:629.113

AVTOSERVIS KORXONALARIDA HOSIL BO‘LADIGAN CHIQINDILARNING ATROF-MUHITGA TA’SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH CHORALARI

O‘.A.Nabijonov,
t.f.f.d, (PhD) katta o‘qituvchi
Namangan davlat texnika universiteti,
e-mail: utkirbeknabijonov310393@gmail.com.

A.A.Abdurashidov
talaba
Namangan davlat texnika universiteti
e-mail: abdirashidovabdurashid13@gmail.com.

S.A.Abdug‘aniyev
magistr
Namangan davlat texnika universiteti
e-mail: samandarabduganiyev707@gmail.com.

Annotatsiya. Mazkur maqolada avtoservis korxonalarida hosil bo‘ladigan asosiy chiqindilar turlari, ularning atmosfera havosi, tuproq va suv resurslariga salbiy ta’siri hamda ekologik xavfsizlikni ta’minlash usullari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ishlatilgan motor moylari, eskirgan shinalar, akkumulyatorlar, filtrlar va oqova suvlarning ekologik xavflilik darajasi baholandi. Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya qilish va zamonaviy tozalash texnologiyalaridan foydalanish orqali atrof-muhitga bo‘ladigan salbiy ta’sirni kamaytirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

Аннотация. В данной статье анализируются основные виды отходов, образующихся на предприятиях автосервиса, их негативное воздействие на атмосферный воздух, почву и водные ресурсы, а также методы обеспечения экологической безопасности. В ходе исследования оценивался уровень экологической опасности отработанных моторных масел, изношенных шин, аккумуляторов, фильтров и сточных вод. Также рассматривались возможности снижения негативного воздействия на окружающую среду за счет использования технологий переработки, утилизации и современных методов обработки отходов.

Abstract. This article analyzes the main types of waste generated in car service enterprises, their negative impact on atmospheric air, soil and water resources, and methods for ensuring environmental safety. During the study, the level of environmental hazard of used motor oils, worn tires, batteries, filters and wastewater was assessed. Also, the possibilities of reducing the negative impact on the environment through the use of waste recycling, disposal and modern treatment technologies were considered.

Kalit so‘zlar: avtoservis, chiqindilar, ekologik xavfsizlik, motor moylari, akkumulyatorlar, oqova suvlar, shinalar, qayta ishlash, utilizatsiya.

Ключевые слова: автосервис, отходы, экологическая безопасность, моторные масла, аккумуляторы, сточные воды, шины, переработка, утилизация.

Keywords: car service, waste, environmental safety, motor oils, batteries, wastewater, tires, recycling, disposal.

So‘nggi yillarda avtomobillar sonining jadal ortishi natijasida avtoservis korxonalarining faoliyati ham kengayib bormoqda. Avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash jarayonlarida turli xil chiqindilar hosil bo‘ladi. Ushbu chiqindilar o‘z vaqtida yig‘ilmasa yoki noto‘g‘ri utilizatsiya qilinsa, atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo‘ladi. Ekologik muammolarni bartaraf etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi [3, 4].

Avtoservis korxonalarida ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish atrof-muhitni muhofaza qilishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Avtoservis korxonalarida texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash ishlari natijasida turli xil chiqindilar hosil bo‘ladi [6, 12]. Ularning asosiy qismini ishlatilgan moylar, oqova suvlar, eskirgan shinalar, akkumulyatorlar va filtrlar tashkil etadi [1, 2].

1- jadval

Avtoservis chiqindilarining tarkibi

Chiqindi turi	**Ulushi, %**
Ishlatilgan motor moylari	*35*
Oqova suvlar	*25*
Eskirgan shinalar	*15*
Akkumulyatorlar	*10*
Filtrlar va boshqa chiqindilar	*15*

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, eng katta ulushni ishlatilgan motor moylari tashkil etadi. Ushbu chiqindilar tarkibida og‘ir metallar va kimyoviy moddalar mavjud bo‘lib, ular tuproq va suv havzalari uchun katta ekologik xavf tug‘diradi [4, 7].

Avtoservis korxonalarida payvandlash, bo‘yash, quritish va dvigatel sinovlari jarayonlarida atmosfera havosiga zararli moddalar chiqariladi. Bu yerda, asosiy ifloslantiruvchi moddalarni keltirish mumkin: ***uglerod oksidi (CO)***; ***azot oksidlari (NOx)***; ***uglevodorodlar***; ***bo‘yoq*** va ***erituvchilar bug‘lari***; hamda ***chang zarrachalari***dir [8].

Ushbu moddalar inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, nafas olish tizimi kasalliklarini keltirib chiqarishi mumkin.

Korxonalarda hosil bo‘ladigan asosiy chiqindilar ulushi (1-rasm).



Motor moylari va texnik suyuqliklarning yerga to‘kilishi tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o‘zgartiradi. 1 (bir) litr ishlatilgan moy 1 (million) litrgacha suvni ifloslantirishi mumkin. Tuproqqa tushgan neft mahsulotlari: o‘simliklarning o‘sishini sekinlashtiradi; mikroorganizmlar faoliyatini buzadi; yer unumdorligini kamaytiradi; grunt suvlariga sizib o‘tadi [9, 10].

Avtomobillarni yuvish va agregatlarni tozalash jarayonlarida hosil bo‘ladigan oqova suvlar tarkibida: neft mahsulotlari; og‘ir metallar; sintetik yuvish vositalari; mexanik aralashmalar mavjud bo‘ladi. Tozalanmagan suvlarning suv havzalariga tashlanishi ekologik muvozanatning buzilishiga olib keladi.

Zamonaviy avtoservislarda quyidagi usullar: *1.Qum tutgichlar. 2.Neft tutgichlar. 3.Koagulyatsiya qurilmalari. 4.Sorbsion filtrlar va 5.Biologik tozalash inshootlari qo‘llaniladi* [6].

Eskirgan avtomobil shinalari uzoq yillar davomida parchalanmaydi va ekologik muammo tug‘diradi. Shu sababli ularni qayta ishlash muhim hisoblanadi.

Qayta ishlangan rezina quyidagi sohalarda qo‘llaniladi: sport maydonchalari qoplamalarida; asfalt-beton aralashmalarida; texnik rezina buyumlari ishlab chiqarishda; qurilish materiallari tayyorlashda.

Qo‘rg‘oshinli akkumulyatorlar ekologik jihatdan xavfli chiqindilar qatoriga kiradi. Ularning tarkibida qo‘rg‘oshin va sulfat kislota mavjud. Utilizatsiya jarayonida quyidagi mahsulotlar qayta olinadi: qo‘rg‘oshin; plastmassa; elektrolit. Qayta ishlash natijasida tabiiy resurslar tejaladi va ekologik xavf kamayadi.

Avtoservis korxonalarida ekologik xavfsizlikni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: chiqindilarni saralash; moylarni regeneratsiya qilish; suvni qayta foydalanish tizimlarini joriy etish; energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash; ekologik monitoringni tashkil etish [8, 9].

Korxonalarda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: ISO 14001 ekologik boshqaruv tizimini joriy etish; chiqindilar pasportini yuritish; muntazam ekologik audit o‘tkazish; xodimlarni ekologik xavfsizlik bo‘yicha o‘qitish; energiya tejovchi texnologiyalarni qo‘llash; qayta ishlash korxonalari bilan hamkorlikni kengaytirish; raqamli ekologik monitoring tizimlarini joriy qilish [10].

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, avtoservis korxonalarida hosil bo‘ladigan chiqindilar atmosfera havosi, tuproq va suv resurslarining ifloslanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ishlatilgan motor moylari, qo‘rg‘oshinli akkumulyatorlar va oqova suvlar ekologik xavfi yuqori bo‘lgan chiqindilar hisoblanadi. Chiqindilarni saralash, qayta ishlash, regeneratsiya qilish, zamonaviy tozalash qurilmalaridan foydalanish hamda ekologik monitoring tizimini joriy etish orqali atrof-muhitga salbiy ta’sirni 60 - 80 % gacha kamaytirish mumkin. Shuning uchun avtoservis korxonalarida ekologik xavfsizlik talablariga qat’iy rioya qilish barqaror rivojlanishning muhim omili hisoblanadi [11, 12].

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2002.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2013.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga oid farmon va qarorlari. - Toshkent, 2024.
4. Qudratov O., Abduqodirov A. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2023. - 320 b.
5. To‘rayev B., Karimov A. Avtotransport korxonalarida ekologik xavfsizlik. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 285 b.
6. Mirzayev Sh. Transport ekologiyasi. - Toshkent: Tafakkur, 2021. - 276 b.
7. Xidirov M.Q. Avtotransportning atrof-muhitga ta’siri va uni kamaytirish usullari. - Toshkent, 2024. - 198 b.
8. Rasulov A.R., Ismoilov Sh.T. Ekologiya va tabiatdan foydalanish asoslari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. - 240 b.
9. Abdurahmonov T.A. Atrof-muhit muhofazasi va ekologik monitoring. - Toshkent: Fan, 2021. - 224 b.
10. ISO 14001:2015. Environmental Management Systems - Requirements with Guidance for Use. - Geneva: International Organization for Standardization, 2015.
11. Nabijonov O‘. Avtoservis korxonalarini ekologik holatini tahlil qilish va uni ishlab chiqish choralari. - Namangan: Monografiya, 2026.
12. O‘.A.Nabijonov Avtotexxizmat korxonalarida ekologik holatni yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar va taklif etilgan yechimlarning samaradorligi // Qurilish va ta’lim ilmiy jurnali / 2026.Maxsus son-1. Namangan.

QISQA XABARLAR

UO‘T 631.356.43

MOTOBLOK BILAN AGREGATLANADIGAN KARTOSHKA KOVLAGICHNING LEMEXINING TORTISHGA QARSHILIGINI ANIQLASH

G‘aybullaev Burxonjon Shermatjonovich
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti, Ilmiy kotib, t.f.f.d., PhD., k.i.x

Xusainov Baxtiyor Saparbaevich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, t.f.f.d., PhD., dotsent v.v.b

Xudaykulov Alisher Abdullayevich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, ta’lim tarbiya maslahatchisi

Annotatsiya. Maqolada respublikamiz tomorqa va kichik dehqonchilik xo‘jaliklari uchun zarur bo‘lgan ixcham va sodda konstruksiyaga ega bo‘lgan motoblok bilan qo‘shib ishlatiladigan kartoshka kovlagich lemexining tortishga umumiy qarshiligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, motoblok bilan agregatlanadigan kartoshka kovlagich lemexining tortishga qarshiligi 0,69 kN bo‘lishi lozimligi aniqlangan.

Аннотация. В стате представлены результаты теоретических исследований по определению общего тягового сопротивления лемеха картофелекопателя, агрегатируемого с мотоблоком компактной и простой конструкции, который предназначен для приусадебных и малых дехканских хозяйств нашей республики. По результатам проведённых исследований установлено, что тяговое сопротивление лемеха картофелекопателя, агрегатируемого с мотоблоком, должно составлят 0,69 кН.

Annotation. The article presents the results of theoretical research on determining the total tractive resistance of the potato digger blade, which is aggregated with a compact and simple-construction motoblock designed for household plots and small dekhkan farms in our republic. According to the results of the conducted research, it was established that the tractive resistance of the potato digger blade, which is aggregated with a motoblock, should be 0.69 kN.

Kalit so‘zlar: motoblok, kartoshka kovlagich, qazish lemexi, tuproqning fizik-mexanik xossalari, lemex tig‘ining qalinligi, osish qurilmasi, kartoshka, parametr.

Ключевые слова: мотоблок, картофелекопател, копателный лемех, физико-механические свойства почвы, толщина лезвия лемеха, навесное устройство, картофел, параметр.


Keywords: motor-block, potato digger, digging share, physical and mechanical properties of the soil, share blade thickness, attachment, potato, parameter.

Kirish. Respublikamiz aholisining oziq ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ichki talabini qondirish hamda eksport hajmini ham barqaror ravishda oshirib borish vazifalari kartoshka yetishtirish bo‘yicha ham samarali texnika va texnologiyalarni yaratishni talab etmoqda [1, 2, 3].

Bugungi kunda kartoshkani aholi xonadonlarida hamda tomorqalarida yetishtirishga ham katta etibor qaratilmoqda. Aholi tomorqasida yoki kichik konturli dalalarda yetishtirilayotgan kartoshka hosilini yig‘ishtirish ishlari asosan qo‘l mehnati hisobiga amalga oshiriladi. Bunda mehnat sarfi va boshqa harajatlarni oshishi mahsulotni tannarxini oshishiga sabab bo‘ladi. Kartoshkani yetishtirishda uni yig‘ishtirish jarayoni eng murakkab jarayonlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Hozirda jahonda kichik konturli dalalarda motoblok bazasida ishlaydigan kartoshka kovlagichlar qo‘llaniladi. Ularning turli xil variantlari mavjud bo‘lib, shundan elakli kartoshka kovlagichlar samarali hisoblanadi. Ammo, bu turdagi kovlagichlarning konstruksiyasi murakkab va metallhajmdor bo‘lib, ish jarayonida turli xil tuproq iqlim sharoitlari uchun imkoniyatlari past.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Urganch davlat universiteti va Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti hamkorlikda motoblok bilan agregatlanadigan kartoshka kovlagich ishlab chiqildi (1-rasm). Kartoshka kovlagich qazish lemexi 1, elevator 2, elevator chivig‘i 3, elevator chivig‘iga kiygizilgan quvur 4, barabanlar 5, g‘ildirak 6, elevatorni harakatga keltiruvchi shesternalar 7, 8 lardan iborat. Kartoshka kovlagich motoblok osish qurilmasiga o‘rnatiladi, ya’ni kovlagich osma mexanizm yordamida agregatlanadi. Motoblok harakati davomida kartoshka kovlagich g‘ildiragi aylanma harakatlanadi va unga joylashgan yulduzcha elevator o‘qini aylantiradi. Natijada elevator agregatning harakat yo‘nalishiga qarama qarshi harakatlanib, tuproq-kartoshka massasini elashni boshlaydi.elevatorning harakati kovlagichning g‘ildiragi va unga joylashgan yulduzcha o‘lchamlariga bog‘liq. Elevator chivig‘iga kiygizilgan quvurlar harakat davomida kovlagich ramasiga mahkamlangan barabanlar bilan ta’sirlashib, ham aylanma harakat qiladi hamda o‘zining diametri bo‘yicha yuqoriga tikka nisbatan ko‘tarilib keyin qaytadan birinchi holatiga tushadi. Bu jarayon har bir baraban bilan ta’sirlashganda uzviy davom etadi. Bunda tuproq-kartoshka massasini elevatorda elaklanishi ortadi.



1 – qazish lemexi; 2 – elevator; 3 – elevator chivig‘i; 4 – quvur (truba);
5 – baraban (intensifikator); 6 – g‘ildirak; 7, 8 – elevatorni harakatga keltiruvchi shesternalar

1-расм. Мотоблок билан агрегатланадиган картошка ковлагичнинг умумий схемаси

Bunda kartoshka kovlagichning elagi chiviqlariga trubalar kiritilgan bo‘lib, elevator tagida barabanlar o‘rnatilgan. Chiviqlarga kiydirilgan turbalar barabanlar bilan ta’sirlashganda ham aylanma harakat qiladi hamda pastga yuqoriga ko‘tarilib tuproq palaxsasini uvalaydi [4].

Ushbu maqolada motoblok bilan agregatlanadigan kartoshka kovlagich lemexining tortishga umumiy qarshiligini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.


Tadqiqot natijalari. Adabiyotlardan ma’lumki, kartoshka kovlagich lemexlarini ikki yonli pona deb qarash (2-rasm) hamda uning tortishga umumiy qarshiligini quyidagicha ifodalash mumkin [5, 6]

$$R = R_1 + R_2 + R_3 + R_4, \qquad (1)$$

bunda R – lemexning tortishga umumiy qarshiligi, N;

R_1 – lemex tig‘i tuproqni kesishidan hosil bo‘ladigan qarshilik, N;

R_2 – tuproqni lemex tomonidan deformatsiyalashidan hosil bo‘ladigan qarshilik, N;



2-rasm. Lemexning tuproq qatlamini kesishida unga ta’sir etadigan kuchlarning sxemasi

R_3 – tuproqni lemexning sirti bo‘ylab ko‘chishi va ko‘tarilishidan hosil bo‘ladigan qarshilik, N;

R_4 – tuproqning inersiya kuchidan hosil bo‘ladigan qarshilik, N.

Lemex tig‘i tuproqni kesishidan hosil bo‘ladigan qarshilikni quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz [5, 6]

$$R_1 = [\sigma] b_q B_{lu}, \tag{2}$$

bunda $[\sigma]$ – tuproqning gorizontal yo‘nalishda ezilishga qarshiligi;

b_q – lemex tig‘ining qalinligi;

B_{lu} – seksiyali lemexlarning kartoshka pushtasini to‘liq qamrash kengligi.

Ish organi tuproqni deformatsiyalashidan hosil bo‘ladigan qarshilik kuchini 3-rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib aniqlaymiz.

R_2 ni topish uchun 3-rasmda keltirilgan sxemadan foydalanib Q_y kuch va undan hosil bo‘ladigan ishqalanish kuchini harakat yo‘nalishiga proeksiyalaymiz [5, 6]

$$R_2 = Q\left[\cos\psi_{bp} + f\sin\left(\alpha + \psi_{bp}\right)\cos\alpha\right], \tag{3}$$

bunda Q_y – tuproqning parchalanishga ko‘rsatadigan qarshiligi;

f – tuproqni lemex ishchi sirtiga ishqalanish burchagi, º;

Ψ_{bp} – tuproqning bo‘ylama parchalanish burchagi, º;


$$\psi_{bp} = \frac{\pi}{2} - \frac{1}{2}\left(\alpha + \varphi_1 + \varphi_2\right), \tag{4}$$

bunda φ_1, φ_2 – tuproqning tashqi va ichki ishqalanish koeffitsientlari.

Q_y ning qiymatini 3-rasmda keltirilgan sxemaga muvofiq quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz [5, 6]

$$Q_y = [\tau_k] S_{ABCDEF}, \tag{5}$$

bunda $[\tau_k]$ – parchalanish tekisligi bo‘yicha hosil bo‘ladigan urinma kuchlanishning chegaraviy qiymati;



3-rasm. Ildiz-meva kovlagichning energiya-resurstejamkor seksiyali lemexini tortishga qarshiligini aniqlash sxemasi

S_{ABCDEF} – *ABCDEF* parchalanish tekisligining yuzi.

3-rasmda keltirilgan sxemaga asosan

$$S_{ABCDEF}=\left[\left(B_{lu}+\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\times\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\ \psi_{yo}tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right]\times\frac{1}{\sin\psi_{bp}}+$$
$$+\left[\left(\frac{B_{lu}+\epsilon_{sh}}{2}+\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\times\left(H_k-\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\psi_{yo}tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\right]\times\frac{1}{\sin\psi_{bp}} \quad (6)$$

bunda B_{psh} – kartoshka pushtasining eni, m;

ψ_{yo} – tuproqning yon tomonga parchalanish burchagi, º;

b_{sh} – kartoshka pushtasining yuqori asosi, m;

φ_g – pushta yonbag‘rining og‘ish burchagi, º.

S_{ABCDEF} ning (6) ifoda bo‘yicha qiymatini (5) ga, keyin Q ning bu olingan qiymatini (3) ga qo‘yib hamda (5) ifodani hisobga olganda quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz [5, 6]

$$R_2=[\tau_k]\times\left\{\left[\left(B_{lu}+\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\times\left(\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\ \psi_{yo}tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\right]+\right.$$
$$\left.+\left[\left(\frac{B_{lu}+b_{sh}}{2}+\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\times\left(H_k-\left(\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\ \psi_{yo}tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\right)\right]\right\}\times$$
$$\times\frac{\left(\sin\frac{1}{2}(\alpha+\varphi_1+\varphi_2)+f\cos\frac{1}{2}(\alpha-\varphi_1-\varphi_2)\cos\alpha\right)}{\sin\psi_{bp}} \quad (7)$$

Tuproqni ish organi sirti bo‘ylab ko‘tarilishi hamda inersiya kuchidan hosil bo‘ladigan qarshilik kuchlarini uning namligini hisobga olgan holda quyidagi ifodalar bo‘yicha aniqlaymiz [5, 6]

$$R_3=B_{lu}\left(L_{as}+\frac{b_{o'r}+3\sigma}{2}-\frac{B_{lu}}{\sin\gamma}\right)\left(L_{as}+\frac{b_{o'r}+3\sigma}{2}\right)h\rho gtg(\alpha+\varphi_1)\left(1+\frac{W}{100}\right), \quad (8)$$

$$R_4=\rho\times\left\{\left[\left(B_{lu}+\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\times\left(\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\ \psi_{yo}tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\right]+\right.$$
$$\left.+\left[\left(\frac{B_{lu}+b_{sh}}{2}+\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\left(H_k-\frac{B_{psh}-B_{lu}}{2\left(ctg\psi_{yo}+ctg\varphi_g\right)}\right)\right]\right\}\times\frac{1}{\sin\psi_{bp}}\times$$
$$\times V^2\frac{\sin\alpha\sin\left(\alpha+\varphi_1\right)}{\cos\varphi_1\cos^2\frac{1}{2}\left(\alpha+\varphi_1+\varphi_2\right)}\left[1+\frac{W}{100}\right), \qquad (9)$$

bunda h – tuproqning ish organi sirti bo‘ylab ko‘tarilish balandligi, m;

ρ – tuproqning zichligi, kg/m^3;

g – erkin tushish tezlanishi, m/s^2;

W – tuproqning namligi, %.

R_1, R_2, R_3 va R_4 larni (3), (7), (8) va (9) ifodalar bo‘yicha qiymatlarini (1) ifodaga qo‘yib, qazish lemexining uch yoqli pona ko‘rinishidagi ish organining tortishga qarshiligini aniqlash uchun quyidagi yakuniy ifodaga ega bo‘lamiz

$$R=[\sigma]b_qB_{lu}+[\tau_k]\times\left\{\left[\left(B_{lu}+\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\times\left(\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\ \psi_{yo}tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\right]+\right.$$
$$\left.+\left[\left(\frac{B_{lu}+b_{sh}}{2}+\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\times\left(H_k-\left(\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\ \psi_{yo}tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\right)\right]\right\}\times$$
$$\times\frac{\left(\sin\frac{1}{2}\left(\alpha+\varphi_1+\varphi_2\right)+f\cos\frac{1}{2}\left(\alpha-\varphi_1-\varphi_2\right)\cos\alpha\right)}{\sin\psi_{bp}}+$$
$$+B_{lu}\left(L_{as}+\frac{b_{o'r}+3\sigma}{2}-\frac{B_{lu}}{\sin\gamma}\right)\left(L_{as}+\frac{b_{o'r}+3\sigma}{2}\right)h\rho gtg\left(\alpha+\varphi_1\right)\left(1+\frac{W}{100}\right)+$$
$$+\rho\times\left\{\left[\left(B_{lu}+\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\times\left(\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\ \psi_{yo}tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\right]+\right.$$
$$\left.+\left[\left(\frac{B_{lu}+b_{sh}}{2}+\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\left(H_k-\frac{\left(B_{psh}-B_{lu}\right)tg\psi_{yo}tg\varphi_g}{2\left(tg\psi_{yo}+tg\varphi_g\right)}\right)\right]\right\}\times\frac{1}{\sin\psi_{bp}}$$
$$\times V^2\frac{\sin\alpha\sin\left(\alpha+\varphi_1\right)}{\cos\varphi_1\cos^2\frac{1}{2}\left(\alpha+\varphi_1+\varphi_2\right)}\left(1+\frac{W}{100}\right). \qquad (10)$$

Bu ifoda tahliliga ko‘ra, lemexning tortishga qarshiligi uning parametrlari (L, t, V_{lu}) lemexning qazish chuqurligi (h), tuproqning fizik-mexanik xosslari ($[\sigma]$, $[\tau_k]$, φ_1, φ_2, ρ, W, f) va shuning bilan birgalikda agregatning harakat tezligiga bog‘liq ekan. L_{lu}=0,27m, t=0,0005m, V_{lu}=0,39m, $[\sigma]$=1,44·10^6 Pa, $[\tau_k]$=2·10^4 Pa, φ_1=30º, φ_2=40º, ρ=1100 kg/m^3, W=15%, f=0,5774 qabul qilib, (10) ifoda bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblar 1,0 m/s tezlikda kartoshka kovlagich qazish ish organining tortishga qarshiligi 0,69 kN ni tashkil etishini ko‘rsatdi.

Xulosa. Demak, o‘tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, motoblok bilan agregatlanadigan kartoshka kovlagich lemexining tortishga umumiy qarshiligi 0,69 kN bo‘lishini ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Norchaev D.R., Norchaev R., Egamov J. Prospects for improving technical tools for growing and harvesting potatoes // German International Journal of Modern Science. Germany, 2022. –№47. –P.45-49.

2. Norchaev D.R., Norchaev J.R., Khusainov B.S. Results of experimental studies of a potato groomer motoblock // German International Journal of Modern Science. Germany, 2022. –№47. –P.42-45.

3. Норчаев Д.Р., Норчаев Ж.Р., Хусаинов Б.С. Технические средства для возделывания овощей и картофеля к мотоблоку и результаты эксперименталных исследований // Евразийский Союз Ученых. Международный научно-исследовательский журнал. Санкт–Петербург, 2022. –№47.–С.10-14.

4. Norchaev D.R., G‘aybullaev B.Sh.., Xusainov B.S. Motoblok bazasida ishlaydigan kartoshka kovlagich elevatori parametrlarini asoslash // Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi. Gulbahor. – B. 266-269.

5. Норчаев Д.Р. Научно-техничекские решения механизированной уборки картофеля в условиях Узбекистана // дисс. ... док. тех. наук. – Ташкент, 2017. – 140 с.

6. To‘xtaqo‘ziev A., Imomqulov Q. Tuproqni kam energiya sarflab deformatsiyalash va parchalashning ilmiy-texnik asoslari. Monografiya– Tashkent, 2013. – 120 s.

UO‘T 631.356.43

MOTOBLOK BAZASIDAGI KARTOSHKA KOVLAGICH G‘ILDIRAGI DIAMETRINI UNING ISH KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI

Xusainov Baxtiyor Saparbaevich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, t.f.f.d., PhD., dotsent v.v.b

Xudaykulov Alisher Abdullayevich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, ta’lim tarbiya maslahatchisi,

Annotatsiya. Maqolada motoblok bazasidagi kartoshka kovlagich g‘ildiragi diametrini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, kartoshkaning kam shikastlanishi va yo‘qotilishini ta’minlash uchun kartoshka kovlagich g‘ildiragining diametri kamida 40 cm bo‘lishi lozimligi aniqlangan.

Аннотация. В статье представлены результаты экспериментальных исследований, посвящённых изучению влияния диаметра колеса картофелекопателя на базе мотоблока на его рабочие показатели. По результатам проведённых исследований установлено, что для обеспечения минимального повреждения и потерь картофеля диаметр колеса картофелекопателя должен составлять не менее 40 см.

Annotation. The article presents the results of experimental research dedicated to studying the influence of the wheel diameter of a motoblock-based potato digger on its performance indicators. According to the results of the conducted research, it was established that to ensure minimal damage and loss of potatoes, the diameter of the potato digger wheel must be at least 40 cm..

Kalit so‘zlar: motoblok, kartoshka kovlagich, tayanch g‘ildirak, kartoshka, kartoshkaning yo‘qotilishi, shikastlanishi, tuproqning elaklanish darajasi, tortishga qarshilik.

Ключевые слова: мотоблок, картофелекопатель, опорное колесо, картофель, потеря, повреждение картофеля, степень просеивания почвы, тяговое сопротивление.

Keywords: motor-block, potato digger, support wheel, potato, loss, potato damage, degree of soil sifting, traction resistance.

Kirish. Jahonda kartoshka yetishtirish va uni yig‘ishtirish texnologiyalari va texnika vositalarini ishlab chiqish va qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. “Dunyo miqyosida har yili 16,0 mln. gektar maydonda kartoshka yetishtirilishini” [1] hisobga olsak, ish unumi yuqori hamda kartoshka hosilini bir o‘tishda kam energiya sarflab to‘liq yig‘ishtirib oladigan mashinalar va qurilmalarni yaratish hamda ishlab chiqarish, shu jumladan, kichik konturli dalalarda yetishtirilgan kartoshka hosilini yig‘ishtirishda qo‘llaniladigan mashinalarni ish sifati va unumini oshirish hamda energiyaresurstejamkorlikni ta’minlash yo‘nalishida takomillashtirish, muhim vazifalardan hisoblanmoqda.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, respublikamiz aholisining oziq ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi [2, 3, 4].

Ushbu maqolada motoblok bilan agregatlanadigan kartoshka kovlagich g‘ildiragi diametrini uning ish ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Tadqiqot usullari. Motoblok bazasidagi kartoshka kovlagichning laboratoriya-dala qurilmasi (keyingi o‘rinlarda qurilma) Urganch davlat universiteti hamda Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti bazasida hamkorlikda tayyorlandi. 12 ot kuchiga ega bo‘lgan motoblok va u bilan agregatlangan taklif etilayotgan qurilmaning umumiy ko‘rinishi 1-rasmda tasvirlangan [5-10]. Qurilma rama 1, uning osish qurilmasi 2, ramaga o‘rnatilgan qazish ishchi organi 3, elevator 4, elevatorga chivig‘iga kiygizilgan quvur 5, qurilma yon ramalariga o‘rnatilgan barabanlar 6, g‘ildirak 7, katta va kichik diametrli shesternalar 8 va 9 dan tashkil topgan (2-rasm).



1-расм. Мотоблок билан агрегатланган қурилманинг умумий кўриниши

Tadqiqot natijalari. Kartoshka kovlagich g‘ildiragi diametrini uning sifat va energetik ko‘rsatkichlarga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tajribalarda g‘ildirak diametrini 5 cm interval bilan 30 cm dan 45 cm gacha oraliqda o‘zgartirildi. Bunda qazish chuqurligi 16 cm, lemexning eni 40 cm, uzunligi 27 cm va uning gorizontga nisbatan o‘rnatilish burchagi 25°, quvur diametri 4 cm etib qabul qilindi. Tajribalarda agregatning ish tezligi 0,4 m/s va 0,8 m/s etib belgilandi.

Tajribalarda g‘ildirak diametrini kartoshkaning yo‘qotilishi, shikastlanishi va tuproqning elaklanish darajasiga hamda kartoshka kovlagichning tortishga qarshiligiga ta’siri o‘rganildi.


Tajribalarda olingan natijalar 3-6-rasmlarda keltirilgan.

3-rasmdagi grafikdan ko‘rinib turibdiki, kartoshka kovlagich g‘ildiragi diametri ortishi bilan kartoshkaning yo‘qotilish darajasi agregatning har ikkala harakat tezligida ham avval kamaygan, keyin esa ortgan, ya’ni, kartoshka kovlagich g‘ildiragi diametri 30 cm dan 40 cm gacha ortganda agregatning har ikkala harakat tezligida kartoshkaning yo‘qotilish darajasi mos ravishda 2,67 foizdan 2,21 foizgacha va 2,84 foizdan 2,37 foizgacha kamaygan, g‘ildirak diametri 40 cm dan 45 cm gacha ortganda esa mos ravishda 2,21 foizdan 2,34 foizgacha va 2,37 foizdan 2,49 foizgacha ortgan. Buni qurilma g‘ildiragining diametri ortishi bilan elevator harakatini jadallashishi va buning natijasida tuproq-kartoshka massasini elaklanishi ortishi bilan izohlash mumkin.






2-расм. Қурилманинг умумий кўриниши



1 – *V*=0,4 m/s; 2 – *V*=0,8 m/s

3-rasm. Kartoshkaning yo‘qotilish darajasi ($P_{yo'q}$) ni g‘ildirak diametri ($D_{g'}$) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi

Kartoshkaning shikastlanish darajasi kartoshka kovlagich g‘ildiragi diametri ortishi bilan har ikkala harakat tezligida ham ortib borgan (4-rasmga qaralsin). Masalan, agregat harakat tezligi 0,4 m/s bo‘lganda g‘ildirakning diametri 30 cm dan 45 cm gacha ortganda, kartoshkaning shikastlanishi 2,27 foizdan 2,92 foizgacha, tezlik 0,8 m/s bo‘lganda esa 2,42 foizdan 3,12 foizgacha ortgan. Kartoshka kovlagich g‘ildiragi diametri ortishi bilan elevatorning harakatlanish tezligi ortishi kuzatiladi. Natijada elevatorga kiygizilgan quvurlarning barabanlarga ta’sirlashishi




1 – *V*=0,4 m/s; 2 – *V*=0,8 m/s

4-rasm. Kartoshkaning shikastlanish darajasi (P_{sh}) ni g‘ildirak diametri ($D_{g'}$) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi

jadallashadi va kartoshkalarning elevator ustki qismida sakrashi, quvur yordamida qisman siqilishi kuzatiladi va shikastlanadi.

Kartoshkaning eng ko‘p shikastlanish darajasi g‘ildirak diametri 45 cm bo‘lganda 3,12 foizni tashkil etdi.

5-rasmda keltirilgan grafik bog‘liqliklardan ko‘rinib turibdiki, tuproqning elaklanish darajasi kartoshka kovlagich g‘ildiragi diametrining ortishi bilan ortib borgan, ya’ni, g‘ildirak diametri 30 cm dan 45 cm gacha ortganda tuproqning elaklanish darajasi, ya’ni o‘lchami 25 mm dan kichik bo‘lgan tuproq fraksiyalari miqdori agregat harakat tezligi 0,4 va 0,8 m/s bo‘lganda mos ravishda 72 foizdan 87 foizgacha va 77 foizdan 94 foizgacha ortgan.




1 – V=0,4 m/s; 2 – V=0,8 m/s

5-rasm. Tuproqning elaklanish darajasi (E_d) ni g‘ildirak diametri ($D_{g‘}$) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi

Kartoshka kovlagichning tortishga qarshiligi g‘ildirak diametri ortishi bilan har ikkala harakat tezligida ham ortib borgan. Agregatning 0,4 m/s harakat tezligida g‘ildirak diametri 30 cm dan 45 cm gacha kattalashtirilganda kartoshka kovlagichning tortishga qarshiligi 0,38 kN dan 0,63 kN gacha, agregatning harakat tezligi 0,8 m/s bo‘lganda esa 0,43 kN dan 0,68 kN gacha ortgan (6-rasmga qaralsin).

3-6-rasmlarda keltirilgan grafik bog‘liqliklarni quyidagi empirik formulalar orqali ifodalash mumkin [11, 12]:



1 – V=0,4 m/s; 2 – V=0,8 m/s

6-rasm. Kartoshka kovlagichning tortishga qarshiligi (R) ni g‘ildirak diametri ($D_{g‘}$) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi

a) agregatning harakat tezligi 0,4 m/s bo‘lgan hol uchun

$$P_y = 8{,}9175 - 0{,}3309\, D_{g‘} + 0{,}0041\, D_{g‘}^2,\ \%; \quad (R^2=0{,}9804) \quad (1)$$

$$P_{sh} = 2{,}895 - 0{,}0626\, D_{g‘} + 0{,}0014\, D_{g‘}^2,\ \%; \quad (R^2=0{,}9958) \quad (2)$$

$$E_d = 69{,}0 - 0{,}5\, D_{g‘} - 0{,}002\, D_{g‘}^2,\ \%; \quad (R^2=1) \quad (3)$$

$$R = 0{,}43 - 0{,}0136\, D_{g‘} + 0{,}0004\, D_{g‘}^2,\ \text{kN}; \quad (R^2=0{,}9977) \quad (4)$$

b) agregatning harakat tezligi 0,8 m/s bo‘lgan hol uchun

$$P_y = 9{,}505 - 0{,}354\, D_{g‘} + 0{,}0044\, D_{g‘}^2,\ \%; \quad (R^2=0{,}9959) \quad (5)$$

$$P_{sh} = 3{,}97 - 0{,}1178\, D_{g‘} + 0{,}0022\, D_{g‘}^2,\ \%; \quad (R^2=0{,}9989) \quad (6)$$

$$E_d = 69{,}0 - 0{,}34\, D_{g‘} - 0{,}0029\, D_{g‘}^2,\ \%; \quad (R^2=0{,}9953) \quad (7)$$

$$R = 0{,}21 + 0{,}0014\, D_{g‘} + 0{,}0002\, D_{g‘}^2,\ \text{kN}; \quad (R^2=0{,}9976) \quad (8)$$

bunda $D_{g'}$ – g‘ildirak diametri, cm ($D_{g'}$ = 30-45 cm oralig‘ida).

Xulosa. Olingan natijalar bo‘yicha xulosa qilib aytganda, kartoshkaning kam shikastlanishi va yo‘qotilishini ta’minlash uchun kartoshka kovlagich g‘ildiragining diametri kamida 40 cm bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. https://www.fao.org

2.Norchaev D.R., Norchaev R., Egamov J. Prospects for improving technical tools for growing and harvesting potatoes // German International Journal of Modern Science. Germany, 2022. –№47. –P.45-49.

2. Norchaev D.R., Norchaev J.R., Khusainov B.S. Results of experimental studies of a potato groomer motoblock // German International Journal of Modern Science. Germany, 2022. –№47. –P.42-45.

3. Норчаев Д.Р., Норчаев Ж.Р., Хусаинов Б.С. Технические средства для возделывания овощей и картофеля к мотоблоку и результаты экспериментальных исследований // Евразийский Союз Ученых. Международный научно-исследовательский журнал. Санкт–Петербург, 2022. –№47.–С.10-14.

4. Norchaev D.R., G‘aybullaev B.Sh.., Xusainov B.S. Motoblok bazasida ishlaydigan kartoshka kovlagich elevatori parametrlarini asoslash // Yuqori samarali qishloq xo‘jalik mashinalarini yaratish va texnika vositalaridan foydalanish darajasini oshirishning innovatsion yechimlari xalqaro ilmiy-texnik konferensiyasi. Gulbahor. – B. 266-269.

5. Norchayev D.R, Norchayev J.R, Khusainov B. Choice of motoblok and potato harvester for harvesting potatoes on small land plots science and innovation // Modern concepts collection of scientific articles based on the results of the work of the International Scientific Forum. Volume 2. Moscow, 2020. P.133-137.

6. Norchayev D.R, Norchayev J.R, Mustapakulov S.U. Technical equipment for cultivation of vegetables and potatoes to the motoblok // Modern concepts collection of scientific articles based on the results of the work of the International Scientific Forum. Volume 1. Moscow, 2020. P.120-125.

7. Norchayev D.R, Norchayev R. Root digger // Eurasian union of scientists. - Moscow, 2019., № 4-3(61). P.55-57.

8. Norchaev D. R.,Chorshanbiev R. Kh. Rationale for the parameters of the elevator guide of the carrot digger // Science And Innovative Development. – Tashkent, -№2 (2022). P.126-132.

9. Norchaev D. R., Norchaev R. The efficiency of the application of the new root digger when harvesting root crops // Science And Innovative Development. – Tashkent, -№3 (2019). P.92-97.

10. Norchaev D. R., Mustapaeva N. Potato planter to motoblok // The 6th International scientific and practical conference “Fundamental and applied research in the modern world”(January 20-22, 2021) BoScience Publisher, Boston, USA. 2021. 992 p.

11. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – Москва: Колос, 1978. – 335 с.

12. Адлер Ю.П., Маркова Е.В., Грановский Ю.В. Планирование эксперимента при поиске оптималных условий. Москва:Наука, 1976. – 280 с.

УДК 621.01:631.588

ДИНАМИЧЕСКАЯ ЗАДАЧА ОДНОСТОРОННЕГО КЛИНА

М.К.Худжаев
Ташкентский государственный транспортный университет

Б.Б.Хасанов
Алмалыкский государственный технический институт

Ш.А.Иброхимов
Ташкентский государственный транспортный университет

Annotatsiya. Maqolada dinamikaning asosiy qonuni asosida ponasimon ishchi organi uchun koordinata o‘qlaridagi harakat tenglamalari proyeksiyalari tuzilgan va bir tomonli ponaning dinamik reaktsiya kuchlari aniqlangan. Doimiy kuch ta‘siridagi bir tomonli ponaning dinamik masalasida reaksiya kuchining analitik ifodasi ponasimon ishchi organining harakat qonuni davriy qonun bilan berilgan hol uchun olingan. Tenglamalar soni noma’lumlar sonidan kam bo‘lgan masala Kulon formulasidan foydalangan holda Dalamber prinsipidan farq qiluvchi boshqacha yo‘l bilan yechilgan. Dalamber prinsipiga ko‘ra differentsial tenglama statikaning oddiy muvozanat tenglamasiga keltiriladi. Ushbu maqolada bunga boshqa yondashuv orqali erishildi, ya’ni differensial tenglama o‘rniga pona harakati qonuni ifodasidan ikki marta olingan hosila ifodasi qo‘yilib oddiy tenglikka kelindi.

Аннотация. В статье на основе основного закона динамики составлены уравнения движения клинообразного рабочего органа в проекциях по координатным осям и определены динамические силы реакции связи одногранного клина. Получено аналитическое выражение силы реакции динамической задачи одностороннего клина под действием постоянной силы для частного случая, когда закон движения клинообразного рабочего органа задано в виде периодическим законом. Задача с незамкнутой системой решена с помощью закона трения Кулона и решена другим методом, отличающего от принципа Даламбера. По принципу Даламбера дифференциальное уравнение приводят к обычному уравнению равновесия статики. В данной работе к этому пришли другим путем, т.е. вместо дифференциального уравнения получили обычное равенство, продифференцировав закон движения клина.

Abstract. In the article, based on the fundamental law of dynamics, the projections of the equations of motion on the coordinate axes for a wedge-shaped working body are constructed and the dynamic reaction forces of a one-sided wedge are determined. In the dynamic problem of a one-sided wedge under the influence of a constant force, the analytical expression of the reaction force is obtained for the case when the law of motion of the wedge-shaped working body is given by a periodic law. The problem, in which the number of equations is less than the number of unknowns, is solved in a different way, different from the D'Alembert principle, using the Coulomb formula. According to the D'Alembert principle, the differential equation is reduced to the simple equilibrium equation of statics. In this article, this was achieved by a different approach, that is, instead of the differential equation, the expression of the derivative obtained twice from the expression of the law of motion of the wedge is substituted, and a simple equation is obtained.

Kalit so‘zlar: muvozanat tenglamasi, pona dinamikasi, Dalamber prinsipi, reaksiya kuchi.

Ключевые слова: уравнение равновесия, динамика клина, принцип Даламбера, сила реакции.

Keywords: equilibrium equation, wedge dynamics, D'Alembert principle, reaction force.

Введение:

Решение динамических задач клинообразного рабочего органа является одной из фундаментальных задач теоретической механики и их результаты можно применит и для других механизмов такого вида, применяемых в сельском хозяйстве, в машиностроении, в трубопроводном транспорте, в железнодорожном транспорте и в других отраслях.

На основе модели трехмерного движения исследована динамика клиновых демпферов и определены силы реакции связи клина, когда к клину приложены силы с разными направлениями [1]. С помощью разработанного способа очень просто можно определить силу сухого трения. Авторы пришли к выводу, что угол направления клина сильно влияет на динамику клина, а также боковые и вертикальные вибрации образуются за счет боковой силы.

Изучена динамика фрикционных клиновых тормозов с использованием современных методов моделирования, результаты которых служат для улучшения движения вагонов [2]. Создана программа для трехмерных задач определения силы действия и противодействия рабочих органов в грунт для изучения закономерностей изменения динамических параметров клина [3].

Задавая геометрические и механические характеристики стали и грунта, исследована динамика взаимодействия стального клина с почвой применением программного продукта Ansys [4]. Использована математическая модель, составленная в соответствии с принципом Даламбера [5, 6] и приведены графики и таблицы, откуда можно оценить деформации клина, напряженные состояния, силы и напряжения, возникающие на поверхности клина, скорость распространения и ускорения деформации, а также их минимальные и максимальные значения.

Проведенный краткий обзор показывает, что динамические задачи клинообразных рабочих органов решены с использованием современных методов моделирования и в основном составлением программных продуктов.

В настоящей статье методами теоретической механики определены аналитические выражения динамических сил реакции связи клина.

Материал.

Пусть клин треугольной формы под действием силы $\bar{P}$ проникает в грунт. Нужно определить динамические силы реакции связи клина (грунта).

Для решения задачи установим систему координат и отмечаем все активные и пассивные силы, приложенные в клин. Образующиеся на поверхностях клина нормальные силы реакции $\bar{N}_1$ и $\bar{N}_2$ направлены перпендикулярно поверхностям, а силы трения поверхностей $\bar{F}_1$ и $\bar{F}_2$ а также сила инерции $\bar{\Phi}^u$ направлены в сторону противоположного направления силы $\bar{P}$ вдоль поверхности (рис.1).




Рис.2. Действующие силы

Основной закон динамики для клина с массой m можно представить в виде:

$$m\bar{a} = \bar{F} + \bar{R}.$$

Если учтем, что сила инерции, которая выражается как $\bar{\Phi}^u = -m\ddot{x}$, то это уравнение принимает вид:

$$\bar{\Phi}^u + \bar{F}^a + \bar{R} = 0,$$

где $\bar{\Phi}^u$ - сила инерции, которая выражается как $\bar{\Phi}^u = -m\ddot{x}$, $\bar{F}^a$ - активная сила, которая выражается силой $\bar{P}$, $\bar{R}$ - пассивная сила, которая состоит из сил трения $\bar{F}_1$, $\bar{F}_2$ и сил нормальной реакции $\bar{N}_1$, $\bar{N}_2$.

Результат

Для решения поставленной задачи составим уравнение движения клина в проекциях по осям x и y

$$\Phi^u + P - fN_2\cos\alpha - N_2\sin\alpha - fN_1 = 0. \quad (1)$$

$$N_1 - N_2\cos\alpha + fN_2\sin\alpha = 0. \quad (2)$$

Из второго уравнения получим взаимосвязь N_1 с N_2:

$$N_1 = N_2(\cos\alpha - f\sin\alpha). \quad (3)$$

Учитывая формулу закона трения Кулона $F_{ish} = fN$ для силы трения (где f - коэффициент трения), из уравнения (1) получим:

$$P - fN_2\cos\alpha - N_2\sin\alpha - fN_2\cos\alpha - f^2N_2\sin\alpha - m\ddot{x} = 0, \quad (4)$$

Отсюда определяем силы нормальной реакции N_1 и N_2 рабочих плоскостей имеют следующий вид:

$$N_2 = \frac{m\ddot{x} - P}{f^2\sin\alpha - 2f\cos\alpha - \sin\alpha}, \quad N_1 = N_2(\cos\alpha - f\sin\alpha). \quad (5)$$

В частном случае если закон движения клинообразного рабочего органа задано в виде $x = \sin kt$, то, дважды продифференцировав это выражение получим:

$$\ddot{x} = -k^2\sin kt. \quad (6)$$

Подставив это в (5), получим выражения динамических нормальных сил реакции N_1 и N_2:

$$N_1 = \frac{-(mk^2\sin kt + P)(\cos\alpha - f\sin\alpha)}{f^2\sin\alpha - 2f\cos\alpha - \sin\alpha}, \quad (7)$$

$$N_1 = \frac{-(mk^2\sin kt + P)(\cos\alpha - f\sin\alpha)}{f^2\sin\alpha - 2f\cos\alpha - \sin\alpha}. \quad (8)$$

Таким образом, получено решение динамической задачи одностороннего клина.

Заключение. Решена динамическая задача одностороннего клина, находящегося под действием постоянной силы и совершающего движение периодическим законом.

На основе принципа освобождения от связей и формулу основного закона динамики определены аналитические выражения динамической силы реакции одностороннего клина.

Задача решена другим методом, отличающего от принципа Даламбера. По принципу Даламбера поменяют дифференциал силами инерции объекта, и дифференциальное уравнение приводят к обычному уравнению равновесия статики. В данной работе к этому пришли другим путем, т.е. избавились от решения

дифференциального уравнения и вместо их получили обычное равенство, продифференцировав закон движения клина.

ЛИТЕРАТУРА

1. Fujie Xia. Modelling of Wedge Dampers in the Presence of Two-Dimensional Dry Friction. Vehicle System Dynamics, International Journal of Vehicle Mexanics and Mobility. Volume 37, Issue 1, 2002, Pages 565-578, Published online: 04 Jan 2016. https://doi.org/10.1080/00423114.2002.11666263

2. Qing Wu, Cusumano J.P., Yan Quan Sun. A review of dynamics modelling of friction wedge suspensions. Vehicle System Dynamics. Vol.52, Is.11. 2014. Pp.1389-1415. https://doi.org/10.1080/00423114.2014.943249

3. Kornel Tamás, Istvan J**.** Jóri, A**.**M**.** Mouazen. Modelling soil sweep interaction with discrete element method. Elsevier. Soil and Tillage Research, Volume 134, November 2013, Pages 223-231. https://doi.org/10.1016/j.still.2013.09.001

4. Khudjaev M., Rizaev A., Pirnazarov G., Khojikulov Sh. Modeling the dynamics of a wedge pair under the action of a constant force. Transportation Rezearch Prosediya. ELSEVIER. Volume 63. June. 2022. pp.458-464. https://doi.org/1016/j.trpro.2022.06.035

5. Тарг С.М. Краткий курс теоретической механики. – М.: Высшая школа, 2002, 416с.

6. Xudjayev M.K. “Nazariy mexanika” (o‘zbek va rus tillarida). O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Yosh avlod matbaa. 216 bet. 2022

УДК 699.841:621.876

МЕТОДИКА НАТУРНЫХ ИСПЫТАНИЙ ЛИФТОВЫХ УСТАНОВОК НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ВОЗДЕЙСТВИЯ

Назарова Матлюба Кудратовна
Ташкентский архитектурно-строительный университет, г. Ташкент, Узбекистан

Олимхон Хондамир Осимхон угли.
Ташкентский архитектурно-строительный университет, г. Ташкент, Узбекистан
E-mail: khondamir.olimkhon@gmail.com

Аннотация. В статье представлена авторская методика проведения натурных сейсмических испытаний лифтовых установок, смонтированных в многоэтажных зданиях сейсмоопасных районов. Описаны схемы размещения измерительной аппаратуры, порядок проведения испытаний и алгоритмы машинной обработки полученных данных. Приведены результаты испытаний на зданиях различных конструктивных серий г. Ташкента. Показано, что динамическое поведение лифтовых систем существенно зависит от конструктивного решения здания, этажности и схемы крепления направляющих.

Abstract. The article presents the author's methodology for conducting full-scale seismic testing of elevator installations mounted in multi-storey buildings located in seismically hazardous regions. The paper describes the layouts of measuring equipment, the testing procedure, and algorithms for machine processing of the obtained data. The results of tests carried out on buildings of various structural series in Tashkent are presented. It is shown that the dynamic behavior of elevator systems significantly depends on the structural design of the building, its number of storeys, and the guide rail fastening scheme.

Annotatsiya. Maqolada seysmik xavfli hududlarda joylashgan ko‘p qavatli binolarga o‘rnatilgan lift qurilmalarining tabiiy sharoitdagi seysmik sinovlarini o‘tkazish bo‘yicha mualliflik metodikasi taqdim etilgan. O‘lchov apparaturalarini joylashtirish sxemalari, sinovlarni o‘tkazish tartibi hamda olingan ma’lumotlarni mashinali qayta ishlash algoritmlari bayon qilingan. Toshkent shahridagi turli konstruktiv seriyalarga mansub binolarda o‘tkazilgan sinov natijalari keltirilgan. Lift tizimlarining dinamik xatti-harakati bino konstruktiv yechimi, qavatlar soni va yo‘naltiruvchi relslarni mahkamlash sxemasiga sezilarli darajada bog‘liq ekani ko‘rsatilgan.

Ключевые слова: сейсмостойкость лифтов, натурные испытания, динамические характеристики, лифтовая установка, направляющие, сейсмические воздействия, колебания.

Keywords: seismic resistance of elevators, full-scale testing, dynamic characteristics, elevator installation, guide rails, seismic actions, vibrations.

Kalit so‘zlar: liftlarning seysmik bardoshliligi, tabiiy sharoitdagi sinovlar, dinamik tavsiflar, lift qurilmasi, yo‘naltiruvchi relslar, seysmik ta’sirlar, tebranishlar.

1. Введение

Лифтовые установки относятся к категории ответственного инженерного оборудования зданий, обеспечивающего вертикальные транспортные связи и безопасность людей. В сейсмоопасных районах, где сосредоточена значительная часть городской застройки Центральной Азии, данное оборудование подвергается интенсивным динамическим нагрузкам. Опыт реальных землетрясений показывает, что лифты нередко выходят из строя даже при сохранности несущих конструкций здания.

Несмотря на широкое распространение лифтовых установок в высотном строительстве сейсмических районов, систематические натурные исследования их динамического поведения в отечественной практике до недавнего времени фактически

отсутствовали. Настоящая статья посвящена описанию разработанной методики натурных испытаний и анализу полученных результатов на объектах г. Ташкента.

2. Объекты испытаний

Экспериментальные исследования проводились на зданиях повышенной этажности г. Ташкента пяти основных конструктивных серий: крупнопанельные здания серии ТДСК-71/А77 высотой 8–9 этажей; каркасные здания с монолитным железобетонным каркасом, жёсткой арматурой и широким шагом колонн; каркасные здания с монолитным каркасом, гибкой арматурой, узким шагом колонн; то же с широким шагом колонн; каркасные здания с монолитным каркасом и полужёсткой арматурой.

Помимо типовых зданий, испытания проводились на ряде уникальных объектов высотой до 25 этажей: гостиница «Узбекистан» (17 этажей), административное здание (19 этажей), гостиница «Москва» (25 этажей). Во всех зданиях эксплуатировались типовые лифтовые установки серий ЛП-320, ЛТГ-500, ЛГП-500, предназначенные для несейсмических районов.

3. Методика проведения испытаний

Разработанная методика включает два взаимодополняющих вида динамических испытаний: испытания от мгновенного сброса горизонтальной нагрузки и вибрационные испытания. Первый вид позволяет определить собственные частоты и формы колебаний системы в условиях свободного затухания, второй — получить частотные характеристики в широкой полосе при вынужденных колебаниях.

Измерительная аппаратура располагалась по специально разработанным схемам, обеспечивающим одновременную регистрацию колебаний шахты лифта, кабины, противовеса и несущих конструкций здания. Применялись сейсмические акселерометры с полосой частот 0,5–50 Гц, многоканальные аналого-цифровые регистраторы, а также контактные и бесконтактные датчики перемещений.

Схема размещения датчиков предусматривала установку приборов на каждые 3–4 этажа по высоте шахты, а также в машинном помещении и на уровне приямка. Для кабины и противовеса датчики крепились к раме в точках, соответствующих расположению башмаков направляющих — зонах наибольших контактных усилий.

4. Обработка экспериментальных данных

Машинная обработка записей колебаний производилась по алгоритму, включающему три последовательных этапа. На первом этапе определялся уровень колебаний: среднеквадратичное значение ускорений и перемещений по каждому каналу измерений. На втором этапе вычислялся видимый период колебаний методом последовательного счёта перехода через нулевой уровень.

На третьем этапе строились спектры Фурье и спектры реакций. Спектры Фурье позволяли выявить доминирующие частоты в записи колебаний, а спектры реакций — оценить максимальные динамические нагрузки, воспринимаемые элементами лифтовых систем при сейсмических воздействиях заданной интенсивности.

5. Результаты испытаний

Результаты испытаний показали существенное различие в динамических характеристиках лифтовых установок в зависимости от конструктивного типа здания. Собственные частоты колебаний лифтовых систем в крупнопанельных зданиях составили 1,8–2,4 Гц, в монолитных каркасных — 1,2–1,9 Гц. При этом частоты собственных колебаний самих зданий повышенной этажности находились в диапазоне 0,8–1,3 Гц, что при определённых условиях создаёт предпосылки для резонансного взаимодействия.

Наибольшие амплитуды ускорений зафиксированы в верхней части шахты и в зоне машинного помещения. Уровень ускорений на противовесе превышал аналогичный показатель для кабины в 1,3–1,8 раза, что объясняется меньшей массой противовеса и особенностями его крепления к направляющим. Данное обстоятельство подтверждается

характером повреждений, зафиксированных при натурных обследованиях после землетрясений.

6. Выводы

Разработанная методика натурных испытаний лифтовых установок на динамические воздействия обеспечивает получение достоверных данных о собственных частотах, формах колебаний и уровнях сейсмических нагрузок на основные элементы лифтовых систем. Результаты испытаний на объектах г. Ташкента свидетельствуют о том, что типовые лифтовые установки, применяемые в сейсмических районах, работают в неблагоприятных динамических условиях, создающих риск преждевременного выхода из строя.

Полученные данные используются для разработки расчётных моделей и практических рекомендаций по повышению сейсмостойкости лифтовых установок на стадиях проектирования, монтажа и эксплуатации.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Назарова М.К. Натурные исследования сейсмостойкости лифтов: Монография. — Ташкент: ТАСУ, 2026. — 106 с.

2. Поляков С.В. Сейсмостойкие конструкции зданий. — М.: Высшая школа, 1983. — 304 с.

3. Айзенберг Я.М. Сооружения с выключающимися связями для сейсмостойкого строительства. — М.: Стройиздат, 1976. — 229 с.

4. Fukuda T. Seismic design of elevator systems // Journal of Structural Engineering (Japan). — 1981. — Vol. 27. — P. 112–128.

5. Treiman L. Seismic performance of elevators in the 1971 San Fernando earthquake // Earthquake Engineering Research Institute. — 1975. — P. 45–62.

6. Рашидов Т.Р. Динамика сложных пространственных систем трубопроводов при сейсмических воздействиях. — Ташкент: Фан, 1973. — 180 с.

UO‘T: 37.02:51

“SONLI QATORLARNING YAQINLASHISH ALOMATLARI” MAVZUSINI YORITISHDA B.BLUM TAKSONOMIYASIGA ASOSLANGAN TEXNOLOGIK XARITA VA FOYDALANILGAN INTERFAOL USULLAR HAQIDA

Xusainova Xusnidaxon Saloyidinovna
Namangan davlat texnika universiteti “Oliy matematika “
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Sonli qatorlarni yaqinlashishini tekshirish muammosi murakkab va ko‘p tarmoqli bo‘lgani uchun bu texnologiyadan ma’ruza, amaliy va mustaqil ishlarni o‘tkazishda foydalanish mumkin. Bu yerda ma’ruza uchun bir elementdan foydalanish mumkin bo‘ladi. Bunda muammon hal qilayotgan yechimining afzalligi va kamchiligi haqida fikr yuritilib, xulosa qilinadi.

Аннотация. Поскольку проблема сходимости числовых рядов сложна и междисциплинарна, данная технология может быть использована в лекционных, практических и самостоятельных работах. Здесь можно будет использовать для лекции один элемент. При этом обсуждаются преимущества и недостатки решения проблемы и делается вывод.

Abstract. Since the problem of convergence of numerical series is complex and multidisciplinary, this technology can be used in lectures, practical and independent work. Here it will be possible to use one element for the lecture. In this case, the advantages and disadvantages of the solution to the problem are discussed and concluded

Kalit so‘zlar: texnologik xarita, interfaol,tahlil, sintez,rezyume, differensiyalash, integral, tasniflash

Ключевые слова: технологическая карта, интерактив, анализ; синтез; Резюме, дифференциация, интеграция, классификация

Key words: technological map, interactive, Analysis; synthesis; Summary, differentiation, integration, classification

Turli o‘qitish usullarida o‘tiladigan dars loyihalashtirib olinadi. Buning uchun darsni texnologik xaritasini xar bir mavzu, xar bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojlaridan kelib chiqgan holda tuziladi. [2]

Xozirgi kunda o‘quv jarayonini loyihalashtirish bo‘yicha ta’lim muassasalarida bir necha shakl, mazmundagi teznologik xaritalar mavjud. B.Blum taksonomiyasiga asosan texnologik xarita qanday tuzilgan bo‘lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo‘lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to‘liq o‘z ifodasini topgan bo‘lishi kerak.[1]

Texnologik xaritani tuzishdan avval Bendjamin Blum tamonidan ilmiy asosda 1956-yilda e’lon qilingan taksonomiyasini bilishimiz kerak ekan. Unga asosan xar bir insonni miyasini quyidagi faoliyatlari mavjudligi isbotlangan, ya’ni maqsadlarni belgilash piramidasi quyidagi 6 bosqichdan ioborat:

– Bilish;
– Tushunish;
– Qo‘llash;
– Tahlil;
– Sintez;
– Baholas

№	**O‘quv maqsadlari**	**Fe’llar**

1.	Bilish	Qaytarib aytish Qayd qilish Nomlamoq atamoq Yozmoq	ifodalash farqlash tanib olish aytib berish
2.	. Tushunish	Dalillar keltirmoq Aniqlamoq, Belgilamoq Tushuntirmoq	o‘tkazish, aylantirish surat bilan ko‘rsatish izoh berish
3.	Qo‘llash	Tatbiq etish Namoyish etish Foydalanish, o‘rganish.	aniqlash bajarish amalga oshirish
4.	Analiz	Ajratib ko‘rsatish Differensiyalash Tasniflash Taklif etish	qismlarga ajratish taqsimlash tekshirish guruhlash
5.	Sintez	Umumlashtirish Rejalashtirish Ishlab chiqish	tizimga solish tuzish Loyihalash
6	Baholash	Tashxis etish Isbotlash Asoslash	baholash, tekshirish taqqoslash, solishtirish, qiyoslash

Bunda Bilish – ta’riflar, teoremalar, tushunchalarni yoddan aytish, faktlarni sanab o‘tishni bildiradi. Tushunish – ta’rif, teorema, tushuncha va faktlarga izoh berishni bildiradi. Qo‘llashda – masala, misolni ishlaydi. Taxlil – ikki yoki undan ko‘p obyektlarni, teorema, tushunchalarni taqqoslash olishni, farqlay olishni bildiradi. Sintez da ishlagan masalani qayta ko‘rib chiqib xulosa qilinadi. Baholash – tushunchalar, formulalarni ahamiyati va muximligini biladi. Adekvatligigi ajrata oladi.

Yuqorida keltirilgan ketma-ketlikda o‘quv jarayonini tashkil qilish yuqori natija berishini B.Blum o‘z tajribalarida isbotlagan. Shunga asosan erishilgan o‘quv natijalarni ishlab chiqish qoidalari ishlab chiqilgan. Bu qoidalar quyidagicha:

1) Erishiladigan o‘quv natijalari B.Blum taksonomiyalari asosida shakllantirilishi lozim;

2) Erishiladigan o‘quv natijalari aniq tushunchalardan foydalangan holda ishlab chiqilishi kerak;

3) Erishiladigan o‘quv natijalari ishonch, kafolat shaklida yozilishi kerak.

Endi yuqoridagilarga asosan mavzu uchun texnologik xaritani tuzamiz.

Xaritadagi qisqa yozuvlarni aniqlashtirish maqsadida ilovalar berilishi mumkin.

Mavzu	Musbat hadli sonli qatorlarning yaqinlashish alomatlari (2 soat)
Maqsad va vazifalar	Musbat sonli qatorlarning umumiy hadidan foydalangan holda ularni yaqinlashish yoki uzoqlashish haqidagi tasdiqlarni innovatsion pedagogik yondashuv asosida o‘rgatish. Talabalarda mavzuning mazmuni bo‘yicha kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish
O‘quv materiallari mazmuni	Birinchi blokda talabalarni oldingi darslarda o‘tilgan mavzular bo‘yicha bilimlari faollashtiriladi.
O‘quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi	Shakl: Interfaol mashg‘ulot: blokli ma’ruza, yakka tartibda, guruh, jamoa bo‘lib ishlash

	Metod: BBB, Aqliy hujum, Rezume, og‘zaki bayon, tushuntirish, savol
	Vosita: Savol javoblarning tarqatma materiallari, doska, mel
	Usul:Jadval
	Nazorat: Kuzatish, nazorat savollari, nazorat testlari, Keyslar
	Baholash: Rag‘batlantirish, ball tizimi
Kutiladigan natijalar	O‘qituvchi Koshi, Dalamber, Integral, Raabe alomatlariga oid teoremalarni tushuntiradi. Limitlar yordamida qatorni yaqinlashishga tekshirishni o‘rgatadi 2. Koshi, Dalamber va Integral alomatlariga oid teoremalari isbotini o‘rgatadi. Qator yaqinlashishini alomatlar yordamida tekshirish tushuntiriladi Misollarga mos alomatlarni tanlashni o‘rgatadi. Barcha alomatlardagi umumiy xususiyatni tushuntiradi Alomatlardagi formulalarning, hal qilingan masalalarning muximligi tushuntiradi va oldindan mo‘ljallab qo‘yilgan misollar asosida o‘quv maqsadlarga erishganlik darajasini bnlgilaydi. Tinglovchi (Talaba): 1. Koshi, Dalamber, Integral va Raabe alomatlariga oid teoremalarni va formulalarni yoddan aytib beradi 2. Koshi, Dalamber va Integral alomatlariga oid teoremalarni isbotini o‘rganadi. 3. Alomatlar yordamida misollar ishlay oladi 4. Aralash misollarni qaysi alomat bilan ishlashni ajrata oladi. 5. Barcha alomatlar uchun umumiy xususiyat uning umumiy hadiga bog‘liqligini tushunadi 6. Formulalar va ular yordamida ishlangan misol va masalalarni amaliy, nazariy ahamiyatini anglab yetadi va mezonlar asosida bahosini oladi..

Endi texnologik xaritadagi o‘quv jarayonini tashkil etish texnologiyasidagi nazorat ishlarini va mustaqil faoliyatni tashkil etish masalalariga to‘xtalib o‘tamiz.

Xozirdagi nazorat jarayonidagi har bir natija bo‘yicha xar bir talabani tekshirish va baholash shart hisoblanadi. Shuning uchun kam vaqt talab qilinadigan nazorat shakllari tanlash kerak bo‘ladi. Nazorat shakllar

– og‘zaki;
– yozma;
– amaliy topshiriqlar;
– testlar

bo‘lishi mumkin.

Ushbu mavzuda biz JN, ON va YAN savollari keyslar va testlar yordamida nazorat qilishni tanladik .

Shuni aytib o‘tish kerakki, modul bo‘yicha o‘qitish texnologiyasida nazorat shakllari axborot texnologiyalari asosida internetni qo‘llagan holda amalga oshiriladi, biz xozirda shu metodga qarab intilmoqdamiz.

Testlarni tuzishning 5 xil turi mavjud bo‘lib, biz ushbu mavzu uchun ochiq tipdagi testlardan bitta to‘g‘ri javobli testlarni tanladik.

Mustaqil ishlar auditoriyada va auditoriyadan tashqarida o‘tkazilishi mumkin. Biz auditoriyadan tashqarida o‘tkaziladigan mustaqil ishlar sifatida «Keys”larni oldik. Keys-stadi bu – vaziyatni tahlil etishdir. Biz taklif qilgan keyslarda talaba tomonidan muammoning nazariy yechimini topish talab qilinadi. Ularda ketma-ketlikning limitiga oid mavjud bilimlar esga olinadi va aktivlashtiriladi. Musbat sonli qatorlarni yaqinlashish alomatlar o‘zaro taqqoslanadi. Bu keyslar ta’limiy bo‘lib, bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgan, hajmiga ko‘ra o‘rtacha, vazifalarni qo‘yilishiga qarab savollarga asoslangan. Ba’zi keyslarda yechimlarni ko‘rsatamiz, ba’zilarida esa ko‘rsatma berilgan xolos.

Dars davomida foydalanilagan interfaol usullar haqidagi ma’lumotlarni keltiramiz.

1. BBB (Bilardim, Bilib oldim, Bilmoqchiman) texnologiyasi Bu usuldan darsni boshlab tarqatma materiallar yordamida talabalarni baholash (tasodifiy ravishda chiqarish usulidan foydalanib) jarayonida Bilaman degan bo‘limini to‘ldiramiz. Bunda umumiy savol quyidagicha qo‘yiladi:

Sonli qatorlarni yaqinlashishini qanday tekshira olasiz.

1) Ta’rif yordamida
2) Sonli qatorning yaqinlashish alomatlari bilan
3) Maxsus misollardan foydalanib, masalan geometrik qatorlarga o‘xshaganlari
4) Zaruriy va yetarli shartlar yordamida
5) Taqqoslash alomati bilan
6) Ekvivalentlik munosabatlari yordamida

Endi Bilmoqchiman ni ishlatamiz va ma’ruzaga o‘tamiz. Ikkinchi blokda Koshi alomatini aytib, misollar ko‘rib, so‘ng uni isbotlaymiz. Endi Bilib oldim ni qo‘llaymiz. Bilmoqchimanni qo‘llab Dalamberdan so‘ng Integral alomatlarini o‘rgatib xar blok oxirida Bilib oldim ni to‘ldiramiz.

2. Aqliy hujum texnologiyasi

BBB ni ma’ruzada qo‘llash davomida Bilmoqchimanni to‘ldirish uchun talabalarni fikrlarini eshitish ularni faollashtirishga olib keladi. Bunda Aqliy xujumdan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Unga asosan talabalar muammoga ta’luqli xar turli g‘oyalarni taklif qilishlari mumkin. Ular xatto g‘ayri oddiy bo‘lishi ham mumkin. Aqliy hujum ishtirokchilarini va ularning takliflarini tanqid qilish mumkin emas. Ularni yorqin fikrlari va fantaziyalariga ko‘proq ustunlik berish kerak.

Ma’ruzaning har bir blokini tugagandan so‘ng Aqliy hujumni ishlatish talabalarni ijodiy fikrlash diapozonini oshib borishiga imkon yaratadi. Aqliy hujumda

– Axborot, g‘oya, fikrlarni to‘plash;
– Yangi g‘oyalarni generatsiya qilish, ajratib olish;
– Yangi g‘oyalarni umumlashtirish, qiyin masalalarni jamoaviy hal etish rejalashtiriladi.

3. Rezume texnologiyasi

Sonli qatorlarni yaqinlashishini tekshirish muammosi murakkab va ko‘p tarmoqli bo‘lgani uchun bu texnologiyadan ma’ruza, amaliy va mustaqil ishlarni o‘tkazishda foydalanish mumkin. Bu yerda ma’ruza uchun bir elementdan foydalanish mumkin bo‘ladi. Bunda muammon hal qilayotgan yechimining afzalligi va kamchiligi haqida fikr yuritilib, xulosa qilinadi. Natija yaxshi bo‘lishi uchun talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, tarqatma materiallar yordamida ish boshlanadi. Materialdagi savollar hal qilingandan so‘ng guruh vakillari taqdimot qiladi, o‘qituvchi berilgan fikr va xulosalarga izoh berib baholaydi va mashg‘ulotni tugatadi. Ko‘rib turganimizdek bu mashg‘ulot vaqt talab qiladi. Talabalar savollarga javob topadi, o‘zaro fikr almashishadi va xar bir kichik guruh 5-10 minutdan taqdimot qiladi, o‘qituvchi fikr bildiradi va h.k.

Ma’ruzada bu jarayonni ma’ruza yakunida doskada o‘qituvchi barcha talabalarni jalb qilgan holda “savol-javob” Usulini qo‘llab texnologiyani ishlatish mumkin. Bunda umumiy sxema quyidagicha bo‘ladi:

Alomat: ...
Afzalligi: ...
Kamchiligi: ...
Xulosa: ...

Ma’ruza shunday yakunlansa talabalarda o‘zlarida ham yangi alomat topish istagi paydo bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. A. H. Khamrayev - "Sonli qatorlar va ularning analizlari"
2. M. B. Turg'unov - "Matematika: Sonli qatorlar va ketma-ketliklar"
3. T. N. Mirzaev - "Sonli qatorlarga kirish"
4. Q. Z. Abdullayev - "Matematik tahlil: Sonli qatorlar nazariyasi"
5. S. A. Yuldashev - "Sonli ketma-ketliklar va qatorlar"

UO‘T: 004.8:004.912:004.738.5

QWEN 2.5-7B LOKAL KATTA TIL MODELI ASOSIDA NUTQNI TANISH VA JAVOB GENERATSIYASINI AMALGA OSHIRUVCHI VEB-INTERFEYSNI ISHLAB CHIQISH

O‘rmonov Musoxon Nodirjon o‘g‘li
Namangan davlat texnika universiteti
o‘qituvchi
ormonovovmusoxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qwen 2.5-7B lokal katta til modeli asosida nutqni matnga aylantirish (Speech-to-Text), matndan javob generatsiyasi (LLM inference) va matndan ovozga aylantirish (Text-to-Speech) jarayonlarini birlashtirgan veb-interfeys ishlab chiqish arxitekturasi ko‘rib chiqiladi. Tizim real vaqt rejimida foydalanuvchi ovozini qabul qiladi, uni matnga aylantiradi va lokal AI model orqali javob generatsiya qilib interfeysda chiqaradi.

Аннотация. В данной статье рассматривается архитектура разработки веб-интерфейса, объединяющего процессы преобразования речи в текст (Speech-to-Text), генерации ответов с использованием локальной большой языковой модели Qwen 2.5-7B (LLM inference) и преобразования текста в речь (Text-to-Speech). Система в режиме реального времени принимает голос пользователя, преобразует его в текст, затем генерирует ответ с помощью локальной AI-модели и отображает его в интерфейсе.

Abstract. This article examines the architecture of a web interface that integrates Speech-to-Text conversion, response generation using the local large language model Qwen 2.5-7B (LLM inference), and Text-to-Speech synthesis. The system receives user voice input in real time, converts it into text, generates a response using a local AI model, and displays it in the interface.

Kalit so‘zlar. Qwen 2.5-7B, katta til modeli, sun’iy intellekt, nutqni tanish, Speech-to-Text, Text-to-Speech, tabiiy tilni qayta ishlash, NLP, veb-interfeys, lokal AI tizim, real vaqt tizimi, LLM inference, chatbot, ovozli yordamchi.

Ключевые. Qwen 2.5-7B, большая языковая модель, искусственный интеллект, распознавание речи, преобразование речи в текст, преобразование текста в речь, обработка естественного языка, NLP, веб-интерфейс, локальная AI система, система реального времени, LLM inference, чат-бот, голосовой помощник.

Keywords. Qwen 2.5-7B, large language model, artificial intelligence, speech recognition, Speech-to-Text, Text-to-Speech, natural language processing, NLP, web interface, local AI system, real-time system, LLM inference, chatbot, voice assistant.

Kirish

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt tizimlari tezkor rivojlanib, inson va kompyuter o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tubdan o‘zgartirib yubordi. Ayniqsa katta til modellari asosida ishlovchi tizimlar matnni tushunish va tabiiy javob generatsiya qilishda yuqori samaradorlikka erishdi. Shu bilan birga, nutqni matnga aylantirish texnologiyalari ham real vaqt tizimlarida keng qo‘llanila boshladi.

Ushbu maqolada lokal kompyuterda ishlaydigan, internetga bog‘liq bo‘lmagan holda nutqni tanish va javob generatsiyasini amalga oshiruvchi veb-interfeys ko‘rib chiqiladi. Tizimning asosiy intellektual yadrosi sifatida Qwen 2.5-7B modeli tanlangan bo‘lib, u foydalanuvchi so‘rovlarini qayta ishlash va javob berish vazifasini bajaradi.

Loyihaning asosiy maqsadi oddiy foydalanuvchi uchun qulay, tezkor va lokal ishlovchi sun’iy intellekt yordamchisini yaratishdir. Ushbu tizim ayniqsa ingliz tilida yuqori aniqlikda ishlaydi, o‘zbek tilida esa nutqni tanish va tushunish darajasi nisbatan pastroq ekanligi kuzatiladi.

Tadqiqot muammosi

Hozirgi mavjud sun’iy intellekt asosidagi ko‘plab tizimlar internetga bog‘liq holda ishlaydi yoki yuqori hisoblash resurslarini talab qiladi. Bundan tashqari, nutqni tanish tizimlari har doim ham barcha tillar uchun bir xil aniqlikda ishlamaydi.

Amaliyotda uchraydigan asosiy muammo shundan iboratki, o‘zbek tilini qo‘llab-quvvatlash darajasi yetarli emas, natijada foydalanuvchi nutqi noto‘g‘ri transkripsiya qilinishi mumkin. Shu bilan birga, ko‘plab chatbot tizimlari lokal muhitda ishlash imkoniyatiga ega emas.

Shu sababli ushbu tadqiqotda lokal ishlovchi, nutqni matnga aylantiradigan va Qwen modeli orqali javob generatsiya qiladigan veb-interfeys yaratish vazifasi qo‘yildi.


Tizimning umumiy arxitekturasi

Tizim bir nechta asosiy qatlamlardan tashkil topgan. Birinchi qatlam foydalanuvchi bilan o‘zaro aloqani ta’minlovchi veb-interfeys hisoblanadi. Ushbu interfeys orqali foydalanuvchi ovozli yoki matnli so‘rov yuboradi.

Ikkinchi qatlam server qismi bo‘lib, u kiruvchi audio ma’lumotni qabul qiladi va uni qayta ishlash uchun nutqni tanish moduliga uzatadi. Bu bosqichda audio signal matn ko‘rinishiga keltiriladi.

Uchinchi qatlam katta til modeli hisoblanadi. Bu yerda Qwen 2.5-7B foydalanuvchi so‘rovini tahlil qiladi va unga mos javob generatsiya qiladi.

To‘rtinchi qatlam esa natijani foydalanuvchiga qaytarish va uni veb-interfeysda ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Ushbu jarayon real vaqtga yaqin tezlikda amalga oshiriladi.



1-rasm. Tizimning umumiy arxitekturasi.

Nutqni tanish jarayoni

Nutqni tanish jarayoni tizimning eng muhim qismlaridan biridir. Foydalanuvchi mikrofon orqali gapirganda audio signal serverga yuboriladi. Server ushbu signalni maxsus model orqali tahlil qiladi va uni matnga aylantiradi.

Amaliy sinovlarda ingliz tilidagi nutqni tanish aniqligi yuqori bo‘lib, model matnni to‘g‘ri transkripsiya qila oladi. Biroq o‘zbek tilidagi nutqda ba’zi tovushlar noto‘g‘ri aniqlanishi yoki so‘zlar buzib yozilishi holatlari kuzatiladi. Buning asosiy sababi o‘zbek tiliga oid o‘quv ma’lumotlarining kamligi bilan bog‘liqdir.


Matnga aylantirilgan so‘rov katta til modeliga uzatiladi. Qwen 2.5-7B ushbu matnni kontekst sifatida qabul qiladi va unga mos javob ishlab chiqadi.

Modelning asosiy afzalligi shundaki, u kontekstni saqlab qoladi va mantiqan bog‘langan javoblar yaratadi. Ingliz tilida model juda yaxshi natija ko‘rsatadi, chunki uning trening ma’lumotlari asosan ingliz tiliga asoslangan. O‘zbek tilida esa ba’zi hollarda javoblar sodda yoki umumiy ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.


Veb-interfeys foydalanuvchi uchun juda sodda va qulay qilib ishlab chiqilgan. Unda mikrofon orqali ovoz yozish imkoniyati mavjud bo‘lib, foydalanuvchi gapirgandan so‘ng tizim avtomatik tarzda uni qayta ishlaydi.

Shuningdek, matn kiritish maydoni ham mavjud bo‘lib, foydalanuvchi ovoz o‘rniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri matn yuborishi mumkin. Natija esa ekranda real vaqtga yaqin tezlikda ko‘rsatiladi.

Interfeysning asosiy maqsadi murakkab funksiyalarni foydalanuvchidan yashirish va tizimni maksimal darajada soddalashtirishdir.



2-rasm. Web interfeys ko‘rinishi



3-rasm. Web interfeys ko‘rinishi (AI javobi)

Tizim sinovlari davomida bir nechta muhim natijalar qayd etildi. Eng asosiy natija shundan iboratki, lokal ishlovchi model internetga ulanmasdan ham barqaror ishlash imkoniyatiga ega.

Ingliz tilidagi so‘rovlar uchun javob sifati yuqori bo‘lib, kontekstni tushunish darajasi ham yaxshi ekanligi aniqlangan. O‘zbek tilida esa nutqni tanish va javob generatsiyasi qisman cheklangan bo‘lsa ham, tizim ishlashga yaroqli holatda ekanligi tasdiqlangan.

Shuningdek, tizim real vaqtga yaqin javob berish tezligiga ega bo‘lib, bu foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydi.

Bunday tizimlar ta’lim sohasida, ayniqsa interaktiv o‘qitish jarayonlarida katta ahamiyatga ega. O‘quvchilar ovoz orqali savol berib, darhol javob olishlari mumkin.

Bundan tashqari, smart uy tizimlarida, sanoat avtomatlashtirish jarayonlarida va offline chatbot sifatida ham qo‘llash mumkin. Lokal ishlash imkoniyati esa xavfsizlik va mustaqillikni oshiradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot natijasida lokal kompyuterda ishlovchi sun’iy intellekt asosidagi veb-interfeys ishlab chiqildi. Tizimning asosiy yadrosi sifatida Qwen 2.5-7B modeli ishlatildi.

Tizim nutqni tanish va javob generatsiya qilish vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradi. Ingliz tilida yuqori aniqlik kuzatilgan bo‘lsa, o‘zbek tilida qo‘shimcha optimallashtirish zarur ekanligi aniqlandi.

Kelajakda ushbu tizimni rivojlantirish uchun o‘zbek tiliga oid ma’lumotlar bazasini kengaytirish va nutqni tanish modullarini yanada takomillashtirish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach, Pearson Education, 4-nashr, 2020, 1152 bet
2. Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. Deep Learning, MIT Press, 2016, 775 bet
3. Jurafsky D., Martin J. H. Speech and Language Processing, Prentice Hall / Stanford, 3rd draft, 2023, 1024 bet
4. Murphy K. P. Machine Learning: A Probabilistic Perspective, MIT Press, 2012, 1104 bet
5. Bishop C. M. Pattern Recognition and Machine Learning, Springer, 2006, 738 bet
6. Haykin S. Neural Networks and Learning Machines, Pearson, 3rd edition, 2009, 936 bet
7. Rao D., McMahan B. Natural Language Processing with Transformers, O’Reilly Media, 2022, 500 bet
8. Eisenstein J. Introduction to Natural Language Processing, MIT Press, 2019, 384 bet
9. Aggarwal C. C. Neural Networks and Deep Learning, Springer, 2018, 520 bet
10. Goodfellow I. et al. Generative Deep Learning, O’Reilly Media, 2019, 320 bet

QURILISH VA TA'LIM

Ilmiy jurnalida maqolalarni chop etish uchun rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar:

1. Namangan davlat texnika universitetining "Qurilish va ta'lim ilmiy jurnali" («Научный журнал Строительство и образование», «Scientific journal Construction and education») da respublikamizning oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish markazlari va xorijda bajarilgan ilmiy ahamiyatga molik ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari nashr etiladi. Ilmiy jurnal bir yilda olti martagacha chop etilib, unda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar e'lon qilinadi:

- *Qurilish;*
- *Arxitektura va shaharsozlik;*
- *Pedagogika va ta'lim muammolari;*
- *Muhandislik va sanoat chizmacxiligi;*
-*Atrof-muhit muhofazasi va ekologiya*
- *Qisqa xabarlar.*

2. Tahririyatga taqdim etilayotgan maqola qo'lyozmasi bo'yicha muallif faoliyat olib borayotgan muassasa rahbariyati tomonidan imzolangan yo'llanma xati, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi ekspert xulosasi va maqola mualliflarining tarkibida fan doktori bo'lmagan taqdirda tegishli fan yo'nalishi bo'yicha fan doktorining rasmiy taqrizi bo'lishi shart. Maqolalar o'zbek, rus yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin. **Maqolaning nomi, qisqacha annotatsiyasi (8-10 qator) va kalit so'zlar (10-15 ta) o'zbek, rus va ingliz tillari**da beriladi.

3. Maqola matni "MS Word" dasturida "Times New Roman" shriftida 12 pt o'lchamda, hajmi 1 intervalda 6-10 bet bo'lishi kerak. Varoq o'lchami 210x297 mm (A4-format), matn chegara o'lchamlari yuqoridan va pastdan– 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o'ngdan – 1,5 sm bo'lishi lozim.

4. Maqolani rasmiylashtirish qoidalari quyidagilardan iborat: Maqola boshining chap tomonida UO'T (UO'T), keyingi qatorda maqolaning nomi o'zbek, rus va ingliz tillarida (bosh harflarda, o'rtada, qalin yozuvda (jirniy)), undan keyingi qatorda mualliflar to'g'risidagi ma'lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, elektron manzili hamda telefon raqamlari) o'zbek, rus va ingliz tillarida kichik bosma harflarda yoziladi, qisqacha annotatsiyasi (8-10 qator) va kalit so'zlar (10-15 ta) o'zbek, rus va ingliz tillarida beriladi.

Maqolaning annotatsiyasi (abstract) ya'ni maqolaning qisqacha mazmunida maqsadi (objective), usullari (methods), natijalari (results) va xulosa (conclusion) qismlari qisqacha yoritilib o'tilishi shart. Chunki maqola annotatsiyasini o'qib chiqib, olim maqolani to'liq o'qishga qaror qilishi uchun maqolaning asosiy tushunchalarini yetarlicha tushunishi kerak. Annotatsiyadan so'ng mavzuga tegishli terminlar, kalit so'zlar (keywords) ham keltirilishi kerak;

Maqolaning asosiy qismida Kirish (Introduction), usullari (methods), natijalar (results), muhokamalar (discussion), va xulosalar (conclusion) bo'limlari aniq ma'lumotlar asosida yoritib berilishi kerak.

Bir qatordan so'ng maqola matni yoziladi. Maqoladagi formulalar Word dagi Vstavkani ichida Obyekt bor shunga kirib Microsoft Equation 3.0 da yoziladi. Rasm (grafik, sxema va chizma)lar standart qoidalarga rioya qilingan holda 10x10 sm dan katta bo'lmagan o'lchamda tayyorlanishi, ularni soni 5 tagacha, qisqa xabarlarda esa 2 tagacha ruxsat etiladi. Nomlari esa rasmdan so'ng qalin yozuvda o'rtada yoziladi **(1-rasm. Nomi).**

Jadvallarning nomlari javalning yuqori qismida qalin yozuvda o'rtada yoziladi (**1-jadval. Nomi).** Adabiyotlarga havolalar maqola ichida [1] ko'rinishda bo'lib, foydalanilgan adabiyotlar maqola oxirida havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxatida quyidagilar ko'rsatiladi: jurnalda chop etilgan maqolalar va ma'ruza tezislari uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Maqolaning nomi // Jurnalning nomi. – Nashr joyi va yili. – Soni yoki qismi. – Betlari. (1. Turayev N.S., Saidov R. Anor tuplarini yarim ochadigan mashinaning

lemexlari va tuproq yo‘naltirgichlarining qamrash kengliklarini asoslash // Namangan davlat texnika universiteti ilmiy-texnika jurnali. – Namangan, 2019. – №1. – B. 77-81.); monografiyalar uchun - Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Nomi. – Nashriyot nomi, joyi va nashr yili. – Betlar soni. (1. Imomkulov Q.B., Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarini asoslash. – Fan va texnologiyalara: Toshkent, 2021. – 180 b.); avtoreferatlar uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni. (1. Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarin asoslash: t.f.f.d., (PhD). diss. avtoref. – Namangan, 2022. – 44 b.); dissertatsiya uchun - Muallifning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi: ishning darajasi. – Nashr joyi va yili. – Betlar soni. (1. Turayev N.S. Anor tuplarini yarim ochadigan mashina parametrlarin asoslash: t.f.f.d., (PhD). diss. – Namangan, 2022. – 120 b.); kitoblar uchun - mualliflarning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi, nashriyot nomi, nashr yili, qismi va betlari (1. Jo‘rayev A., Mavlyaviyev M., Abdukarimov T., Miraxmedov D. Mexanizm va mashinalar nazariyasi. – T.: G‘.G‘ulom, 2004. – 592 b.); patent uchun – Patent olingan davlat va uning raqami / e’lon qilingan yil. Mualliflarning familiyasi, ismi sharifi. Mavzusi // Patent raqami, nashr yili. – Byulleten raqami. (1. Patent O‘zR FAP 00848 / 31.10.2013. Djurayev A., To‘xtaqo‘ziyev A., Muhamedov J., Mamaxanov A. Zanjirli uzatma // O‘zbekiston Respublikasi patenti, 2013. – Byul. №10.); internet ma’lumotlari uchun - URL, ma’lumotga murojaat etilgan sana. (1. ZiyoNet ta’lim portali. http://library.ziyonet.uz/ru. 20.07.2022.)

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi, ushbu taqriz natijalari asosida maqolani chop etish masalasi bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi.

6. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi.

7. Keltirilgan talablar yakuniy emas, ba’zi maqolalar borasida tahririyat qo‘shimcha ma’lumot so‘rash huquqini saqlaydi. Tahririyat manzili:

160103. Namangan shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 12-uy.
Telefon/faks: (0-369) 234-15-23,
Bizning sayt: qurilishtalim.uz
Ye-mail: qurilishta’lim@edu.uz
Aloqa uchun

+998939254606

NamDTU kichik bosmaxonasida 2026-yil 30-iyunda chop etildi.
Manzil: Namangan vil. Namangan shahar I. Karimov ko‘cha, 12-uy